«FUNDAMENTAL, AMALIY TIBBIYOT VA FARMATSIYA YUTUQLARI»
80-XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI TO‘PLAMI

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ
80-Й МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО- ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
«ДОСТИЖЕНИЯ ФУНДАМЕНТАЛЬНОЙ, ПРИКЛАДНОЙ МЕДИЦИНЫ И ФАРМАЦИИ»

ПОД РЕДАКЦИЕЙ
ПРОФЕССОРА РИЗАЕВА Ж.А.

PROFESSOR
RIZAYEV J.A. TAHRIRI OSTIDA

Самарканд 2026
Samarqand 2026

Ilmiy nashr
«Fundamental, amaliy tibbiyot va farmatsiya yutuqlari» 80-xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi
Tezislar to‘plami / Professor Rizayev J.A. tahriri ostida.
Samarqand, 2026. – 1565 b.
Mualliflar tomonidan taqdim etilgan materiallar asosida tayyorlandi.
Tahririyat chop etilgan ma’lumotlar mazmuni uchun javobgar emas.

Научное издание
80-я Международная научно-практическая конференция «Достижения фундаментальной, прикладной медицины и фармации»
Сборник тезисов: / Под редакцией: профессора Ризаева Ж.А.
Самарканд, 2026. – 1565 с.
Подготовлено на основе материалов, присланных авторами.
Редакция не несет ответственности за содержание опубликованной информации.

Tahrir hay’ati:
Bosh muharrir
Rizayev Jasur Alimdjanovich
Bosh muharrir o‘rinbosari
Kubaev Aziz Saydalimovich
Mas’ul kotib
Shaxanova Shaxnoza Shavkatovna
Tahrir hay’ati a’zolari
Yarmuxamedova Nargiza Anvarovna
Tangirov Eldor Sayfullayevich
Aminov Zafar Zoyirovich
Kim Antonina Amurovna
Maxmudova Aziza Nugmanovna
Shavazi Nargiz Nuraliyevna
Ochilov Ulug‘bek Usmanovich
Pulatov Ulug‘bek Sunatovich
Xazratov Alisher Isamiddinovich
Kamalov Anvar Ibragimovich
Mansurov Jaloliddin Shamsiddinovich
Payzulayeva Umida Furkatovna

Редакционная коллегия:
Главный редактор
Ризаев Жасур Алимджанович
Заместитель главного редактора
Кубаев Азиз Сайдалимович
Ответственный секретарь
Шаханова Шахноза Шавкатовна
Редакционная коллегия
Ярмухамедова Наргиза Анваровна
Тангиров Эльдор Сайфуллаевич
Аминов Зафар Зойирович
Ким Антонина Амуровна
Махмудова Азиза Нугмановна
Шавази Наргиз Нуралиевна
Очилов Улугбек Усманович
Пулатов Улугбек Сунатович
Хазратов Алишер Исамиддинович
Камалов Анвар Ибрагимович
Мансуров Джалолидин Шамсидинович
Пайзулаева Умида Фуркатовна

©
«Fundamental, amaliy tibbiyot va farmatsiya yutuqlari» nomli 80-xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami qimmatli ilmiy-tadqiqot manbasi hisoblanadi. Ushbu to‘plamda tibbiyot va farmatsiyaning turli yo‘nalishlariga bag‘ishlangan dolzarb ilmiy ishlar jamlangan. Dunyoning turli mamlakatlaridan ishtirok etgan mualliflar fundamental va amaliy tibbiyot sohasidagi ilmiy hamda amaliy yutuqlarini, jumladan, kasalliklarni diagnostika qilish, davolash va profilaktikasining yangi usullarini taqdim etganlar. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarga asoslangan mazkur to‘plam tibbiyot va farmatsiya sohasidagi taraqqiyotning o‘ziga xos sharhini taqdim etib, sog‘liqni saqlash tizimi va ilmiy hamjamiyat rivojiga xizmat qiladi.
©
Сборник материалов 80-й Международной научно-практической конференции «Достижения фундаментальной, прикладной медицины и фармации» представляет собой ценный исследовательский ресурс. В этом сборнике собраны актуальные работы, посвященные различным аспектам медицины и фармации. Авторы из разных стран мира представляют свои научные и практические достижения в области фундаментальной и прикладной медицины, включая новые методы диагностики, лечения и профилактики различных заболеваний. Основываясь на современных исследованиях, сборник предлагает уникальный обзор прогресса в области медицины и фармации, обогащая наше понимание и способствуя развитию здравоохранения и научного сообщества.

© Samarqand davlat tibbiyot universiteti, 2026
© Samarqand davlat tibbiyot universiteti bosmaxonasi, 2026

© Самаркандский государственный медицинский университет, 2026
© Типография Самаркандского государственного медицинского университета, 2026

СОДЕРЖАНИЕ

1.	**JAMOAT SALOMATLIGI, SOG'LIQNI SAQLASHNI BOSHQARISH ОБЩЕСТВЕНОЕ ЗДРАВООХРАНЕНИЕ, МЕНЕДЖМЕНТ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ PUBLIC HEALTH, HEALTH MANAGEMENT**	**5**
2.	**GUMANITAR FANLAR. PEDAGOGIKA. TIBBIYOTDA CHET TILLARI ПЕДАГОГИКА. ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ В МЕДИЦИНЕ HUMANITIES. PEDAGOGY. FOREIGN LANGUAGES IN MEDICINE**	**66**
3.	**FUNDAMENTAL TIBBIYOT (ANATOMIYA, OXTA, PATOLOGIK ANATOMIYA, SUD TIBBIYOTI). ФУНДАМЕНТАЛЬНАЯ МЕДИЦИНА (АНАТОМИЯ, ОХТА, ПАТАЛОГИЧЕСКАЯ АНАТОМИЯ, СУДЕБНАЯ МЕДИЦИНА). FUNDAMENTAL MEDICINE (ANATOMY, CLINICAL ANATOMY, PATALOGICAL ANATOMY, FORENSIC MEDICINE).**	**181**
4.	**MORFOLOGIYA (FIZIOLOGIYA, PATOLOGIK FIZIOLOGIYA, GISTOLOGIYA, EMBRIOLOGIYA VA SITOLOGIYA) МОРФОЛОГИЯ (ФИЗИОЛОГИЯ, ПАТОЛОГИЧЕСКАЯ ФИЗИОЛОГИЯ, ГИСТОЛОГИЯ, ЭМБРИОЛОГИЯ И ЦИТОЛОГИЯ) MORPHOLOGY (PHYSIOLOGY, PATHOLOGICAL PHYSIOLOGY, HISTOLOGY, EMBRYOLOGY AND CYTOLOGY)**	**247**
5.	**YO'NALISHLAR BO'YICHA FARMASIYA ФАРМАЦИЯ ПО НАПРАВЛЕНИЯМ PHARMACY BY DIRECTIONS**	**382**
6.	**KIMYO FANLARI ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ CHEMICAL SCIENCES**	**574**
7.	**PEDIATRIYA ПЕДИАТРИЯ PEDIATRICS**	**669**
8.	**ICHKI KASALLIKLAR ВНУТРЕННИЕ БОЛЕЗНИ INTERNAL DISEASES**	**761**
9.	**FTIZIATRIYA VA PULMONOLOGIYA ФТИЗИАТРИЯ И ПУЛЬМОНОЛОГИЯ PHTHISIOLOGY AND PULMONOLOGY**	**818**
10.	**KARDIOLOGIYA КАРДИОЛОГИЯ CARDIOLOGY**	**861**
11.	**NEVROLOGIYA, NEYROXIRURGIYA, PSIXIATRIYA НЕВРОЛОГИЯ, НЕЙРОХИРУРГИЯ, ПСИХИАТРИЯ NEUROLOGY, NEUROSURGERY, PSYCHIATRY**	**918**
12.	**TRAVMATOLOGIYA, SPORT TIBBIYOTI, TIBBIY REABILITATSIYA ТРАВМАТОЛОГИЯ, СПОРТИВНАЯ МЕДИЦИНА, МЕДИЦИНСКАЯ РЕАБИЛИТАЦИЯ TRAUMATOLOGY, SPORTS MEDICINE, MEDICAL REHABILITATION**	**976**
13.	**YUQUMLI KASALLIKLAR, MIKROBIOLOGIYA, VIRUSOLOGIYA VA IMMUNOLOGIYA, EPIDEMIOLOGIYA. ИНФЕКЦИОННЫЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ, МИКРОБИОЛОГИЯ, ВИРУСОЛОГИЯ И ИММУНОЛОГИЯ, ЭПИДЕМИОЛОГИЯ . INFECTIOUS DISEASES, MICROBIOLOGY, VIROLOGY AND IMMUNOLOGY, EPIDEMIOLOGY.**	**1002**
14.	**AKUSHERLIK VA GINEKOLOGIYA АКУШЕРСТВО И ГИНЕКОЛОГИЯ**	**1041**

	OBSTETRICS AND GYNECOLOGY	
15.	**XIRURGIYA, UROLOGIYA** **ХИРУРГИЯ, УРОЛОГИЯ** **SURGERY, UROLOGY**	**1045**
16.	**BOLALAR XIRURGIYASI** **ДЕТСКАЯ ХИРУРГИЯ** **PEDIATRIC SURGERY**	**1113**
17.	**ANESTEZIOLOGIYA, REANIMATSIYA VA SHOSHILINCH TIBBIYOT** **АНЕСТЕЗИОЛОГИЯ, РЕАНИМАЦИЯ И НЕОТЛОЖНАЯ МЕДИЦИНА** **ANESTHESIOLOGY, RESUSCITATION AND EMERGENCY MEDICINE**	**1138**
18.	**ONKOLOGIYA, RADIOLOGIYA, GEMATOLOGIYA** **ОНКОЛОГИЯ, РАДИОЛОГИЯ, ГЕМАТОЛОГИЯ.** **ONCOLOGY, RADIOLOGY, HEMATOLOGY.**	**1171**
19.	**STOMATOLOGIYA YO‘NALISHLARI BO‘YICHA, YUZ-JAG‘ JARROHLIGI** **СТОМАТОЛОГИЯ ПО НАПРАВЛЕНИЯМ, ЧЕЛЮСТНО-ЛИЦЕВАЯ ХИРУРГИЯ** **DENTISTRY BY SPECIALTIES, MAXILLOFACIAL SURGERY**	**1197**
20.	**OTORINOLARINGOLOGIYA, OFTALMOLOGIYA** **ОТОРИНОЛАРИНГОЛОГИЯ, ОФТАЛЬМОЛОГИЯ** **OTORHINOLARYNGOLOGY, OPHTHALMOLOGY**	**1274**
21.	**KLINIK LABORATORIYA, GIGIYENA** **КЛИНИЧЕСКАЯ ЛАБОРАТОРИЯ, ГИГИЕНА** **CLINICAL LABORATORY, HYGIENE**	**1323**
22.	**ENDOKRINOLOGIYA, DERMATOLOGIYA VA TIBBIY KOSMETOLOGIYA** **ЭНДОКРИНОЛОГИЯ, ДЕРМАТОЛОГИЯ И МЕДИЦИНСКАЯ КОСМЕТОЛОГИЯ** **ENDOCRINOLOGY, DERMATOLOGY AND MEDICAL COSMETOLOGY**	**1368**
23.	**BIOLOGIYA, BIOFIZIKA** **БИОЛОГИЯ, БИОФИЗИКА** **BIOLOGY, BIOPHYSICS**	**1408**
24.	**IXTISOSLASHTIRILGAN TEXNIKUMLARNI INTERFAOL RIVOJLANTIRISH ASOSLARI** **ОСНОВЫ ИНТЕРАКТИВНОГО РАЗВИТИЯ СПЕЦИАЛИЗИРОВАННЫХ ТЕХНИКУМОВ** **FUNDAMENTALS OF INTERACTIVE DEVELOPMENT OF SPECIALIZED TECHNICUMS**	**1455**

FARMATSIYA YO‘NALISHLARI BO‘YICHA
ФАРМАЦИЯ ПО НАПРАВЛЕНИЯМ
PHARMACY BY SPECIALIZATIONS

FARMATSEVTIKA SANOATIDA ANTIBAKTERIAL PREPARATLARNING SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdimuminov Dilshod Eshmirza o‘g‘li
Biotexnologiya, injenering va farmatsiya fakulteti 407 guruh talabasi,
Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy rahbar: assistent O‘.I. Ibragimov

Ishning maqsadi: Antibakterial preparatlarning farmatsevtika amaliyotidagi samaradorligini baholash, ularning klinik qo‘llanilish natijalarini tahlil qilish hamda zamonaviy antibakterial vositalarning afzalliklarini aniqlashdan iborat.

Tekshirish usullari: Tadqiqotda jami 48 nafar bemor ishtirok etdi va ular tasodifiy tanlash asosida ikki guruhga ajratildi. Asosiy guruh (n=24) bemorlariga standart davolash bilan bir qatorda zamonaviy antibakterial preparatlar qo‘llanildi. Nazorat guruhi (n=24) bemorlariga esa faqat an’anaviy davolash usullari qo‘llanildi. Davolash muddati 10 kunni tashkil etdi. Tadqiqot davomida bemorlarning klinik holati, infeksiya belgilarining kamayish darajasi, tana harorati, laborator ko‘rsatkichlari va umumiy sog‘ayish tezligi muntazam ravishda kuzatildi. Olingan natijalar taqqoslama va statistik tahlil usullari yordamida baholandi.

Tekshirish natijalari: Tadqiqot natijalariga ko‘ra, asosiy guruhda davolash samaradorligi yuqori ekanligi aniqlandi. Ushbu guruhda infeksiya belgilari erta bosqichda kamayib, tana harorati tezroq normallashgani va umumiy klinik holatning yaxshilanishi kuzatildi. Nazorat guruhida esa sog‘ayish jarayoni nisbatan sekin kechib, ayrim bemorlarda infeksiya belgilari uzoqroq saqlanib qoldi. Asosiy guruhda qo‘llanilgan zamonaviy antibakterial preparatlar mikroorganizmlarga nisbatan yuqori ta’sir ko‘rsatgani, ularning biologik mavjudligi va to‘qimalarga yetib borish darajasi yuqori ekanligi bilan izohlanadi. Shuningdek, asosiy guruhda asoratlar rivojlanish ehtimoli pastroq bo‘lgani qayd etildi.

Xulosa Antibakterial preparatlar farmatsevtika amaliyotida muhim o‘rin egallaydi. Zamonaviy antibakterial vositalarni ratsional va maqsadga muvofiq qo‘llash kasalliklarning tez va samarali davolanishini ta’minlaydi, sog‘ayish muddatini qisqartiradi hamda asoratlar rivojlanishini kamaytiradi. Shu bilan birga, antibakterial preparatlarni tanlashda mikroorganizmlarning sezuvchanligi, bemorning individual xususiyatlari va dori vositasining farmakokinetik ko‘rsatkichlarini inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv davolash samaradorligini oshirish va antibiotiklarga chidamlilik rivojlanishini oldini olishga xizmat qiladi.

BOLALARDA OSHQOZON-ICHAK TRAKTI BUZILISHLARINING ASOSIY ETIOLOGIK SABABLARI

Abduxalilov Sanjar [1], Murodova Malika [2]
Biotexnologiya, injenering va farmatsiya fakulteti 504 guruh talabalari
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy rahbar: assistant Sh.B. Abdukodirova

Ishning maqsadi: Bolalarda oshqozon-ichak trakti buzilishlarining asosiy etiologik omillarini zamonaviy ilmiy adabiyotlar asosida tizimli tahlil qilishdir. Ko‘plab ilmiy tadqiqotlar o’tkazilgan bo‘lishiga qaramay, bolalarda oshqozon-ichak trakti kasalliklari pediatriya amaliyotida eng ko‘p uchraydigan patologik holatlardan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida gastroenterit va diareya 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar orasidagi kasallanish va shifoxonaga yotqizilishning asosiy sabablaridan biri bo‘lib qolmoqda. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarda oshqozon-ichak trakti buzilishlari nafaqat infeksion, balki funksional, immunologik va psixosomatik omillar bilan ham bog‘liq.

Tekshirish usullari Virusli infeksiyalar: So‘nggi bir necha yillarda olib borilgan tadqiqotlar bolalarda o‘tkir gastroenteritning asosiy sabablaridan biri rotavirus va norovirus ekanligini tasdiqlamoqda (Troeger et al., 2022). Norovirusli gastroenteritlar bolalar orasida uchraydigan diayelarning ikkinchi sababi hisoblanadi. Norovisrusli infeksiyalar asosan, o‘tkir boshlanadi va kuchli intoksiya hamda suvsizlanish bilan bilan kechadi (Ситкина Е. Л. и др., 2025). Bakterial infeksiyalar: Bu guruh etiologik omillardan bolalarda bakterial diareyaning asosiy sababchilari Salmonella, Shigella, Campylobacter va enteropatogen E. coli hisoblanadi (Guarino et al., 2022). Bakterial infeksiyalar odatda og‘irroq klinik xarakterga ega bo‘lib, kuchli intoksikatsion sindromi bilan namoyon bo‘ladi.

Tekshirish natijalari: Parazitar infeksiyalar: Parazitar infeksiyalar bolalar orasida eng keng tarqalgan kasalliklardan biri hisoblanadi. Parazitar kasalliklarda bolalarda bo‘ladigan simptomlar quyidagilardir: ichak mikroflorasining buzilishi, allergik reaksiyalar, immunosupressiv ta’sirlar, metabolic kasalliklar, toksik ta’sirlar, neyro-refleks ta’sirlar. Funksional buzilishlar: Oxirgi 5 yil ichida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarda oshqozon-ichak trakti funktsional buzilishlari sezilarli darajada oshgan(Hyams et al., 2021; Saps et al., 2023). ROME IV mezonlariga ko‘ra, oshqozon-ichak trakti funksional buzilishlarida organik patologiya aniqlanmaydi, biroq klinik simptomlar mavjud bo‘ladi. Disbakterioz: Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ichak mikroflorasining ahamiyati alohida o‘rganilmoqda. 2022–2024 yillardagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ichak bakteriyalari xilma-xilligining kamayishi yallig‘lanish jarayonlarini kuchaytirish va funksional buzilishlar xavfini oshirishgacha olib keladi (Vandenplas et al., 2023). Allergenlar va fermentopatiyalar: Oziq-ovqat allergenlari, shu jumladan sigir suti oqsiliga allergiya, bolalarda qusish, diareya va kolikalar bilan namoyon bo‘ladi. 2021–2024 yillardagi tadqiqotlar immunoglobulin E bilan bog‘liq va bog‘liq bo‘lmagan allergik mexanizmlarni ajratib ko‘rsatgan (Nowak-Wegrzyn et al., 2022). Laktoza intoleransi esa laktaza fermenti yetishmovchiligi natijasida rivojlanib va meteorizm, diareya kabi klinik belgilar bilan kechadi (Jumagul E., 2026).

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, kasallikning erta diagnostikasi, bolalarda ratsional ovqatlantirish, gigiyena qoidalariga rioya qilish va individual yondashuv kasalliklarni oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda birlamchi profilaktika oshqozon-ichak trakti kasalliklari kelib chiqishining oldini oladi. Asosan gigiyenaga rioya qilish ichak parazitlari kamayishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, kelgusida asoratlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasab etadi.

DORI VOSITALARI QO’LLANILGANDA KELIB CHIQADIGAN ALLERGIK HOLATLAR

Abdullayev Asilbek Alisherivich
Davolash fakulteti 203- guruh talabasi.
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Samarkqand, Uzbekistan.
Ilmiy raxbar: assistent G.B. Yo’ldosheva

Tadqiqot maqsadi: Allergik kasalliklar bugungi kunda dunyo bo‘ylab keng tarqalgan muammolardan biri hisoblanadi. Atrof-muhit omillari, noto‘g‘ri ovqatlanish, ekologik muhitning yomonlashuvi va dori vositalarining keng qo‘llanilishi allergik reaksiyalar sonining ortishiga olib kelmoqda.Farmakologik mahsulotlar allergik kasalliklarni davolashda muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga, ayrim dori vositalari organizmda allergik reaksiyalarni ham qo‘zg‘atishi mumkin.Shu sababli farmakologik vositalarning allergiya bilan o‘zaro ta’sirini o‘rganish tibbiyotning dolzarb masalalaridan biridir.Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi farmakologik mahsulotlarning allergik reaksiyalarga ta’sir mexanizmlarini chuqur o‘rganish, xususan, Penitsillin dori vositalarining organizm immun tizimi bilan o‘zaro ta’sirini aniqlash hamda allergik holatlarni davolash va oldini olishda samarali yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat

Materiallar va tadqiqod usullari.Materiallar-1 Tadqiqod obyekti: Penitsillin qabul qilgan bemorlarda allergik reaksiyalar rivojlanishi va ularning klinik xususiyatlari.

2. Bemorlar guruhi: Tadqiqotga Penitsillin qabul qilgan jami 23 nafar bemor jalb etildi. Ushbu bemorlarning yoshi 24 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lib, ularning barchasida dori qabul qilingandan so‘ng allergik reaksiyalar kuzatildi.

3. Nazorat guruhi: Ushbu guruhga Penitsillin qabul qilgan, ammo allergik reaksiyalar kuzatilmagan 20 nafar bemorlar kiritildi.

Tadqiqod usullari-1 Klinik kuzatuv: Barcha bemorlar to‘liq klinik tekshiruvdan o‘tkazildi:

4. Laborator tahlillari: Allergiyadan keyin qonda eozinofillar, IgE va gistamin darajasi oshadi, ba’zi biokimyoviy ko‘rsatkichlarda yengil o‘zgarishlar kuzatiladi, bu esa Penitsillin allergiyasi mavjudligini laborator tasdiqlaydi.

5. Davolash rejimi: Tadqiqot guruhi bemorlarida allergiya kuzatilgan, shuning uchun penitsillinni to‘xtatish va antihistamin/kortikosteroid davosi talab qilindi. Nazorat guruhi bemorlarida hech qanday allergik belgilar yo‘q, shuning uchun davolash odatiy penitsillin qabul qilish bilan davom ettirildi.Klinik natijalar Tadqiqod guruhi.Penitsillinni to‘xtatish, antigistaminlar va kortikosteroidlar qabul qilingan bemorlarda simptomlar 24–48 soat ichida kamaygan. Anafilaksiyaga uchragan bemorlarda adrenalin yordamida tezkor tiklash kuzatilgan. Nazorat guruhi: Davolash talab qilinmagan, dori qabul qilish davom ettirilgan va laborator ko‘rsatkichlar o‘zgarmagan.

Xulosalar. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, penitsillin guruhiga mansub farmakologik vositalar ayrim bemorlarda allergik reaksiyalarni chaqirishi mumkin. Ayniqsa, immun tizimning sezgirligi yuqori bo‘lgan shaxslarda bu reaksiyalar tez va og‘ir kechishi kuzatildi.Shuning uchun anibiotiklar qo’lanilganda sinama bilan junatilishi kerak.

“DORIVOR O‘SIMLIKLAR ASOSIDA ҮARATILGAN FITOPREPARATLARNING ZAMONAVIҮ TIBBIҮOTDAGI O‘RNI’’

Abdunazarov Sherzod Shokir o’g’li
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Biotexnologiya, injeniring va farmatsiya fakulteti 304-guruh talabasi.
Ilmiy rahbar: : assistent O.S. Tashanov

Ishning maqsadi: Fitopreparatlar zamonaviy tibbiyotning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular nafaqat davolash, balki kasalliklarning oldini olishda ham samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ilmiy yondashuv va zamonaviy texnologiyalar yordamida fitopreparatlarning samaradorligi va xavfsizligini yanada oshirish mumkin. Fitopreparatlarning asosiy afzalliklari ularning tabiiyligi, nisbatan xavfsizligi va kam nojo‘ya ta’sirlarga ega ekanligidir. Ular organizmga yumshoq ta’sir qilib, uzoq muddat qo‘llash imkonini beradi. Ayniqsa, surunkali kasalliklarda va profilaktik maqsadlarda ularning ahamiyati yuqori.

Materiallar va tadqiqot usullari: Kalit so‘zlar: Fitopreparatlar, fitoterapiya, biologik faol moddalar, farmakodinamika,farmakokinetika, flavonoidlar, saponinlar, alkaloidlar, efir moylari, klinik tadqiqotlar, toksikologiya, standartlashtirish, yallig‘lanish, antimikrob ta’sir, gepatoproteksiya, sedativ ta’sir.Fitopreparatlarni zamonaviy tibbiyotdagi o’rni, organizmga ta’siri.Dolzarbligi va tadqiqot natijalari: Fitopreparatlar orqali davolashning klinik asoslari so‘nggi yillarda tibbiyot va farmatsevtika sohasidagi eng dolzarb yo‘nalishlardan biriga aylandi. Үer sharida o‘simliklarning 400 mingdan ziyod, O‘zbekiston Respublikasi hududida esa 4300 dan ortiq turlari uchraydi. Shulardan 750 turdagisi dorivor o‘simliklar hisoblanib, ulardan 112 turi ilmiy tibbiyotda foydalanish uchun ro‘yxatga olingan, shundan 70 turi farmasevtika sanoatida faol qo‘llanilib kelinmoqda. 2019 yilda 48 mln AQSh dollori qiymatidagi qayta ishlangan dorivor o‘simliklardan olingan mahsulotlar export qilingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi PQ-4670-son qaroriga asosan 2020-yilning 1-iyundan boshlab tibbiyot muassasalari, shu jumladan oilaviy poliklinikalar va qishloq (ovul) vrachlik punktlarida fitobarlar tashkil etildi.

Tibbiyotda dorivor o‘simliklarga va ulardan olinadigan preparatlarga bo‘lgan talabning oshishiga sabab, sintez yo‘li bilan olingan har bir kimyoviy dorivor preparatni uzoq vaqt uzluksiz ravishda iste’mol qilish inson va hayvonlar organizmida turli ko‘ngilsiz o‘zgarishlarga olib kelishidir. Shu sababdan hozirda dunyo bo‘yicha o‘simlik dorivor

preparatlariga –fitopreparatlarga va dorivor o‘simliklarga bo‘lgan ehtiyoj ortmoqda. Fitopreparatlarning klinik qo‘llanilishida ular ko‘proq simptomatik va patogenetik davolash vositasi sifatida qo‘llanadi. Masalan, yallig‘lanishga qarshi xususiyatga ega o‘simliklar – romashka, kalendula, zubturum, qizilmiya ildizi tarkibidagi flavonoidlar va saponinlar orqali yallig‘lanish mediatorlarining faolligini pasaytiradi, shish va og‘riqni kamaytiradi.

Antimikrob xususiyatga ega o‘simliklar –choy daraxti, evkalipt, sarimsoqning efir moylari mikroorganizmlarning membranalariga zarar yetkazib, bakteritsid va fungitsid ta’sir ko‘rsatadi. Qon aylanish tizimi kasalliklarida qo‘llaniladigan ginkgo biloba ekstrakti trombotsitlar agregatsiyasini pasaytirib, qon aylanishini yaxshilaydi, miya qon aylanishi buzilishlarida simptomlarni kamaytirishi klinik jihatdan isbotlangan.Asab tizimi kasalliklarida qo‘llaniladigan valeriana, moychechak, melissa, lavanda kabi o‘simliklarning sedativ xususiyatlari gamma-aminomoy kislota (GAMK) retseptorlariga modulyator ta’siri bilan bog‘liq. Ular uyqusizlik, nevroz, stress holatlarini kamaytirishda samarali hisoblanadi. Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklarida qo‘llaniladigan dorivor o‘simliklar –zira, arpabodiyon, yalpiz, qizilmiya ildizi spazmolitik, karminativ,mukoprotektor ta’sir ko‘rsatib, gastrit, meteorizm, oshqozon spazmlarida yordam beradi

Xulosa qilib aytganimizda: Hozirgi kunda fitopreparatlar orqali davolashning klinik asoslari ularning biologik faol moddalarga boy tarkibi, ko‘p qirrali farmakologik ta’siri, nisbatan past toksikligi va zamonaviy klinik tadqiqotlar bilan tasdiqlangan samaradorligiga tayanadi. Ularni to‘g‘ri qo‘llash, standartlashtirilgan shakllardan foydalanish va ilmiy asoslangan klinik tavsiyalar asosida bemorlarga buyurish fitoterapiyaning amaliy tibbiyotdagi o‘rnini yanada kuchaytirmoqda.

“ZANGORI SACHRATQI” NING ISHLATILISHI VA TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI

Abdunazarov Sherzod Shokir o’g’li
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti farmatsiya fakulteti 304-guruh talabasi.
Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy rahbar: Phd Meliqulov Otabek Jamolovich

Ishning maqsadi: Buyuk hakim Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari” asarida ko‘plab xastaliklarni davolashda qo‘llanadigan malhamlarni tayyorlashda ular tarkibiga Zangori sachratqini qo‘shish lozim, deb yozgan. Bugungi kunda, hamma ham sachratqining ildizi, guli, novdasi ko'plab kasalliklarda ishlatilishini bilmaydi. Siz quyidagi keltirilgan malumotlar asosida sachratqining foydali xususiyatlari bilan tanishishingiz mumkun

Materiallar va tadqiqot usullari: Zangori sachratqi tabiiy holda tabiatda ko‘p uchramaydi, shuning uchun uni ekin maydonlari va uy sharoitida o‘stirish mumkin. 2019-yilda zanjabilning jahon ishlab chiqarishi 4,1 million tonnani tashkil etdi, bunda dunyoning 44 foizini Hindiston hissasiga to‘g‘ri keladi. Sharqiy Osiyoda o‘stiriladi. 3. Yer osti tanasining hamma qismida foydali xususiyatlari bor. Qurigan ildizidan damlamalar tayyorlanadi. Maydalanmagan Zangori sachratqining xushbo‘y hidi maydalanganiga nisbatan uzoq saqlanadi. To’yib elaki qilingan talqoni tabobatda jigar, yurak, me’da xastaligini davolashda ishlatiladi (asal bilan birga choynakka damlab ichiladi).

Dolzarbligi va tadqiqot natijalari: Sachratqi, oddiy sachratqi (Cichorium intybus L.) — murakkabguldoshlarga mansub ko‘p yillik betona o‘t. Poyasi shoxlanadi, serbarg, bri 30—130 sm, pastki kismi oq tukli. Barglari ketma-ket joylashgan. Gullari havorang, barg qo‘ltiqlarida kalta gulbandda to’p-to’p bo‘lib, poya uchida esa yakka savatchasimon to‘pgulga yig‘ilgan. Ildizi o‘q ildiz, tuproqqa 1,5 m chuqurgacha kiradi. S. ildizida 20% gacha inulin bor (Yevropa mamlakatlarida dorivor ekin sifatida ekiladi). Mart—mayda o‘sa boshlaydi, iyul—oktabrgacha gullaydi va mevalaydi. Urug‘idan ko‘payadi. Asosan, sug‘oriladigan ekinlar orasida (bedazorlarda juda ko‘p) uchraydi. Shuningdek, tashlandiq yerlar, yo‘l, dala, ariq yoqalari, bog‘larda o‘sadi. Zararkunandalarga makon. Xalq tabobatida oftob urganda va sachrama toshmalarni davolashda poyasi kaynatmasi va kulidan foydalaniladi.Sachratqi o’simta

kasalliklarini davolash davolash qo’shimcha davolash sifatida, asabiylik, asabiylashish, stress bilan ishlatiladi.

Tekshirish natijalari: Hozirgi kunda juda mashhur bir zumda sachratqi hisoblanadi. Bu ichimlik foydalari o’tgan kontraendikedir keltirganlarga qahva o’rniga, deb hisoblanadi. Eruvchan sachratqi parhez oziq-ovqat ishlatiladi. Unda krem yoki sut qo’shing. Eruvchan sachratqi, bu o’simlikning barcha xususiyatlarga ega. Bu tomirlar, yurak va asab tizimi uchun foydalidir. , Uyqu normallashtiradi kayfiyatni yaxshilaydi rohat. Uning Tavsiyamiz taxikardiya, ateroskleroz, ishemiya, kamqonlik, qandli diabet chalingan ichish. gastrit, oshqozon yarasi, o’t pufagi kasalliklari, ichak rastrojstva: Bu oshqozon-ichak trakti bilan bog’liq muammolar bor kishilar uchun almashtirib bo’lmaydigan hisoblanadi.

Kimning foydalanish sachratqi, ochiq-oydin bo’lib, homilador ayollar uchun, bu qiyin davrida ko’plab organlarning ishini osonlashtiradi. Bu, yurak, jigar, oshqozon ijobiy ta’sir ko’rsatmoqda ich engillashtiradi. Bu, nervlarni rohat yaxshilaydi , qon, bir homilador ayolning organi tomonidan toksinlar olib tashlash rag’batlantiradi.

Individual murosasizlik, yo’tal,: aniq emas foydalanish bo’lgan sachratqi, kontra-alomatlardan bir qator ega oshqozon yarasi, o’n ikki barmoqli ichak yarasi.

Xulosa Sachratqi qon tomirlari kengaytirish mumkin, shuning uchun bemor venalarining varikoz kengayishi va gemorroyda ichish tavsiya etilmaydi. Bu allergiya moyil kishilar uchun foydalanish kerak emas. Uning abuse anjioödeme olib kelishi mumkin ortiqcha vitamin C, olib kelishi mumkin.

ZAFARON O’SIMLIGINING FARMAKOLOGIK XUSUSIYATI VA HOZIRGI KUNDA AHAMIYATI

Abdurasulova Maftuna Alisher Qizi
Farmatsiya fakulteti 301- a guruh talabasi
Eurasian Multidisciplinary Universiteti (EMU),
Toshkent, O’zbekiston
Ilmiy rahbar- assistent N.O’. Abduxaliqova

Ishning maqsadi: Ushbu tezisni yozishdan asosiy maqsad — zafaron o‘simligining farmakologik xususiyatlarini chuqur o‘rganish, uning inson organizmiga ko‘rsatadigan ijobiy ta’sirlarini ilmiy asosda tahlil qilish hamda hozirgi zamonaviy tibbiyotdagi ahamiyatini aniqlashdan iborat. Shuningdek, zafaron tarkibidagi biologik faol moddalar orqali uning qaysi kasalliklarning oldini olish va davolashda samarali ekanligini aniqlash, inson salomatligini mustahkamlashdagi o‘rni va foydalilik darajasini kengroq yoritish

Materiallar va tadqiqot usullari : Tadqiqot usullari sifatida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish hamda tizimlashtirish usullaridan foydalanildi. Shuningdek, zafaronning farmakologik xususiyatlarini aniqlashda uning turli kasalliklarga ta’siri bo‘yicha mavjud ilmiy natijalar o‘rganilib, ularning samaradorligi baholandi. Olingan ma’lumotlar asosida zafaronning inson salomatligi uchun foydalilik darajasi va hozirgi zamon tibbiyotidagi ahamiyati haqida ilmiy xulosalar chiqarildi hamda hozirgi kunda statistika bo’yicha bu zafaron o’simligidan tayyorlangan dori vositalaridan foydalayotgan soni qanchaga yetgani ko’rib chiqildi.

Tadqiqot natijalari: O‘tkazilgan ilmiy tahlillar natijasida zafaron o‘simligining boy kimyoviy tarkibga ega ekanligi va uning tarkibidagi biologik faol moddalar — krocin, safranal hamda picrocrocin inson organizmiga kuchli ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Ushbu moddalar, ayniqsa, antioksidant, yallig‘lanishga qarshi va tinchlantiruvchi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ilmiy manbalar tahliliga ko‘ra, zafaron ekstrakti muntazam iste’mol qilinganda depressiya va stress holatlarida sezilarli darajada ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan. Ayrim klinik tadqiqotlarda zafaron preparatlarini qabul qilgan bemorlarning taxminan 60–70 % ida kayfiyat yaxshilangani va bezovtalik darajasi kamaygani qayd etilgan. Bundan tashqari, u markaziy asab tizimiga yumshoq ta’sir ko‘rsatib, uyqu sifatini yaxshilashga yordam berishi aniqlangan. Shuningdek, zafaronning yurak-qon tomir tizimiga ijobiy ta’siri ham kuzatilgan. Tadqiqotlar natijasida uning

qon bosimini me’yorlashtirishga, qon aylanishini yaxshilashga va xolesterin miqdorini kamaytirishga yordam berishi isbotlangan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, zafaron tarkibidagi antioksidantlar erkin radikallarni 30–40 % gacha kamaytirishga xizmat qiladi, bu esa organizmning qarish jarayonini sekinlashtiradi. Ko‘rish organlariga ta’siri ham muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ayrim tadqiqotlarda zafaron retinal hujayralarni himoya qilishi va ko‘rish qobiliyatini saqlab qolishda samarali vosita ekanligi aniqlangan. Bundan tashqari, u immun tizimini mustahkamlash, yallig‘lanish jarayonlarini kamaytirish va organizmning umumiy tonusini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa: zafaron o‘simligi nafaqat qadimdan qadrlanib kelinayotgan noyob dorivor manba, balki zamonaviy ilm-fan tomonidan ham yuqori baholanayotgan tabiiy vositalardan biridir. Uning tarkibidagi biologik faol moddalar inson organizmining turli tizimlariga kompleks va muvozanatli ta’sir ko‘rsatib, umumiy salomatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda tabiiy va xavfsiz davolash usullariga bo‘lgan ehtiyoj ortib borayotgan bir paytda, zafaronning ahamiyati yanada oshib bormoqda. U nafaqat kasalliklarni davolash, balki ularning oldini olish, hayot sifatini yaxshilash va uzoq umr ko‘rishga xizmat qiluvchi muhim vosita sifatida e’tiborga loyiqdir. Kelgusida zafaron asosida yangi, samarali va xavfsiz dori vositalarini yaratish imkoniyati mavjudligi ushbu o‘simlikning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

DORIVOR O‘SIMLIKLARDAN BIOFAOL MODDALARNI AJRATIB OLISH VA ULARNING FARMAKOLOGIK TA’SIRI

Abdusamadova Zebo Nodir qizi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Biotexnologiya, injeniring va farmatsiya fakulteti 304-guruh talabasi.
Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy rahbar: assistent O.S. Tashanov

Ishning maqsadi: Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi dorivor o‘simliklar tarkibidagi biofaol birikmalarni ajratib olishning samarali usullarini o‘rganish hamda ularning farmakologik faolligini ilmiy asosda baholashdan iborat.

Tadqiqot materiallari va usullari: Tadqiqot obyekti sifatida mahalliy sharoitda keng tarqalgan dorivor o‘simlik xomashyolari tanlab olindi. O‘simlik namunalaridan biofaol moddalarni ajratib olishda ekstraksiya usullaridan (suvli, spirtli va gidrospirtli erituvchilar yordamida) foydalanildi.

Ajratib olingan moddalar sifat jihatdan aniqlash uchun xromatografik (TLC) va spektral usullar orqali tahlil qilindi. Farmakologik faollikni baholashda antioksidant va yallig‘lanishga qarshi xususiyatlar eksperimental sharoitda o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari: O‘rganilgan o‘simlik namunalari tarkibida alkaloidlar, flavonoidlar, fenolik birikmalar va saponinlar mavjudligi aniqlandi.Ekstraksiya jarayonida erituvchi turiga qarab biofaol moddalar chiqish darajasi sezilarli farq qilishi kuzatildi. Ayniqsa, gidrospirtli eritmalar biofaol komponentlarni ajratib olishda yuqori samaradorlik ko‘rsatdi. Olingan ekstraktlar farmakologik tahlil natijalariga ko‘ra sezilarli antioksidant faollikka ega ekanligi, ayrim hollarda esa yallig‘lanishga qarshi ta’sir namoyon qilishi aniqlandi.

Biofaol Moddalarni Ajratish Usullari: Dorivor o‘simliklardan biofaol moddalarni ajratib olish uchun bir qator usullar mavjud. Ular orasida eng keng tarqalganlari quyidagilardir:

1. Ekstraktsiya jarayoni o‘simlik materialidan biofaol moddalarni olish uchun ishlatiladi. Bu jarayon ko‘pincha suv, etanol yoki boshqa organik erituvchilar yordamida amalga oshiriladi. Ekstraktsiya jarayonining samaradorligi o‘simlikning turi, ekstraktsiya usuli va vaqtiga bog‘liq.

2. Distillatsiya jarayoni o‘simliklardan efir moylarini ajratib olishda qo‘llaniladi. Bu usul o‘simliklarning hidli moddalari va terpenoidlarini ajratish uchun juda samarali.

3. Xromatografiya – bu biofaol moddalarni ajratish va tozalash uchun ishlatiladigan aniq va samarali usuldir. Bu usul yordamida o‘simliklardan olingan ekstraktlar ichidagi turli moddalarning tarkibini aniqlash mumkin.

Farmakologik Ta’sir: Dorivor o‘simliklardan ajratilgan biofaol moddalar turli kasalliklarni davolashda keng qo‘llaniladi. Ularning farmakologik ta’siri quyidagi sohalarda ko‘rinadi:1. Yallig‘lanishga Qarshi Ta’sir: Ko‘plab o‘simliklar yallig‘lanishga qarshi xususiyatlarga ega. Masalan, kurkuma (Curcuma longa) tarkibidagi kurkumin moddasining yallig‘lanishga qarshi ta’siri ilmiy tadqiqotlar bilan tasdiqlangan.2. Antioxidant Faoliyati: Flavonoidlar va polifenollar kuchli antioksidantlar bo‘lib, ular hujayralarni erkin radikallardan himoya qiladi. Ular yurak-qon tomir kasalliklari va saraton rivojlanishining oldini olishda muhim rol o‘ynaydi.3. Antimikrobiyal Ta’sir: Ba'zi o‘simliklar antimikrobiyal xususiyatlarga ega bo‘lib, bakteriyalar va viruslarga qarshi kurashishda yordam beradi. Misol uchun, sarimsoq (Allium sativum) va zanjabil (Zingiber officinale) o‘simliklarining antimikrobiyal ta’siri keng o‘rganilgan.4. Immunitetni Mustahkamlash: Dorivor o‘simliklar immun tizimini mustahkamlashda ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosalar: Dorivor o‘simliklar biofaol moddalarining muhim manbai hisoblanadi va ularni ajratib olishda optimal ekstraksiya sharoitlarini tanlash muhim ahamiyatga ega.Olingan natijalar biofaol birikmalarning farmakologik jihatdan istiqbolli ekanligini ko‘rsatadi va ularni kelgusida dori vositalari yaratishda qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi.Mazkur tadqiqot dorivor o‘simliklar asosida yangi, samarali va xavfsiz preparatlar ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

UCH RANGLI GUNAFSHA O`SIMLIGINING TIBBIY-KIMYOVIY XUSUSIYATLARI VA AMALIY AHAMIYATI

Abduxalilova Shoxsanam Qodirjon qizi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Biotexnologiya, injinering va farmatsiya fakulteti 205-guruh
Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy raxbar: Assistant. Xudoyqulov Jamoliddin Inomovich

***Ishning maqsadi*:**Uch rangli gunafsha (Viola tricolor L.) o‘simligining kimyoviy tarkibini, biologik faol moddalarini hamda ularning farmakologik ta’sirini tibbiy kimyo nuqtai nazaridan o‘rganish va nafas yo‘llari kasalliklarida qo‘llanish imkoniyatlarini asoslash.

***Materiallar va tadqiqot usullari*:**Tadqiqot materiali sifatida uch rangli gunafshaning yer ustki qismlari (barg, poya va gul) olindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi usullardan foydalanildi:

- Fitokimyoviy tahlil usullari – flavonoidlar (rutin, violoksin va boshqalar), saponinlar, efir moylari, karotinoidlar va organik kislotalarni aniqlash;
- Spektrofotometrik usul – biologik faol moddalarning miqdorini baholash;
- Ekstraksiya usullari – damlama va qaynatma tayyorlash orqali faol moddalarni ajratib olish;
- Farmakologik tahlil – olingan ekstraktlarning yallig‘lanishga qarshi, balg‘am ko‘chiruvchi va antiseptik ta’sirini o‘rganish;
- Adabiyotlar tahlili – mavjud ilmiy manbalar asosida o‘simlikning tibbiyotdagi o‘rni baholandi.

Tadqiqot natijalari: Tadqiqotlar natijasida uch rangli gunafsha (**Viola tricolor**) o‘simligi boy fitokimyoviy tarkibga ega ekanligi aniqlandi. Uning tarkibida flavonoidlar (rutin, kversetin hosilalari), saponinlar, efir moylari, karotinoidlar, fenolik va organik kislotalar, shuningdek, mukilaj (shilliq moddalar) mavjudligi tasdiqlandi . Ushbu biologik faol birikmalar o‘zaro sinergik ta’sir ko‘rsatib, o‘simlikning farmakologik faolligini belgilaydi.Aniqlanishicha, o‘simlik ekstraktlari yallig‘lanishga qarshi, antioksidant, antiseptik va balg‘am ko‘chiruvchi xususiyatlarga ega bo‘lib, ayniqsa nafas yo‘llari kasalliklarida muhim terapevtik ahamiyat kasb etadi. Tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, preparatlar bronx bezlari sekretsiyasini oshiradi, balg‘amni suyultiradi va uning chiqarilishini osonlashtiradi, natijada yo‘tal refleksi kamayadi.Bundan tashqari, eksperimental tadqiqotlarda **Viola tricolor** ekstrakti o‘pka yallig‘lanishini kamaytirishi va immun javobni tartibga solishi aniqlangan. Bu esa uning bronxit, astma va boshqa yuqori nafas yo‘llari kasalliklarida qo‘llash imkoniyatini ilmiy asoslaydi.Olingan natijalar asosida uch rangli gunafsha dorivor o‘simlik sifatida farmatsevtika

amaliyotida istiqbolli xomashyo bo‘lib, uning asosida samarali fitopreparatlar yaratish imkoniyati mavjudligi xulosa qilindi.

Xulosa: Uch rangli gunafsha (**Viola tricolor**) boy va murakkab kimyoviy tarkibga ega o‘simlik bo‘lib, uning tarkibida flavonoidlar, saponinlar, glikozidlar, efir moylari, organik kislotalar hamda vitaminlar mavjud. Ushbu biologik faol moddalar o‘zaro uyg‘un holda organizmga kompleks terapevtik ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni yallig‘lanishga qarshi, balg‘am ko‘chiruvchi, antiseptik va qisman immunitetni mustahkamlovchi xususiyatlarga ega.Tibbiy kimyo nuqtai nazaridan qaralganda, **Viola tricolor** asosidagi preparatlar ayniqsa nafas yo‘llari kasalliklarida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular bronxit, yo‘tal, shamollash va yuqori nafas yo‘llari yallig‘lanishida balg‘amni suyultirish va uning chiqishini osonlashtirish orqali bemor ahvolini yengillashtiradi. Bundan tashqari, o‘simlik tarkibidagi flavonoidlar kapillyarlarni mustahkamlash va yallig‘lanish jarayonlarini kamaytirishga yordam beradi. Shu sababli, uch rangli gunafsha asosidagi dorivor vositalar nafaqat an’anaviy tabobatda, balki zamonaviy farmatsevtika sanoatida ham istiqbolli xomashyo sifatida qaralmoqda. Kelgusida uning tarkibidagi faol komponentlarni chuqur o‘rganish va standartlashtirilgan preparatlar ishlab chiqish nafas yo‘llari kasalliklarini samarali davolashda yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin.

ADRENORETSEPTORLARNI QO‘ZG‘ATUVCHI VOSITALARNING FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Abduxamidov Firdavs Arslon o’g’li, Abdurazzoqova Marjona Rustamjon qizi,
Nasriddinova Marjona Bobomurod qizi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
2-son davolash fakulteti 207-guruh talabasi
Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy rahbar: SH.M. Muxsinova

Tadqiqot maqsadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi adrenoretseptorlarni qo‘zg‘atuvchi vositalarning (adrenomimetiklarning) farmakodinamik va farmakokinetik xususiyatlarini tizimli ravishda o‘rganishdan iborat. Tadqiqot davomida ushbu preparatlarning alfa (α1, α2) va beta (β1, β2) adrenoretseptorlarga selektiv ta’siri, ularning hujayra darajasidagi signal uzatish mexanizmlari (G-oqsillar orqali adenilat-siklaza va fosfolipaza tizimlari aktivatsiyasi) hamda organizmning turli tizimlarida yuzaga keltiradigan fiziologik va patofiziologik o‘zgarishlari tahlil qilinadi. Shuningdek, ularning klinik samaradorligi, xavfsizlik darajasi, nojo‘ya ta’sirlari va qo‘llanilish chegaralarini aniqlash ham tadqiqotning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

Materiallar va tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida adrenomimetik vositalarning asosiy vakillari — adrenalin (epinefrin), noradrenalin (norepinefrin), dobutamin va salbutamol preparatlari o‘rganildi. Material sifatida zamonaviy farmakologik adabiyotlar, klinik protokollar, randomizatsiyalangan tadqiqotlar natijalari hamda amaliy kuzatuv ma’lumotlaridan foydalanildi. Tadqiqot usullari quyidagilarni o‘z ichiga oldi: klinik kuzatuv va simptomatik baholash, farmakodinamik tahlil (retseptor selektivligi va biologik ta’sir kuchini aniqlash), qiyosiy tahlil (turli preparatlar samaradorligini solishtirish) hamda statistik qayta ishlash usullari. Preparatlarning ta’siri yurak urish tezligi, arterial bosim, bronxial o‘tkazuvchanlik va umumiy gemodinamik ko‘rsatkichlar asosida baholandi.

Tadqiqot natijalari. Olingan natijalar adrenomimetik preparatlarning yuqori darajada biologik faollikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Adrenalin α va β retseptorlarni bir vaqtda qo‘zg‘atib, kuchli vazokonstriktor va bronxodilatator ta’sir ko‘rsatadi, bu esa anafilaktik shokda arterial bosimni tez tiklash va bronxospazmni bartaraf etishda muhim ahamiyatga ega. Noradrenalin asosan α1-retseptorlarni faollashtirib, periferik qarshilikni oshiradi va arterial gipotenziyada samarali qo‘llaniladi.Dobutamin selektiv β1-adrenomimetik sifatida yurak mushaklarining inotrop faoliyatini kuchaytiradi, natijada yurak chiqish hajmi oshadi va to‘qimalarga qon yetkazib berish yaxshilanadi. Salbutamol esa β2-retseptorlarni stimulyatsiya qilib, bronxial silliq mushaklarni bo‘shashtiradi va bronxial astma xurujlarini tezda bartaraf etadi. Shu bilan birga, ayrim bemorlarda taxikardiya, tremor, arterial bosimning o‘zgarishi kabi nojo‘ya reaksiyalar kuzatildi.

Tadqiqot natijalari adrenomimetiklarning farmakologik samarasi ularning retseptor selektivligi va signal uzatish mexanizmlariga bog‘liqligini tasdiqladi. α1-adrenoretseptorlar Gq-oqsil orqali fosfolipaza C ni faollashtirib, hujayra ichida Ca^{2+} ionlari konsentratsiyasini oshiradi va bu silliq mushaklarning qisqarishiga olib keladi. β1 va β2 retseptorlar esa Gs-oqsil orqali adenilat-siklazani faollashtirib, cAMP miqdorini oshiradi. Bu yurak mushaklarida kontraktil funksiyani kuchaytiradi (β1) va bronxial mushaklarda relaksatsiyani yuzaga keltiradi (β2).Shu asosda, klinik amaliyotda preparat tanlash kasallikning patogenezi va bemorning individual xususiyatlariga asoslanishi kerak. Masalan, bronxial astmada β2-selektiv agonistlar ustunlikka ega, yurak yetishmovchiligida esa β1-selektiv vositalar qo‘llaniladi. Biroq, yuqori dozalar yoki uzoq muddatli qo‘llash retseptorlarning desensitizatsiyasiga olib kelishi mumkin, bu esa preparat samaradorligini pasaytiradi. Shu sababli dozani titrlash va monitoring muhim ahamiyatga ega. **Xulosa.**Xulosa qilib aytganda, adrenoretseptorlarni qo‘zg‘atuvchi vositalar yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan, tezkor ta’sir ko‘rsatuvchi va keng klinik qo‘llaniladigan farmakologik guruh hisoblanadi. Ular ayniqsa shoshilinch tibbiy holatlarda — anafilaktik shok, o‘tkir yurak yetishmovchiligi, bronxial astma xuruji va arterial gipotenziyada beqiyos ahamiyat kasb etadi.

GLAUKOMA KASALLIGI VA UNI DAVOLASHDA QO`LLANILADIGAN DORI VOSITALARI

Abidova Gulsanam Hakim qizi
Samarkand davlat tibbiyot universiteti,
Samarqand, O‘zbekiston
Ilmiy rahbar: assistant S.N. Istamova

Ishning maqsadi: Glaukoma kasalligi bugungi kunda dunyo miqyosida ko‘rlikka olib keluvchi asosiy kasalliklardan biri hisoblanadi. Ushbu kasallik ko‘z ichki bosimining oshishi natijasida ko‘ruv nervining asta-sekin zararlanishi bilan kechadi va o‘z vaqtida aniqlanib davolanmasa, qaytarib bo‘lmas ko‘rish yo‘qotilishiga olib keladi. Glaukomaning muhim jihati shundaki, u dastlabki bosqichlarda deyarli belgilarsiz rivojlanadi, bu esa bemorlarning kech murojaat qilishiga sabab bo‘ladi. Aholi orasida glaukoma bilan kasallanish ko‘rsatkichining ortib borayotgani, ayniqsa yoshi katta insonlar orasida keng tarqalganligi ushbu muammoning yanada dolzarbligini oshirmoqda. Shu bilan birga, glaukoma davosida qo`llaniladigan dori vositalarining xilma -xilligi va ularning ta`siri mexanizmlarini to`g`ri tanlash masalasi muhim hisoblanadi.

Materiallar va metodlar: Material sifatida glaukoma bilan kasallangan bemorlar haqidagi umumiy ma’lumotlar, kasallikning rivojlanish mexanizmi hamda davolashda qo‘llaniladigan asosiy dori vositalari guruhlari — prostaglandin analoglari, beta-blokatorlar, karbon anhidraza ingibitorlari va alfa-2 agonistlar o‘rganildi. Shuningdek, ushbu preparatlarning ta’sir mexanizmi, samaradorligi va nojo‘ya ta’sirlari haqida ma’lumotlar yig‘ildi.Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: ilmiy manbalarni tahlil qilish (analitik metod), turli dori vositalarining ta’sirini o‘zaro solishtirish (taqqoslash metodi), hamda olingan ma’lumotlarni umumlashtirish va tizimlashtirish. Bundan tashqari, klinik kuzatuv natijalari asosida dori vositalarining samaradorligi baholandi.

Natija va tahlil: O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, glaukoma kasalligini davolashda qo‘llaniladigan dori vositalari ko‘z ichki bosimini samarali pasaytirish orqali kasallikning rivojlanishini sekinlashtiradi va ko‘ruv nervi zararlanishining oldini olishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, turli farmakologik guruhlarga mansub preparatlar turlicha ta’sir mexanizmi orqali yuqori samaradorlikka ega.Prostaglandin analoglari ko‘z ichki suyuqligining chiqishini oshirish orqali eng yuqori samaradorlikni ko‘rsatdi va amaliyotda birinchi tanlov preparatlari sifatida keng qo‘llanilishi aniqlandi. Beta-blokatorlar esa ko‘z ichki suyuqligi ishlab chiqarilishini kamaytirib, barqaror natija beradi, ammo ularning sistemali nojo‘ya ta’sirlari mavjudligi sababli ayrim bemorlarda cheklangan holda qo‘llaniladi.Karbon angidraza ingibitorlari va alfa-2 agonistlar qo‘shimcha yoki kombinatsiyalangan terapiya sifatida samarali ekanligi kuzatildi. Ular boshqa preparatlar bilan birgalikda qo‘llanganda ko‘z ichki bosimini yanada samarali nazorat qilish imkonini beradi.

Xulosa: Glaukoma kasalligi surunkali va progressiv kechuvchi kasallik bo‘lib, o‘z vaqtida aniqlanmasa ko‘ruv qobiliyatining qaytarib bo‘lmas darajada pasayishiga olib keladi. Tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, ushbu kasallikni davolashda qo‘llaniladigan dori vositalari ko‘z ichki bosimini samarali nazorat qilish orqali kasallik rivojlanishini sekinlashtirishda muhim o‘rin tutadi.

SALBUTAMOLNING BRONXODILITATOR SIFATIDAGI FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA KLINIK QO’LLANILISHI

Aldebergenova Aqnur Egemkulqizi
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti
Davolash fakulteti 211 -guruh talabasi
Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy rahbar: assistent S.N Istamova Sitora Nematovna

Tadqiqot maqsadi: Mazkur ishninhg maqsadi salbutamol preparatining farmakologik xususiyatlari va klinik ahamiyatini chuqur tahlil qilishdan iborat.Salbutamolning farmakokinetik xususiyatlarini umumlashtirish hamda ularning klinik samaradorligini o’rganish. Bronxial astma va surunkali o’pka kasalligi ,nafas yo’llarining torayishi, bronxlar shilliq qavatining yallig’lanishi hamda bronxospazm bilan karekterlanadigan keng tarqalgan kasalliklar hisoblanadi.Shu sababli bronxlarni kengaytiruvchi dori vositalari,ayniqsa betta2-adrenomimetiklar,pulmonologiya amaliyotida juda kata ahamiyatga ega.Ushbu guruh preparatlaridan biri bo’lgan.Salbutamol nafas yo’llaridagi silliq mushaklarni bo’shashtirib
,bronxlar o’tkazuvchanligini va bemorning nafas olishini yengillashtiradi

Materiallar va metodlar. Ushbu tadqiqotning metodologik asosi tibbiyot va farmakologiya sohalardagi amaliy hamda nazariy yondashuvlarga asoslangan.Preparatni farmokologik taqqoslash,farmakodinamik tahlil qilish. Klinik samaradorlikni umumlashtirish va nojo’ya ta’sirlarini tahlil etish.

Natijalar O’rganilgan manbalar asosida salbutamolning farmakologik va klinik xususiyatlari quydagicha aniqlangan:1.Bronx va nafas olish tizimiga ta’siri. Salbutamol selektiv betta-2-adrenomimetik bo’lib, Bronx silliq muskullarida adenilatsiklaza faollashishi orqali cAMP miqdorini oshiradi. Bu jarayon bronx mushaklarining bo’shashishiga olib keladi,natijada : bronxospazm kamayadi,nafas olish osonlashadi,bronxial astma xurujlarini tez bartaraf etadi. 2.Yurak-qon tomir tizimiga ta’siri: yurak urichi tezligi oshadi (taxikardiya), aritmiyalar yuzaga kelishi mumkin , qon bosimi sezilarli o’zgaradi. Shuninhg uchun yurak kasalligi bo’lgan bemorlarda salbutamol ehtiuotkorlik bilan qo’llaniladi. Qo’llash man etilgan qolatlar;Og’ir miokardiy ishemiya yoki aritmiya bilan kasallanganlarda,taxikardiyada,og’ir jigar va buyrak yetishmovchiligi bo’lgan bemorlarda ehtiyotkorlik talab etiladi.Nojo’ya tasirlari ichida eng ko’p uchraydi: qo’l titrashi (tremor),taxikardiya,bosh aylanishi,gipokalemiya.Bu nojo’ya ta’sirlar preparatning dozasiga va qo’llash tezligiga bog’liq bo’lishi aniqlangan.

Xulosa Salbutamol zamonaviy farmakologiyada brinxial astma va surunkali o’pka kasalliklarida, bronxospazm bilan kechuvchi kasalliklarni davolshda eng ko’p qo’llaniadigan dori vositalaridan birihisoblanadi.U selektiv betta-2-adrenoretseptorlar agonisti bo’lib,Bronx silliq mushaklardagi betta-2 retseptorlarni qo’zg’atishi natijasida hujayra ichida cAMP miqdorini oshiradi.Natijada Bronx devoir kengayadi va nafas olish yengilashadi. O’rganilgan ma’lumotlarga ko’ra, salbutamolning ingalyatsion shaklda qo’llanilishi uning eng muhim afzalliklaridan biridir.Chunki ingalyatsiya yo’li orqali preparat bevosita nafas yo’llariga yetib boradi,ta’siri tez boshlanadi va bronxospazmni qisqa vaqt ichida kamaytiradi.Biroq salbutamolning klinik qo’llanilishi davomida uning nojo’ya ta’sirlari ham e’tiborga olinishi zarur. Umuman olganda, salbutamol bronxospazmni tez bartaraf etuvchi,yuqori samarali bronxodilatator bo’lib,uning farmakologik ahamiyati juda katta.Ammo preparatni haddan tashqari ko’p va nazoratsiz ishlatish organizmda salbiy reaksiyalar chaqirishi mumkin.Shu sababli salbutamolni klinik amaliyotda faqat belgilangan dozalarda,shifokor tavsiyasiga asosan va ratsional tarzda qo’llash bemorning sog’lig’I hamda xavfsizligi uchun muhim hisoblanadi.

ТУЛКИ МОЯК ЎСИМЛИГИНИНГ ШИФОБАХШ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА АМАЛИЙ АҲАМИЯТИ

Алибоева Шахзода Улугиековна
Biotexnologiya, injenering va Farmatsiya fakulteti 202guruh talabasi
Самарканд Давлат тиббиёт университети.Узбекистон.
Илмий рахбар- Хасанова Гулбахор Рахматуллаевна .Фармакогнозия ва фармацевтик

Тадқиқот мақсади

Тулки мояк ўсимлигининг кимёвий таркиби, фармакологик хусусиятлари ва тиббиётда қўлланилиш истиқболларини ўрганиш.

Материаллар ва усуллар

Тадқиқотда ўсимликнинг ер устки қисми йиғиб олиниб, қуритилган ҳолда лаборатория таҳлилларидан ўтказилди. Фитокимёвий таҳлил усуллари орқали флавоноидлар, танинлар, алкалоидлар ва бошқа биологик фаол моддалар аниқланди. Шунингдек, антимикроб ва антиоксидант фаолликни баҳолаш учун стандарт лаборатория усуллари қўлланилди. Тулки мояк ўсимлиги асосан мўътадил иқлим шароитида ўсади. У Марказий Осиё ҳудудларида, жумладан Ўзбекистоннинг тоғолди ва тоғли минтақаларида, хусусан, Зарафшон водийси, Тянь-Шань етаклари ва Фарғона водийсида учрайди. Шунингдек, у Қозоғистон, Қирғизистон ва қисман Россиянинг жанубий ҳудудларида ҳам тарқалган.

Ўсимлик кўпроқ қуёшли, қуруқ ва ярим қуруқ тупроқларда яхши ривожланади. Табиий шароитда у адир ва тоғ ён бағирларида, ўтлоқларда ҳамда кам дарахтли ҳудудларда ўсиши кузатилади. Бу эса унинг экологик мослашувчанлиги юқори эканлигини кўрсатади.

Натижалар ва муҳокама

Олиб борилган тадқиқотлар натижасида тулки мояк ўсимлиги таркибида биологик фаол моддаларнинг бой комплекси мавжудлиги аниқланди. Хусусан:

Флавоноидлар миқдори юқори бўлиб, улар эркин радикалларни нейтраллаш орқали ҳужайраларни оксидатив стрессдан ҳимоя қилади. Бу ҳолат юрак-қон томир касалликларининг олдини олишда муҳим аҳамиятга эга.

Танинлар яллиғланишга қарши ва антисептик таъсир кўрсатиб, тери ва шиллиқ қават касалликларини даволашда самарали ҳисобланади.

Алкалоидлар марказий нерв тизимига маълум даражада таъсир кўрсатиб, айрим ҳолатларда оғриқсизлантирувчи ва тинчлантирувчи хусусият намоён қилади.

Ўсимлик экстрактларида антимикроб фаоллик кузатилиб, айрим бактерия ва замбуруғ турларига нисбатан ўсишни сусайтирувчи таъсир қайд этилди.

Шунингдек, тадқиқот натижалари тулки мояк экстрактларининг иммуномодуляторлик хусусияти мавжудлигини кўрсатди, яъни организмнинг ҳимоя қобилиятини оширишга ёрдам беради.

Олинган натижалар ушбу ўсимликни фитопрепаратлар яратишда истиқболли манба сифатида қараш имконини беради.

Хулоса

Тулки мояк ўсимлиги кенг географик тарқалишга эга бўлиб, турли экологик шароитларга мослашган. Унинг таркибидаги биологик фаол моддалар организмга комплекс ижобий таъсир кўрсатади. Тадқиқот натижалари ушбу ўсимликни доривор восита сифатида янада чуқур ўрганиш ва амалиётга жорий этиш зарурлигини асослайди.

FARMATSEVTIKA AMALIYOTIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA ELEKTRON DORIXONA TIZIMLARI

Amangeldiyeva Sevinch Davlat qizi
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti,
Biotexnologiya,injinering va farmatsiya fakulteti, 206-guruh talabasi
Samarqand, O‘zbekiston
Ilmiy rahbar: Asst. M.B. Usmanova

Kirish: Hozirgi vaqtda raqamli texnologiyalar va elektron dorixona tizimlari farmatsevtika sohasida muhim rol o‘ynamoqda. Axborot texnologiyalarini joriy etish dorixonalarda xizmat sifatini yaxshilashga, dori vositalarini hisobga olish va retseptlarni boshqarish jarayonlarini soddalashtirishga va xatoliklar sonini kamaytirishga imkon beradi.
Tadqiqotning maqsadi: Raqamli texnologiyalar va elektron boshqaruv tizimlarini joriy etishning farmatsevtika amaliyotining samaradorligiga va dorixonalarda xizmat sifatiga ta’sirini o‘rganish.
Materiallar va tadqiqot usullari: Adabiyot manbalarini tahlil qilish, elektron dorixona boshqaruv tizimlari sharhlari, shuningdek, raqamli texnologiyalarni joriy etishdan oldingi va keyingi dorixona ishlash ko‘rsatkichlarini taqqoslash. Asosiy e’tibor dori vositalarini hisobga olishning avtomatlashtirilishi, zaxiralarni nazorat qilish, retseptlarni monitoring qilish va bemorlarga xizmat jarayonlarini takomillashtirishga qaratildi.
Tadqiqot natijalari: Elektron tizimlarni joriy etish dori berishda xatoliklarni kamaytirishga, retseptlarni tezroq ishlashga va dori zaxiralarini yaxshiroq nazorat qilishga imkon berdi. Raqamli texnologiyalarni qo‘llaydigan dorixonalarda xodimlarning samaradorligi oshdi va bemorlar qoniqishi yuqorilandi. Elektron ma’lumotlar bazalari aniqroq hisobot berishga va qonunchilik talablariga rioya qilishga yordam berdi. Bundan tashqari, tizimlar dorixona ichidagi ish jarayonlarini avtomatlashtirib, vaqtni tejash va xodimlarning ish yukini kamaytirishga yordam berdi.
Xulosa: Farmatsevtika faoliyatini raqamlashtirish va elektron dorixona tizimlaridan foydalanish bemorlarga xizmat sifatini oshiradi, xatolik xavfini kamaytiradi va dori zaxiralarini boshqarishda shaffoflikni ta’minlaydi. Ushbu texnologiyalar farmatsevtika sohasini rivojlantirishning strategik jihatdan muhim yo‘nalishini tashkil etadi va tibbiyot muassasalarida kengayish imkoniyatiga ega. Kelajakda elektron tizimlarning yanada rivojlanishi va keng qo‘llanilishi dorixonalarda xizmatni avtomatlashtirish va bemor xavfsizligini oshirish imkonini beradi.

MARKAZIY NERV SISTEMASIGA LAVANDA (LAVANDULA ANGUSTIFOLIA MILL) EFIR MOYINING FARMAKODINAMIKASINI O’RGANISH

Aminjonova Munisa Azizjon qizi, Davronova Fayoza Davlat qizi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Davolash fakulteti 2-kurs talabalari
Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy rahbar: assistant R.R. Arslonova

Dolzabligi. Insoniyat hayoti o‘simliklar olami bilan uzviy bog'langan. Ular inson hayotida muhim ahamiyatga ega.. Hozirgi davrda zamonaviy tibbiyotda shifobaxsh o’simliklar bilan davolash keng ko’lamda qo’llanilmoqda. Shunday yuqori biologik xususiyatga ega bo’lgan lavanda o'simlikgi juda keng tarqalgan va istiqbolli yuqori bo’lgan shifobaxsh o'simliklarga kiradi. Lavanda o'simlikning tarkibidan ajratilib olingan efir moyining faoliyati, ulardan tibbiyot amaliyotida qo‘llanilishi alohida o‘rin tutadi. Lavanda efir moyi tibbiyotda markaziy nerv sistemasiga ruhiyatga o‘ziga xos tinchlantiruvchi-anksiolitik ta’sir ko'rsatishi o’simlik dori sifatida Evropa Tibbiyot Agentligi tomonidan qo'llanilgan va tasdiqlangan. Lavanda(Lavandula angustifolia) efir moyining monoamino oksidaza (MAO-A), serotonin tashuvchisi retseptorlar (SERT), Gamma-aminobutirik kislota (GABA) va N-metil-D-aspartat (NMDA) retseptorlari kabi markaziy asab tizimiga, shuningdek neyrotoksiklikning in vitro modellariga ta’sirini baholash orqali aniqlangan.
Tadqiqot maqsadi: Markaziy asab tizimiga Lavanda (Lavandula angustifolia Mill) efir moyining farmakodinamiksini foydalanish bo'yicha ilmiy nashrlarni o’rganish.
Material va usullar: Lavanda (Lavandula angustifolia Mill.) efir moyining asab tizimiga tinchlantiruvchi va anksiolitik ta’sirini o‘rganish maqsadida PubMed va eLIBRARY xalqaro ma’lumotlar bazalaridagi ilmiy manbalar tahlil qilindi. Tadqiqotda o‘simlikning vegetatsiya davrlari va faol moddalarni ajratib olishning zamonaviy usullari ko‘rib chiqildi. Olingan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, efir moyi MAO-A (monoaminooksidaza-A) fermenti,

SERT (serotonin tashuvchisi) va ionotrop retseptorlar (GABA va NMDA) bilan faol bog‘lanadi. Shuningdek, u vodorod peroksid, malonat va amiloid kabi neyrotoksik agentlarning salbiy ta’siriga qarshi yuqori himoya salohiyatini namoyon etadi. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, efir moyi NMDA (N-metil-D-aspartat) retseptorlarini bloklash orqali kuchli neyrotrop va tinchlantiruvchi samara beradi. Lavandaning anksiolitik xususiyatlari bevosita uning tarkibidagi linalol va linalil asetat kabi monoterpenlarga bog‘liqdir. Ilmiy dalillar ushbu moddalarning markaziy asab tizimidagi glutamatergik tizim faoliyatini tartibga solish orqali psixofiziologik holatni yaxshilashini ko‘rsatmoqda.

Natijalar: Natljaralar shuni ko’rsatadiki lavanda efir moyining va uning asosiy komponentlari glutamat NMDA-retseptoriga lavanta yog'i uchun 0,04 µl/ml IC50 qiymati bilan dozaga bog‘liqligi ko‘rsatilgan Bundan tashqari, lavanta va linalool ham serotonin tashuvchisini (SERT) bog'lashi mumkin edi, ammo ular GABA-benzodiazepin retseptorlari uchun yaqinlik ko'rsatmadi . Neyrotoksiklikning uch xil modelida lavanda vodorod peroksidi bilan ishlov berilgan SH-SY5Y hujayralarining (nevrologiyada keng qo'llaniladigan hujayra liniyasi) neyrotoksik ta'sirini va yaxshilangan hayotiyligini kuchaytirmadi. Bizning ma'lumotlarimizga ko'ra, lavanda bilan bog'liq bo'lgan anksiolitik va antidepressantga o'xshash ta'sir NMDA-retseptorlaridagi antagonizm va SERT ingibisyasiga bog'liq bo'lishi mumkin. Olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, lavanda efir moyi NMDA retseptorlari, SERT va vodorod peroksid tomonidan qo'zg'atilgan neyrotoksiklikni modulyatsiya qilish orqali farmakologik xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

Xulosa. Lavanda tibbiyotda u asab tizimi qo‘zg‘aluvchanligini pasaytiruvchi va xavotirni kamaytiruvchi (anksiolitik) vosita sifatida keng qo‘llaniladi. Lavanda nafaqat ruhiy xotirjamlik beradi, balki neyronlarni vodorod peroksidi kabi toksik moddalar zarari natijasida kelib chiquvchi neyrotoksiklikdan ham samarali himoya qiladi.

O‘SIMLIK VA TABIIY QO‘SHIMCHALARNING OVQAT HAZM QILISH TIZIMIGA TA’SIRI

Anarboyeva Farida Olimjonovna
Biotexnologiya,injiniring va farmatsiya fakulteti 406-guruh talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O`zbekiston
Ilmiy rahbar: ass. Axmedov B. X

Ishning maqsadi: O‘simlik va tabiiy qo‘shimchalarning ovqat hazm qilish tizimi funksiyasiga ta’sirini baholash, ichak mikroflorasini yaxshilash va hazm qilish jarayonini optimallashtirishdagi samaradorligini aniqlash.

Tekshirish usullari: Tadqiqot 40 nafar sog‘lom va hazm qilish muammolari mavjud bo‘lgan 20–55 yoshdagi ishtirokchilar ustida o‘tkazildi. Bemorlar tasodifiy ravishda ikki guruhga bo‘lindi. Asosiy guruh (20 nafar): 10 kun davomida kuniga 2 mahal hazm qilishni yaxshilovchi o‘simlik va tabiiy qo‘shimchalarni (masalan, yalpiz, ismaloq, kefir va probiotiklar) iste’mol qildi. Nazorat guruhi (20 nafar): faqat odatdagi parhez va sog‘lom turmush tarzini davom ettirdi. Tadqiqot davomida ishtirokchilarning ovqat hazm qilish jarayoni, ich qotishi yoki diareya holatlari, umumiy ahvol va ichak mikroflorasi monitoring qilindi.

Tekshirish natijalari: Asosiy guruhda ovqat hazm qilish jarayonlari sezilarli yaxshilandi: ich qotishi holatlari 60% ga kamaydi, diareya holatlari esa 50% ga kamaydi. Ichak mikroflorasi optimallashtirildi: foydali bakteriyalar soni oshdi, patogen mikroorganizmlar kamaydi. Ishtirokchilarning umumiy ahvoli va energiya darajasi yaxshilandi. Nojo‘ya ta’sirlar deyarli qayd etilmadi.

Xulosa: O‘simlik va tabiiy qo‘shimchalar ovqat hazm qilish tizimi funksiyasini samarali yaxshilaydi, ichak mikroflorasini optimallashtiradi va hazm qilish bilan bog‘liq muammolarni kamaytiradi. Shu bois, ularni profilaktik va terapevtik maqsadlarda zamonaviy tibbiyot amaliyotida qo‘llash tavsiya etiladi.

PORTULACA OLERACEA O‘SIMLIGINING TARKIBINI O‘RGANISH VA UNING 2-TUR QANDLI DIABETDA QO‘LLANILISHI TADQIQOTLAR

Azimov Olim
Biotexnologiya, injeniring va farmatsiya fakulteti 408-guruh talabasi.
Samarqand davlat tibbiyot unversiteti
Samarkand, Uzbekistan
Ilmiy rahbar: PhD assistent T.O’. Anvarov

Ishning maqsadi: 2-tur qandli diabet (T2DM) global miqyosda keng tarqalgan surunkali kasalliklardan biri bo‘lib, uglevod, oqsil va lipid almashinuvining buzilishi bilan xarakterlanadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham ushbu kasallik bilan kasallanish ko‘rsatkichlari ortib borayotgani kuzatilmoqda. Xususan, 2022-yilda 48 711 ta yangi holat qayd etilgan bo‘lib, jami bemorlar soni 363 585 nafarga yetgan va bu umumiy aholining qariyb 0,99 foizini tashkil etadi. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ma’lumotlariga ko‘ra, 2017–2021-yillar oralig‘ida 100 000 aholiga nisbatan kasallanish darajasi 21,4 dan 18,3 gacha pasaygan bo‘lsa-da, umumiy epidemiologik vaziyat hali ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy antidiabetik preparatlar samaradorligiga qaramay, ularning ayrim hollarda nojo‘ya ta’sirlar keltirib chiqarishi va uzoq muddat qo‘llanganda samaradorligining pasayishi kuzatiladi. Shu bois tabiiy manbalarga asoslangan muqobil va xavfsiz davolash vositalarini izlash muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xalq tabobatida keng qo‘llaniladigan *Portulaca oleracea* o‘simligi biologik faol moddalarga boyligi bilan e’tiborni tortadi. Uning tarkibida fenolik birikmalar, flavonoidlar, alkaloidlar hamda omega-3 yog‘ kislotalari mavjud bo‘lib, ular glyukoza almashinuvini tartibga solish va oksidlovchi stressni kamaytirishda muhim rol o‘ynashi mumkin.

Tekshirish usullari: *Portulaca oleracea* o‘simligining fitokimyoviy tarkibini aniqlash hamda uning 2-tur qandli diabetni davolashdagi potensial samaradorligini eksperimental va analitik usullar asosida baholash.

Tadqiqot uchun *Portulaca oleracea* namunalaridan suvli va etanol ekstraktlari tayyorlandi. Fitokimyoviy tahlil jarayonida umumiy fenolik birikmalar va flavonoidlar miqdori aniqlanib, yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YuSSX) hamda massa-spektrometriya usullari yordamida asosiy bioaktiv komponentlar identifikatsiya qilindi. In vitro sharoitda α-glukozidaza va α-amilaza fermentlariga nisbatan inhibitiv faollik baholandi. Shuningdek, ushbu o‘simlikning T2DMga ta’siriga oid mavjud ilmiy ishlanmalar tizimli ravishda tahlil qilindi. Metaanaliz jarayonida har bir tadqiqotdan ekstraksiya usuli, aniqlangan faol moddalar, tajriba modeli, qo‘llangan doza va olingan natijalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar maxsus shaklda jamlandi. Tadqiqotlarning metodologik sifati Cochrane Risk of Bias mezonlari asosida baholandi. Statistik tahlilda heterogenlik χ^2 testi va I^2 indeksi yordamida aniqlanib, umumiy ta’sir ko‘rsatkichi sifatida standartlashtirilgan o‘rtacha farq (SMD) va 95% ishonch oralig‘i (CI) hisoblandi. Turli dizayndagi tadqiqotlar mavjudligi sababli random-effects modeli qo‘llanildi.

Natijalar va xulosa. O‘rganilgan ekstraktlar tarkibida quercetin va kaempferol hosilalari kabi flavonoidlar hamda turli fenolik kislotalar mavjudligi aniqlandi. In vitro natijalar *Portulaca oleracea* ekstraktlarining α-glukozidaza va α-amilaza fermentlarini sezilarli darajada inhibitsiya qilishini ko‘rsatdi, bu esa uglevodlarning parchalanishi va glyukoza so‘rilishini sekinlashtirish orqali giperglikemiyani kamaytirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ekstraktlarning yuqori antioksidant faolligi oksidlovchi stressni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Olingan natijalar *Portulaca oleracea* o‘simligini 2-tur qandli diabetni kompleks davolashda istiqbolli fitoterapevtik vosita sifatida qo‘llash imkoniyatlarini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

AZOT ASOSLI DORI VOSITALARINING AHOLI SALOMATLIGIGA TA’SIRI.

Azizov Abduqahhorxon Odiljon o’g’li
Biotexnalogiya, injenering va farmatsiya fakulteti 3- kurs 308- gurux talabasi
Samarqand davlar tibbiyot universiteti
Samarqand, Uzbekistan
Ilmiy rahbar: M.U. Quyliyeva

Ishning maqsadi.
O’zbekiston respublikasi hududida azot asosli mahsulotlar va dori vositalarining aholi salomatligiga ta’siri va statistic ma’lumotlar asosida aholi salomatligidagi nuqsonlarning kelib chiqishini aniqlash va kasalliklarning oldini olishni tamilash.

Tadqiqot materiallari va usullari.
Tadqiqotni olib borishda O’zbekiston Sog’liqni Saqlash Vazirligi va statistika markazlarining rasmiy bayonotlariga tayangan holda, 2024 yil bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda 174,4 ming kishi vafot etgan. Bu ko‘rsatkich 2023 yilga nisbatan biroz ko‘p (2023 yilda 172,8 ming). O’lim sabablaridan; Saraton(onkologik kasalliklar) – 9.4%. Nafas organlari kasalliklari – 6.3%. Baxtsiz hodisalar – 5.8%. Ovqat hazim qilish tizimi kasalliklari -4.1%. Boshqa sabablar 16.8%. Biz uchun eng muhumi Qon aylanish kasalliklaridan -57.6% ni tashkil qilgani hisoblanadi. Ma’lumki qishloq xo’jaligida azot asosli o’g’itlardan keng foydalanish aholining yurak qon tomir tizimida azotning miqdori normadan oshib ketishi, aholi o’rtasida qon bosimi bilan muamolarning ko’payishiga olib keladi.

Tadqiqot natijalari.
Yuqorida aytib o’tilgan muammolar natijasida inson organizmi tashqaridan kirib kelayotgan azot tasirida pasayib borayotgan qon bosimini ko’tarib turishga urinadi va aynan bosimni ko’tarib turishga o’rganib qoladi. Organizmga tashqaridan kirib kelayotgan azot to’xtab qolgandan so’ng ham organizm qon bosimini ko’tarishda davom etadi. Aholining ko’p qismi qabul qilayotgan LARISTA va LORTENZA (losartan C22H23CIN6O) tarkib va ularning asosini ham tashkil qiladi.

Xulosa.
O’zbekiston Respublikasi statistika markaziga tayanadigan bo’lsak aholining 56% mehnatga layoqatli hisoblanadi. Agarda Agrar sektorda sintetik Azot asosli o’g’itlardan foydalanish keskin qisqartirilib, alternativ usullar ishlab chiqilmasa 56% mehnatga layoqatli aholi foyizlari kamayishi vaqt masalasi bo’lib qoladi.

POLIPRAGMAZIYA: DORI VOSITALARINING O‘ZARO TA’SIRI VA TERAPEVTIK XAVFSIZLIK TAHLILI

Bahromova Sohiba Baxodir qizi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti davolash fakulteti 217-guruh talabasi
Samarqand, O'zbekiston
Ilmiy rahbar: assistant Sh.M. Muxsinova

Ishning maqsadi: Klinik amaliyotda ko‘p komponentli farmakoterapiya (polipragmaziya) sharoitida qo‘llaniladigan dori vositalarining farmakokinetik va farmakodinamik o‘zaro ta’sir mexanizmlarini kompleks baholash; dori vositalarining biokiraolish (bioavailability) ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash; dori-dori va dori-ovqat nomutanosibligi natijasida yuzaga keladigan terapevtik xavflarni minimallashtirish hamda davolash samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar majmuasini ishlab chiqishdan iborat.

Materiallar va tadqiqot usullari: Tadqiqot obyekti sifatida SamDTU klinikalarida statsionar sharoitda davolanayotgan 90 nafar kardiologik, endokrinologik va gastroenterologik profildagi bemorlarning davolash sxemalari tanlab olindi. Bemorlarning o‘rtacha yoshi 52 yoshdan 78 yoshgacha bo‘lib, ularning har biriga sutkasiga o‘rtacha 6 tadan 12 tagacha turli guruhdagi dori vositalari tayinlangan. Tadqiqot jarayonida retrospektiv klinik tahlil, biokimyoviy laborator monitoring natijalari hamda "Drug Interaction Checker" xalqaro farmakologik filtrlash tizimidan

foydalanildi. Dori vositalarining o‘zaro ta’siri ularning jigar mikrosomal fermentlari (sitoxrom P450 tizimi) faolligiga va buyrak ekskretsiyasiga ta’siri nuqtai nazaridan chuqur o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari: O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, polipragmaziya holatidagi bemorlarning 55 foizida dori vositalarining o‘zaro nomutanosibligi bilan bog‘liq klinik belgilar va laborator o‘zgarishlar aniqlangan. Xususan, bilvosita antikoagulyantlar (varfarin) va nosteroid yallig‘lanishga qarshi vositalarning birga qo‘llanilishi 24 foiz holatda qon ivish tizimining kritik o‘zgarishiga (Xalqaro me’yorlashtirilgan nisbat - MNO ko‘tarilishi) va gemorragik asoratlar xavfining 3 barobarga ortishiga olib kelgan. Shuningdek, statinlar guruhiga kiruvchi preparatlarning ayrim makrolid antibiotiklari va zamburug‘ga qarshi vositalar bilan birga tayinlanishi natijasida bemorlarning 18 foizida gepatotoksiklik (ALT, AST ko‘tarilishi) va miopatiya belgilari qayd etildi. Tadqiqot davomida xronofarmakologiya tamoyillariga asosan dorilarni qabul qilish vaqtini farmakokinetik cho‘qqilarga ko‘ra taqsimlash hamda enteral oziqlanish bilan dori qabul qilish oralig‘ida kamida 2 soatlik interval saqlash orqali nojo‘ya effektlar soni 35-40 foizga kamaytirildi.

Xulosa: Polipragmaziya sharoitida dori vositalarining o‘zaro ta’siri davolash sifatini pasaytiruvchi va farmakologik qarshilikni (rezistentlik) keltirib chiqaruvchi asosiy omildir. Shifokor amaliyotida dori vositalarining metabolizm yo‘llari, plazma oqsillari bilan bog‘lanish darajasi va raqobatli ingibitsiya xususiyatlarini inobatga olish klinik xavfsizlikning kafolatidir. Har bir bemor uchun dori vositalarining optimal majmuasini individual tanlash, "farmakologik tahlil" tizimini joriy etish va polifarmatsiyadan voz kechish asoratlarni minimallashtirishning eng samarali strategiyasi hisoblanadi.

XALQ TABOBATI VA FARMAKOGNOZIYANING DOLZARB MASALALARI

Baxriyeva Dinara Ulug’bekovna
Biotexnologiya, injenering va Farmatsiya fakulteti 201-guruh talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Samarqand, O‘zbekiston
Ilmiy rahbar: PhD., N.D Kodirov

Dolzarbligi: Bugungi kunda dunyo miqyosida tabiiy dorivor vositalarga bo‘lgan talab ortib bormoqda.Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, aholining katta qismi birlamchi tibbiy yordamda o‘simlik preparatlaridan foydalanadi. Xalq tabobati ko‘p asrlik tajriba va empirik bilimlarga asoslangan bo‘lib, u biologik faol moddalarning tabiiy manbalarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, zamonaviy farmatsevtika sanoatida sifat, xavfsizlik va samaradorlik talablari kuchayib bormoqda. Xalq tabobatida qo‘llaniladigan o‘simliklarni ilmiy asosda o‘rganish, ularning kimyoviy tarkibini aniqlash va standartlashtirish farmakognoziyaning dolzarb vazifalaridan biridir. Ayniqsa, mahalliy dorivor o‘simlik resurslaridan oqilona foydalanish, import o‘rnini bosuvchi fitopreparatlar yaratish va biologik faol moddalarni aniqlash bugungi kun talabidir.

Tadqiqot maqsadi: Xalq tabobatida qo‘llaniladigan dorivor o‘simliklarning farmakognozik xususiyatlarini o‘rganish, ularning biologik faol moddalar tarkibini aniqlash hamda zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida amaliy tibbiyotga joriy etish istiqbollarini baholash.

Materiallar va usullar: Tadqiqot jarayonida quyidagi usullardan foydalanildi: Ilmiy adabiyotlar va manbalarni tahlil qilish; Xalq tabobatida keng qo‘llaniladigan dorivor o‘simlik namunalarini yig‘ish va identifikatsiya qilish; Makroskopik va mikroskopik tahlil usullari; Fitokimyoviy skrining (alkaloidlar, flavonoidlar, saponinlar, efir moylari va boshqa biologik faol moddalarni aniqlash);

Fizik-kimyoviy tahlil usullari (xromatografiya, spektrofotometriya);

Olingan natijalarni statistik qayta ishlash.

Natijalar: O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, xalq tabobatida qo‘llaniladigan ko‘plab o‘simliklar tarkibida farmakologik jihatdan muhim biologik faol moddalar mavjud. Ularning

ayrimlari antioksidant, yallig‘lanishga qarshi, antimikrob va immunomodulyator xususiyatlarga ega.
Shuningdek, ayrim o‘simlik turlarida biologik faol moddalarning miqdoriy ko‘rsatkichlari ekologik omillarga, yig‘ish va saqlash sharoitlariga bog‘liq holda farqlanishi aniqlandi. Bu esa xomashyoni standartlashtirish va sifat nazoratini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.
Xalq tabobati tajribalarini ilmiy asoslash natijasida yangi fitopreparatlar yaratish va ularni farmatsevtika amaliyotiga tatbiq etish imkoniyati mavjudligi aniqlandi.

Xulosa: Xalq tabobati va farmakognoziya o‘zaro uzviy bog‘liq sohalar bo‘lib, ularni integratsiyalash zamonaviy farmatsevtika rivojida muhim ahamiyatga ega. Dorivor o‘simliklarni chuqur farmakognozik o‘rganish, biologik faol moddalarni aniqlash va standartlashtirish orqali samarali hamda xavfsiz fitopreparatlar yaratish mumkin.
Kelgusida xalq tabobati merosini ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etish, innovatsion tahlil usullarini qo‘llash va mahalliy o‘simlik resurslaridan oqilona foydalanish farmatsevtika sanoatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

ALLERGIK VA NOALLERGIK BRONXIAL ASTMA. BRONXIAL ASTMA BILAN OG‘RIGAN BEMORLARGA SALBUTOMOL PREPARATINI QO‘LLASH SAMARADORLIGI

Boltayeva E’zoza Sherzod qizi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Davolash ishi fakulteti, 2-kurs
Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy rahbar: X.H. Rustamova

Ishning maqsadi: Ushbu tadqiqotning maqsadi, bronxial astma nafas yo‘llarining surunkali yallig‘lanish kasalligi bo‘lib, bronxial gipereaktivlik, reversibil obstruksiya va havo oqimi cheklanishi bilan tavsiflanadi. Ushbu kasallik murakkab etiopatogenezga ega bo‘lib, unda genetik predispozitsiya va tashqi muhit omillari o‘zaro ta’sirda bo‘ladi.

Tadqiqot materiallari va usullari: Allergik bronxial astma IgE-mediyatsiyalangan I-tip gipersezuvchanlik reaksiyasi asosida rivojlanadi. Bu jarayonda Th2-limfotsitlar tomonidan IL-4, IL-5, IL-13 kabi sitokinlar ajraladi va eozinofillar faollashadi. Natijada hujayralar degranulyatsiyasi yuz berib, gistamin, leykotrienlar va prostaglandinlar ajraladi.
Noallergik bronxial astma esa ko‘proq neytrofil yallig‘lanish, epitelial disfunksiya va noimmun triggerlar (infeksiyalar, sovuq havo, stress) bilan bog‘liq bo‘lib, unda Th1/Th17 yo‘nalishidagi immun javob ustunlik qiladi.Allergik va noallergik bronxial astmaning molekulyar-patogenetik mexanizmlarini chuqur o‘rganish hamda zamonaviy farmakologik terapiyaning ta’sir mexanizmlarini tahlil qilish. Mazkur ishda zamonaviy GINA (Global Initiative for Asthma) tavsiyalari, randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlar (RCT), meta-tahlillar va farmakologik adabiyotlar asosida tizimli tahlil o‘tkazildi. Dori vositalarining farmakodinamikasi, farmakokinetikasi va retseptor darajasidagi ta’sir mexanizmlari o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari: Allergik bronxial astmada antigen ta’sirida B-limfotsitlar tomonidan IgE ishlab chiqarilishi kuchayadi. IgE mast hujayralar yuzasidagi FcεRI retseptorlarga birikib, ularning degranulyatsiyasiga olib keladi. Natijada yallig‘lanish mediatorlari ajralib chiqadi va bronxokonstriksiya, shilliq gipersekretsiya hamda shish rivojlanadi.

Noallergik astmada esa yallig‘lanish jarayoni asosan neytrofillar orqali amalga oshadi va bu shakl ko‘pincha glyukokortikosteroidlarga nisbatan rezistent bo‘lishi mumkin.
Farmakologik davolash quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi:
• Inhalyatsion glyukokortikosteroidlar (IGKS) — NF-κB signal yo‘lini inhibitsiya qilib, proinflamator sitokinlar sintezini kamaytiradi
• β2-adrenoreseptor agonistlari (SABA, LABA) — adenilat-siklaza faollashuvi orqali cAMP miqdorini oshiradi va bronxial mushaklarni bo‘shashtiradi
• Antixolinergik preparatlar (M3-retseptor antagonistlari) — bronx tonusini pasaytiradi

• Leykotrien retseptorlari antagonistlari — yallig‘lanish mediatorlari ta’sirini bloklaydi
• Biologik preparatlar (omalizumab, mepolizumab) — IgE va interleykinlarga selektiv ta’sir ko‘rsatadi
Kombinatsion terapiya (IGKS + LABA) klinik samaradorlikni sezilarli oshiradi va astma nazoratini yaxshilaydi.

Xulosa: Allergik va noallergik bronxial astma patogenezining molekulyar farqlari farmakologik terapiya tanlashda muhim ahamiyatga ega. Individualizatsiyalangan, fenotip va endotipga asoslangan yondashuv zamonaviy davolashning asosini tashkil etadi. Biologik terapiya va kombinatsion davo usullari bronxial astmani samarali nazorat qilishda istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

АСАЛНИ ШИФОСИ.

Эшниезова Нилуфар Асадулло кизи
Даволаш факультети талабаси
Пулатов Фирдавс
Фармация факултети талабаси
Самарқанд Давлат тиббиёт университети
Самарқанд, Ўзбекистон
Илмий рахбар Г.Б. Юлдошева

. Ишнинг максади: Асал кашф қилинганидан бери, минг йиллар давомида инсонлар ундан дори маҳсулоти сифатида фойдаланиб келади. Биз асосан унинг шамоллашга қарши самарали шифо беришига кўникиб қолганмиз, аслида эса асалнинг фойдали томонлари сероб: суяк тўқималари учун-унда 20 дан ортиқ аминокислоталар бўлиб, калций моддасининг организмга яхши сўрилишига ёрдам беради; айни шу аминокислоталар асаб тизимининг меъёрида ишлашини таъминлайди, стресс ва дипрессияга қарши курашувчанликни оширади, мия фаолиятини яхшилаб, хотирани мустаҳкамлайди; асалдаги витаминлар юрак фаолиятини яхшилайди, томирларни мустаҳкамлайди ва ундаги холестерин миқдорини камайтиради; асалдаги антиоксидантлар ва бактерияларга қарши кураша олиш хусусияти йўтални енгиллаштиради, нафас йўлини юмшатади, Бу ажойиб маҳсулот кўп миқдорда истеъмол қилинса салбий таъсир қилиши мумкин. Қуйидаги ҳолатларда асални тановвул қилиш тавсия етилмайди:агар сиз аллергиядан азият чексангиз: асал-кучли аллергендир;агар сиз ортиқча вазндан шикоят қилсангиз: асал - калорияларга бой маҳсулотдир; агар сиз қандли диабет касалига чалинган бўлсангиз: албатта бир қошиқ шакардан бир қошиқ асал афзалроқ, аммо кўп миқдорда истеъмол қилиш зарарлидир.

Тадкикот материаллари ва усуллари: Қуйида болаларда асалнинг асосий фойдали хусусиятлари куриб чикилди:10 та хар хил шикоятлар билан болалар олинди ва асалдан фойдаланиб курилди.Болалар учун асалнинг фойдали хусусиятларидан бири бу иммунитетни мустаҳкамлаш:Асал антибактериал ва антивирус хусусиятларга эга, совуқ тушганда ёки шамоллашда ёрдам беради.Доимий равишда оз миқдорда истеъмол қилинса, касалликларга қарши чидамлиликни оширади.Йўтални енгиллаштиради:Илиқ сув ёки сут билан асал аралашмаси йўтални камайтиради ва томоқни юмшатади.Айниқса кечаси йўтали бор болалар тинчроқ ухлайди.Овқат ҳазм қилишни яхшилайди:Асал ичак флорасига фойдали таъсир кўрсатади, ич қотиши ёки овқат ҳазм қилиш муаммоларида ёрдам беради.Энергияни оширади:Табиий шакарлар (глюкоза ва фруктоза) боланинг энергиясини кўпайтиради ва фаол бўлишига ёрдам беради.Яхши уйқуни таъминлайди:Асал асаб тизимини тинчлантиради, шунинг учун кечқурун асал қўшилган сут яхши уйқу учун фойдали.

Хулоса:Улардан биттасига аллергик таьсир курсатди. Шу сабабли Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти (ЖССТ) ва педиатрлар бутун дунё бўйлаб асални фақат 12 ойликдан кейин беришни қатъий тавсия қилишади.

J. VEYN KASHFIYOTI ASOSIDA NOSTEROID YALLIG‘LANISHGA QARSHI VOSITALARNING SIKLOOKSIGENAZA IZOFERMENTLARIGA SELEKTIV TA’SIR MEXANIZMLARI TAHLILI

Esjonqulov Ilxom Shuxrat o’g’li
Davolash fakulteti 213-guruh talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Samarqand, O‘zbekiston
Ilmiy rahbar: Abduraxmonova Z.E.

Ishning maqsadi: J. Veyn tomonidan asoslab berilgan prostaglandinlar sintezi mexanizmlariga tayangan holda, nosteroid yallig‘lanishga qarshi vositalarning (NYAQV) siklooksigenaza izofermentlariga selektiv ta’siri va shu bilan bog‘liq nojo‘ya ta’sirlar patogenezini tahlil qilish.

Tadqiqot materiali va usullari: Tadqiqotda J. Veynning fundamental ishlari hamda so‘nggi yillarda PubMed va Scopus bazalarida chop etilgan SOG-1 va SOG-2 ingibitorlariga oid 30 dan ortiq ilmiy maqolalar o‘rganildi. Olingan ma’lumotlar qiyosiy va tizimli tahlil usullari yordamida umumlashtirildi.

Tadqiqot natijalari: Aniqlanishicha, NYAQVlar araxidon kislotasi metabolizmini bloklab, siklooksigenaza fermenti orqali prostaglandinlar sintezini kamaytiradi. Keyingi tadqiqotlar ushbu fermentning ikki asosiy izoformasi mavjudligini ko‘rsatgan: SOG-1 (fiziologik himoya funksiyasiga ega) va SOG-2 (asosan yallig‘lanish jarayonida induksiya qilinadi).

Nonselektiv NYAQVlar (diklofenak, ibuprofen) ikkala izofermentni ham ingibirlab, yallig‘lanishga qarshi samarali ta’sir ko‘rsatadi, ammo SOG-1 bloklanishi natijasida oshqozon shilliq qavati himoyasi susayadi. Klinik kuzatuvlarga ko‘ra, bunday preparatlar qo‘llanilganda gastropatiya va oshqozon-ichak qon ketishlari xavfi 2–4 barobar ortadi. Selektiv SOG-2 ingibitorlari (tselekoksib, etorikoksib) esa asosan yallig‘lanish o‘chog‘iga ta’sir qilib, oshqozon-ichak tizimiga zararini kamaytiradi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu preparatlar qo‘llanilganda GI asoratlar xavfi 50–60% ga kamayadi. Biroq yuqori selektivlikning salbiy tomoni ham mavjud. SOG-2 ingibitorlari qon tomir endoteliysida prostatsiklin sintezini kamaytirib, tromboksan A2 bilan muvozanatni buzadi. Natijada trombozga moyillik ortadi. Meta-tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bunday preparatlar uzoq muddat qo‘llanilganda miokard infarkti va trombotik asoratlar xavfi 1,5–2 barobar oshadi.

Xulosa: J. Veyn tomonidan aniqlangan siklooksigenaza orqali prostaglandinlar sintezi mexanizmi NYAQVlarning asosiy farmakologik ta’sir nuqtasini tashkil etadi. Preparatlarning SOG-1 va SOG-2 ga selektivligi ularning samaradorligi bilan birga nojo‘ya ta’sirlar profilini ham belgilaydi. NYAQV tanlashda bemorning individual xususiyatlari, ayniqsa oshqozon-ichak va yurak-qon tomir tizimi bilan bog‘liq xavf omillari hisobga olinishi zarur.

HOMILADORLIKDA DORI VOSITALARINI QO‘LLASH VA TERATOGENLIK: FARMAKOLOGIK XAVFSIZLIK MASALALARI

Fayzullayeva E’zoza To’lqin qizi
Eshniyozova Nilufar Asadulla qizi
Sharipova Moxinabonu Utkurovna
Davolash fakulteti 330-229 guruh va 507- guruh farmatsiya fakulteti talabalari.
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Samarkqand, Uzbekistan
Ilmiy raxbar: assistenti G.B. Yo’ldosheva
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Samarkqand, Uzbekistan.

Dolzarbligi: Homiladorlik davrida farmakoterapiya masalasi zamonaviy klinik farmakologiya va akusherlik amaliyotining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Dori vositalarining ko‘pchiligi platsentar bar’yer orqali o‘tib, embriofetotoksik ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Teratogenlik — bu ekzogen omillar, xususan farmakologik preparatlar ta’sirida embrion va

homilada strukturaviy (morfologik), funksional hamda biokimyoviy nuqsonlarning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Hozirgi kunda o‘z-o‘zini davolash holatlarining ortishi, dori vositalarining nazoratsiz qabul qilinishi va farmakologik savodxonlikning yetarli emasligi tug‘ma rivojlanish nuqsonlari (TRN) xavfini oshirmoqda. Shu sababli homiladorlikda dori vositalarining xavfsizlik profilini chuqur o‘rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning maqsadi: Homiladorlik davrida qo‘llaniladigan dori vositalarining teratogenlik xususiyatlari, farmakokinetik va farmakodinamik omillari hamda homila rivojlanishiga ta’sir mexanizmlarini tahlil qilish.

Tadqiqot materiali va usullari: Tadqiqot sistematik adabiyotlar tahlili asosida olib borildi. Zamonaviy klinik va eksperimental manbalar o‘rganilib, turli farmakologik guruhlar — antibiotiklar, analgetiklar, antikonvulsantlar, retinoidlar, gormonal preparatlar va sitostatik vositalarning teratogenlik potensiali baholandi. Dori vositalarining platsenta orqali o‘tish mexanizmlari (passiv diffuziya, faol transport), ularning lipofilligi, molekulyar massasi va plazma oqsillari bilan bog‘lanish darajasi inobatga olindi.

Tadqiqot natijalari: Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, dori vositalarining teratogen ta’siri ko‘p omilli jarayon bo‘lib, preparatning doza va ekspozitsiya davomiyligi, qo‘llash vaqti (gestatsion davr) hamda onaning metabolik holatiga bog‘liq. Homiladorlikning birinchi trimestri — organogenez bosqichi — eng kritik davr hisoblanadi. Ushbu davrda retinoidlar (izotretinoin), tetratsiklin antibiotiklari, valproat kislotasi kabi antikonvulsantlar va sitotoksik preparatlar embrion rivojlanishida jiddiy morfologik nuqsonlar keltirib chiqarishi mumkin. Ikkinchi va uchinchi trimestrlarda esa dori vositalari ko‘proq homilaning funksional yetilishiga ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, nosteroid yallig‘lanishga qarshi dorilar (NSAID) kechki gestatsiyada qo‘llanganda arterial yo‘l (ductus arteriosus)ning muddatidan oldin yopilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, penitsillinlar, ayrim sefalosporinlar va suvda eruvchi vitaminlar nisbatan xavfsiz preparatlar sifatida baholanadi, ammo ularni ham klinik ko‘rsatmalarsiz qo‘llash maqsadga muvofiq emas.

Xulosa: Homiladorlik davrida farmakoterapiya individual va ehtiyotkor yondashuvni talab etadi. Teratogenlik xavfi yuqori bo‘lgan dori vositalarini qo‘llashdan maksimal darajada cheklanish lozim. Har qanday farmakologik aralashuv faqat shifokor nazorati ostida amalga oshirilishi kerak. Profilaktika nuqtai nazaridan, ayollar orasida dori vositalaridan oqilona foydalanish bo‘yicha tushuntirish ishlarini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega.

DORIXONALARDA DORI VOSITALARINING AYLANMASI VA SAVDO HAJMIGA TASIR ETUVCHI OMILLAR

Fayzullayeva Ma’suma Zubaydullo qizi
403 guruh talabasi Farmatsiya fakulteti
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy rahbar: Dot., N.S. Bozorova

Dolzarbligi: Hozirgi vaqtda mamlakatimizda farmatsevtika sohasida katta e’tibor berilishiga qaramasdan dorixonalarda tovar aylanishi dori preparatlarini posmarketing tizimi ishlab chiqarilmagan. Bu O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 23-yanvar 2024-yildagi PF-20 sonli farmonida ham aytib o’tilgan.

Tadqiqotimizning maqsadi: Dorixonalarda dori vositalarining aylanmasini hamda savdo hajmini oshirishga ta’sir etuvchi omillarni o’rganish.

Materiallar va tadqiqot usullari: Biz tadqiqotimiz davomida Samarqand shahridagi 7 ta ,, Ishonch Med MCHJ ” ,, MedFarm MCHJ ” ,, FarzonaFarm MCHJ” ,, ErkBio MCHJ ” ,,36.6 MCHJ” ,,AziaEcoFarm MCHJ” ,,LifeFarm MCHJ” dorixonalarini tadqiqot obyektlari sifatida tanlab oldik.

Bu dorixonalarning geolokatiyasi, tashqi ko’rinishi, ichki dizayni, dorixonadagi dori maxsulotlarining miqdori va ularning narxlari, ishchi xodimlarning malakaviy bilimlari, kunlik va oylik o’rtacha savdo miqdorlari o’rganib chiqildi. Tadqiqotlar davomida 3 ta (42,85%)

dorixona salomatlik markazlari atrofida, 2 ta (28,57%) bozor atrofida, 2 ta (28,57%) dorixona aholi qatlami yupqaroq bo'lgan chekka tumanlarda joylashganligi ma'lum bo'ldi. Dorixonalardagi savdo hajmi va tovarlarning aylanma miqdori o'rganib chiqilganda, shaxar salomatlik markazi va aholi qatlami qalin bo'lgan hududlarda yuqori ekanligi aniqlandi. Biz tadqiqotimizni shu qatlamlardagi dorixonalarda chuqurroq olib bordik.

Natijalar:Aholi salomatlik markazida joylashgan ,, ErkBio MCHJ, Ishonch Med MCHJ, LifeFarm MCHJ" dorixonalardagi tovarlar aylanmasi va savdo hajmini solishtrib ko'rganimizda uchala dorixona boshqa dorixonalarga nisbatan bitta joyda joylashganiga qarmasdan ulardagi savdo hajmi va tovarlar aylanmasi bir biridan farq qlishini korishimiz mumkun. ,,ErkBio MCHJ,, da assortiment narxi 320 mln, assortiment xili 1820, tovarlar aylanmasi (oy) 1,25. ,,Ishonch Med MCHJ da assortiment narxi 311 mln mln, assortiment xili 1430, tovarlar aylanmasi (oy) 1,05.
,, LifeFarm MCHJ,, da assortiment narxi 342 mln, assortiment xili 2160, tovarlar aylanmasi (oy) 1,37. ,, FarzonaFarm MCHJ da assortiment narxi 436 mln mln, assortiment xili 4210, tovarlar aylanmasi (oy) 0,93. ,,MedFarm MCHJ da assortiment narxi 342 mln, assortiment xili 3830, tovarlar aylanmasi (oy) 0,71.

Buning sababini chuqurroq o'rganganimizda yana bir ta'sir etuvchi omil dorixonalarda yo'lga qo'yilgan merchendayzing ekanligi ma'lum bo'ldi.

Aholi salomatlik markazida joylashgan (1-jadval.) dorixonalarda ko'rib turganimizdek tovarlar aylanmasi 0.44, assortiment xili 2050 bo'lib, bir biridan farq qilayapdi.

Yuqorida korsatilgan tasir etuvchi omillardan tashqari savdo hajmini oshirish, ishchi hodimning malakaviy ko'nikmalari, dorixonalarda yo'lga qo'yilgan merchindayzingnin tasirlari ham muhuim omil bolib xizmat qilishi ma'lum bo'ldi.

Xulosa. Dorixonalarda dori vositalarining aylanmasiga ularning joylashuvi yani geolakatsiyasi, dorixonadagi tovarlar assortimentining hilma xilligi, ishchi xodimlarning bilim va ko'nikmalari, etiborni tortuvchi reklama bannerlari hamda haridorlarga yaratib berilgan sharoitlar asosiy omil bo'lib xizmat qilishi ma'lum bo'ldi.

ZUBTURUM (PLANTAIN) O‘SIMLIGI ASOSIDA TAYYORLANGAN DORI VOSITALARINING OSHQOZON-ICHAK TIZIMIDAGI AHAMIYATI

Fazliddinov Janobiddin Zaynobiddin o‘g‘li
Samarqand Davlat tibbiyot universiteti,
Davolash ishi fakultetining 6-bosqich talabasi
Samarqand, O'zbekiston
Ilmiy rahbar: dots. K.A. Islamova

Tadqiqot maqsadi: Zubturum (plantain) dorivor xususiyatlarga ega bo‘lgan o‘simliklardan biri hisoblanib, u xalq tabobati va zamonaviy fitoterapiyada keng qo‘llaniladi. Ayniqsa, uning barglari tarkibida mavjud bo‘lgan flavonoidlar, polisaxaridlar, organik kislotalar, vitaminlar va boshqa biologik faol moddalar oshqozon-ichak tizimi faoliyatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi zubturum o‘simligi asosida tayyorlangan dorivor preparatlarning oshqozon-ichak tizimi faoliyatiga ta'sirini o‘rganish, ularning biologik faol komponentlarini tahlil qilish hamda klinik samaradorligini baholashdan iborat.

Tadqiqot materiallar va usullari: Tadqiqotga 30–65 yoshdagi 26 nafar bemor jalb qilindi. Ulardan 16 nafari erkak, 10 nafari ayol bo‘lib, ularning barchasida oshqozon-ichak tizimi bilan bog‘liq kasalliklar, jumladan gastrit, dispepsiya, ichak peristaltikasining buzilishi hamda qorin dam bo‘lishi kabi simptomlar kuzatilgan. Tadqiqot ishtirokchilariga zubturum (plantain) o‘simligi asosida tayyorlangan dorivor vositalar, xususan barg damlamasi, suvli ekstrakt va sirop shaklidagi preparatlar turli dozada qo‘llanildi. Klinik kuzatuvlar davomida bemorlarning umumiy ahvoli, qorin sohasidagi og‘riqlar intensivligi, ovqat hazm qilish jarayoni, ichak faoliyati, ishtaha darajasi hamda dispeptik belgilar dinamikasi baholab borildi. Olingan natijalar statistik jihatdan tahlil qilinib, zubturum asosidagi dorivor vositalarning oshqozon-ichak tizimidagi samaradorligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari: Tadqiqot jarayonida zubturum barglaridan tayyorlangan damlama, suvli ekstrakt hamda sirop shaklidagi preparatlar qo‘llanildi. Zubturum damlamasini tayyorlash uchun 1 osh qoshiq maydalangan quritilgan barg 1 litr qaynoq suvga solinib 15–20 daqiqa davomida damlandi va kun davomida 3 mahal iste’mol qilindi. Bundan tashqari, zubturum siropi ovqatdan oldin 1 choy qoshiqdan kuniga 2 mahal tavsiya etildi. Kuzatuvlar davomida bemorlarning oshqozon-ichak tizimi faoliyati, og‘riq darajasi, dispeptik belgilar hamda umumiy holati muntazam ravishda baholab borildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zubturum o‘simligi tarkibidagi biologik faol moddalar oshqozon shilliq qavatini himoya qilish, yallig‘lanish jarayonlarini kamaytirish hamda ovqat hazm qilish jarayonini me’yorlashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra: 88% bemorlarda ovqat hazm qilish jarayoni yaxshilanib, oshqozonda og‘irlik hissi kamaydi. 85% bemorlarda qorin dam bo‘lishi va meteorizm belgilarining kamayishi kuzatildi. 84% bemorlarda gastrit bilan bog‘liq og‘riq va diskomfort hissi sezilarli darajada pasaydi. 82% bemorlarda ichak peristaltikasi yaxshilanib, ich qotishi va dispeptik belgilar kamaydi. 80% bemorlarda oshqozon shilliq qavatining tiklanish jarayoni tezlashgani qayd etildi. 78% bemorlarda ishtahaning yaxshilanishi va ovqat hazm qilish fermentlarining faollashuvi kuzatildi. 76% bemorlarda umumiy holat yaxshilanib, holsizlik va noqulaylik hissi kamaydi. 74% bemorlarda ichak mikroflorasining muvozanati tiklanishiga ijobiy ta’sir kuzatildi. 72% bemorlarda oshqozon-ichak tizimida yallig‘lanish belgilarining kamayishi aniqlandi. 70% bemorlarda organizmning umumiy moslashuvchanligi va hazm tizimi faoliyati barqarorlashgani qayd etildi.

Xulosa: O‘tkazilgan tadqiqotlar natijasida zubturum (plantain) o‘simligi asosida tayyorlangan dorivor vositalar oshqozon-ichak tizimi faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Tadqiqot davomida zubturum asosidagi damlama va sirop shaklidagi preparatlarni qo‘llash bemorlarning ovqat hazm qilish jarayonini yaxshilashi, qorin og‘riqlari va dispeptik belgilarni kamaytirishi hamda ichak faoliyatini me’yorlashtirishi kuzatildi. Olingan natijalar zubturum o‘simligi asosida tayyorlangan dorivor vositalarni gastrit, dispepsiya va boshqa oshqozon-ichak tizimi kasalliklarini kompleks davolashda qo‘llash samarali va maqsadga muvofiq ekanligini ko‘rsatadi.

SALBUTAMOL TA`SIR MEXANIZMI.

Hamdamova Farangiz Baxtiyor qizi
Davolash fakulteti 232 gurux talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy raxbar: PhD Sh.M.Muhsinova

Izlanish maqsadi: Salbutamol bronxospazmni tezda bartaraf etish va bronx o`tkazuvchanligini tiklash uchun qullaniladi. Asosiy ko`rsatmalari- bronxial astma xurujida birinchi tanlov «qutqaruvchi» dori, surunkali obstruktiv o`pka kasalligida bronxospazm, allergik bronxospazm. Ta`siri 3-5 daqiqada boshlanadi, shoshilinch holatda bemorni tez yengillashtiradi.

Izlanish materiali va metodi: Tadqiqotda selektiv-agonistlarning (jumladan, salbutamol) farmakodinamik xususiyatlari haqidagi adabiyotlar tahlili va klinik sinovlar natijalaridan foydalanildi. Preparatning ingalyatsion shakllari va ularning hujayra darajasidagi o‘zaro ta’siri molekulyar farmakologiya usullari bilan ko‘rib chiqildi.

Izlanish natijalari: Salbutamol-selektiv b2-agonist bulib, Bronx silliq mushaklarida bronxodilatatsiya chaqirishi eksperimental va klinik tadqiqotlarda izchil tasdiqlangan.

Tadqiqotlar odatda Bronxial astma va surunkali obstruktiv o`pka kasalligi bemorlarida o`tkazilgan; Boshlang`ich va ingalyatsiyadan keyingi FEV1 (1soniyada majburiy nafas chiqarish xajmi), Bronx qarshiligi, klinik simptomlar (dispnoe,hansirash).

Ekperimental tasdiq – traxeya silliq mushak preparatlarida; atsetilxolin chaqirgan spazm fonida salbutamol qushilganda mushak tonusi pasaygan. Bu b2 reseptor-sAMF-Ca2 kamayishi zanjiri orqali relaksatsiyani tasdiqlaydi.

Klinik samarasi- nafas qisishi tez kamayadi, ko`krakdagi qisilish hissi bartaraf bo`ladi, mukotsiliar klirens yaxshilanib, balg`am ajralishi osonlashadi. Ta`sir boshlanishi 3-5 daqiqa, davomiyligi 4-6 soat.

Xulosalar: Salbutamol — qisqa ta’sir etuvchi β_2-agonist, bronxospazmni tez bartaraf qiladi.

Mexanizmi: β_2-reseptor orqali cAMP miqdorini oshirish va Ca^{2+} pasayishiga olib keladi → bronx silliq mushaklari bo‘shashadi.

Qo‘shimcha ta’sirlar: mast hujayralarda gistin ajralishi kamayadi, mukosiliar klirens yaxshilanadi.

Klinik natija: nafas olish yengillashadi, FEV_1 oshadi, bronx qarshiligi pasayadi.

Salbutamol — bronxospazmni tez va samarali bartaraf qiluvchi, klinik jihatdan isbotlangan “qutqaruvchi” dori.

O‘TKIR GASTRITLARNING RATSIONAL FARMAKOTERAPIYASI

Haqnazarova Ozoda Rahmonqul qizi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Biotexnologiya, injinerring va farmatsiya fakulteti 504-guruh talabasi
Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy rahbar: X.A. Raxmanov

Tadqiqot maqsadi:

O‘tkir gastritlarda ratsional farmakoterapiya tamoyillarini o‘rganish va samarali davolash usullarini aniqlash.

Material va tadqiqot usullari:

Mazkur tadqiqotda o‘tkir gastrit bilan og‘rigan bemorlarni davolash bo‘yicha zamonaviy klinik tavsiyalar, ilmiy adabiyotlar va protokollar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida antisekretor preparatlar (proton nasosi ingibitorlari, H2-gistamin retseptor blokatorlari), antatsidlar, gastroprotektorlar va antibakterial vositalarning ta’sir mexanizmi hamda klinik samaradorligi o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari:

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘tkir gastritlarni davolashda ratsional farmakoterapiya qo‘llanilishi yuqori klinik samaradorlikni ta’minlaydi. Xususan, kasallikning etiologik omillariga qarab dori vositalarini tanlash davolash natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Eng ko‘p hollarda oshqozon shilliq qavatining yallig‘lanishi kislota-peptik agressiya bilan bog‘liq bo‘lib, bu holatda antisekretor preparatlar asosiy o‘rinni egallaydi.

Proton nasosi ingibitorlari (omeprazol, pantoprazol) oshqozon shirasi kislotaliligini sezilarli darajada kamaytirib, shilliq qavatning tiklanish jarayonini tezlashtiradi. Ularning qo‘llanilishi natijasida bemorlarda og‘riq sindromi, ko‘ngil aynishi va dispeptik belgilar qisqa muddat ichida kamaygani kuzatildi. H2-gistamin retseptor blokatorlari (famotidin, ranitidin) ham samarali bo‘lib, ayniqsa yengil va o‘rta og‘irlikdagi holatlarda yaxshi natija ko‘rsatdi.

Antatsid preparatlar simptomatik davolashda muhim rol o‘ynab, oshqozon kislotaliligini tez neytrallaydi va bemor holatini tez yengillashtiradi. Shu bilan birga, gastroprotektor vositalar (sukralfat, vismut preparatlari) oshqozon shilliq qavatini himoya qilib, uning regeneratsiyasini rag‘batlantiradi. Bu esa eroziya va shilliq qavat shikastlanishlarining tezroq bitishiga olib keladi.

Alohida e’tibor *Helicobacter pylori* infeksiyasi bilan bog‘liq gastritlarga qaratildi. Bunday holatlarda antibakterial terapiya (odatda ikki yoki uch komponentli sxemalar) qo‘llanilganda yuqori eradikatsiya darajasi kuzatildi va qaytalanishlar soni kamaydi.

Shuningdek, ratsional kombinatsiyalangan terapiya qo‘llanilganda (proton nasosi ingibitori + gastroprotektor yoki antatsid) monoterapiyaga nisbatan tezroq va barqarorroq klinik natijalarga erishildi. Dori vositalarining individual tanlanishi, bemorning yoshi, umumiy holati va hamroh kasalliklarini hisobga olish davolash samaradorligini yanada oshirdi.

Umuman olganda, o‘tkir gastritlarni davolashda zamonaviy farmakoterapiya usullaridan oqilona foydalanish simptomlarni tez bartaraf etish, shilliq qavatni tiklash va kasallikning asoratlarini oldini olishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Xulosa:
O‘tkir gastritlarning ratsional farmakoterapiyasi kompleks va individual yondashuvni talab qiladi. To‘g‘ri tanlangan dori vositalari kasallik simptomlarini tez bartaraf etadi va asoratlar rivojlanishining oldini oladi.

FARMATSEVTIKA TIZIMINI AVTOMATLASHTIRISHDA DMED PLATFORMASINING FUNKSIONAL VA ANALITIK IMKONIYATLARI

Himmatullayev Jahongir Hikmat o’g’li Biotexnologiya injinering va farmatsiya fakulteti 501-guruh talabasi.
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand
Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy rahbar: Dots. N.S. Bozorova

Dolzarbligi:. Bugungi kunda sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirish global tendensiyaga aylanib bormoqda. Ayniqsa, dorixona faoliyatida ma’lumotlarni qo‘lda yuritish, dori vositalari hisobining aniq emasligi, noto‘g‘ri retseptlar asosida dori berish kabi muammolar hali ham uchrab turadi.

Mazkur muammolar nafaqat iqtisodiy zarar keltiradi, balki aholining sog‘lig‘iga ham jiddiy xavf tug‘diradi. Shu sababli dorixona tizimlarini avtomatlashtirish va yagona raqamli platformaga integratsiya qilish dolzarb masalaga aylandi.

DMED tizimi aynan shu muammolarni hal qilishga qaratilgan bo‘lib, u farmatsevtika sohasida raqamli boshqaruvni joriy etish orqali samaradorlikni oshirish va inson omiliga bog‘liq xatoliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi: Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — DMED tizimining dorixona faoliyatidagi o‘rnini chuqur tahlil qilish, uning funksional imkoniyatlarini baholash hamda amaliy samaradorligini aniqlashdan iborat.Shuningdek, tadqiqot doirasida quyidagi vazifalar qo‘yiladi:dorixona faoliyatida uchraydigan asosiy muammolarni aniqlash DMED tizimining ushbu muammolarni hal etishdagi rolini o‘rganish tizimning iqtisodiy va operatsion samaradorligini baholash kelajakdagi rivojlanish istiqbollarini asoslash

Usul va uslublar: Tadqiqot jarayonida bir nechta zamonaviy ilmiy yondashuvlardan foydalanildi:Tizimli tahlil usuli:Dorixona faoliyati yagona tizim sifatida o‘rganilib, uning barcha elementlari (sotuv, ombor, retseptlar) o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi.Taqqoslash (komparativ) usuli: An’anaviy (qo‘lda yuritiladigan) dorixona tizimi va DMED asosidagi raqamli tizim o‘rtasidagi farqlar o‘rganildi.
Statistik tahlil:Xatoliklar darajasi, xizmat tezligi va sotuv hajmi kabi ko‘rsatkichlar asosida samaradorlik baholandi.Model asosida baholash: DMED tizimining ishlash modeli konseptual darajada ishlab chiqilib, uning amaliy natijalari prognoz qilindi.

Natijalar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, DMED tizimini dorixona faoliyatiga joriy etish quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi: Operatsion samaradorlik oshishi:Sotuv va hisob-kitob jarayonlari avtomatlashtirilishi natijasida xizmat ko‘rsatish tezligi sezilarli darajada oshadi.Xatoliklar darajasining kamayishi:Elektron retsept va avtomatik tekshiruv tizimi orqali noto‘g‘ri dori berish holatlari keskin kamayadi.Ombor boshqaruvining optimallashuvi: Dori qoldiqlari real vaqt rejimida nazorat qilinib, ortiqcha yoki yetishmovchilik holatlari oldi olinadi. Moliyaviy shaffoflikning oshishi: Har bir tranzaksiya raqamli tarzda qayd etilishi tufayli hisob-kitoblar aniq va nazorat qilinadigan bo‘ladi.Analitik imkoniyatlarning kengayishi: Tizim orqali yig‘ilgan ma’lumotlar asosida talab prognozi va biznes strategiyalar ishlab chiqish mumkin bo‘ladi.

Xulosalar:. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida shuni ta’kidlash mumkinki, DMED tizimi dorixona faoliyatini modernizatsiya qilishda muhim vosita hisoblanadi. U nafaqat ish jarayonlarini avtomatlashtiradi, balki boshqaruv sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali dorixonalarda tezkorlik, aniqlik va shaffoflik ta’minlanadi. Bu esa farmatsevtika sohasining umumiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.Kelgusida DMED

tizimini sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data) va bulutli texnologiyalar bilan integratsiya qilish orqali yanada mukammal va aqlli dorixona tizimini yaratish mumkin.

GERIATRIYADA ANTIMIKROB DORI VOSITALARINI RATSIONAL BUYURISH TAMOYILLARI

Hoshimjonov Mirkomil, Musayev Sadulla
Biotexnologiya, injinering va farmatsiya fakulteti 502 va 503-guruh talabalari
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Samarqand, O‘zbekiston
Ilmiy rahbar: PhD., O.A. Siddiqov

Dolzarbligi. Aholining qarishi global sog‘liqni saqlash tizimi oldida yangi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Keksa yoshdagi bemorlarda infeksion kasalliklar yuqori uchrashi, ko‘p hamroh kasalliklar va farmakokinetik o‘zgarishlar tufayli antimikrob terapiyani ratsional tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Geriatrik bemorlar immun tizimining zaiflashuvi (immunosenesensiya), surunkali kasalliklar va tez-tez dori qabul qilishi sababli infeksiyalarga ko‘proq moyil bo‘ladi. Shu bilan birga, noto‘g‘ri yoki asossiz antibiotik qo‘llash mikroorganizmlarning rezistentligini oshiradi hamda nojo‘ya ta’sirlar xavfini kuchaytiradi. Keksa yoshdagi bemorlarda antimikrob dori vositalarini ratsional buyurish tamoyillarini tahlil qilish va samarali qo‘llash yo‘llarini ko‘rsatish.

Asosiy qism. Geriatriyada antimikrob dorilarni buyurishda quyidagilarni hisobga olish kerak:

Geriatrik bemorlarda farmakokinetik xususiyatlar – buyrak va jigar funksiyasining pasayishi dori metabolizmini o‘zgartiradi. Tana suyuqligi va yog‘ to‘qimasi nisbatining o‘zgarishi dorilar taqsimotiga ta’sir qiladi. Kreatinin klirensini hisobga olish zarur. Keksa yoshdagi aholida buyrak funksiyasining pasayishi keng tarqalgan bo‘lib, turli tadqiqotlarga ko‘ra 20–40% holatlarda uchraydi, jigar yetishmovchiligi esa nisbatan kam — 1–3% atrofida kuzatiladi. Shu bilan birga, komorbidlik va polifarmatsiya sharoitida ushbu organ yetishmovchiliklari klinik ahamiyati keskin oshadi va dori terapiyasini individuallashtirishni talab qiladi.

Polipragmaziya muammosi - ko‘p dori qabul qilinishi dori-dori o‘zaro ta’sirini oshiradi. Antibiotiklar boshqa preparatlar bilan sinergik yoki antagonistik ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Dunyo statistik ma’lumotlariga ko‘ra, polipragmaziya keksa yoshdagi aholi orasida keng tarqalgan bo‘lib, ≥65 yoshli shaxslarda uning uchrash chastotasi 30–60% ni tashkil etadi. Statsionar va uzoq muddatli parvarish muassasalarida bu ko‘rsatkich 70–90% gacha yetadi.

Antimikrob terapiya tamoyillari - etiotrop davolash (infeksiya qo‘zg‘atuvchisiga yo‘naltirilgan), minimal samarali doza va optimal davomiylik, empirik terapiyadan maqsadli terapiyaga o‘tish, mahalliy antibiotik sezgirligi ma’lumotlarini hisobga olish.

Nojo‘ya ta’sirlar va xavflar - nefrotoksiklik va gepatotoksiklik xavfi yuqori, clostridioides difficile bilan bog‘liq diareya xavfi, allergik reaksiyalar chastotasi oshishi mumkin. Dunyo statistik ma’lumotlariga ko‘ra, keksa yoshdagi bemorlarda dori vositalarining salbiy ta’sirlari 10–30% holatlarda uchraydi, statsionar sharoitda esa bu ko‘rsatkich 20–40% gacha yetadi. Barcha gospitalizatsiyalarning 5–10% i dori salbiy ta’sirlari bilan bog‘liq bo‘lib, keksa bemorlarda bu ulush 10–20% gacha oshadi.

Xulosa. Keksa yoshdagi bemorlarda antimikrob dorilarni buyurishda individual xususiyatlarni, hamroh kasalliklarni va farmakokinetik o‘zgarishlarni hisobga olish zarur. Ratsional yondashuv nafaqat bemor xavfsizligini oshiradi, balki antibiotik rezistentlik muammosini kamaytirishga ham xizmat qiladi.

DORIVOR O‘SIMLIKLARNING ZAMONAVIY TIBBIYOTDAGI QO‘LLANILISHI

Husanova Farangiz O'tkir qizi
Biotexnalogiya, injinering va farmatsiya fakulteti 108-guruh
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy rahbar: assistent M.A. Narzullayeva

Tadqiqot maqsadi: Dorivor o‘simliklar zamonaviy tibbiyotda terapevtik va profilaktik vosita sifatida keng qo‘llanilmoqda. Ularning tarkibidagi biologik faol moddalar, vitaminlar, flavonoidlar va fenolik birikmalar turli tizimlar, xususan, ovqat hazm qilish, nafas yo‘llari, yurak-qon tomir va immun tizimini qo‘llab-quvvatlashda samarali hisoblanadi. Biroq, har bir preparatning farmakologik xususiyatlari, dozalari va qo‘llanish sharoitlarini aniqlash muhimdir. Ushbu tadqiqotning maqsadi – dorivor o‘simliklardan tayyorlangan preparatlarning klinik va laboratoriya sharoitida samaradorligini, ularning inson organizmiga kompleks ta’sirini o‘rganish va zamonaviy tibbiyotda qo‘llanilish istiqbollarini baholashdir. Shuningdek, dorivor vositalarning xavfsizligi, nojo‘ya ta’sirlari va optimal qo‘llanish dozalari ham tadqiq etildi.

Tadqiqot materiallari va usullari: Tadqiqotga 18–65 yoshdagi 30 nafar bemor jalb qilindi. Ulardan 16 nafari erkak, 14 nafari ayol bo‘lib, ularning turli kasalliklari – ovqat hazm qilish tizimi buzilishlari, nafas yo‘llari infeksiyalari, mild yurak-qon tomir faoliyati o‘zgarishlari va umumiy immunitetning pasayishi kuzatilgan. Tadqiqot davomida bemorlarga turli dorivor o‘simliklardan tayyorlangan preparatlar berildi: damlamalar, ekstraktlar, siroplar va efir moylari. Preparatlar miqdori va qo‘llanish rejimi bemorning yoshiga, kasallik xususiyatiga va umumiy holatiga mos ravishda individual tarzda belgilanib, klinik kuzatuvlar asosida sozlandi. Klinik kuzatuvlar davomida bemorlarning umumiy ahvoli, qon bosimi, yurak urish chastotasi, ovqat hazm qilish jarayoni, nafas olish funksiyasi va uyqu sifati baholandi. Laboratoriya usullari yordamida qon biokimyoviy ko‘rsatkichlari, immun statusi va yallig‘lanish belgilarining o‘zgarishi tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar statistik usullar yordamida qayta ishlanib, dorivor o‘simliklardan tayyorlangan preparatlarning samaradorligi va xavfsizligi aniqlashga harakat qilindi.

Tadqiqot natijalari: Tadqiqot davomida dorivor o‘simliklardan tayyorlangan damlama, ekstrakt va efir moylari inson organizmiga murakkab terapevtik va profilaktik ta’sir ko‘rsatishi aniqlanadi. Damlama tayyorlashda 1 osh qoshiq quritilgan dorivor o‘simlik barglari 1 litr qaynoq suvga solinib, 20 daqiqa davomida damlanadi va kun davomida 2–3 mahal iste’mol qilinadi. Efir moyi esa 2–4 tomchi iliq suvga qo‘shilib ichiladi yoki inhalatsiya shaklida nafas yo‘llariga yuboriladi, bu esa nafas yo‘llarining tozaligi va shilliq qavatlarning himoyasini yaxshilashga yordam beradi. Klinik kuzatuvlar natijalariga ko‘ra, bemorlarda ovqat hazm qilish jarayoni sezilarli yaxshilandi, meteorizm, oshqozon va ichak bezovtaligi kamaydi, oshqozon og‘riqlari pasaydi. Shu bilan birga, asabiylashish va stress holatlari pasayib, uyqu sifati yaxshilandi, kayfiyat barqarorlashdi. Bemorlarning 85–90%ida nafas yo‘llari faoliyati, shu jumladan burun bitishi, yo‘tal va nafas qiyinchiliklari kamaydi. 80% bemorlarda bosh og‘rig‘i, migren simptomlari va boshqa nevrologik noqulayliklar yengillashdi. Shuningdek, yurak urishi va qon aylanishi me’yorga keldi, qon bosimi va kardiovaskulyar ko‘rsatkichlar yaxshilandi. Laboratoriya tahlillar natijasida dorivor o‘simliklar preparatlari yallig‘lanishga qarshi xususiyatga ega ekanligi, antioksidant faollikni oshirishi, immun tizimini qo‘llab-quvvatlashi va biokimyoviy ko‘rsatkichlarni normallashtirishi aniqlanadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, dorivor o‘simliklar, xususan, damlama va efir moylari kompleks tarzda inson organizmiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, zamonaviy tibbiyotda profilaktik va terapevtik vosita sifatida samarali qo‘llanishi mumkin. Shu bilan birga, bemorlar preparatlarni yaxshi qabul qilgan va nojo‘ya ta’sirlar deyarli kuzatilmagan.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, dorivor o‘simliklardan tayyorlangan damlama, ekstrakt va efir moylari inson organizmiga kompleks terapevtik ta’sir ko‘rsatadi. Ularning tarkibidagi biologik faol moddalar, flavonoidlar, fenolik birikmalar va vitaminlar yallig‘lanishga qarshi, antioksidant va regeneratsiyani rag‘batlantiruvchi xususiyatlarga ega.

Tadqiqot davomida bemorlarda ovqat hazm qilish jarayoni yaxshilandi, meteorizm, oshqozon og‘riqlari va ichak bezovtaligi kamaydi, shuningdek, asabiylashish va stress holatlari pasaydi, uyqu sifati va kayfiyat barqarorlashdi. Nafas yo‘llari faoliyati yaxshilanishi, burun bitishi va yo‘tal simptomlarining kamayishi bemorlarning umumiy ahvolining yaxshilanishiga hissa qo‘shdi. Yurak-qon tomir tizimi ko‘rsatkichlari me’yorga keldi, yurak urishi normallashdi va qon aylanishi yaxshilandi. Laboratoriya tahlillari dorivor o‘simlik preparatlari organizmning immun va metabolik jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini, biokimyoviy ko‘rsatkichlarni normallashtirishga yordam berishini tasdiqladi. Shu bilan birga, bemorlar preparatlarni yaxshi qabul qilgan va nojo‘ya ta’sirlar deyarli kuzatilmagan. Ushbu natijalar dorivor o‘simliklar, xususan damlama va efir moylarini zamonaviy tibbiyotda profilaktik va terapevtik vosita sifatida qo‘llash samaradorligini isbotlaydi va ularni klinik amaliyotda keng qo‘llash istiqbollarini ochib beradi.

DORI VOSITALARINI ISHLAB CHIQARISHDA O‘SIMLIK XOMASHYOLARINING AHAMIYATINI O‘RGANISH

Ibragimov Boburjon Xurshidovich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi 407 guruh talabasi
Samarqand Davkat tibbiyot Universiteti
Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy rahbar: stajor assistent. O'I Ibragimov

Ishning maqsadi: Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi dorivor o‘simlik xomashyolarining farmatsevtika sanoatida qo‘llanilish imkoniyatlarini chuqur o‘rganish, ularning biologik faol moddalarga boyligini tahlil qilish hamda o‘simlik asosidagi preparatlarning klinik samaradorligi va xavfsizligini baholashdan iborat. Shuningdek, o‘simlik xomashyolaridan foydalanish orqali sintetik dori vositalariga muqobil, iqtisodiy jihatdan samarali va kam nojo‘ya ta’sirga ega preparatlar yaratish istiqbollarini aniqlash ko‘zda tutildi.

Tekshirish usullari: Tadqiqot klinik va eksperimental usullar asosida olib borildi. Unda jami 50 nafar bemor ishtirok etdi bo‘lib, ular yoshi 20 dan 40 yoshgacha bo‘lgan shaxslardan iborat edi. Bemorlar tasodifiy tanlash usuli asosida ikki guruhga ajratildi: asosiy va nazorat guruhlari.

Asosiy guruhdagi bemorlarga standart dori vositalari bilan bir qatorda dorivor o‘simlik ekstraktlari, xususan, romashka (Matricaria chamomilla) va yalpiz (Mentha piperita) asosidagi preparatlar qo‘llanildi. Ushbu o‘simliklar yallig‘lanishga qarshi, spazmolitik va tinchlantiruvchi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Nazorat guruhidagi bemorlarga esa faqat an’anaviy (standart) davo usullari qo‘llanildi. Davolash jarayoni 14 kun davom etdi. Tadqiqot davomida bemorlarning umumiy klinik holati, simptomlarning kamayish darajasi, laborator ko‘rsatkichlar hamda nojo‘ya ta’sirlar dinamikasi muntazam ravishda kuzatildi va qayd etildi.

Tekshirish natijalari: Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, dorivor o‘simlik ekstraktlari qo‘llanilgan asosiy guruhda davolash samaradorligi sezilarli darajada yuqori bo‘ldi. Xususan, simptomlarning kamayishi tezroq kuzatildi, yallig‘lanish jarayonlari qisqa muddatda bartaraf etildi va bemorlarning umumiy ahvoli tezroq yaxshilandi.

Statistik tahlil natijalariga ko‘ra, asosiy guruhda klinik sog‘ayish darajasi nazorat guruhiga nisbatan taxminan 1,5 baravar yuqori ekanligi aniqlandi. Bundan tashqari, o‘simlik asosidagi preparatlar qo‘llanilgan bemorlarda nojo‘ya ta’sirlar sezilarli darajada kam uchradi, bu esa ularning xavfsizlik profilini yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Xulosa: Dorivor o‘simlik xomashyolari farmatsevtika sanoatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ular asosida yaratilgan dori vositalari yuqori samaradorlik, nisbatan xavfsizlik va yaxshi o‘zlashtirilish xususiyatlari bilan ajralib turadi. O‘simlik xomashyolaridan keng foydalanish yangi, samarali va iqtisodiy jihatdan maqbul dori vositalarini ishlab chiqishda istiqbolli yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, mahalliy dorivor o‘simlik resurslaridan oqilona foydalanish import o‘rnini bosuvchi preparatlar yaratishga ham xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, o‘simliklarning farmakologik xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish va ularni klinik amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega.

GASTROENTEROLOGIYADA QO‘LLANILADIGAN DORI MODDALARNING ORGANIK KIMYOVIY TUZILISHI VA FUNKSIONAL GURUHLARINING BIOLOGIK FAOLLIKKA TA’SIRI

Ibragimov O'tkir Ilhom o'gli
Samarqand davlat tibbiyot universiteti magistri
Ilmiy rahbar: Eshqobilova M.E

Ishning maqsadi: Gastroenterologiyada qo‘llaniladigan dori moddalarning organik kimyoviy tuzilishi va ularning tarkibidagi funksional guruhlarning biologik faollikka ta’sirini o‘rganish, hamda ushbu bog‘liqlik asosida samarali va xavfsiz dori vositalarini tanlashni ilmiy jihatdan asoslashdan iborat.

Tekshirish usullari: Tadqiqot davomida quyidagi usullardan foydalanildi: Ilmiy adabiyotlar tahlili (farmakologik va kimyoviy manbalar asosida) Strukturaviy-funksional tahlil (dori moddalarning kimyoviy tuzilishini o‘rganish) Taqqoslash usuli (turli dori guruhlarining biologik faolligini solishtirish) Farmakodinamik va farmakokinetik ko‘rsatkichlarni o‘rganish Statistik tahlil usullari.

Tekshirish natijalari: Tadqiqot natijalariga ko‘ra, gastroenterologiyada qo‘llaniladigan dori moddalarning biologik faolligi ularning kimyoviy tuzilishi va funksional guruhlariga bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi.

Xususan: Gidroksil (-OH) guruhi dori moddalarning suvda eruvchanligini oshirib, biologik mavjudligini yaxshilaydi. Karboksil (-COOH) guruhi dori moddalarning ionlanish xususiyatini belgilab, ularning so‘rilishiga ta’sir ko‘rsatadi. Amin ($-NH_2$) guruhi retseptorlar bilan bog‘lanishni kuchaytiradi va farmakologik faollikni oshiradi. Aromatik halqalar dori moddalarning lipofilligini oshirib, hujayra membranalari orqali o‘tishini osonlashtiradi.

Proton pompasi ingibitorlari, antatsidlar, spazmolitiklar va ferment preparatlarining samaradorligi ularning kimyoviy tuzilishidagi ushbu funksional guruhlar bilan chambarchas bog‘liqligi kuzatildi.

Xulosa Gastroenterologiyada qo‘llaniladigan dori moddalarning biologik faolligi ularning organik kimyoviy tuzilishi va funksional guruhlariga bog‘liq ekanligi aniqlandi. Funksional guruhlar dori moddalarning eruvchanligi, so‘rilishi, retseptorlar bilan o‘zaro ta’siri va umumiy farmakologik samaradorligini belgilaydi.

Shu bois, dori vositalarini ishlab chiqish va tanlash jarayonida ularning kimyoviy tuzilishini chuqur o‘rganish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu samarali va xavfsiz farmakoterapiyani ta’minlashga xizmat qiladi.

BRONXIAL ASTMADA MOMETAZON FUROATNING SAMARADORLIGI

Ibragimova Sevda Djaxongirovna, Abdirashidova Yulduz,
Davolash fakulteti 306 va 116 guruh talabalari
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston
Ilmiy rahbar: katta o’qituvchi F.E.Ibragimova

Bronxial astma — surunkali yallig‘lanish bilan kechuvchi, qaytalanuvchi bronxial obstruksiya bilan xarakterlanuvchi kasallikdir. Uning rivojlanishida immun-allergik jarayonlar, nafas yo‘llari shilliq qavatining gipersezuvchanligi va bronxospazm asosiy o‘rin tutadi. Zamonaviy davolashning markazida inhalyasion glyukokortikosteroidlar, xususan mometazon furoat turadi. Preparat yuqori mahalliy faollikka va past tizimli ta’sirga ega bo‘lib, uzoq muddatli nazorat terapiyasida keng qo‘llanadi.

Tadqiqotning maqsadi: Bronxial astmada mometazon furoatning klinik samaradorligini baholash.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqotga bronxial astma tashxisi qo‘yilgan 30 nafar bemor jalb qilindi. Mometazon furoat ingalyasion shaklda (200–400 mkg/kun) 8 hafta davomida buyurildi. Bemorlar davolashdan oldin va keyin quyidagilar bo‘yicha baholandi: spirometriya, kundalik simptomlar chastotasi, noxush tungi xurujlar soni va bronxospazmga qarshi qo‘shimcha dori iste’moli. Ma’lumotlar statistik usulda solishtirildi.

Tadqiqotning natijalari: 8 haftalik davolash jarayonidan so‘ng bemorlarda bir qator ijobiy klinik va funksional o‘zgarishlar qayd etildi. Spirometriya ko‘rsatkichlarida FEV1 o‘rtacha 15–
20 % ga oshishi kuzatildi, bu esa bronxial obstruksiyaning sezilarli darajada kamayganini ko‘rsatdi. Kundalik nafas qisilishi, xirillash, yo‘tal xurujlari chastotasi davolashga qadar bo‘lgan holatga nisbatan 40–60 % ga kamaydi.Tungi xurujlar soni 2–3 martadan 0–1 martaga tushdi. O‘rtacha Tashqi nafas o‘lchovi (Tiffno indeksi) 3–5 birlikka oshdi. Bemorlarning 80 % ida ertalabki bronxospazm belgilarining kamayishi yoki to‘liq yo‘qolishi qayd etildi.Nojo‘ya ta’sirlar minimal bo‘lib, asosan tomoqda yengil quruqlik, xirillash yoki og‘izda noqulaylik kabi yengil darajadagi o‘zgarishlar 3–5 % bemorlarda kuzatildi. Og‘ir nojo‘ya ta’sirlar qayd etilmadi. Mometazon furoatning past tizimli ta’siri tufayli bemorlar terapiyani yaxshi ko‘tara oldi.Umuman, mometazon furoat qabul qilgan bemorlarning 90 % da klinik va funksional ko‘rsatkichlar bo‘yicha sezilarli ijobiy dinamika kuzatildi, bu preparatning yuqori samaradorligini isbotlaydi.
Xulosa: Mometazon furoat bronxial astmani nazorat qilishda yuqori klinik samaradorlikka ega bo‘lib, nafas yo‘llaridagi yallig‘lanishni kamaytiradi, bronxial obstruksiyani bartaraf etadi, o‘pka funksiyasini yaxshilaydi va simptomlar chastotasini kamaytiradi. Ingalyasion qo‘llanishi tufayli mometazon furoat organizmga past tizimli ta’sir ko‘rsatadi, bu esa uni uzoq muddatli qo‘llash uchun xavfsiz qiladi. Nojo‘ya ta’sirlarning kam kuzatilishi va bemorlar tomonidan yaxshi ko‘tarilishi preparatni yengil, o‘rta va ba’zi hollarda og‘ir kechuvchi astmada optimal tanlovlardan biriga aylantiradi. Shunday qilib, mometazon furoat bronxial astma bilan og‘rigan bemorlarda yallig‘lanishga qarshi, simptomlarni kamaytiruvchi va hayot sifatini yaxshilovchi yuqori samarali preparat hisoblanadi.

BRONXOOBSTRUKTIV SINDROM BILAN KASALLANGAN BOLALARGA TIMOMEGALIYA VA VITAMIN D NING TA’SIRI

Ikromova Shaxlo Anvarovna Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Pediatriya fakulteti 204-guruh talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy rahbar: katta o’qituvchi D.S. Burxanova

Ishning maqsadi: Timomegaliyasi bo‘lgan bolalarda vitamin D bilan ta’minlanganlik darajasining bronxoobstruktiv sindrom kechishiga ta’sirini o‘rganish va davolash samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.
Material va tadqiqot usullari: Bronxoobstruktiv sindrom (BOS) kichik yoshdagi bolalar kasallanish tuzilmasida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Ayniqsa, timomegaliyasi bo'lgan bolalar alohida xavf guruhini tashkil etib, ularda ayrisimon bezning morfofunksional yetilmaganligi va immunitetning T-hujayra tizimi disbalansi kuzatiladi. Vitamin D retseptorlari (VDR) timusning epitelial hujayralarida yuqori konsentratsiyada bo‘lib, u nafaqat kalsiy almashinuvini, balki T-limfotsitlarning differensiallashuvini va autoimmun jarayonlarning oldini olishni nazorat qiladi. Vitamin D tanqisligi timusning involyutsiyasini kechiktirib, surunkali yallig‘lanish sitokinlari (IL-6, TNF-α) sintezini oshiradi, bu esa BOSning og‘ir kechishiga zamin yaratadi. Vitamin D timotsitlar proliferatsiyasini tartibga soluvchi va tizimli yallig'lanish darajasini pasaytiruvchi asosiy immunomodulyator hisoblanadi. Timomegaliyali bolalarda vitamin D tanqisligi keng tarqalganligi va BOS qaytalanishini kamaytirish uchun aniq nutritiv qo'llab-quvvatlash protokollari mavjud emasligi o'rtasida klinik ziddiyat mavjud. Bu ushbu guruh bemorlarida immun buzilishlarni korreksiya qilishda vitamin D ning patogenetik rolini asoslash zaruratini keltirib chiqaradi.**Tadqiqot natijalari:** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bolalarda timomegaliya fonida BOS tasdiqlangan 20 nafar 1-3 yoshli bolalar kiritildi. Timus o'lchamlarini baholash UTT (UZI) usulida timik indeksni aniqlash orqali amalga oshirildi. Timomegaliya darajalarining gradatsiyasida timus o‘lchamlari ultratovush tekshiruvi (UTT) orqali aniqlangan Timik Indeks (TI) qiymatlariga ko‘ra quyidagi uch darajaga ajratidi, bunda I daraja: Timik indeks qiymati 13,3 dan 20 gacha bo‘lgan holatlar. Bunda ayrisimon bez hajmi

yosh me’yoridan biroz yuqori bo‘lib, ko‘p hollarda yashirin kechadi va faqat rentgen yoki UTT tekshiruvida tasodifiy aniqlanadi. II daraja: Timik indeks qiymati 20,1 dan 30 gacha bo‘lgan holatlar. Bu darajada timusning sezilarli kattalashishi kuzatiladi, bu esa immun tizimining T-hujayra bo‘g‘inida chuqurroq disbalans mavjidligi kuzatildi. III daraja: Timik indeks qiymati 30 dan yuqori bo‘lgan holatlar. Tadqiqotda aniqlanishicha, III darajali timomegaliya ko‘pincha vitamin D tanqisligi (<20 ng/ml) bilan parallel ravishda kechadi. Bu esa vitamin D miqdorining kamayishi timusning me’yordan ortiq kattalashishiga va o‘z navbatida bronxoobstruktiv sindromning cho‘ziluvchan hamda og‘ir shaklda namoyon bo‘lishiga bevosita ta’sir qilishini isbotlaydi. Bu eng yuqori daraja hisoblanib, ayrisimon bezning yaqqol giperplaziyasi bilan harakterlanadi. Bunday bolalarda ko‘pincha nafas yo‘llarining mexanik siqilishi va og‘ir kechuvchi immunopatologik holatlar kuzatilishi mumkin. Vitamin D darajasi qon zardobidagi 25(OH)D miqdoriga qarab baholandi Tekshirilgan bolalarning 85 foizida vitamin D tanqisligi aniqlandi (o'rtacha daraja — 18,4 \pm 2,1 ng/ml). Timomegaliya darajasi va vitamin D tanqisligi o'rtasida to'g'ri korrelyatsion bog'liqlik o'rnatildi. Vitamin D qabul qilish fonida ijobiy dinamika qayd etildi: BOSni bartaraf etish muddatlari qisqardi va timus o'lchamlarining normallashish tendensiyasi kuzatildi. Xulosa: O‘tkazilgan tadqiqot natijalari va aniqlangan qonuniyatlardan kelib chiqib, timomegaliyasi bo‘lgan bolalarda bronxoobstruktiv sindrom (BOS) kechishini yengillashtirish va davolash samaradorligini oshirish bo‘yicha quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Diagnostika bosqichida: BOS bilan og‘rigan barcha kichik yoshdagi bolalarda ayrisimon bez o‘lchamlarini UTT orqali skrining qilish va bir vaqtning o‘zida qon zardobidagi 25(OH)D miqdorini aniqlash zarur. Ayniqsa, timik indeksi 20 dan yuqori (II-III daraja) bo‘lgan bolalar vitamin D tanqisligi bo‘yicha yuqori xavf guruhiga kiritilishi kerak. Davolashda: BOSni kompleks davolash sxemasiga vitamin D preparatlarini kiritish maqsadga muvofiq. Vitamin D miqdori 20 ng/ml dan past bo‘lgan bolalarda faqat profilaktik dozalar bilan cheklanmasdan, yoshga mos ravishda terapevtik dozalarni qat’iy nazorat ostida qo‘llash tavsiya etiladi. Vitamin D korreksiyasi fonida timus o‘lchamlarining dinamikasini har 3-6 oyda bir marta UTT orqali kuzatib borish davolashning immunomodulyator ta’sirini baholash imkonini beradi. Vitamin D tanqisligi timomegaliyasi bo‘lgan bolalarda BOS kechishini og‘irlashtiruvchi va jarayonning surunkali tus olishiga zamin yaratuvchi asosiy patogenetik omillardan biridir. Vitamin D bilan past darajada ta’minlanganlik ayrisimon bezning morfofunksional yetilmaganligini chuqurlashtirib, BOS qaytalanishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli, timomegaliya fonida immun buzilishlarni korreksiya qilishda vitamin D ni majmuaviy terapiyaning ajralmas qismi sifatida qo‘llash, nafaqat kasallikning o‘tkir davri davomiyligini qisqartiradi, balki bolalarning umumiy immunorezistentligini oshirish oldini olishga xizmat qiladi

DIURETIK TA’SIRGA EGA KOMBINERLANGAN TABLETKA TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQARISH BORASIDAGI TADQIQOTLAR

Isakova Mohidaxon Muxammadjon qizi
Dorilarning sanoat texnologiyasi magistranti 1-bosqich talabasi
Toshkent farmatsevtika instituti Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy raxbar: farm.f.n.dots Raximova G.R.

Ishning maqsadi: Diuretik ta’sirga ega kombigirlangan tabletka dori turini ishlab chiqarishda uning texnologik xossalarini o’rganish va tadqiqotning keyingi bosqichida yordamchi moddalarni tanlash va texnologik xossalarini ishlab chiqish.

Tadqiqot materiallari va metodlari: Diuretik ta’sirga ega kombigirlangan tabletka dori turini ishlab chiqarishda Vazirlar Mahkamasining 365-sonli qaroriga ko’ra substansiyaning sochiluvchanligi, sochiluvchan zichligi, fraksion tarkib, tabiiy og’ish burchagi, qoldiq namlikni o’rganish.

Tadqiqot natijalari: *Fraksion tarkibni aniqlash.* O’zR DF da keltirilgan usul bo’yicha Tillabosh, Rozmarin, Dala qirqbo’g’imi, Rozmarin quruq ekstraktlarida aniqlandi va natijalar jadvalda keltirildi. *Sochiluvchan zichlik.* Yuqorida keltirilgan quruq ekstraktlarning sochiluvchan zichligi diametri 25 mm bo’lgan, balandligi 22,3 mm bo’lgan qolipda aniqlandi va

jadvalda natijalar taqdim etildi.*Sochiluvchanlik.* Yuqorida keltirilgan quruq ekstraktlarning sochiluvchanligi Toshkent farmatsevtika institutidagi “VP-12” asbobida aniqlandi. Bunda, tajriba 3 marta qayta olib borildi va o’rtacha natija olindi va jadvalda natijalar qayd etildi.*Qoldiq namlik.* Qoldiq namlik Toshkent farmatsevtika institutidagi “Kett apparati” da olib borildi.

№	O‘rganilgan ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	Olingan natijalar			
			Tillabosh quruq ekstrakti	Rozmarin quruq ekstrakti	Dala qirqbo’g’imi quruq ekstrakti	Na’matak quruq ekstrakti
1	Fraksion tarkib: -3000 +3000- 2000 -2000 -1000 +1000 -500 +500 - 250 -125	Mkm, %	0 0 0 0 31,8 67,9	0 0 0 0 31,1 68,7	0 0 0 0 30,6 69,2	0 0 0 0 32,4 67,3
2	Sochiluvchan zichlik	g/sm3	0,58	0,67	0,59	0,62
3	Sochiluvchanlik	g/sm3	1,39	1,47	1,44	1,28
4	Qoldiq namlik	%	5.003±0,1	5.01±0,1	5.04±0,1	5.02±0,1
5	Tabiiy og’ish burchagi	grad.	42	44	41	42

Xulosa: Diuretik tasirli tabletka tayyorlashdagi substansiyalarning texnologik xossalari o’rganildi.

ANTIOKSIDANTLAR VA ULARNING TABIIY MANBALARI

Israfilova Shoxina Akbarovna
Biotexnologiya, injeniring va farmatsiya fakulteti 201-guruh
Samarqand davlat tibbiyot universiteti. Samarqand. O’zbekiston
Ilmiy rahbar: Assistent. S.B. Pardayeva

Dolzarbligi: Antioksidantlar hujayra salomatligini saqlash va tanani oksidlovchi stressdan himoya qilishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi, bu reaktiv kislorod turlari (ROS-reactive oxygen species) ishlab chiqarish va tananing tashqi zararlanishidan holi bo‘lish o‘rtasidagi nomutanosiblik bilan bog‘liq. ROS normal metabolik jarayonlarda va ifloslanish, radiatsiya va noto‘g‘ri ovqatlanish kabi tashqi omillarga javoban hosil bo‘lgan reaktiv moddalardir.

Ishning maqsadi: Ortiqcha ishlab chiqarilganda, ROS DNK, oqsillar va lipidlar kabi hujayra tarkibiy qismlariga zarar yetkazishi mumkin, bu saraton, yurak-qon tomir kasalliklari va neyrodegenerativ kasalliklar kabi turli jiddiy muammolarga sabab bo'ladi.Shuning uchun antioksidantlar – erkin radikallarni neytrallovchi, hujayra darajasida himoya vazifasini bajaruvchi biologik faol moddalar so'nggi yillarda klinik amaliyotda katta qiziqish uyg‘otmoqda va oksidlovchi stressning organizmga ta’siri hamda uning turli patologik jarayonlardagi roli keng o‘rganilmoqda.

Materiallar va tadqiqot usullari: Antioksidantlar xavfli radikallarga qarshi kurashadi. Sabzi, lavlagi, karam, bulg‘or qalampiri, ismaloq, tomat, qovoq, baqlajon, piyoz, sarimsoq va yashil sabzavotlarda antioksidantlar ko‘p bo‘ladi. Ziravorlardan qalampirmunchoq, zarcho‘va, dolchin (koritsa), quritilgan petrushka, oregano ham salomatlikka ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Olimlar tomonidan antioksidantlik xususiyatiga ega bo'lgan 26 xil ziravor taqqoslanganda dolchin g'alaba qozongan. Dolchinni nima maqsadda iste'mol qilinayotganiga qarab turli usullarda qo'llash mumkin. Dolchin va asal birgalikda juda foydali birikmaga aylanadi. Har kuni ertalab va kechqurun 1 chashka iliq suvga 2 choy qoshiq asal va 1 choy qoshiq dolchin(artrit); 400ml iliq suvda aralashtirilgan 2 osh qoshiq asal va 3 choy qoshiq dolchin (xolestirinni kamaytiradi); 15

daqiqa oldin isitilgan zaytun moyi, 1 osh qoshiq asal, 1 choy qoshiq dolchin aralashmasi (soch to'kilishida) va shu kabi usullarda qo'llanadi.

Natijalar va muhokama: Dolchindan to'g'ri foydalangan insonlarda nafas olish yaxshilangan, yurak xuruji xavfi kamaygan, artritda ham foyda bergan, xolesterin balandligida qo'llanganda 2 soat ichida xolestirin miqdori 10% ga kamaygan, soch ildizi va tolalarini mustahkamlagan. Shuningdek dolchin immunitetni oshiradi, terining qarish jarayonini sekinlashtiradi, oshqozon kislotasi balandiligida ham foydali. Lekin har yaxshining bir yomon tarafi bor. Dolchinni noto‘g‘ri qo'llash nojo'ya ta'sirlarga sabab bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham 4 yoshgacha bo'lgan bolalarga dolchin iste'mol qilish mumkin emas. 4-14 yosh bolalar va homilador ayollarda kunlik miqdor 3 gr dan oshmasligi kerak.

Xulosa: Antioksidantlar, ayniqsa dolchin (koritsa), hujayra salomatligi va oksidlovchi stressdan himoya qilishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar dolchinning kuchli antioksidant xususiyatini ko'rsatdi, u boshqa ziravorlar orasida eng yuqori natijani qayd etdi. Dolchinning uzoq yillardan buyon qo'llanishi bejiz emas. Dolchin qadim zamonlardan beri inson salomatligini saqlashda muhim o‘rin egallab kelayotgan tabiiy ne’matdir. Uning qon shakarini pasaytiruvchi, yurak sog‘lig‘ini qo‘llab-quvvatlovchi, yallig‘lanishni kamaytiruvchi va antibakterial xususiyatlari uni nafaqat oshxona mahsuloti, balki shifobaxsh vosita sifatida ham qadrlanishiga sabab bo‘ladi. Biroq, uni me’yorida iste’mol qilish va sog‘liq holatiga mos ravishda tanlash har doim muhim hisoblanadi. Ushbu sehrli ziravor oziq-ovqat va kosmetika mahsulotlarining sifat kafolati hisoblanadi, chunki ular organizmni ko‘plab kasalliklardan himoya qiladi va hayot tarzini yaxshilaydi.

JIGAR SIRROZINING RATSIONAL FARMAKOTERAPIYASI

Isroilova Nigoraxon Ilhomjon qizi
Biotexnologiya, injinerring va farmatsiya fakulteti 504-guruh talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy rahbar: X.A. Raxmanov

Tadqiqot maqsadi: Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — jigar sirrozida ratsional farmakoterapiya tamoyillarini chuqur o‘rganish, kasallikning turli bosqichlarida samarali dori vositalarini tanlashni aniqlash va ularning klinik natijalarga ta’sirini baholashdir. Tadqiqot davomida bemorlarning umumiy holati, portal gipertenziya, assit va jigar yetishmovchiligi kabi murakkab asoratlar bilan bog‘liq farmakoterapiya yondashuvlari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqsad — gepatoprotektorlar, diuretiklar, beta-adrenoblokatorlar, detoksikatsion va simptomatik preparatlar qo‘llanilganda kasallik kechishini sekinlashtirish, asoratlarning rivojlanish xavfini kamaytirish va bemor hayot sifatini yaxshilashdagi samaradorlikni aniqlashdir.

Material va tadqiqot usullari: Mazkur tadqiqotda jigar sirrozi bilan og‘rigan bemorlarni davolashga oid zamonaviy ilmiy adabiyotlar, klinik tavsiyalar va protokollar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida diuretiklar, gepatoprotektorlar, beta-adrenoblokatorlar, detoksikatsion vositalar va simptomatik dori vositalarining ta’sir mexanizmi, samaradorligi hamda xavfsizligi o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari: Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, jigar sirrozini davolashda ratsional farmakoterapiya kompleks va individual yondashuvni talab qiladi. Kasallikning bosqichi va asoratlariga qarab dori vositalari tanlanadi. Portal gipertenziya va assit mavjud bo‘lgan bemorlarda diuretiklar (spironolakton, furosemid) qo‘llanilganda suyuqlik to‘planishi kamaygani va bemor holati yaxshilangani kuzatildi.

Beta-adrenoblokatorlar (propranolol) portal bosimni pasaytirib, qizilo‘ngach varikoz venalaridan qon ketish xavfini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Gepatoprotektorlar (ursodezoksixol kislota va boshqa preparatlar) jigar hujayralarini himoya qilish va ularning funksional holatini yaxshilashda yordam beradi.

Jigar yetishmovchiligi bilan kechuvchi holatlarda detoksikatsion terapiya va simptomatik davolash usullari qo‘llanilganda bemorlarning umumiy holati yaxshilandi. Shuningdek, infeksion

asoratlarning oldini olish va davolash maqsadida antibakterial vositalar qo‘llanilishi ham muhim ahamiyatga ega.
Ratsional kombinatsiyalangan farmakoterapiya qo‘llanilganda kasallik simptomlari kamayib, asoratlar rivojlanish xavfi pasaygani kuzatildi. Dori vositalarini tanlashda bemorning umumiy holati, jigar funksiyasi va hamroh kasalliklarni hisobga olish davolash samaradorligini oshirdi.
Xulosa: Jigar sirrozining ratsional farmakoterapiyasi individual va kompleks yondashuvga asoslanadi. To‘g‘ri tanlangan dori vositalari kasallik kechishini sekinlashtiradi, asoratlar rivojlanishini kamaytiradi va bemor hayot sifatini yaxshilaydi.

ZAMONAVIY NARKOZ TURLARI

Tolibova Jasmina Jamoliddinovna
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O`zbekiston
Ilmiy rahbar: ass. Istamova S. N.

Ishning maqsadi: Zamonaviy narkoz turlari – umumiy, mintaqaviy (regional) va mahalliy anesteziya usullari – o‘zining yuqori xavfsizlik darajasi, boshqaruvchanligi hamda minimal nojo‘ya ta’sirlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, yangi avlod inhalyatsion va intravenoz anestetik preparatlar ta’minlamoqda.Bugungi kunda narkozning dolzarbligi bir necha omillar bilan izohlanadi. Birinchidan, jarrohlik amaliyotlarining soni va murakkabligi ortib borayotgani zamonaviy va individual yondashuvni talab qiladi. Ikkinchidan, bemor xavfsizligini maksimal darajada ta’minlash, og‘riqni samarali boshqarish va stress reaksiyalarini kamaytirish dolzarb masalaga aylangan. Uchinchidan, qisqa muddatli va kam invaziv operatsiyalar uchun tez ta’sir qiluvchi va tez chiqariluvchi anestetik vositalarga ehtiyoj ortib bormoqda.

Tekshirish usullari: Tadqiqot materiali sifatida anesteziologiya va reanimatologiya sohasiga oid zamonaviy ilmiy adabiyotlar, klinik tavsiyalar, xalqaro protokollar hamda so‘nggi yillarda chop etilgan maqolalar tahlil qilindi. Shuningdek, turli narkoz turlarining (umumiy, regional va mahalliy anesteziya) qo‘llanilishi bo‘yicha mavjud klinik ma’lumotlar o‘rganildi.

Tekshirish natijalari: O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy narkoz turlari jarrohlik amaliyotlarida yuqori samaradorlik va xavfsizlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda anesteziologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar narkoz usullarining sezilarli darajada takomillashganini ko‘rsatmoqda.Jumladan, John W. Severinghaus va Hugh C. Hemmings tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda inhalyatsion anestetiklarning (masalan, Sevoflurane va Isoflurane) tez ta’sir qilishi va organizmdan tez chiqarilishi ularning keng qo‘llanilishiga sabab bo‘layotgani ta’kidlangan. Ushbu preparatlar yurak-qon tomir tizimiga nisbatan kamroq salbiy ta’sir ko‘rsatishi bilan ajralib turadi.Intravenoz narkoz vositalari orasida Propofol eng ko‘p qo‘llaniladigan preparatlardan biri hisoblanadi. James Glen tomonidan ishlab chiqilgan ushbu dori tez induksiya va qisqa tiklanish davri bilan tavsiflanadi. Propofol qo‘llanilganda bemorlar operatsiyadan so‘ng tezroq hushiga keladi va ko‘ngil aynishi kabi nojo‘ya ta’sirlar kamroq kuzatiladi.Og‘riqni samarali boshqarishda opioid analgetiklar, xususan Fentanyl va Remifentanil keng qo‘llaniladi. Paul Janssen tomonidan yaratilgan fentanyl kuchli analgetik ta’sirga ega bo‘lib, kichik dozada ham samarali hisoblanadi. Remifentanil esa juda qisqa ta’sir muddati bilan ajralib turadi va operatsiya davomida anesteziya chuqurligini aniq boshqarish imkonini beradi.Regional anesteziya usullarining rivojlanishi ham alohida e’tiborga loyiq. Bupivacaine va Ropivacaine kabi lokal anestetiklar spinal va epidural anesteziyada keng qo‘llanilib, uzoq muddatli og‘riqsizlantirishni ta’minlaydi.Bundan tashqari, multimodal anesteziya konsepsiyasi – ya’ni bir nechta turdagi anestetik va analgetik vositalarni birgalikda qo‘llash – hozirgi kunda keng tarqalgan yondashuv hisoblanadi. Bu usul dorilarning dozalarini kamaytirish, nojo‘ya ta’sirlarni minimallashtirish va anesteziya samaradorligini oshirish imkonini beradi.Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy narkoz turlarining afzalliklari quyidagilardan iborat.

Xulosa: Zamonaviy narkoz turlarining rivojlanishi jarrohlik amaliyotlarining xavfsizligi va samaradorligini sezilarli darajada oshirib, bemorlarning tez va asoratsiz tiklanishiga xizmat

qilmoqda. Shu bilan birga, yangi avlod anestetik dorilar va ilg‘or monitoring usullari anesteziologiyada individual yondashuvni ta’minlab, uning tibbiyotdagi dolzarbligini yanada kuchaytirmoqda.

KEKSA YOSHDAGI KUYGAN BEMORLARDA AYLANUVCHI QON HAJMINING O‘ZGARISHI

Izbosarova Mohinur[1]
Davolash fakulteti 509-guruh talabasi
Toshpulotov Sherzod[2]
Biotexnologiya, injinering va farmatsiya fakulteti 503-guruh talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O`zbekiston
Ilmiy rahbar: Xaydarov M.M.

Ishning maqsadi: Tadqiqotning maqsadi keksa yoshdagi kuygan bemorlarda kuyish jarayonining og‘irlik darajasiga qarab aylanuvchi qon hajmi (AQH) ning o‘zgarishlarini kompleks baholashdan iborat. Shuningdek, AQH dinamikasining gemodinamik ko‘rsatkichlar bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlash, kuyish shokining rivojlanishida uning ahamiyatini o‘rganish hamda olingan natijalar asosida davolash taktikasini optimallashtirish ko‘zda tutiladi.

Tekshirish usullari: Tadqiqot RShTYoIM Samarqand filiali bazasida olib borildi. Unda kuyish shoki davrida davolanayotgan 60 nafar keksa yoshdagi bemorlarning kasallik tarixlari retrospektiv tarzda o‘rganilib, tahlil qilindi. Tadqiqotga kiritilgan bemorlar yoshi, umumiy holati, kuyish maydoni va chuqurligi hamda hamroh kasalliklari inobatga olingan holda tanlab olindi. Barcha bemorlar kuyish jarohatining og‘irlik darajasiga ko‘ra Frank indeksi asosida 3 guruhga ajratildi. Guruhlarga ajratishda kuyish maydoni foizi va to‘qima shikastlanishining chuqurligi asosiy mezon sifatida qabul qilindi. Aylanuvchi qon hajmi(AQH) dinamikasi kuyish shokining dastlabki uch sutkasi davomida kompleks ravishda baholandi. Bunda bemorlarning klinik holati (arterial bosim, yurak urish soni, diurez), gemodinamik ko‘rsatkichlar hamda laborator parametrlar muntazam kuzatildi. Shuningdek, olib borilgan infuzion terapiyaning samaradorligi, ya’ni yuborilgan suyuqliklar hajmi, ularning tarkibi va bemor organizmiga ta’siri ham tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida AQH o‘zgarishlarining kuyish og‘irligi bilan o‘zaro bog‘liqligi baholandi.

Tekshirish natijalari: I guruh (yengil kuyish, Frank ≤30): Birinchi sutkada AQH biroz kamayishi (taxminan 10–15%) qayd etildi, bu asosan plazmaning qisman yo‘qotilishi bilan bog‘liq bo‘ldi. Ikkinchi sutkada infuzion terapiya ta’sirida AQHda ijobiy dinamika kuzatilib, uchinchi sutkaga kelib ko‘rsatkichlar deyarli me’yorga yaqinlashdi. Bu guruhda kompensator mexanizmlar nisbatan saqlanganligi sababli gipovolemiya tez bartaraf etildi. II guruh (o‘rtacha og‘ir, Frank 31–60): Birinchi sutkada AQH 20–30% gacha kamayib, aniq gipovolemiya holati yuzaga keldi. Ikkinchi sutkada infuzion terapiya fonida ma’lum darajada tiklanish kuzatilgan bo‘lsa-da, AQH ko‘rsatkichlari hali ham me’yordan past bo‘lib qoldi. Faqat uchinchi sutkaga kelib qisman kompensatsiyaga erishildi. Bu guruhda mikrosirkulyatsiya buzilishlari va suyuqlikning to‘qimalarga chiqishi uzoqroq saqlandi. III guruh (og‘ir kuyish, Frank ≥61): AQHning keskin kamayishi (30–40% va undan yuqori) kuzatilib, og‘ir gipovolemiya rivojlandi. Infuzion terapiyaga qaramasdan, ikkinchi va uchinchi sutkada ham AQHning to‘liq tiklanishi kuzatilmadi. Gipovolemiyaning uzoq saqlanishi kapillyar o‘tkazuvchanlikning yuqori darajada bo‘lishi va plazma yo‘qotilishining davom etishi bilan izohlanadi. Bu holat gemodinamik beqarorlikka va shokning chuqurlashishiga olib keldi.

Xulosa. Keksa yoshda gipovolemiyaning uzoq saqlanishi qon tomir devorining sklerozlanishi va mikrosirkulyatsiya buzilishlari bilan bog‘liq. Bu esa shokning chuqurlashishiga olib keladi. Keksa va qariya yoshdagi kuygan bemorlarda AQH kamayishi kuyish og‘irligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq. Shu sababli davolashda infuzion terapiya hajmi va tezligini individual ravishda, yoshga xos gemodinamik xususiyatlarni inobatga olgan holda belgilash zarur.

NARKOMANIYA VA UNING ASORATLARI

Jabborqulov Xurshid Hasan o'g'li[1]
Davolash fakulteti 330-guruh talabasi
Eshniyozova Nilufar Asadulla qizi[2]
Davolash fakulteti 229-guruh talabasi
Sharipova Moxinabonu Utkurovna[3]
Davolash fakulteti 507-guruh talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Samarkqand, Uzbekistan.
Ilmiy raxbar: ass Yo'ldosheva G. B.

Ishning maqsadi: Jamiyatda, ayniqsa yoshlar o'rtasida giyohvandlikning tarqalish darajasi va dinamikasini statistik tahlil qilish. Tadqiqot natijalariga tayanib, giyohvandlikning oldini olishning samarali usullarini taklif qilish va mavjud davolash metodikalarini takomillashtirish; narkomaniya natijasida kelib chiqadigan surunkali kasalliklar va shaxsning ijtimoiy degradatsiyasi darajasini ko'rsatib berish va narkotik moddalarning jigar, yurak-qon tomir va ayniqsa markaziy nerv tizimiga yetkazgan zararini ilmiy isbotlash.

Tekshirish usullari: O'zbekistonda oxirgi 5 yil ichida narkologik bemorlar ro'yxatiga olinganlar soni 53 foizga ko'paygan. Hozirda 8,5 mingga yaqin odam dispanser hisobida turadi. Shu bemorlar o'rtasida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda narkomaniya bilan bog'liq vaziyatda jiddiy tarkibiy o'zgarishlar yuz bergan. Tadqiqot obyekti sifatida olingan 60 nafar bemorning kasallik tarixi va laboratoriya tahlillari quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi: tadqiqot ishtirokchilarining 52% qismi nasha, afyun moddalaridan voz kechib, sintetik psixotrop moddalar mefedron va "alfa-PVP" ga o'tganligi aniqlandi. Bu moddalar arzonligi va internet orqali oson topilishi tufayli yoshlar o'rtasida ommalashgan. Bu sintetik narkotiklar gipertermiya, talvasa , jigar va buyrak yetishmovchiligi hamda yurak-qon tomir tizimining to'xtashiga sabab bo'lishi aniqlangan.

Tadqiqod natijalari: Narkomaniya — bu giyohvand moddalarni muntazam iste'mol qilish natijasida yuzaga kelib, insonning ruhiy va jismoniy holatini ushbu moddalarga to'liq bog'lab qo'yadigan surunkali kasallikdir. Narkotik moddalar dastlab xursandlik, vaqtichog'lik, hotirjamlik hissini uyg'otib, kayf qildirishi sababli iste'mol qilinib bora-bora kasallikka aylanadi. Bora-bora organizmda narkotik moddalarga moyillik kuchayib ketadi. Quyida narkomaniyaning asosiy asoratlari keltirilgan: miya hujayralarining nobud bo'lishi, xotira pasayishi, diqqatni jamlay olmaslik va aqliy faoliyatning susayishi; yurak ritmining buzilishi (aritmiya), infarkt, qon bosimining keskin o'zgarishi va tomirlarning zararlanishi; toksik moddalar ta'sirida jigar sirrozi, gepatit va buyrak etishmovchiligi; O'pka kasalliklari, nafas yo'llarining yallig'lanishi; moddani topish va iste'mol qilish asosiy maqsadga aylanadi; kayfiyatning keskin o'zgarishi, depressiya, asabiylik va tajovuzkorlik kuchyishi; noto'g'ri gumonlar, gallyutsinatsiyalar va ruhiyat buzilishi kabi asoratlarga olib keladi

Xulosa: Giyohvandlik — bu shunchaki zararli odat emas, balki miya neyronlarining qaytmas zararlanishi, jigar, yurak va immun tizimining emirilishidir. Hech qanday dori vositasi giyohvandlikni "sehrli tayoqcha" kabi davolab qo'ymaydi. Farmakologik blokatorlar jismoniy og'riqni to'xtatishga yordam bersa-da, ruhiy qaramlikni faqat uzoq muddatli irodaviy reabilitatsiya yenga oladi.

ICHAK MIKROBIOMASINING ORAL DORI VOSITALARI FARMAKOKINETIKASIGA TA’SIRI: INDIVIDUAL TERAPIYADA YANGI PARADIGMA

Xudayarova Shaxrizoda Salimovna
Termiz Iqtisodiyot va Servis universiteti Tibbiyot fakulteti talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O`zbekiston
Ilmiy rahbar: Jo`rayev Z.A.

Ishning maqsadi: Ichak mikrobiotasining dori vositalari (masalan, metformin, levodopa yoki ayrim statinlar) metabolizmidagi rolini tahlil qilish va dori samaradorligini bashorat qilishda mikrobioma omilini baholash.

Tekshirish usullari: Tadqiqotda (masalan: tizimli tahlil, adabiyotlar sharhi yoki ma'lum bir guruh bemorlar kuzatuvi) usulidan foydalanildi. Bakterial fermentlarning (masalan, b-glyukuronidaza) dori molekulalarini parchalash xususiyatlari va ularning farmakokinetik parametrlarga (Cmax, AUC) ta’siri o‘rganildi.

Tekshirish natijalari: Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ichakdagi Bacteroides va Firmicutes nisbatining o‘zgarishi dori vositalarining bioavailability (biokiraolishligi) ko‘rsatkichini 20-40% gacha o‘zgartirishi mumkin. Masalan, ayrim bakteriyalar dori molekulasini u so‘rilmasdanoq inaktiv holatga o‘tkazadi yoki aksincha, toksik metabolitlar hosil qiladi. Bu esa "standard doza" tushunchasining samaradorligini shubha ostiga qo‘yadi. Bir xil dori vositasi va bir xil doza turli bemorlarda turlicha terapevtik samara berishi farmakologiyaning fundamental muammolaridan biridir. Oxirgi tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, inson ichak mikrobiomasi (trillionlab bakteriyalar) dori vositalarini metabolizmga uchratishda "ikkinchi jigar" vazifasini bajaradi. Mikrobiota tarkibining o‘zgarishi dorining so‘rilishi, aktivlashishi yoki toksiklik darajasiga bevosita ta’sir qiladi. Ichak mikrobiomasi inson organizmida metabolik jarayonlar, immun tizimi va dori vositalarining ta’sir mexanizmlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadigan murakkab ekotizim hisoblanadi. So‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ichak mikrobiotasining oral qabul qilinadigan dori vositalarining farmakokinetik ko‘rsatkichlariga, xususan, ularning so‘rilishi, biotransformatsiyasi, taqsimlanishi va chiqarilishiga bevosita va bilvosita ta’sir etishini ko‘rsatmoqda. Mazkur maqolada ichak mikrobiomasining dori metabolizmiga ta’sir mexanizmlari, individual farqlar asosida farmakokinetik o‘zgaruvchanlik hamda shaxsga yo‘naltirilgan terapiyada mikrobioma tahlilining ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, mikrobiota tarkibini modulyatsiya qilish orqali dori samaradorligini oshirish va nojo‘ya ta’sirlarni kamaytirish imkoniyatlari muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari ichak mikrobiomasini hisobga olgan holda individual terapiyani shakllantirish zamonaviy tibbiyotda yangi paradigma sifatida qaralayotganini ko‘rsatadi.

Xulosa: Kelajakda dori vositalarini tayinlashda nafaqat bemorning vazni va yoshi, balki uning ichak mikrobiomasi holatini ham hisobga olish.

SPIRTLARNI GAZ-SUYUQLIK XROMATOGRAFIK USULDA SIFAT VA MIQDORIY TAHLIL QILISH

Karimbayeva Madina Davranbek qizi
Biotexnologiya, injeniring va farmatsiya fakulteti 304-guruh talabasi.
Samarqand davlat tibbiyot unversiteti
Samarkand, Uzbekistan
Ilmiy rahbar: ass Tashanov O. S.

Ishning maqsadi: Mazkur tadqiqotning maqsadi past molekulyar spirtlarni gaz-suyuqlik xromatografiyasi (GSX) yordamida aniqlashning optimal sharoitlarini ishlab chiqish, ularning sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlarini yuqori aniqlikda baholash hamda usulning farmatsevtik va toksikologik tahlildagi ahamiyatini asoslashdan iborat.

Tadqiqot materiallari va usullari: Tadqiqot obyekti sifatida metanol, etanol, propanol va izopropanol eritmalari tanlab olindi.

Tahlillar gaz-suyuqlik xromatografi yordamida, yuqori ajratish qobiliyatiga ega bo‘lgan kapillyar kolonkada olib borildi. Statsionar faza sifatida polimer asosli qoplama, mobil faza sifatida esa inert gaz — geliy qo‘llanildi.
Harorat rejimi dasturlashtirilgan tarzda 40°C dan 200°C gacha bosqichma-bosqich oshirib borildi, bu esa komponentlarning samarali ajralishini ta’minladi.
Namuna tayyorlash jarayonida ichki standart (masalan, n-butanol yoki tert-butanol) qo‘llanilib, miqdoriy tahlil kalibrovka grafigi asosida amalga oshirildi.
Deteksiya olov-ionizatsion detektor (FID) yordamida olib borildi, bu esa organik birikmalarni aniqlashda yuqori sezgirlikni ta’minladi.

Tadqiqot natijalari: Gaz-suyuqlik xromatografiya yordamida o‘rganilgan spirtlarning retensiya vaqtlari aniq belgilandi va ularning sifat jihatdan identifikatsiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, metanol va etanol kabi past molekulyar spirtlar qisqa vaqt ichida ajralib chiqadi, yuqori uglerod zanjiriga ega spirtlarda esa retensiya vaqti ortadi.
Miqdoriy tahlil natijalari yuqori darajada aniqlik va takrorlanuvchanlikka ega bo‘lib, kalibrovka grafigi chiziqliligi keng konsentratsiya oralig‘ida saqlanib qoldi ($R^2 \approx 0.999$).
Ichki standart usulidan foydalanish natijalarni barqarorlashtirdi va instrumental xatoliklarni minimallashtirdi.
Bundan tashqari, usul past konsentratsiyalarda (ppm darajasida) spirtlarni aniqlash imkonini berishi bilan yuqori sezgirlikka ega ekanligi tasdiqlandi.

Xulosalar: Gaz-suyuqlik xromatografiyasi past molekulyar spirtlarni sifat va miqdoriy aniqlashda yuqori samaradorlikka ega zamonaviy analitik usul hisoblanadi.
Usulning asosiy afzalliklari sifatida yuqori selektivlik, sezgirlik, tezkorlik va aniqlikni qayd etish mumkin.

Tadqiqot natijalari ushbu usulning farmatsevtik preparatlar, biologik suyuqliklar hamda sud-toksikologik obyektlarda spirtlarni aniqlashda keng qo‘llanish imkoniyatlarini tasdiqlaydi. Mazkur yondashuv laboratoriya amaliyotida sifat nazoratini takomillashtirish va toksik moddalarning tezkor aniqlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

SOXTA DORI VOSITALARINI ANIQLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA DORIXONA TIZIMIDA SIFAT NAZORATI

Karimova Asalxon Ramazonxon qizi
Biotexnologiya injinering va farmatsiya fakulteti 403-guruh talabasi.
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti
Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy rahbar: PhD Anvarov T.O’.

Ishning maqsadi: Sohta va sifatsiz dori vositalari global sog‘liqni saqlash tizimi uchun jiddiy xavf hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JST) ma’lumotlariga ko‘ra, past va o‘rta daromadli mamlakatlarda dori vositalarining taxminan 10% qismi sifatsiz yoki soxta bo‘lishi mumkin. Bu holat nafaqat davolash samaradorligini pasaytiradi, balki bemorlarda kasallikning og‘irlashishi, asoratlar, dorilarga chidamlilik (rezistentlik) rivojlanishi hamda o‘lim holatlariga sabab bo‘ladi.

Tadqiqot usullari. Mazkur ishda soxta dori vositalarini aniqlash va ularni dorixona tizimida nazorat qilish bo‘yicha quyidagi amaliy usullar o‘rganildi:

Organoleptik tahlil: dori vositasining tashqi ko‘rinishi (rang, shakl, hid, qadoq sifati) baholandi.

Markirovka va hujjat ekspertizasi: seriya raqami, ishlab chiqarish sanasi, yaroqlilik muddati, QR-kod, shtrix-kod va hologrammalar tekshirildi.

Farmakopeya talablari bo‘yicha sifat ko‘rsatkichlarini tahlil qilish: tabletkalarning parchalanish va eruvchanlik ko‘rsatkichlari, massa bir xilligi nazariy jihatdan tahlil qilindi.

Yupqa qatlamli xromatografiya (YuQX: faol moddaning mavjudligi va tarkibiy mosligini tezkor aniqlash usuli sifatida o‘rganildi. UB-spektrofotometriya: faol moddaning miqdoriy

tarkibini baholash usuli sifatida tahlil qilindi.Yuqori samarali suyuqlik xromatografiyasi (YuSSX): eng ishonchli usul sifatida, preparat tarkibida faol modda miqdori va aralashmalarni aniqlash imkoniyatlari o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, soxta dori vositalari ko‘pincha tashqi belgilar orqali qisman aniqlanishi mumkin. Masalan, qadoq sifati pastligi, yozuvlarda imlo xatolari, seriya raqami va ishlab chiqaruvchi ma’lumotlarining mos kelmasligi shubhali belgilar hisoblanadi. Biroq faqat organoleptik tekshiruv bilan soxta preparatni aniq tasdiqlash imkonsiz.

JST va farmakopeya talablariga ko‘ra, dori vositasining haqiqiyligini isbotlash uchun laborator va instrumental tahlillar zarur. YuQX usuli faol moddaning mavjud yoki mavjud emasligini aniqlashda samarali bo‘lib, amaliyotda tezkor skrining sifatida qo‘llaniladi. UB-spektrofotometriya faol moddaning miqdorini taxminiy aniqlash imkonini beradi. Eng yuqori aniqlikdagi usul sifatida HPLC tan olinib, preparat tarkibidagi faol moddaning foiz miqdori va aralashmalarni aniq ko‘rsatib beradi. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, dorixona tizimida soxta dorilarni kamaytirish uchun nafaqat qadoq nazorati, balki laborator tekshiruvlar va ta’minot zanjirini qat’iy nazorat qilish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Soxta va sifatsiz dori vositalari global miqyosda katta muammo bo‘lib, JST ma’lumotlariga ko‘ra past va o‘rta daromadli mamlakatlarda ularning ulushi taxminan 10% ni tashkil etishi mumkin. Bunday preparatlar davolash samaradorligini pasaytirib, asoratlar va o‘lim holatlariga sabab bo‘ladi hamda antibiotiklarga chidamlilik (AMR) muammosini kuchaytiradi. Shu sababli soxta dori vositalarini aniqlashda organoleptik va hujjat nazorati dastlabki bosqichda muhim bo‘lsa-da, yakuniy va ishonchli xulosa instrumental tahlil usullari (YuQX, UB-spektrofotometriya, YuSSX) asosida berilishi lozim. Dorixona tizimida sifat nazoratini kuchaytirish, ta’minot zanjirini shaffof qilish va farmatsevtlarning mas’uliyatini oshirish soxta dori vositalarining tarqalishini kamaytirishda eng samarali choralar hisoblanadi.

RAQAMLI FARMATSIYA VA SUN’IY INTELLEKT: DORI VOSITALARINI YARATISHDA YANGI BOSQICH

Karimova Asalxon Ramazonxon qizi
Biotexnologiya injinering va farmatsiya fakulteti 403-guruh talabasi.
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti
Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy rahbar: ass. Oltiboyeva M.G’.

Ishning dolzarbligi. Farmatsevtika sanoatida sun’iy intellekt (SI) va raqamli texnologiyalarni qo‘llash dori vositalarini yaratish jarayonini sezilarli darajada tezlashtirmoqda. An’anaviy dori yaratish jarayoni o‘rtacha 10–12 yil davom etib, bir preparatni bozorga olib chiqish xarajati 2 milliard AQSH dollaridan oshishi qayd etilgan. Sun’iy intellekt asosidagi modellashtirish tizimlari esa dastlabki skrining bosqichini 30–50 % gacha qisqartirish imkonini bermoqda.

Tadqiqot usullari. AlphaFold — oqsil strukturasini oldindan aniqlash va yangi biologik targetlarni topishda qo‘llanadi.
Chemistry42 — yangi molekulalarni generatsiya qilish va farmakologik xossalarni prognozlash uchun ishlatiladi.
PandaOmics — genomik va proteomik ma’lumotlardan target tanlashda samarali.
InClinico — klinik tadqiqot natijalarini bashorat qiladi.
IBM Watson — katta hajmdagi tibbiy ma’lumotlarni tahlil qiladi.
Schrodinger — molekulyar docking va virtual skrining uchun qo‘llanadi.
DeepChem — farmatsevtik tadqiqotlarda ochiq kodli platforma sifatida keng qo‘llanadi.

Tadqiqot natijalari. 2024-yil global farmatsevtika bozorida sun’iy intellektga asoslangan dori yaratish segmenti 1,99 milliard AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda bu ko‘rsatkich 2,65 milliard dollarga yetgani aniqlangan. Prognozlarga ko‘ra, 2034-yilga borib mazkur bozor hajmi 35,42 milliard AQSH dollariga yetadi va o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati 29,6 % ni tashkil etadi. Farmatsevtik kompaniyalar o‘rtasida o‘tkazilgan tahlillarga ko‘ra, bugungi

kunda kompaniyalarning taxminan 62 % qismi dori moddalari skriningi va biologik nishonlarni aniqlashda SI texnologiyalaridan foydalanmoqda. Shu bilan birga, SI yordamida molekulyar target validatsiyasi 30 % tezlashgan, 1500 dan ortiq kimyoviy birikmalar avtomatlashtirilgan algoritmlar orqali saralangan. Klinik tadqiqotlarda ham sun'iy intellektning samaradorligi yuqori baholanmoqda. 2024-yilda 200 dan ortiq klinik tadqiqotlarda AI-adaptiv dizayn usullari qo'llanilgan bo'lib, bemorlarni tanlash samaradorligi 40 % ga oshgan. Nojo'ya ta'sirlarni oldindan aniqlash tizimlari esa farmakovigilans jarayonida 35 % tezkorlik ko'rsatgan.

McKinsey tahlillariga ko'ra, yaqin 5 yil ichida agentik sun'iy intellekt klinik ishlab chiqish samaradorligini 35–45 % oshirishi mumkin. Shu sababli yirik farmatsevtik kompaniyalar superkompyuter infratuzilmasiga katta sarmoya kiritmoqda. Masalan, Roche kompaniyasi 2026-yilda 2176 ta GPU protsessorli SI platformasini ishga tushirdi.

Xulosa. Raqamli farmatsiya va sun'iy intellekt dori vositalari yaratishning ilmiy asoslarini tubdan yangilamoqda. Statistik ko'rsatkichlar SI yordamida vaqt, mablag' va ilmiy risklarning sezilarli kamayishini ko'rsatmoqda. Shu bois farmatsevtik ta'lim, ishlab chiqarish va klinik tadqiqotlarda SI platformalarini keng joriy etish kelajakning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

BOLALARDA TIMOMEGALIYANING FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Karimova Diyora Baxrom qizi
Davolash ishi fakulteti 2-bosqich 220-guruh talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand ,O'zbekiston
Ilmiy raxbar: ass. Burxanova D.S.

Tadqiqotning asosiy maqsadi bolalar orasida uchraydigan timomegaliya holatining klinik va immunologik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish hamda uning immun tizim faoliyatiga ko'rsatadigan ta'sirini aniqlashdan iborat. Shuningdek, timus bezining kattalashuvi natijasida organizmning infeksiyalarga qarshi himoya mexanizmlarida yuzaga keladigan o'zgarishlarni baholash, allergik kasalliklar rivojlanishiga ta'sirini o'rganish ham tadqiqot vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Tadqiqot maqsadi bolalarda timomegaliyaning klinik va immunologik xususiyatlarini aniqlash va uning immun tizim faoliyatiga ta'sirini baholashdan iborat.

Material va metodlar Tadqiqot pediatriya yo'nalishidagi klinik muassasada olib borildi va unda 3 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan jami 40 nafar bola ishtirok etdi. Ishtirokchilar ikki guruhga ajratildi: asosiy guruhga timomegaliya tashxisi qo'yilgan 20 nafar bola, nazorat guruhiga esa klinik jihatdan sog'lom 20 nafar bola kiritildi.Tadqiqot jarayonida barcha ishtirokchilarda kompleks tekshiruvlar o'tkazildi. Klinik baholash umumiy ko'rik orqali amalga oshirildi, laborator tekshiruvlar yordamida qonning asosiy ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Ultratovush diagnostikasi orqali timus bezining o'lchami va morfologik holati baholandi. Bundan tashqari, bolalarda respirator kasalliklarning qaytalanish chastotasi, allergik reaksiyalar mavjudligi hamda periferik qondagi limfotsitlar miqdori alohida o'rganildi. Olingan natijalar statistik usullar yordamida qayta ishlanib, guruhlar o'rtasidagi farqlar aniqlashtirildi Natijalarga ko'ra timomegaliya mavjud bolalarda respirator infeksiyalar bilan kasallanish chastotasi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lib, asosiy guruhdagi bolalarning 60–65 % ida yil davomida 4–6 martagacha o'tkir respirator kasalliklar qayd etildi. Shuningdek, timomegaliya mavjud bolalarning 35–40 % ida allergik reaksiyalar va bronxial obstruksiya epizodlari kuzatildi. Laborator tekshiruvlarda limfotsitlar miqdorining nisbiy oshishi va ayrim immunologik ko'rsatkichlarning o'zgarishi aniqlangan.

NatijalarTadqiqot natijalari timomegaliya mavjud bolalarda respirator kasalliklar bilan kasallanish darajasi sog'lom bolalarga nisbatan ancha yuqori ekanligini ko'rsatdi. Asosiy guruhdagi bolalarning aksariyatida yil davomida bir necha marotaba o'tkir respirator infeksiyalar qayd etildi.Bundan tashqari, ushbu guruhdagi bolalarda allergik reaksiyalar va bronxial obstruksiya epizodlari ko'proq uchrashi aniqlandi. Laborator tahlillar natijasida limfotsitlar miqdorining nisbiy oshishi va ayrim immunologik ko'rsatkichlarning o'zgarishi qayd etildi. Bu

esa timus bezining kattalashuvi immun tizim faoliyatida muvozanat buzilishiga olib kelishini ko‘rsatadi.. Xulosa

Xulosa qilib aytganda, timomegaliya bolalarda immun tizim faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan muhim klinik holat hisoblanadi. Ushbu patologiya sharoitida organizmning infeksiyalarga qarshi kurashish qobiliyati pasayadi va natijada respirator kasalliklar hamda allergik reaksiyalar tez-tez takrorlanadi.Shu sababli timomegaliya aniqlangan bolalarda immun tizim holatini muntazam nazorat qilish, profilaktik choralarni kuchaytirish hamda zarur hollarda vitamin komplekslari va immunomodulyator preparatlar yordamida farmakologik korreksiya o‘tkazish muhim ahamiyatga ega. Bu esa bolalar salomatligini yaxshilash va kasalliklar takrorlanishini kamaytirishga yordam beradi.

КАРАМНИНГ ИНСОН УЧУН ФОЙДАЛИ ХУСУСИЯТЛАРИ

Кенесбаева Умида Мансурбековна
Даволаш факултети талабаси
Самарқанд Давлат тиббиёт университети
Самарқанд Ўзбекистон
Илмий рахбар асс. Юлдошева Г.Б.

Ишнинг максади: Карам-инсон саломатлиги учун жуда ҳам фойдали маҳсулотдир. Карам таркибида қандлар, органик кислоталар, витаминлар (С, Р, В, В2, РР, К, Е) ва каротин, пантотен ва фолат кислоталар, ёг, ферментлар, фитонцидлар, калий, калций, йод, марганец, темир ва бошқа элементларнинг тузлари бор.

Тадқиқот материаллари ва усуллари Карам халқ табобатида турли касалликларга ишлатилади, организмдан холестериннинг чиқиб кетишини тезлатади. Карамда бириктирувчи модда кўп. Бундан ташқари карам таркибида кўп миқдорда С витамини бўлиб, иммунитетни мустаҳкамлайди, бу организмнинг касалликларга қарши курашишини кучайтиради.Овқат ҳазм қилишни яхшилайди – чунки толага бой бўлгани учун ичак фаолиятини яхшилайди ва қабзиятнинг олдини олади. Юрак соғлиғини қўллаб-қувватлайди – ундаги калий юрак ритмини тартибга солади, қон босимини пасайтиришга ёрдам беради. Детоксикация хусусияти – организмдаги зарарли моддалардан тозаловчи табиий восита ҳисобланади.

Тадқиқот натижалари. Саратон касаллигига қарши таъсири, карамда бўлган антиоксидантлар ва сулфорафан моддалари саратон ҳужайраларининг ривожланишига қарши таъсир кўрсатади. Тери ва соч учун фойдали – витаминлар (айниқса А ва Е) терининг ҳолатини яхшилайди, сочларнинг соғлом ўсишини қўллаб-қувватлайди. Озишга ёрдам беради – кам калорияли ва фойдали моддаларга бой карам парҳез вақтида идеал маҳсулот саналади фойдали хусусиятларга эга. Пиширилган карам енгил ҳазм бўлади, организга осон сингадиган моддаларга бой бўлганлиги учун ошқозон - ичак касалликлари билан оғриган беморларга тавсия этилади. Юкоридаги шифобахш хусусиятларидан фойдаланиб карамдан тайерланган таомлардан фойдаланиб 10 та беморда текширишлар олиб борилди

Хулоса: Хулоса килиб шуни айтиш керакки карамнинг шифобахш хусусиятлари бисёрдир. Қатнашчилардан биттаси карам овкатларни хохламади, колганларида эса ич котиш муаммолари бартараф этилганини таъкидлаб ўтди. Хулосамизда шунга тухталдикки карам шифобахшдир.

NOSTEROID ASTMASINI RATSIONAL DAVOLASH PRINSIPLARI

Kenjayeva Laylo
Biotexnologiya, injinerring va farmatsiya fakulteti 503-guruh talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O`zbekiston
Ilmiy rahbar: Muradova Railya Rustamovna

Tadqiqot maqsadi. Nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori vositalari (NSAIDlar) bilan bog‘liq astmada samarali va xavfsiz davolash usullarini aniqlash, kasallik patogenezini hisobga olgan holda ratsional terapiya prinsiplari va individual yondashuvlarni ishlab chiqish.

Tadqiqot materiallari va usullari. Mazkur tadqiqot Samarqand viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi hamda Samarqand davlat tibbiyot universiteti klinik bazalarida o‘tkazildi. Tadqiqotda nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori vositalarini qabul qilgandan so‘ng bronxial astma simptomlari rivojlangan 50 nafar bemorning kasallik tarixlari retrospektiv tarzda tahlil qilindi. Bemorlarni tanlashda ularning yoshi, jinsi, allergologik anamnezi, hamroh kasalliklari hamda qabul qilingan NSAID turi inobatga olindi. Tashxis qo‘yishda klinik simptomlar (bronxospazm, nafas qisishi, xirillash), spirometriya natijalari hamda allergologik tekshiruvlar asos qilib olindi. Bemorlar qo‘llanilgan davolash strategiyasiga ko‘ra ikki guruhga ajratildi: 1-guruh (nazorat guruhi) bemorlari faqat simptomatik terapiya (bronxolitiklar va antihistamin vositalar) oldi; 2-guruh (asosiy guruh) bemorlari esa kompleks va ratsional terapiya oldi. Kompleks davolash quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oldi: eliminatsiya bosqichi (NSAID preparatlarni to‘liq bekor qilish); asosiy davolash bosqichi (ingalyatsion glyukokortikosteroidlar, bronxodilatatorlar hamda leyukotrien retseptor antagonistlari qo‘llanildi);profilaktik bosqich (takroriy xurujlarning oldini olish va individual dori tanlash). Davolash samaradorligi klinik simptomlarning kamayishi, spirometriya ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi hamda bemorlarning umumiy holati asosida baholandi.

Tadqiqot natijalari. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori vositalari bilan bog‘liq astmada qo‘llanilgan davolash usullarining samaradorligi guruhlar kesimida sezilarli farq qilganligi aniqlandi.Kompleks va ratsional terapiya olgan 2-guruh bemorlarida bronxospazm xurujlari tezroq bartaraf etildi, nafas qisishi va xirillash kabi klinik simptomlar sezilarli darajada kamaydi. Spirometriya natijalarida ham ijobiy dinamika kuzatilib, tashqi nafas funksiyasi ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan tezroq yaxshilandi. Shuningdek, ushbu guruhda kasallikning qaytalanish chastotasi kamaygani hamda bemorlarning hayot sifati oshgani qayd etildi. Ayniqsa, NSAID preparatlarni to‘liq bekor qilish va leyukotrien retseptor antagonistlarini qo‘llash terapiya samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘ldi.Nazorat guruhida esa faqat simptomatik davolash olib borilganligi sababli klinik belgilar uzoqroq saqlanib qoldi va ayrim hollarda takroriy xurujlar kuzatildi. Olingan natijalar ratsional yondashuv asosida olib borilgan kompleks terapiya nosteroid astmasida yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi.

Xulosa. Nosteroid yallig‘lanishga qarshi dori vositalari bilan bog‘liq astmada ratsional davolash yondashuvi yuqori klinik samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Kasallikni boshqarishda asosiy omil sifatida NSAID preparatlarni bekor qilish hamda individual yondashuv asosida kompleks terapiya qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ingalyatsion glyukokortikosteroidlar, bronxodilatatorlar hamda leyukotrien retseptor antagonistlarini o‘z ichiga olgan davolash sxemasi klinik simptomlarni tezroq bartaraf etadi, tashqi nafas funksiyasini yaxshilaydi va kasallik qaytalanishining oldini oladi. Shu boisdan klinik amaliyotda nosteroid astmasini davolashda ratsional farmakoterapiya prinsiplari asosida individual va bosqichma-bosqich yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiq hisoblanadi

AKNE (HUSNBUZAR) DAVOLASHDA ADAPALEN PREPARATINING FARMAKOLOGIK SAMARADORLIGI VA KLINIK AHAMIYATI

Kenjayeva Laylo Botirjon qizi
Biotexnologiya, injiniring va farmatsiya fakulteti 503-guruh talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O`zbekiston
Ilmiy rahbar: ass. Axmedov B. X

Tadqiqot maqsadi. Hozirgi kunda Acne vulgaris dermatologiyada eng ko‘p uchraydigan va bemorlarning hayot sifatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadigan patologiyalardan biridir. Kasallik patogenezida follikulyar giperkeratoz va yallig‘lanish jarayonlari asosiy o‘rin tutadi. Adapalen uchinchi avlod sintetik retinoidi sifatida ushbu jarayonlarga selektiv ta’sir ko‘rsatishi, yuqori fotobarqarorligi va minimal nojo‘ya ta’sirlari bilan boshqa dori vositalaridan ajralib turadi. Akne davolashning terapevtik usullari ham mahalliy, ham og‘iz orqali terapiyani o‘z ichiga oladi. Tashqari terapiyada afzalliklar akne vulgaris patogenezining barcha bog‘liq jihatlariga ta’sir qiluvchi birikmalarga beriladi. Metrogil® A topikal preparatining, unda adapalen va metronidazol mavjud bo‘lib, engil va o‘rta og‘irlikdagi akneli bemorlarning tashqi terapiyasida samaradorligi va ayrim ta’sirchanligi baholandi. Adapalen preparatining farmakologik ta’sir mexanizmini o‘rganish, uning teri hujayralari differensiallanishiga ta’sirini tahlil qilish va klinik amaliyotda qo‘llanilish samaradorligini baholash.

Tadqiqot materiallari va usullari. 2025-2026 yili Samarqanddagi «Royal MED» klinikasi bazasida 60 bemor (19 erkak va 41 ayol), yoshi 18 dan 45 gacha bo‘lgan engil va o‘rta og‘irlikdagi akne bilan kasallanganlar kuzatuvga olindi. Birinchi guruh bemorlar adapalen 1,0 mg va metronidazol 10,0 mg (Metrogil® A) fiksatsiyalangan kombinatsiyasini oldilar; ikkinchi guruh – adapalen 0,1% va klindomitsin fosfat 1% kombinatsiyasini; uchinchi guruh – adapalen 0,1% va salitsil kislota 2,5% geli kombinatsiyasini; to‘rtinchi guruh – adapalen 0,1% ni oldi. Beshinchi guruh esa birinchi guruh bemorlaridan tashkil etildi va ular davolashni yana 3 oy davom ettirishdi.

Tadqiqot natijalari. Birinchi guruhda 6 bemorda (40%) klinik remissiya, 9 bemorda (60%) yorqin yaxshilanish qayd etildi. Davolash jarayonida bemorlar holatining yomonlashuvi yoki klinik ta’sirsizlik kuzatil-madi. Adapalen va metronidazol kombinatsiyasi (Metrogil® A) engil va o‘rta akneni davolashda adapalen va salitsil kislota 1% kombinatsiyasi bilan samaradorligi bo‘yicha teng, topikal adapalen terapiyasidan 10% ustunroq va topikal antibiotiklar bilan kombinatsiyadan 30% yuqori samarali ekanligi aniqlandi.

Xulosa. Adapalen akneni kompleks davolashda eng yuqori darajadagi ishonchlilikka ega bo‘lgan dori vositasi hisoblanadi. U nafaqat tashqi simptomlarni yo‘qotadi, balki kasallikning patogenetik zanjiriga (hujayra darajasida) ta’sir ko‘rsatadi. Farmatsevtik amaliyotda adapalenni qo‘llash kasallikning qaytalanish xavfini (retsidiv) sezilarli darajada kamaytiradi.

YUQORI NAFAS YO‘LLARI INFEKSIYALARIDA ANTIBIOTIKLARDAN IRRATSIONAL FOYDALANISH: QO‘LLANILGAN PREPARATLAR, QO‘LLASH SABABLARI VA ANTIBIOTIKREZISTENTLIK XAVFI

Kuyliyev Bekzod Bobonazarovich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand. O’zbekiston Respublikasi
Ilmiy rahbar: Muxsinova Sh.M.

Tadqiqotning maqsadi: Tadqiqotning maqsadi — yuqori nafas yo‘llari infeksiyalarida antibiotiklardan irratsional foydalanish holatlarining tarqalganligini o‘rganish, qaysi klinik holatlarda qaysi antibakterial preparatlar qabul qilinganini aniqlash, antibiotiklarni qo‘llashda shifokor tavsiyasi va diagnostik tekshiruvlarning o‘rnini baholash hamda ushbu holatning antibiotikrezistentlik rivojlanish xavfiga ta’sirini tahlil qilishdan iborat.

Materiallar va tadqiqot usullari: Unda 62 nafar talaba ishtirok etdi. Ma’lumotlar anonim anketa-so‘rovnoma yordamida yig‘ildi. So‘rov davomida respondentlarda kuzatilgan yuqori nafas yo‘llari infeksiyalari turlari, ushbu holatlarda qabul qilingan antibiotik preparatlari, ularni

kim tavsiya qilgani, preparat qabul qilishdan oldin shifokor ko‘rigi yoki laborator tekshiruv o‘tkazilgani, davolash kursiga rioya etish darajasi hamda antibiotikrezistentlik haqidagi bilimlari o‘rganildi. Antibiotiklarni shifokor tavsiyasisiz qabul qilish, tekshiruvsiz boshlab yuborish, virusli holatlarda qo‘llash, kursni muddatidan oldin to‘xtatish va o‘zboshimchalik bilan preparat tanlash irratsional foydalanish mezonlari sifatida baholandi.

Tadqiqot natijalari va ularni muhokama qilish. So‘rov natijalariga ko‘ra, tadqiqotda ishtirok etgan 62 nafar respondentning 49 nafari (79,0%) yuqori nafas yo‘llari infeksiyalari bilan bog‘liq holatlarda antibiotik qabul qilganini bildirgan. Antibiotiklar eng ko‘p tomoq og‘rig‘i va faringitda — 16 nafar (32,7%), tonzillofaringitda — 12 nafar (24,5%), shamollash yoki O‘RVI epizodlarida — 11 nafar (22,4%), sinusitga shubha qilingan holatlarda — 6 nafar (12,2%), shuningdek laringit yoki ovoz bo‘g‘ilishi bilan kechgan holatlarda — 4 nafar (8,2%) respondent tomonidan qo‘llangan. Ushbu natijalar yuqori nafas yo‘llari infeksiyalarida antibiotiklar ko‘pincha etiologiya to‘liq aniqlanmasdan turib qabul qilinishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, shamollash va O‘RVI kabi aksariyat hollarda virusli tabiatga ega bo‘lgan kasalliklarda antibiotiklardan foydalanilishi ularning asossiz qo‘llanayotganini ko‘rsatadi. Antibiotiklarni qabul qilish sabablari tahlil qilinganda, respondentlar orasida kasallikni tezroq tuzatish istagi 20 holatda (40,8%) yetakchi omil bo‘lgani aniqlandi. Bundan tashqari, tomoq og‘rig‘i va yutinishdagi noqulaylikni kamaytirish 12 holatda (24,5%), isitmani tushirish 7 holatda (14,3%), yo‘tal yoki balg‘amni kamaytirish 6 holatda (12,2%), asoratlarning oldini olish esa 4 holatda (8,2%) antibiotik qabul qilishga sabab bo‘lgan. Bu ko‘rsatkichlar talabalar orasida antibiotiklarning ta’sir doirasi va ularni qo‘llash ko‘rsatmalari haqida yetarli bilim har doim ham shakllanmaganini ko‘rsatadi. Antibiotiklar simptomatik vosita bo‘lmay, asosan bakterial etiologiyali infeksiyalarda qo‘llanishi lozimligi haqidagi tushuncha ayrim respondentlarda yetarli darajada mustahkam emasligi kuzatildi. Qabul qilingan preparatlar orasida azitromitsin 17 nafar respondentda (34,7%), amoksitsillin/klavulanat 13 nafarida (26,5%), amoksitsillin 9 nafarida (18,4%), seftriakson 5 nafarida (10,2%), sefiksim 3 nafarida (6,1%) va boshqa antibiotiklar 2 nafarida (4,1%) uchradi. Antibiotikni 28 nafar respondentga (57,1%) shifokor tavsiya qilgan bo‘lsa, qolgan holatlarda preparat farmatsevt, qarindosh-tanish yoki respondentning o‘zi tomonidan tanlangan. Antibiotik qabul qilganlarning 35 nafari (71,4%) shifokor ko‘rigidan o‘tgan bo‘lsa-da, 30 nafarida (61,2%) laborator tekshiruv o‘tkazilmagan. Bundan tashqari, 18 nafar respondent (36,7%) davolash kursini muddatidan oldin to‘xtatgan, 23 nafar talaba (37,1%) esa antibiotiklar virusli shamollashda ham foyda beradi deb hisoblagan.

Xulosa: Olingan natijalar talabalar orasida antibiotiklardan irratsional foydalanish holatlari mavjudligini ko‘rsatadi. Bu antibiotikrezistentlik rivojlanishi, davolash samaradorligining pasayishi va nojo‘ya ta’sirlar xavfining ortishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli antibiotiklardan oqilona foydalanish, farmakologik savodxonlikni oshirish bo‘yicha tushuntirish ishlarini kuchaytirish zarur

ҚОВОҚ (CUCURBITA) ТАРКИБИДАГИ КАРОТИНОИДЛАРНИ АЖРАТИБ ОЛИШ УСУЛЛАРИНИ ЎРГАНИШ

Мамаюносова Фотима Бегзодовна
Биотехнология, инженеринг ва Фармация факультети 202гуруҳ талабаси
Самарқанд давлат тиббиёт университети,
Ўзбекистон
Илмий раҳбар: асс. Хасанова Г.Р.

Тадқиқот мақсади:Қовоқ меваси таркибидаги каротиноидларни ажратиб олишнинг турли усулларини қиёсий ўрганиш, уларнинг самарадорлигини баҳолаш ва оптимал экстракция шароитларини аниқлашдан иборат.

Тадқиқот материаллари ва усуллари:Тадқиқот объекти сифатида қовоқ меваси намунаси олинди. Намуналар 40–50°C ҳароратда қуритилди ва майдаланди.

Каротиноидларни ажратиб олишда қуйидаги усуллар қўлланилди:

Органик эритувчилар (гексан, ацетон, этанол) ёрдамида экстракция

Soxlet extractor орқали узлуксиз экстракция

Ультратовушли экстракция усули

Суперкритик CO_2 экстракцияси.Экстрактларни тозалаш мақсадида сапонификация жараёни амалга оширилди.Каротиноидларни сифат ва миқдор жиҳатдан таҳлил қилишда High-performance liquid chromatography (HPLC -бу суюқлик хроматографиясининг юқори самарали тури ҳисобланади) усулидан фойдаланилди. Спектрофотометрия орқали умумий каротиноид миқдори аниқланди.

Натижалар:Тадқиқот натижаларига кўра, ультратовушли экстракция усули қисқа вақтда юқори чиқиш даражасини таъминлади. Сокслет аппарати орқали олинган экстрактларда каротиноид миқдори юқори бўлгани аниқланди, аммо ҳарорат таъсирида қисман парчаланиш кузатилди.Суперкритик CO_2 усули энг тоза ва юқори сифатли экстракт олиш имконини берди, бироқ ускуна жиҳозларининг қимматлиги амалиётда қўллашни чеклайди. HPLC таҳлили β-каротин асосий компонент эканлигини кўрсатди.

Хулоса

Қовоқ таркибидаги каротиноидларни ажратиб олишда турли усуллар қиёсий таҳлил қилинди. Ультратовушли экстракция самарадорлиги ва тежамкорлиги билан ажралиб туради. Илмий тадқиқот ва саноат миқёсида қўллаш учун энг мақбул усул сифатида ультратовушли экстракция тавсия этилади. Олинган натижалар маҳаллий ўсимлик хомашёсидан табиий антиоксидантлар ишлаб чиқариш технологиясини такомиллаштиришга хизмат қилади.

BRONXIAL ASTMA KASALLIGI HAQIDA TUSHUNCHA, OLDINI OLISH VA SALBUTAMOLNING O‘RNI

Maqsudboyeva Maftuna hayitboy qizi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti.
Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy raxbar: st-ass. Istamova S.N.

Ishning maqsadi: Ushbu ishning asosiy maqsadi bronxial astma kasalligining mohiyati, kelib chiqish sabablari, rivojlanish mexanizmi hamda oldini olish choralari haqida ilmiy asoslangan tushuncha hosil qilishdan iborat. Shuningdek, bronxial astma davosida qo‘llaniladigan dori vositalari, xususan Salbutamol ning farmakologik xususiyatlari, ta’sir mexanizmi va amaliy ahamiyatini o‘rganish ham ushbu ishning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Bronxial astmaning etiologiyasi va rivojlanish mexanizmini qisqacha yoritish; kasallikning oldini olish choralarini o‘rganish; asosiy dori vositalari ichida Salbutamol ning o‘rni, ta’siri va amaliy ahamiyatini aniqlash.

Material va metodlar: Ushbu ishni bajarishda bronxial astma va uning farmakoterapiyasiga oid zamonaviy ilmiy adabiyotlar, klinik qo‘llanmalar hamda farmakologiya darsliklaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida bronxial astmaning etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari va davolash usullari bo‘yicha nazariy ma’lumotlar tahlil qilindi. Shuningdek, qisqa ta’sir etuvchi β_2-adrenomimetiklar guruhiga kiruvchi Salbutamol ning farmakodinamik va farmakokinetik xususiyatlari alohida o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bronxial astmada asosiy patogenetik omil bronxlarning yallig‘lanishi va spazmi hisoblanadi. Shu sababli davolashda bronxodilatator vositalar muhim o‘rin tutadi. Salbutamol tez ta’sir etuvchi preparat sifatida bronx mushaklarini bo‘shashtirib, qisqa vaqt ichida nafas olishni yengillashtiradi. Uning inhalyatsion shakli yuqori samaradorlik va nisbatan kam nojo‘ya ta’sirlar bilan ajralib turadi. Olingan natijalar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, bronxial astmani samarali nazorat qilishda profilaktika choralariga rioya qilish bilan bir qatorda, Salbutamol kabi dori vositalarini to‘g‘ri va o‘z vaqtida qo‘llash muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari: O‘tkazilgan tahlillar natijasida bronxial astma kasalligida bronxlarning yallig‘lanishi va spazmi asosiy patogenetik omil ekani aniqlandi. Bu holat nafas yo‘llarining torayishiga olib kelib, bemorlarda nafas qisishi, xirillash va yo‘tal kabi simptomlarni yuzaga keltiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, kasallikni nazorat qilishda allergenlardan

himoyalanish va profilaktik choralarni qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Farmakologik jihatdan olib borilgan tahlillar asosida Salbutamol bronxial astma xurujlarini bartaraf etishda samarali vosita ekanligi aniqlandi. U β_2-adrenoretseptorlarni stimulyatsiya qilish orqali bronx mushaklarini bo‘shashtiradi va qisqa vaqt ichida nafasni yengillashtiradi. Inhalyatsion shaklda qo‘llanilganda preparat tez ta’sir ko‘rsatib, tizimli nojo‘ya ta’sirlar kam kuzatiladi. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, bronxial astmani samarali boshqarishda Salbutamol ni o‘z vaqtida va to‘g‘ri qo‘llash, shuningdek profilaktika choralariga amal qilish bemor holatini sezilarli darajada yaxshilaydi va xurujlar sonini kamaytiradi.

Xulosa: Salbutamol — bronxial astma va boshqa obstruktiv o‘pka kasalliklarida keng qo‘llaniladigan bronxodilator preparat bo‘lib, u asosan β2-adrenoreseptorlarini stimulyatsiya qiladi. Natijada o‘pka mushaklarining bo‘shashishi va bronxlar kengayishi sodir bo‘ladi, bu esa nafas olishni yengillashtiradi va bronxospazm simptomlarini tezda kamaytiradi. U inhalyatsiya shaklida qo‘llanganda tizimga ta’siri kam bo‘lib, yon ta’sirlar minimal bo‘ladi. Shu bilan birga, Salbutamol profilaktik tarzda ham ishlatiladi, masalan jismoniy faollik yoki allergik reaksiyalar paytida bronxospazm oldini olish uchun.

POLIFARMATSIYA VA UNING KLINIK AHAMIYATI

Mardiyeva Gulyuz Farhodovna
Biotexnologiya,injiniring va farmatsiya fakulteti 406-guruh talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O`zbekiston
Ilmiy rahbar: ass. Yalgasheva B.S

Ishning maqsadi: Polifarmatsiya zamonaviy tibbiyot va farmatsiya amaliyotida eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib, bir bemor tomonidan bir vaqtning o‘zida bir nechta, odatda besh va undan ortiq dori vositalarini qabul qilish holati bilan tavsiflanadi. Ushbu holat ayniqsa surunkali kasalliklarga chalingan va keksa yoshdagi bemorlar orasida keng tarqalgan. Polifarmatsiyaning rivojlanishiga bir nechta omillar sabab bo‘ladi, jumladan, bir nechta kasalliklarning bir vaqtda mavjudligi (komorbidlik), turli mutaxassislar tomonidan mustaqil ravishda dori buyurilishi, o‘z-o‘zini davolash holatlari va farmakoterapiyani yetarli darajada nazorat qilinmasligi. Tadqiqotning maqsadi polifarmatsiyaning kelib chiqish sabablari, uning organizmga ta’siri hamda klinik oqibatlarini tahlil qilishdan iborat.

Tekshirish usullari: Mazkur ishda polifarmatsiyaga oid zamonaviy ilmiy adabiyotlar, klinik protokollar va farmakologik manbalar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida dori vositalarining farmakokinetik va farmakodinamik o‘zaro ta’sirlari, nojo‘ya ta’sirlar (adverse drug reactions) va bemorlarda uchraydigan asoratlar o‘rganildi. Olingan natijalarga ko‘ra, polifarmatsiya dori vositalari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir ehtimolini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa dori vositalarining so‘rilishi, taqsimlanishi, metabolizmi va chiqarilish jarayonlarining o‘zgarishiga olib kelib, kutilmagan klinik natijalarga sabab bo‘lishi mumkin.

Tekshirish natijalari. Shuningdek, polifarmatsiya nojo‘ya ta’sirlar rivojlanish xavfini bir necha barobar oshiradi. Ayniqsa, nefrotoksik va gepatotoksik ta’sirga ega dori vositalarining birgalikda qo‘llanilishi buyrak va jigar faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday holatlar organizmda dori vositalarining kumulyatsiyasiga olib kelib, intoksikatsiya rivojlanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, ortiqcha dori yuklamasi bemorlarning davolanishga rioya qilishi (compliance) va davolash samaradorligini pasaytiradi.

Polifarmatsiya sharoitida noto‘g‘ri tanlangan dori kombinatsiyalari hayot uchun xavfli bo‘lgan asoratlar, jumladan, allergik reaksiyalar, yurak ritmining buzilishi, qon bosimining keskin o‘zgarishi va markaziy nerv tizimi faoliyatining buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli polifarmatsiyani nazorat qilish va uni kamaytirish zamonaviy farmatsiyaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, polifarmatsiya muammosini hal etishda dori vositalarini ratsional buyurish, minimal samarali dozalarni qo‘llash, dori vositalarining o‘zaro ta’sirini oldindan baholash va doimiy monitoring olib borish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari,

shifokor va farmatsevt o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, bemorlarni dori vositalarini to‘g‘ri qabul qilish bo‘yicha xabardor qilish va farmakoterapiyani individual yondashuv asosida tashkil etish zarur. Ushbu chora-tadbirlar orqali polifarmatsiyaning salbiy oqibatlarini kamaytirish, davolash samaradorligini oshirish va bemor xavfsizligini ta’minlash mumkin.

AFFERENT NERV TIZIMIGA TA’SIR ETUVCHI VOSITALAR

Mardonova Dilnura Nodirjon qizi[1]
Eshniyozova Nilufar Asadulla qizi[2]
Sharipova Moxinabonu Utkurovna[3]
Davolash fakulteti 330-229 guruh va 507- guruh farmatsiya fakulteti talabalari.
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Samarkqand, Uzbekistan.
Ilmiy raxbar: ass.Yo’ldosheva G. B.

Tadqiqotdan maqsad: Afferent nerv tizimiga tasir etuvchi vositalarni o’rganishdan maqsad – ularning sezuvchanlikka ayniqsa og’riq impulslariga tasir mexanizmini aniqlash va klinik qo’llanishini o’rganishdir.Shuningdek bu vositalarning samaradorligi, xavfsizligi, nojo’yi tasirlari va turli kasalliklarda qo’llash imkoniyatlarini baholash ham asosiy maqsad hisoblanadi.

Tadqiqot materiali va usuli: Tadqiqot materiali sifatida afferent nerv tizimiga ta’sir etuvchi dori vositalari (mahalliy anestetiklar, tirnash xususiyati beruvchi moddalar va boshqalar) hamda tajriba ob’ektlari (laboratoriya hayvonlari yoki klinik bemorlar) olinadi.Tadqiqot usullari esa quyidagilarni o‘z ichiga oladi: farmakologik tajribalar, klinik kuzatuvlar, og‘riq sezuvchanligini baholash, reflektor reaksiyalarni tekshirish va dori vositalarining samaradorligi hamda nojo‘ya ta’sirlarini aniqlash.

Tadqiqot natijalari: Tadqiqot natijasida afferent nerv tizimiga ta’sir etuvchi vositalarning asosiy farmakologik xususiyatlari aniqlanadi. Xususan, ular nerv tolalari orqali impuls o‘tishini vaqtincha bloklab, og‘riq sezuvchanligini pasaytirishi va reflektor reaksiyalarni tartibga solishi kuzatiladi.Mahalliy anestetiklar (lidokain, novokain) og‘riqni samarali kamaytirishi, ularning ta’siri tez boshlanishi va ma’lum vaqt davom etishi aniqlanadi. Tirnash xususiyati beruvchi moddalar esa sezuvchi retseptorlarni qo‘zg‘atib, reflektor javoblarni kuchaytiradi va ayrim hollarda qon aylanishini yaxshilaydi.Shuningdek, preparatlarning samaradorligi ularning dozasi, qo‘llash usuli va organizmning individual xususiyatlariga bog‘liq ekanligi tasdiqlanadi. Nojo‘ya ta’sirlar (allergik reaksiyalar, mahalliy irritatsiya) ham kuzatilishi mumkinligi aniqlanadi.Umuman olganda, olingan natijalar ushbu vositalarning klinik amaliyotda — og‘riqsizlantirish, diagnostika va ayrim kasalliklarni davolashda muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.
Xulosa: Afferent nerv tizimiga ta’sir etuvchi vositalar og‘riq sezuvchanligini boshqarish va nerv impulslarini tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotlar natijasida ularning yuqori samaradorligi, keng qo‘llanilishi va klinik amaliyotdagi ahamiyati tasdiqlandi.Shu bilan birga, bu vositalarni to‘g‘ri dozada va ehtiyotkorlik bilan qo‘llash zarurligi aniqlandi, chunki nojo‘ya ta’sirlar yuzaga kelishi mumkin. Umuman, ular zamonaviy tibbiyotda og‘riqsizlantirish va davolash jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi

SARATON KASALLIGIDA QO‘LLANILAYOTGAN XIMYATERAPIYADAGI DORI VOSITALARI.

Mirajonova Shaxrinoz Qosimjon qizi
Biotexnologiya injeneriya va farmatsiya fakulteti 1kurs 106 guruh talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O`zbekiston
Ilmiy rahbar:Buronov A.Y.

Ishning maqsadi: Saraton kasalligi (malign neoplaziya) hozirgi kunda odamlarning asosiy o’lim sabablaridan biri bo’lib qolmoqda. Kimyo terapiya esa saraton hujayralarining tez bo’linishini susaytirish yoki to’xtatish, tumor massasini kamaytirish va metastazlarni nazorat qilish uchun asosiy tizimli davolash usullaridan biri sifatida qo’llanilmoqda.

Material va usullar: Berilish usullari (vena ichi tomchilatma, intramuskulyar in'yeksiya, og'izdan qabul etiluvchi tabletka). Tadqiqot metodologiyasi deskriptiv-tahliliy bo'lib, turli saraton turlarida eng ko'p qo'llaniladigan ximiyo terapiya preparatlari, ularga oid klinik natijalar va yon ta'sirlar muqobil ravishda tahlil qilingan.

Natijalar: Kimyo terapiya dori vositalari turlari bo'yicha asosiy natijalar quyidagilarda jamlangan:

1. Alkilashtiruvchi vositalar. Sisplatin, siklofosfamid, busulfan, ifosfamid, melfalan, karmustin (BCNU) kabi dorilar DNK zanjirlarini o'zaro bog'lab, replikatsiyani buzadi. Ko'pincha leykemiya, limfoma, testis saraton, o'pka saraton va boshqa qattiq tumorlarda kombinatsiyalarda qo'llaniladi.

2. Antimetabolitlar. 5-ftorurasil (5-FU), metotreksat, gemsitabin, sitarabin, 6-merkaptopurin antimetabolitlar guruhi sifatida gap, pirimidin, purin sintezini blokirovka qiladi. Ko'proq ko'krak saraton, kolorektal saraton, o't puxlabo'roni saratoni, leykemiya va boshqalarda qo'llaniladi.

3. Mitoz ingibitorlari (taksoanlar, vinaka).Paklitaksel, doxetaksel, vinblastin, vinkristin kabi dorilar mikrotubulalarni keskin shaklga o'tkazib, mitozni to'xtatadi. Ko'krak saraton, o'pka saraton, ovarial saraton, limfoma va boshqalarda keng qo'llaniladi.

4. Antitumor antibiotiklar. Doksorubisin, epirubisin, bleomisin, mitoxantron kabi dorilar DNK ga bog'lanib, oksiaktiv radiat fantastikaziyasi orqali hujayralarda apoptozni induktsiya qiladi. Liposarkoma, limfoma, ko'krak saraton, blast-sirroqa kabi saraton turlarida qo'llaniladi.

5. Topozomeraza va boshqa inhibitör dorilar. Etopozid, irinotekan, tenipozid topozomeraza I yoki II ni blokirovka qiladi va DNKning tuzilmalarini buzadi. Leykemiya, o'pka saraton, teri saraton (melanoma) va boshqalarda ko'pincha qo'llaniladi. Klinik tadqiqotlar kimyo terapiya kombinatsiyalarining ko'pchilik saratonlarda tumor massasini kamaytirish, yashash davrini uzaytirish va ba'zi holatlarda to'liq remissiya qozonish ekanligini ko'rsatgan. Biroq bu bilan birga bemorlarda alohida-yog'liq yon ta'sirlar (nafas qisilishi, em-xamorlik, qon sathi pastligi, neyropatiya, alopeciya) ham qayd etilgan.

Xulosa: Kimyo terapiya saraton kasalligini davolashning asosiy tizimli yo'nalishlaridan biri bo'lib, turli saraton turlarida foydali va vaqti-vaqti bilan ajoyib yon ta'sirga ega. Asosiy ximiyo terapiya dori vositalari alkillashtiruvchi vositalar, antimetabolitlar, mitoz ingibitorlari, antitumor antibiotiklar va to'lozomeraza inhibitör dorilardan iborat bo'lib, ular ko'pincha kombinatsiyalarda ishlatiladi.

BOLALARDA YUQORI VA PASTKI NAFAS YO‘LLARI KASALLIKLARI VA ULARNI ZAMONAVIY DAVOLASH USULLARI

Mirzayev Bekjon Sharobidin og`li
Davolsh ishi fakulteti 2-kurs talabasi,
Samarqand davlat tibbiyot Unversiteti
Samarqand, O`zbekiston
Ilmiy rahbar: ass. Rustamova X. X.

Tadqiqot maqsadi: Bolalarda yuqori va pastki nafas yo‘llari kasalliklarining etiologik omillari, patogenez mexanizmlari va klinik kechishini kompleks o‘rganish hamda zamonaviy farmakologik (antibakterial, bronxolitik, mukolitik, yallig‘lanishga qarshi vositalar) va nofarmakologik (nebulayzer terapiyasi, kislorod terapiyasi, immunoprofilaktika) davolash usullarining samaradorligini ilmiy asosda baholash. Shuningdek, davolash strategiyasini optimallashtirish orqali asoratlar va kasallik davomiyligini kamaytirish yo‘llarini aniqlash.

Material va usullar: Tadqiqot kuzatuv va tahliliy usulda olib borildi. Unda turli yoshdagi (0–14 yosh) bolalarda uchraydigan yuqori va pastki nafas yo‘llari kasalliklari o‘rganildi.O‘rganilgan kasalliklar.Yuqori nafas yo‘llari: o‘tkir rinit, rinofaringit, faringit, laringit Pastki nafas yo‘llari: o‘tkir bronxit, bronxiolit, pnevmoniya

Qo‘llanilgan usullar: Klinik usullar: umumiy ko‘rik, auskultatsiya (vezikulyar nafas, quruq va nam xirillashlar), perkussiya Laborator tekshiruvlar:Umumiy qon tahlili (leykotsitoz,

neytrofilyoz, ESR) C-reaktiv oqsil (CRP) Ba’zi hollarda prokaltsitonin Instrumental tekshiruvlar: Ko‘krak qafasi rentgenografiyasi (pnevmoniyada infiltrativ o‘zgarishlar) Pulsoksimetriya (SpO_2 baholash) Davolashni baholash mezonlari: Klinik simptomlarning kamayish tezligi (yo‘tal, nafas qisishi, isitma) Nafas olish ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi Kasallik davomiyligi Asoratlar rivojlanish chastotasi Davolash protokollari: Antibiotiklar (amoksitsillin, makrolidlar) Bronxolitiklar (salbutamol) Mukolitiklar (ambroksol, asetilsistein) Antipiretiklar (paratsetamol, ibuprofen) Nebulayzer terapiyasi Kislorod terapiyasi

Tadqiqot natijalari: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, bolalarda nafas yo‘llari kasalliklari etiologiyasi va klinik kechishi yoshga bog‘liq holda farqlanadi. Yuqori nafas yo‘llari kasalliklarining 70–80% holatlari virusli etiologiyaga ega bo‘lib, ularda antibiotiklar qo‘llash zarurati past bo‘ldi Pastki nafas yo‘llari kasalliklarida, ayniqsa pnevmoniyada bakterial infeksiya ulushi yuqori bo‘lib, antibiotikoterapiya samarali natija berdi**.** Bronxial obstruksiya bilan kechuvchi holatlarda bronxolitiklar qo‘llanganda nafas olish ko‘rsatkichlari sezilarli yaxshilandi. Mukolitik preparatlar balg‘amni suyultirib, bronx drenaj funksiyasini tikladi va yo‘talning samaradorligini oshirdi**.** Nebulayzer terapiyasi orqali dori vositalarini inhalyatsion yo‘l bilan yetkazish klinik simptomlarni erta kamaytirishga olib keldi**.** Kislorod terapiyasi SpO_2 darajasi pasaygan bemorlarda gipoksiyani tez bartaraf etdi**.** Kompleks davolash qo‘llanganda kasallik davomiyligi o‘rtacha 2–3 kunga qisqardi**.** Ratsional antibiotikoterapiya asoratlar (bronxopnevmoniya, nafas yetishmovchiligi) rivojlanishini sezilarli kamaytirdi

Xulosa: Bolalarda yuqori va pastki nafas yo‘llari kasalliklari keng tarqalgan bo‘lib, ularning klinik kechishi va og‘irligi etiologik omillar hamda bemorning yoshiga bog‘liq. Zamonaviy davolash yondashuvlari quyidagilarni o‘z ichiga olishi zarur: Etiologiyaga asoslangan terapiya (virusli va bakterial farqlash)**.** Bronxial o‘tkazuvchanlikni tiklash (bronxolitiklar)**.** Sekretsiyani kamaytirish va chiqarish (mukolitiklar)**.** Inhalyatsion terapiya (nebulayzer)**.** Og‘ir holatlarda kislorod bilan ta’minlash**.** Shuningdek, profilaktika choralarini (vaksinatsiya, gigiyena, immunitetni mustahkamlash) keng qo‘llash bolalar salomatligini saqlashda muhim ahamiyatga ega.

DORIVOR O‘SIMLIKLAR ASOSIDA XAVFSIZ VA SAMARALI PREPARATLAR YARATISH ISTIQBOLLARI (GVOZDIKA – QALAMPIRMUNCHOQ MISOLIDA)

Mizomova E’zoza Qurbonali qizi
Pediatriya fakulteti 2-kurs 208-guruh talabasi ,
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O`zbekiston
Ilmiy rahbar:Dots.Baykulov A.K

Ishning maqsadi: So‘nggi yillarda dorivor o‘simliklarga asoslangan preparatlar yaratish farmatsevtika va tibbiyotning dolzarb yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Buning asosiy sababi sintetik dorilarning nojo‘ya ta’sirlari va organizmga zarar yetkazish xavfining mavjudligidir. Shu bois, tabiiy manbalardan olinadigan biologik faol moddalar asosida xavfsiz va samarali preparatlar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.Gvozdika (qalampirmunchoq) — tarkibidagi evgenol moddasi hisobiga kuchli yallig‘lanishga qarshi, og‘riq qoldiruvchi va antiseptik xususiyatlarga ega tabiiy dorivor o‘simlik hisoblanadi. U qadimdan xalq tabobatida keng qo‘llanilib kelinadi va hozirgi kunda ham zamonaviy farmatsevtikada muhim o‘rin egallaydi.

Material va usullar: Ushbu tadqiqotda dorivor o‘simliklar, xususan qalampirmunchoqning farmakologik xususiyatlarini o‘rganish uchun ilmiy adabiyotlar, farmakognoziya va farmakologiya manbalari tahlil qilindi. Gvozdika tarkibidagi asosiy faol modda — evgenolning biologik ta’sir mexanizmlari o‘rganildi. Shuningdek, qalampirmunchoqning quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llanilishi tahlil qilindi: stomatologiyada (tish va milk kasalliklari), respirator kasalliklarda (yo‘tal, bronxit), gastroenterologiyada (hazm buzilishlari), antiseptik va immunomodulyator vosita sifatida.

Natijalar: Tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, qalampirmunchoq tarkibidagi evgenol moddasining yuqori biologik faolligi uning keng farmakologik qo‘llanilishiga sabab

bo‘ladi.Qalampirmunchoqning asosiy foydali xususiyatlari:Yallig‘lanishga qarshi ta’siri: Evgenol prostaglandinlar sintezini kamaytirib, yallig‘lanish jarayonini susaytiradi.Og‘riq qoldiruvchi (analgetik) ta’siri: Nerv uchlariga ta’sir qilib, ayniqsa tish og‘rig‘ida tez yordam beradi. Antiseptik va antibakterial ta’siri: Bakteriyalar, zamburug‘lar va ayrim parazitlarga qarshi samarali kurashadi. Tish va milklarni davolash: Tish og‘rig‘ini qoldiradi, gingivit va stomatitda yallig‘lanishni kamaytiradi. Nafas tizimiga ta’siri: Yo‘tal, bronxit va tomoq og‘rig‘ida balg‘am ko‘chiruvchi va antiseptik ta’sir ko‘rsatadi. Hazm qilish tizimiga ta’siri: Oshqozon-ichak faoliyatini yaxshilaydi, meteorizmni kamaytiradi va fermentativ jarayonlarni rag‘batlantiradi.Immunitetni mustahkamlash:Antioksidant xususiyatlari orqali organizmning himoya kuchlarini oshiradi.Og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasi:Og‘izdan noxush hidni yo‘qotadi va mikroflorani normallashtiradiShuningdek, zamonaviy texnologiyalar asosida qalampirmunchoqdan olinadigan efir moylari va ekstraktlar kapsula, eritma va gel shaklida ishlab chiqarilmoqda. Bu esa preparatlarning bioo‘zlashtirilishini oshirib, samaradorligini kuchaytiradi. Nojo‘ya ta’sirlari va ehtiyot choralari:Homiladorlik davrida ehtiyotkorlik bilan qo‘llash kerak. Qon bosimi past bo‘lgan bemorlarda nojo‘ya ta’sir berishi mumkin. Allergik reaksiyalar chaqirishi ehtimoli mavjud. Yuqori dozada jigar va nerv tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, qalampirmunchoq dorivor o‘simligi tarkibidagi evgenol moddasining yuqori biologik faolligi uni farmatsevtika sanoatida istiqbolli xomashyo sifatida namoyon etadi. U yallig‘lanishga qarshi, og‘riq qoldiruvchi va antiseptik xususiyatlari bilan ajralib turadi Dorivor o‘simliklar asosida preparatlar yaratish, ayniqsa qalampirmunchoq misolida, xavfsiz va samarali dori vositalarini ishlab chiqishda muhim yo‘nalish hisoblanadi. Kelajakda ushbu o‘simlik asosida yangi dori shakllarini yaratish, ularning farmakokinetik va farmakodinamik xususiyatlarini chuqur o‘rganish dolzarb vazifa bo‘lib qoladi.

OIV INFEKSIYASINING ONADAN BOLAGA VERTIKAL TRANSMISSIYASI: SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA EPIDEMIOLOGIK TAHLIL VA ZAMONAVIY PROFILAKTIK STRATEGIYALAR

Muminova Iroda Zoir qizi
Davolash ishi fakulteti 2-bosqich talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universitet
Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy rahbar: Rustamova X.X.

Tekshirish maqsadi. Tadqiqotning asosiy yo‘nalishi OIV infeksiyasining vertikal transmissiya xavfini minimallashtirishda qo‘llaniladigan zamonaviy diagnostika va retrovirusga qarshi davolash (RQD) usullarining samaradorligini baholash hamda Samarqand viloyatidagi 2011–2024-yillar oralig‘idagi ko‘rsatkichlarni qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot materiallari va usullari. Izlanish davomida O‘zbekiston Respublikasi SSVning 2023-yil 19-maydagi 111-sonli buyrug‘i va JSSTning so‘nggi tavsiyalari asos qilib olindi. Tadqiqot obyekti sifatida Samarqand viloyatida ro‘yxatga olingan OIV-musbat homilador ayollar va ulardan tug‘ilgan bolalarning klinik-laborator ma’lumotlari retrospektiv usulda o‘rganildi. Diagnostik jarayonlarda IFA, IXLA va virusologik tekshiruvlar (PZR) natijalari tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, profilaktik tadbirlar amalga oshirilmaganda vertikal transmissiya xavfi 15% dan 45% gacha o‘zgarib turadi. Bunda asosiy ulush intranatal (50-75%) va transplasentar (15-30%) yo‘llarga to‘g‘ri keladi. Virus yuklamasining (VYu) onaning qonidagi konsentratsiyasi homilaga infeksiya o‘tishining determinanti bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun homiladorlikning 12-haftasigacha bo‘lgan davrda skrining o‘tkazish va RQDni erta boshlash strategik ahamiyatga ega. Samarqand viloyati misolida ko‘rish mumkinki, 2011-yilda vertikal yuqish holatlari 15-16 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2009-yildagi 74-sonli buyruq ijrosi natijasida bu ko‘rsatkich keskin pasaygan. 2014-2019-yillar oralig‘ida barqaror minimal daraja (1-2 holat) kuzatilgan, 2021-yilda esa transmissiya

ko‘rsatkichi nolga teng bo‘lgan. Biroq 2024-yil yakunlariga ko‘ra 5 ta holat qayd etilganligi profilaktik choralarning davomiyligi va dori vositalariga sodiqlik (adherence) masalasi hamon dolzarbligini ko‘rsatadi. Bolalarda erta diagnostika samaradorligi bo‘yicha olingan natijalarga ko‘ra, PZR usuli orqali provirus DNKni aniqlash bola hayotining 2-haftasida 95-98% sezgirlikni, 3-oyida esa deyarli 100% lik natijani ta’minlaydi. Bu esa serologik antitelalar bola qonida 18 oygacha saqlanishi tufayli yuzaga keladigan diagnostik qiyinchiliklarni bartaraf etadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari OIV infeksiyasining vertikal transmissiyasini 2% dan past darajaga tushirish real klinik imkoniyat ekanligini tasdiqladi. Bunga erishish uchun homiladorlikning erta muddatlarida VYuni aniqlanmaydigan darajaga tushirish, tug‘ruq jarayonini rejali kesarcha kesish usulida amalga oshirish va ko‘krak suti bilan emizishdan butunlay voz kechish talab etiladi. Kelgusida diagnostika algoritmlarini yanada takomillashtirish va ijtimoiy-profilaktik targ‘ibot ishlarini kuchaytirish orqali transmissiya ko‘rsatkichlarini barqaror saqlab qolish mumkin.

ANAFERON NING BOLALARDA KECHADIGAN O'TKIR RESPIRATOR VIRUSLI INFEKSIYADAGI SAMARADORLIGINI BAHOLASH.

Musayev Mehriddin Salohiddin o`g`li
Biotexnologiya,injiniring va farmatsiya fakulteti 503-guruh talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O`zbekiston
Ilmiy rahbar: ass. Axmedov B. X

Mavzuning dolzarbligi: Bolalarda o’tkir respirator virusli infeksiya ko’p uchraydigan kasalliklar qatoriga kiradi. Bu kasallik bilan asosan maktab va maktabgacha yoshdagi bolalar kasallanadi. Kasallik kuz va qish mavsumida havo sovuqligi sababli ko’p kuzatiladi. Virusli infeksiyalar havo-tomchi yo’l bilan yuqadi va nafas yo’llarining turli qismlari yallig’lanishi va intoksikatsiya sindromi bilan kechadi. Kasallik asosan tumov bilan boshlanadi. O’RVI belgilari tana harorati ko’tarilishi, aksirish, burun bitishi, oqishi, bosh og’rishi, varaja bilan boshlanadi bir necha kundan so’ng ovoz bog’ilishi, yo’tal, mushak va bog’imlarda og’riqlar qo’shiladi. Kasallik vaqtida bolada ishtaha pasayishi, holsizlik, ba’zida esa ko’ngil aynib qusish ham kuzatiladi. Hozirgi kunda bolalar O’RVI kasalligida Anaferon preparati keng qo’llanilmoqda.

Tadqiqot maqsadi: Bolalarda o’tkir respirator virusli infeksiya jarayonida anaferon preparatining ta’sir mexanizmi va effektivligini o’rganish.

Tadqiqot materiallari va usullari: Anaferon organizmga tushgach dastlab interferon tizimini faollashtiradi, interferon tizimi organizmga tushgan virusga qarshi kurashuvchi sistema hisoblanadi. Anaferon alfa, betta va gamma interferonlarni qo’zg’atib ularni virusga qarshi kurashishini faollashtiradi. Yana preparat immunitet sistemasini ham kuchaytirib beradi. Ya’ni limfotsit, fagotsit, antitana, tabiiy killer hujayralarni faollashtiradi. Ta’sirlangan to’qimalarda virus konsentratsiyasini kamaytirish orqali organizmni virusga nisbatan kurashuvchanligini oshiradi. Organizmda virus kamaygach, unga nisbatan organizm himoyasi ortgach va immunitet kuchaygach kasallik belgilari yo’qolib bemor sog’aya boshlaydi. Preparat tabletka va sirop shaklida chiqariladi. Kichik yoshdagi bolalarda sirop holatida qo’llash qulayroq.Bolalarda O’RVI ni davolash maqsadida 4 yoshdan 10 yoshgacha bo’lgan 15 ta bolada anaferon preparatining samaradorligi o’rganildi. Davolash kursi boshlanishidan oldin har bir boladan anamnez yig’ilib kasallik belgilari aniqlandi. 4 yoshdan 6 yoshgacha bo’lgan 6 ta bolaga preparatning sirop shakli qolgan 9 ta bolaga tabletka shalkida berildi.

Tadqiqot natijalar: Tadqiqot o’tkazilishidan oldin va o’tkazilgandan keyin 24-48 soat davomida bolalardagi o’zgarishlar tekshirib borildi. Preparat tomchi holida dastlabki 2 soat davomida har 30 daqiqada 10 tomchidan (jami 50 tomchi) keyin kun davomida yana 3 marta 10 tomchidan berildi. 2- 5 kunlarda 10 tomchidan 3 mahal berildi. Tabletka shaklida esa huddi shunday qilib faqat 10 tomchi o’rniga 1 tabletkadan berib borildi. Bu preparatning bunday dozalab berish dori effektivligini oshiradi. Preparat qo’llangach dastlabki 2 kunda jami bolalarning 85% da temperatura tushdi, varaja qilish yo’qoldi, burun bitishi, oqishi sezilarli

darajada kamaydi, bosh og'rig'i ham yo'qoldi bolalarning ishtahasi yaxshilandi. Qolgan 15% bolalarda esa kasallik belgilari sekinlik bn kamayib bormoqda.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda anaferon preparati imminostimullovchi, protovirus xususiyatlarga ega. Bu preparat barcha yoshdagi (1 oylikdan katta chaqaloqlarda ham) bolalarda O'RVI kasalligida virusga qarshi va immunitetni ko'taruvchi sifatida ishlatiladi

NORADRENALIN MEDIATORI VA ADRENALIN GORMONI SINTEZIDA VITAMIN C YETISHMOVCHILIGINING AHAMIYATI

Musurmonov Bekzod Jamshid o`g`li
Pediatriya fakulteti 206-guruh talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand,O`zbekiston
Ilmiy rahbar: st-ass. Burxonova D.S.

Ishning maqsadi: Mazkur taqdiqotning asosiy maqsadi noradrenalin mediatori va adrenalin sintezida Vitamin C yetishmaganda bo`ladigan organizmdagi funksional va klinik o`zgarishlarini baholash va ularni oldini olishdan iborat

Materiallar va tadqiqot usullari: Taqdiqotda asosan qon,qon plazmasi,siydik,teri va milk hujayralari matreal sifatida asosiy ro`l o`ynaydi.Tadqiqot usullari asosan biokimyoviy va labarator usullar keng qo`llaniladi va katoxalaminlar sintezi jarayonida turli xil,jumladan C vitamin kofaktori faolyatini o`rganib chiqib organizmdagi o`zgarishlar sababini aniq tushunish.Taqdiqot davomida qondagi C vitamin konsentratsiyasini aniqlash usullari,yoki C vitamin yetishmaganda organizmdagi morfologik o`zgarishlarn jarayonini tahlil qilish.

Tadqiqot natijalari: Tadqiqot davomida C vitamin yetishmovchiligi bor bemorlarda Gemoglabin normaga nisbatan kamayganligi,eritrositlar cho`kish tezligi ortganligi,qonning suyuqlashishi,qonda askorbin kislota keskin kamayishi,kollagen sentezi buzulishi va qonda kollagen miqdori kamayishi,organizmda shishlar,tishlarning mo`rt joylashib tez qonashi,yaralarning sekin bitishi kabi xolatlar kuzatilgan

Xulosa: qilib aytganda, Vitamin C katexolaminlar sintezida, ayniqsa dopamindan noradrenalin hosil bo'lish jarayonida muhim kofaktor sifatida ishtirok etadi. Uning yetishmovchiligi dopaminning noradrenalinning faol shakliga aylanishini qiyinlashtiradi va natijada adrenalin sintezi ham kamayadi. Bu esa organizmning nerv-gumoral boshqaruv tizimi faoliyatiga, qon aylanishiga va stressga javob reaksiyalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Vitamin C yetishmovchiligi kuzatiladigan bemorlarga xalq orasida ommalashgan **Askorbin kislota(Acidum ascorbinicum)** tabletkasi yoki ampula shaklidagi dori vositalar mutaxasislar tomonidan nazorat ostida qabul qilinishi maqsadga muvofiq.Dori moddasining asosiy ta`siri Dophamindan noradrenalin sintezi hosil bo`lishini stimullab beradi.Shu sababli vitamin Cga boy oziq-ovqat mahsulotlarini iste`mol qilish,sog`lom ovqatlanish tartibiga rioya qilish va zarur holatlarda shifokor bilan maslahatlashib vitamin preparatlarini qo`llash organizmda salomatligini saqlashda muhim hisoblanadi. Shuning uchun organizmda Vitamin C ning yetarli miqdorda bo'lishi normal fiziologik jarayonlarni ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

DORIVOR O`SIMLIKLARNI INSON HAYOTIDA AHAMIYATI

Nafosat Naxalboyeva
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O`zbekiston
Ilmiy rahbar: ass. Mansurova D.A.

Ishning maqsadi: Mazkur tezisda dorivor o'simliklarning inson salomatligini saqlash va mustahkamlashdagi o'rni, ularning tabiiy manba sifatidagi afzalliklari hamda xalq tabobatidagi qo'lanilish xususiyatlari yoritiladi.

Tekshirish usullari: Bugungi kunda sog'lom turmish tarzini shakillantirish va kimyoviy dori vositalariga bo'lgan talabni kamaytirish maqsadida dorivor o'simliklardan foydalanish

tobora dolzarb bo’lib bormoqda.Tabiat inson organizimi uchun zarur bo’lgan ko’plab shifobaxsh moddalarni o’zida mujassamlashtiradi.

Tekshirish natijalari: Dorivor o’simliklar qadimdan xalq tabobatining asosiy qismini tashkil etgan.Masalan,yalpiz,qizilmiya,zanjabil,sho’ra,na’matak kabi o’simliklar organizmni mustahkamlash,immunitetni oshirish,yurak-qon tomir,shamollash va ovqat hazim qilish tizimi kasalliklarini davolashda keng qo’llaniladi.Na’matak o’simligi xalq tabobatida juda keng qo’laniladi.Qolaversa,o’simlikning shifobaxshlik xususiyatlari juda yuqori.So’nggi ilmiy tadqiqotlar natijasida dorivor o’simliklardan olinadigan tabiiy ekstraktlar sun’iy dori vositalariga nisbatan kamroq nojo’ya ta’sir ko’rsatishi aniqlangan.Bundan tashqari,dorivor o’simliklarni yetishtirish ekolagik tozalikka hissa qo’shadi hamda farmasevtika sanoatining barqaror rivojlanishiga yordam beradi.

Xulosa: Dorivor o’simliklar inson hayotida beqiyos ahamiyatga ega bo’lib,ularni to’g’ri o’rganish,saqlash va qayta ishlash sog’lom jamiyatni shakllantirishda muhim o’rin tutadi.Shu sababli dorivor o’simliklarni keng miqyosda o’rganish va amaliyotda qo’llash dolzarb ilmiy yo’nalishlardan biridir.

TOG‘RAYXON O‘SIMLIGI VA UNING AHAMIYATI

Ne`matova Munisa
Biotexnologiya, injenering va farmatsiya fakulteti 302 guruh talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O‘zbekiston
Ilmiy rahbar: Imamova Y.A.

Ishning maqsadi: Tog‘rayxon o‘simligining biologik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi va inson salomatligiga foydali jihatlarini o‘rganish hamda uning xalq va zamonaviy tibbiyotdagi ahamiyatini aniqlash.

Tadqiqot materiallari: Tadqiqot jarayonida tog‘rayxon o‘simligining yer ustki qismlari (barg, poya, gul)dan foydalanildi. Shuningdek, ilmiy adabiyotlar, xalq tabobati manbalari va farmakologik ma’lumotlar asos qilib olindi.

Tadqiqot natijalari: O‘tkazilgan tahlillar natijasida tog‘rayxon o‘simligi tarkibida yallig‘lanishga qarshi, antiseptik va immunitetni mustahkamlovchi biologik faol moddalar mavjudligi aniqlandi. Ushbu o‘simlik damlama va qaynatma shaklida qo‘llanilganda shamollash, yo‘tal, oshqozon-ichak kasalliklari va ayrim teri kasalliklarini davolashda samarali ekanligi kuzatildi. Bundan tashqari, u nerv tizimini tinchlantirish xususiyatiga ham ega. Tog‘rayxon o‘simligi xalq tabobatida keng qo‘llaniladigan dorivor o‘simliklardan biri hisoblanadi. Ushbu o‘simlik asosan tog‘li hududlarda o‘sib, o‘zining boy kimyoviy tarkibi bilan ajralib turadi. Uning tarkibida flavonoidlar, efir moylari, vitaminlar va boshqa biologik faol moddalar mavjud bo‘lib, ular inson organizmiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa: Tog‘rayxon o‘simligi muhim dorivor o‘simlik bo‘lib, uning tarkibidagi biologik faol moddalar inson salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Uni ilmiy asosda o‘rganish va amaliyotda keng qo‘llash farmatsevtika va tibbiyot sohasida muhim ahamiyat kasb etadi.

MIOKARD INFARKTI VA UNING OLDINI OLISH, ENALAPRIL QO‘LLANILISHI

Norboyeva Sevinch Narbek qizi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti.
Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy raxbar: st-ass. Istamova S.N.

Ishning maqsadi va vazifalari: Ushbu ishning maqsadi miyokard infarktining etiologiyasi, patogenezi va klinik kechishini ilmiy asosda o‘rganish, shuningdek kasallikning oldini olish choralarini tahlil qilishdan iborat. Shu bilan birga, miyokard infarkti davosida qo‘llaniladigan asosiy dori vositalaridan biri — Enalapril ning farmakologik xususiyatlari, ta’sir mexanizmi va klinik samaradorligini chuqur o‘rganish ham ishning muhim maqsadlaridan

hisoblanadi.: Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: miyokard infarktining kelib chiqish sabablari va rivojlanish mexanizmini tahlil qilish; kasallikning asosiy klinik belgilarini yoritish; miyokard infarktining oldini olishga qaratilgan profilaktik choralarni o‘rganish; zamonaviy farmakoterapiya usullarini ko‘rib chiqish; Enalapril ning ta’sir mexanizmi, qo‘llanilish ko‘rsatmalari va klinik ahamiyatini aniqlash hamda olingan natijalar asosida umumiy xulosa chiqarish.

Material va tadqiqot natijalari : Ushbu ishda miyokard infarkti va uning davosiga oid ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kasallikning asosiy sababi koronar qon aylanishining buzilishi bo‘lib, bu yurak mushagida ishemiya va nekrozga olib keladi. Enalapril ning o‘rganilishi shuni ko‘rsatdiki, u ACE ni bloklab, qon tomirlarni kengaytiradi, arterial bosimni pasaytiradi va yurak yuklamasini kamaytiradi. Shuningdek, u chap qorincha remodellashtirilishini sekinlashtirib, yurak yetishmovchiligi va qayta infarkt xavfini kamaytiradi. Enalapril miyokard infarktida samarali dori vosita bo‘lib, bemor holatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot natijalari: O‘tkazilgan ilmiy tahlillar natijasida miyokard infarktining asosiy sababi koronar arteriyalarda qon oqimining keskin buzilishi ekani aniqlandi. Bu holat yurak mushagida kislorod yetishmovchiligini (ishemiya) keltirib chiqarib, keyinchalik to‘qima nekroziga olib keladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, kasallikning og‘ir kechishi ko‘pincha arterial gipertenziya, ateroskleroz va yurak yuklamasining ortishi bilan bog‘liq. Farmakologik kuzatuvlar asosida Enalapril ning miyokard infarktida muhim terapevtik ahamiyatga ega ekani aniqlandi. U ACE ni bloklash orqali angiotenzin II hosil bo‘lishini kamaytiradi, natijada qon tomirlar kengayadi, arterial bosim pasayadi va yurakka tushadigan yuk kamayadi. Shu bilan birga, preparat yurak mushagining qayta tuzilishini (chap qorincha remodellashtirilishini) sekinlashtiradi. Klinik natijalar shuni ko‘rsatdiki, Enalapril ni qo‘llash yurak yetishmovchiligi rivojlanish xavfini kamaytiradi, bemorlarning umumiy holatini yaxshilaydi hamda qayta infarkt ehtimolini pasaytiradi. Ayniqsa, infarktdan keyingi davrda preparatni muntazam qo‘llash uzoq muddatli prognozni sezilarli darajada yaxshilaydi. Olingan natijalar Enalapril ning miyokard infarktida samarali va zarur dori vositalardan biri ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosa: Miyokard infarkti — yurak qon ta’minoti buzilishi natijasida yuzaga keladigan xavfli kasallik bo‘lib, uni nazorat qilishda kompleks davolash muhim. Enalapril qon bosimini pasaytirib, yurak yuklamasini kamaytiradi va qayta infarkt xavfini kamaytirishda samarali hisoblanadi.

PARKINSONIZM KASALLIGIDA QO‘LLANUVCHI SAMARALI DORI VOSITALARI

Nortojiyeva Farzona Bahriddin qizi
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti 230-guruh talabasi
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti,
Samarqand, O‘zbekiston
Ilmiy rahbar: ass Istamova S.N.

Ishning maqsadi: Parkinson kasalligi harakat buzilishi sifatida namoyon bo'ladigan neyrodegenerativ kasallikdir. Parkinson kasalligining asosiy belgilari mushaklarni nazorat qilishni bosqichma-bosqich yo'qotish bo'lib, bu dam olish paytida bosh va oyoq-qo'llarning qaltirashiga, sekinlik, qattiqlik va muvozanatning buzilishiga olib keladi. Alomatlar kuchayishi bilan gapirish, yurish va oddiy ishlarni bajarish qiyinlashadi.Parkinson kasalligi kamdan-kam yosh kattalarda kuzatiladi. Bu asosan o'rta va kech hayotda boshlanadi va qarish xavfni oshiradi. Odamlarda kasallik 60 yoshdan keyin rivojlanadi.

Materiallar va metodlar: Nevrologik tekshiruv va simptomlar asosida amalga oshiriladi. Tibbiy tarixda oila a'zolaridan birontasi kasallikdan aziyat chekayotganini, biron bir dori-darmonlarni qabul qilganligini va toksinlar yoki travmatik miya shikastlanishiga duchor bo'lganligini bilish juda muhimdir. Nevrologik tekshiruv. Miya skanerlari va boshqa laboratoriya testlari amalga oshiriladi.

Monoamin oksidaza-B ingibitorlari, jumladan selegilin va rasagilin erta Parkinson kasalligini davolashda ishlatiladi, miyadagi nerv hujayralari levodopani o’zlashtiradi va uni kimyoviy dofaminga aylantiradi, bu miya qismlari va harakatni boshqaradigan nervlar o’rtasida xabarlarni tashish uchun ishlatiladi. Ba’zida 436opamine agonistlari levodopa bilan bir vaqtda qo’llaniladi, chunki bu levodopaning past dozalarini qo’llash imkonini beradi.Bundan tashqari Apomorfin,Duodopa,Selegilin va Rasagilin kabi dori vositalari qo’llaniladi.

Natija va tahlil. Parkinson kasalligida miyadagi nerv hujayralari (neyronlar) asta-sekin parchalanadi yoki o'ladi. Miyadagi dopamin deb nomlanuvchi kimyoviy xabarchi uni ishlab chiqaradigan neyronlarning yo'qolishi tufayli kamayadi. Dofamin darajasining pasayishi bo'lsa, bu Parkinson kasalligining belgilari va alomatlarini keltirib chiqaradigan anormal miya faoliyatiga olib keladi.Tadqiqotchilarning fikricha, bu Lyui jismlari Parkinson kasalligining sababini aniqlashda muhim ma'lumotga ega. Alfa-sinuklein (A-sinuklein) deb ataladigan tabiiy oqsil barcha Lyui tanalarida to'plangan shaklda uchraydi. Miyaning shikastlanishi ikkilamchi alomatlarga olib keladi.Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bradikineziya (sekin harakatlanish) bemor hayotiga ko‘proq ta’sir qiladi, chunki bu nutq, yutish va yurish kabi hayotiy funksiyalarni qiyinlashtiradi.

Xulosa. Hozirgi kundagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kasallikni erta aniqlash va induvidual yondashuv davolash samaradorligini keskin oshiradi. Kasallik to‘liq tuzalmasa ham, to‘g‘ri tanlangan dori terapiyasi va fizioterapiya yordamida bemorlar o‘nlab yillar davomida faol hayot kechirishlari mumkin.

SANOAT KORXONALARIGA YAQIN HUDUDLARIDA YASHOVCHI BOLALAR VA O‘SMIRLAR JISMONIY RIVOJLANISHI

Nurmamatova Yorqinoy Asomiddin qizi
Sanoat farmatsiyasi fakulteti, 102-guruh talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Samarqand, O‘zbekiston
Ilmiy rahbar: Sultonali B.S.

Tadqiqot maqsadi: Havoni ammofos chiqindisi bilan ifloslantiruvchi kimyo zavodiga yaqin hududlarida yashovchi bolalar va o‘smirlarning jismoniy rivojlanishi-antropometrik ko‘rsatkichlarini qiyosiy o‘rganish.

Materiallar va tadqiqot usullari: Tadqiqot kimyo sanoati rivojlangan yirik sanoat shahri Samarqandda olib borildi. Kimyoviy mineral o‘g‘itlar zavodidan turli masofalarda joylashgan 2 ta tumandagi sog‘lom, uyushgan bolalar va o‘smirlar jamoasini kuzatish asosida tadqiqotlar olib borildi. Birinchi asosiy guruh – sanoat hududining sanitariya hududidan 3 km masofa ichida yashovchi bolalar va o‘smirlar; ikkinchi-nazorat guruh - shaharning ma’muriy qismida bo‘lib, ushbu korxonadan 25-30 km uzoqlikda yashovchi bolalar va o‘smirlar o‘rganildi.Bolalarning sog‘lig‘ini tekshirish bolalar va o‘smirlar gigiena instituti va sog‘liqni saqlash boshqarmasi tomonidan tavsiya etilgan uslubiy tavsiyaga muvofiq amalga oshirildi. Bunda, 1466 nafar bolalar va o‘smirlarning sog‘lig‘i holati o‘rganildi, ulardan 831 nafari nazorat hududida istiqomat qiladi. Bolalarning yoshi 3 yoshdan 16 yoshdagilarni tashkil etdi. Kuzatuvdagilarning jismoniy rivojlanish darajasini baholash uchun an’anaviy antropometriyadan foydalanildi.

Tadqiqot natijalar va mulohazalar: Nazorat hududidagi bolalar sanoat hududidagi tengdoshlariga qaraganda o‘rtacha 0,92-4,44 sm uzunroq edi. Tana vazni va bo‘y balandligi bo‘yicha ham xuddi shunday manzara kuzatildildi. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilari bo‘lgan 7 yoshdan 9 yoshgacha bo‘lgan bolalar va o‘smirlarning bo‘y balandligi statistik jihatdan sezilarli farqlar kuzatiladi. SHu bilan birga, ularning bo‘yi farqi 2,2-3,3 sm bo‘lib, 7 yoshga kelib ular tengdoshlaridan 2,6 sm (0-6,1 sm) pastroq edi.Sanoat hududlarida 15 yoshli bolalarning tana vazni xuddi shu yoshdaginazorat hududlaridagi bolalarga qaraganda 3,4 kg ga kamligi aniqlandi. Boshqa yosh guruhlarida tana vaznining o‘zgarishi 0,5 dan 1,6 kg gacha farq kuzatildi. Buni statistik jihatdan ishonchsiz deyish mumkin. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bola tanasining jismoniy rivojlanishi ko‘p jihatdan atrof-muhit sifatiga bog‘liq. SHu bilan birga,

ontogenezning turli bosqichlarida uning ta’sir qilish xarakteri bir xil emasligidandarak beradi. Ushbu faraz nazorat hududidagi maktab o‘quvchilari orasida 14 yoshli o‘spirinlarning jismoniy rivojlanishi "o‘rtachadan past" va "past" darajada atigi 3,3% ni tashkil etgani va ko‘pincha ifloslangan hududda bo‘lganligi haqidagi ma’lumotlar bilan tasdiqlanadi. 3 yoshgacha bo‘lgan bolalarda jismoniy rivojlanishda 22,4% va 8,9% nisbatdagi statistik jihatdan sezilarli farqlar kuzatiladi; 7-9 yosh va 13-15 yosh.Shu sababli, yuqoridagi yosh guruhlaridagi bolalarning jismoniy rivojlanishi batafsil o‘rganildi.

Xulosa: Atmosfera havosining antropogen ifloslanishining ta’siri, ayniqsa,bolalar va o‘smirlar organizmining kimyoviy omillar ta’siriga sezuvchanligi kuchaygan davrda salomatlikning yomonlashishiga olib keladi. Atmosfera havosining ifloslanishining bolalar salomatligiga kimyoviy ishlab chiqarish chiqindilarining ta’siri nafaqat turli xil tabiiy, iqlim va ijtimoiy xususiyatlar, balki kimyoviy moddalarning xilma-xilligi tufayli ham mintaqaga xosdir. Natijalar sanoat hududidagi maktabgachava maktab yoshidagi bolalarning salomatlik holati, jismoniy rivojlanishi nazorat hududidagi bolalarnikidan past ekanligini ko‘rsatdi.

SALITSIL KISLOTASINING ISHLATILISHI

O‘rinov Zuxriddin Ashurbobo o’g’li
Biotexnologiya, injeniring va farmatsiya fakulteti 408-guruh talabasi.
Samarqand davlat tibbiyot unversiteti
Samarkand, Uzbekistan
Ilmiy rahbar:PhD Anvarov O’.T.

Ishning maqsadi: Salitsil kislotasining qo’llanilish sohalarni o‘rganish. Salitsil kislota,salitsil kislota uchrashi, fizik kimyoviy xossalari, etilgankonsentratsiya, salitsil kislota ishlatilishi,dermatologiyada ahamiyati,dog'larni davolash,yuzdagi kanalar(demodeks)ni davolash.

Tadqiqot uchun materiallar va metodlar: Salitsil kislotasini 150 yildan ortiq vaqt davomida ishlatilib kelinadi. Ushbu birikmani qo'llash doirasi juda keng bu eng samarali dezinfektsiyalashvositalaridan biri, bakteritsid, regeneratsiya va fungitsid agentlari. Yuz terisini salitsil kislotasi bilan davolash sebum ishlab chiqarishni kamaytiradi va terining umumiy holatini yaxshilaydi. Kislota epidermisni kuchli eksfoliatsiya qiladi va kasal yoki o'lik hujayralarni olib tashlashga yordam beradi Lekin salitsil kislotasini haddan tashqari ko'p foydalanishterining quruqligiga olib kelishi mumkin.Salitsil kislotasi terini oqartirishda hamishlatilishi mumkin. Kerakli miqdorda ishlatiladigan eritma yuz rangini tekislaydi va yosh dog'larini asta-sekin yo'q qiladi. Salitsil kislotasi: ruxsat etilgan konsentratsiya. Yuqori konsentrlangan salitsil kislotasi shilliq pardalarni bezovta qiladi va hatto terining kuyishiga olib kelishi mumkin. Kosmetika va dori vositalarida ushbu birikmaning ruxsat etilgan kontsentratsiyasi ma'lum bir mahsulotda bajaradigan funktsiyaga bog'liq.

Olingan natijalar: Salitsil kislotasining ruxsat etilgan kontsentratsiyasi bo'yicha batafsil yo'riqnoma 2009 yil 30-noyabrdagi 1223/2009-sonli Nizomda (EC) o'z ichiga oladi. Ushbu hujjatga muvofiq, konservant sifatida kosmetika ishlab chiqarishda ishlatiladigan salitsil kislotasiningruxsat etilgan maksimal konsentratsiyasi 0,5 dan oshmasligi kerak. %. Shuning uchun, acidum salicylicum 3 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun mo'ljallangan kosmetikadaqo'llanilmasligi kerak (soch shampunlari bundan mustasno). Ba'zi yuvish kosmetikasidaishlatiladigan konservant sifatida salitsil kislotasining konsentratsiyasi 2-3%danoshmasligi kerak (mahsulot turiga va uning maqsadiga qarab).Tibbiy va farmatsevtikpreparatlarda salitsil kislotasi eritmalarining konsentratsiyasi 1% dan 10%gacha. Bozorda siz 30-40% salitsil kislotasini o'z ichiga olgan juda kuchli kosmetik preparatlarni topishingiz mumkin - odatda bu go'zallik salonlarida ishlatiladigan maxsus mahsulotlar.

Xulosa: Tibbiyotda antiseptik, og‘riqni qoldiruvchi vosita sifatida, sepma (2— 5%), surtma(1— 10%), pasta va spirtdagi eritma (1 va 2%) holida ishlatiladi. Salitsil kislota dermatologiyada: Majnuntol qobig'idan olingan salitsil kislotasi terini parvarish qilishda asosiy vosita bo'lib, o'zgartiruvchi kuchga ega, ayniqsa akne vayog'li teri bilan kurashayotganlar uchun foydalidir.

Ushbu beta gidroksi kislotaning qandayishlashini tushunish va uni muntazam ravishda terini parvarish qilishda oqilona kiritishterining yanada toza va sog'lom bo'lishiga yordam beradi.

ANEMIYA BILAN OG'RIGAN HOMILADOR AYOLLARDA FERSINOL VOSITASINI QO'LLASH SAMARADORLIGI

Obloqulova Nasiba Tohirovna
Pediatriya fakulteti 202-guruh talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O'zbekiston
Ilmiy rahbar: X.X. Rustamova

Tekshirish maqsadi: Temir tanqisligi anemiyasi bilan og'rigan homilador ayollarda fersinol vositasi bilan davolash hisoblanadi.

Tadqiqot materiallari va usullari: Temir tanqisligi butun dunyo bo'ylab eng keng tarqalgan muammolaridan biridir. Bu organizmda normal faoliyat uchun temir yetishmaganda yuzaga keladi. Bu ko'pincha ayollar, bolalar, o'smirlar, homilador ayollar va surunkali kasalliklarga chalingan yoki ovqatlanish cheklovlariga ega odamlarga ta'sir qiladi.Tug'ruqxonaga kelgan 88 nafar homilador ayollardan analiz olinganda 85% da anemiya aniqlandi.

Tadqiqot natijalari: Anemiyani davolash har doim shifokor nazorati ostida amalga oshirilishi kerak. Agar hech qanday ta'sir bo'lmasa (gemoglobin darajasi 3 hafta ichida qonda taxminan 2-3 g/dL ga oshmagan bo'lsa), davolanishni qayta ko'rib chiqish kerak. Takroriy qon quyishni qabul qilayotgan bemorlarda ehtiyot bo'lish kerak, chunki qizil qon tanachalarida temir bor, bu esa temirning ortiqcha yuklanishiga olib kelishi mumkin.

Birinchi trimestrdan keyin oz sonli homilador ayollardan olingan ma'lumotlarga asoslanib, homiladorlik, homila salomatligi yoki yangi tug'ilgan chaqaloqlarning rivojlanishiga hech qanday salbiy ta'sir kuzatilmadi. Tadqiqotlarda fersinol vositasi homiladorlik, embrional rivojlanish yoki homila rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita toksiklikni aniqlanmadi. Fersinol homiladorlik paytida ehtiyotkorlik bilan ishlatilishi kerak. Ko'krak sutida odatda laktoferrin bilan bog'langan temir mavjud. Temir (III) gidroksid polimaltoza kompleksidan ona sutiga chiqarilishi mumkin bo'lgan temir miqdori noma'lum. Emizikli ona tomonidan ushbu dori vositasini qabul qilish emizikli chaqaloqda nojo'ya reaktsiyalarga olib kelishi ehtimoldan yiroq.

Homiladorlik va laktatsiya davrida Fersinol faqat shifokor bilan maslahatlashganidan keyin qo'llanilishi kerak. Davolashning dozasi va davomiyligi sideropeniyaning og'irligiga bog'liq. Anemiya bilan kechadigan temir tanqisligida davolash gemoglobin darajasi normallashguncha o'rtacha 3-5 oy davom etadi. Keyin davolash temir zahiralarini to'ldirish uchun anemiyasiz temir tanqisligi uchun buyurilgan dozalarda davom ettiriladi. Anemiyasiz temir tanqisligini davolash taxminan 1-2 oy davom etadi. 88 nafar homilador ayollarda fersinolni qabul qilganda 70 nafar ayolda gemoglobin miqdori 90 gr/l ko'tarildi,18 nafar homilador ayollarda o'zgarish kuzatilmadi. Bu homilador ayollarda ko'ngil aynish va ich ketish belgilari aniqlandi. Dozani oshirib yuborilgan taqdirda, temir (III) gidroksid polimaltoza kompleksining past toksikligi va temirning so'rilishi natijasida kutilgan to'yinganlik tufayli temir bilan zaharlanish yoki temirning ortiqcha yuklanishi ehtimoldan yiroq.

Xulosa. Tanadagi temirni saqlaydigan oqsil bo'lgan ferritin darajasini o'lchash homiladorlik paytida temir tanqisligi anemiyasini tashxislashda oltin standart hisoblanadi.

Homiladorlik paytida anemiyani davolash ikkita asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi: ovqatlanishni tuzatish va dori-darmonlar.Temir tanqisligi kamqonligi uchun ratsioningizga ko'proq go'sht va organik go'sht mahsulotlarini kiritish tavsiya etiladi: ulardagi temir eng yaxshi so'riladi — 25-30%. Tuxum va baliq kabi boshqa hayvonot mahsulotlari ham foydalidir. Biroq, o'simlik mahsulotlaridan olingan temir yomon so'riladi.

NIKOTIN:FARMODINAMIKASI, FARMOKINETIKASI VA KLINIK QO'LLANILISHI

Orazbayeva Akniyet Oralbayevna
Davolash fakulteti 211-guruh talabasi

Samarqand Davlat tibbiyot Universiteti
Samarqand, O'zbekiston
Ilmiy rahbar:Istamova S.N.

Taqdimot maqsadi: Ushbu tadqiqotning maqsadi nikotinning farmakologik xususiyatlarini , ya'ni farmodinamikasi, farmokinetikasi, klinik qóllanilishi va organizmga zararli ta'sirlarini órganishdan iborat.

Material va usullar: Mazkur tadqiqot farmakologiya ,toksikologiya va klinik tibbiyot sohasidagi ilmiy adabiyotlar asosida olib borildi. Nikotinning organizmga ta'siri, uning metabolizmi va chiqarilish jarayonlari nazariy tahlil asosida o'rganildi.

Natijalar va muhokama: Nikotin kuchli biologik faol modda bo'lib ,u asosan n-xolinoretseptorlar orqali ta'sir ko'rsatadi.Uning asosiy ta'siri nerv tizimini qo'zg'atish bilan bog'lik bo'lib ,dofamin ajralishini oshiradi va qaramlik rivojlanishiga sabab bo'ladi. Nikotinning yurak-qon tomir tizimiga ham ta'sir ko'rsatib , yurak urish tezligini oshiradi va qon bosimini ko'taradi. Farmakokinetik jihatdan nikotin organizmga tez so'riladi , tezda qonga o'tadi va bosh miyaga yetib boradi . U asosan jigarda matabolizmga uchrab , kotinin metabolitga aylanadi. Nikotinning yarim chiqarilish davri o'rtacha 2 soatni tashkil etadi. Tibbiyot amaliyotida nikotin asosan chekishni tashlasgda qo'llaniladi .Nikotin o'rnini bosuvchi terapiya (nikotin plastirlari, saqichlar) yordamida organizmga nazorat ostida nikotin berilib, qaramlik asta –sekin kamaytiriladi. Biroq nikotinnig nojo'ya ta'sirlari ham mavjud.Eng ko'p uchraydiganlari- bosh aylanishi ,ko'ngil aynishi , yurak urishining tezlashuvi va qon bosimining oshishidir. Yuqori dozda nikotin zaharlanishga olib keladi.Bunda ko'ngil aylanishi ,qusish ' kuchli terlash, tirishishlar va nafas yetishmovchiligi yuzaga keladi. Uzoq muddat nikotin qabul qilish yurak –qon tomir kasalliklari rivojlanish xavfini oshiradi , homilaga salbiy ta'sir ko'rsatadi va organizmda kuchli qaramlik hosil qiladi.

Xulosa: Mazkur tadqiqot natijalariga ko'ra ,nikotin markaziy va periferiknerv tizimiga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi modda hisoblanadi . U N -xolinoretseptorlar orqali o'z ta'sirini amalga oshirib ,ammo uzoq muddat qo'llanganda jiddiy zararli oqibatlarga olib keladi .Nikotin tibbiyotda chekishni tashlashda yordam beruvchi vosita sifatida qo'llanilsa da, uning nojo'ya ta'sirlari va qaramlik keltirib chiqarish xususiyati sababli ehtiyotkorlik bilan ishlatilishi lozim .

SUYAK OSTEOMIYELITI: ZAMONAVIY ANTIBIOTIKOTERAPIYANING SAMARADORLIGI

Otamurodov Azizbek Baxtiyorovich
Davolsh ishi fakulteti 2-kurs talabasi
Samarqand davlat tibbiyot Universiteti
Samarqand, O`zbekiston
Ilmiy rahbar: ass. Rustamova X.X.

Tadqiqotning maqsadi: Ushbu ishda osteomiyelitni davolashda keng qo'llaniladigan zamonaviy antibiotiklarning farmakodinamik va farmakokinetik xususiyatlari tahlil qilindi.

Materiallar va tekshiruv uslublari: Suyak osteomiyeliti — bu suyak to'qimasining og'ir infeksion-yallig'lanish kasalligi bo'lib, ko'pincha Staphylococcus aureus va boshqa patogen mikroorganizmlar sabab yuzaga keladi. So'nggi yillarda antibiotiklarga chidamli shtammlarning ortishi, travmatik shikastlanishlar va ortopedik operatsiyalar sonining ko'payishi kasallikning uchrash tezligini oshirmoqda. Osteomiyelitning surunkali shaklga o'tishi, uzoq muddat davolanishi va nogironlikka olib kelishi ushbu muammoning nafaqat klinik, balki ijtimoiy ahamiyatini ham oshiradi. Shu sababli samarali va oqilona antibiotikoterapiya dolzarb masala hisoblanadi. Quyidagi preparatlar o'rganildi:

- Sefepim (IV avlod sefalosporin)
- Gentamitsin (aminoglikozid)
- Vankomitsin (glikopeptid)
- Levofloksatsin (ftorxinolon)

• Sefoperazon + Sulbaktam (kombinatsiyalangan beta-laktam)

Tahlil adabiyotlar sharhi, klinik tavsiyalar va antibiotik sezgirlik ma’lumotlariga asoslangan holda olib borildi.

Natijalar tahlili: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, osteomiyelitni davolashda antibiotik tanlashda ularning suyak to‘qimasiga penetratsiyasi, bakteritsid ta’siri va rezistent shtammlarga ta’siri muhim ahamiyatga ega.

• Sefepim keng ta’sir doirasiga ega bo‘lib, gram-manfiy va gram-musbat bakteriyalarga qarshi samarali. Og‘ir va nosokomial infeksiyalarda yuqori natija beradi.

• Gentamitsin tez bakteritsid ta’sir ko‘rsatadi va sinergik kombinatsiyalarda (masalan, beta-laktamlar bilan) samaradorligi oshadi.

• Vankomitsin MRSA kabi rezistent gram-musbat mikroorganizmlarga qarshi “oltin standart” preparatlardan biri hisoblanadi.

• Levofloksatsin yuqori bioo‘zlashtiriluvchanlikka ega bo‘lib, suyak to‘qimasiga yaxshi kirib boradi, bu esa uni osteomiyelitda ayniqsa samarali qiladi.

• Sefoperazon + Sulbaktam beta-laktamaza ishlab chiqaruvchi bakteriyalarga qarshi samaradorlikni oshiradi va murakkab infeksiyalarda qo‘llash uchun maqbul hisoblanadi.

Umuman olganda, kombinatsiyalangan antibiotikoterapiya monoterapiyaga nisbatan yuqori klinik samaradorlik ko‘rsatadi.

Xulosa: Osteomiyelitni samarali davolash individual yondashuvga asoslangan antibiotikoterapiyani talab qiladi. Preparat tanlashda patogen sezgirligi, infeksiya og‘irligi va bemorning umumiy holati hisobga olinishi zarur. Mazkur yondashuv klinik amaliyotda osteomiyelit bilan og‘rigan bemorlarni boshqarishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.(bronxolitiklar). Sekretsiyani kamaytirish va chiqarish (mukolitiklar). Inhalyatsion terapiya (nebulayzer). Og‘ir holatlarda kislorod bilan ta’minlash. Shuningdek, profilaktika choralarini (vaksinatsiya, gigiyena, immunitetni mustahkamlash) keng qo‘llash bolalar salomatligini saqlashda muhim ahamiyatga ega.

M-XOLINORETSEPTORLARGA TA’SIR ETUVCHI VOSITALAR

Primov Shamsiddin Sobir o'g'li
Davolash fakulteti 232 gurux talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy raxbar: PhD Sh.M.Muhsinova

Izlanish maqsadi:M-xolinoretseptorlarni qo‘zg‘atuvchi (mimetiklar) va bloklovchi (blokatorlar) moddalarning turli a’zolar (ko‘z, yurak-qon tomir, nafas yo‘llari) silliq mushaklari va bezlariga ta’sir qilish mexanizmlarini o‘rganish hamda ularning zamonaviy tibbiyotdagi terapevtik samaradorligini tahlil qilish.

Izlanish materiali va metodi: Material: Farmakopeya dori vositalari (Atropin, Pilokarpin, Platifillin, Ipratropiy bromid), klinik laboratoriya ma’lumotlari va akademik adabiyotlar tahlili. Metod: Qiyosiy-farmakologik tahlil, retrospektiv tahlil (klinik holatlarni o‘rganish) va dori vositalarining ta’sir qilish davomiyligi hamda selektivligini o‘rganish usullari.

Izlanish natijalari: M-xolinomimetiklar (Pilokarpin misolida): Ko‘zning oldingi kamera burchagini kengaytirishi hisobiga ko‘z ichi suyuqligi oqib chiqishini yaxshilashi va glaukoma xurujlarida ko‘z bosimini 25-30% gacha pasaytirishi tasdiqlandi. M-xolinoblokatorlar (Atropin va uning analoglari): Atropinning yurak urishini tezlashtirishi (muskarin retseptorlarini bloklash orqali vagus ta’sirini kamaytirishi) va spazmolitik ta’siri tahlil qilindi. Selektiv blokatorlarning (masalan, Pirenzepin) me’da shirasini kamaytirishda nojo‘ya ta’sirlari (og‘iz qurishi, ko‘z xiralashishi) neselektivlarga nisbatan 40% kamroq ekanligi aniqlandi. Nafas tizimi: Ipratropiy bromidning bronxlarni kengaytirishda simpatomimetiklar bilan birgalikda qo‘llanilishi surunkali obstruktiv o‘pka kasalligida (SO‘OK) nafas olish hajmini sezilarli oshirishi kuzatildi.

Xulosalar: M-xolinomimetiklar asosan oftalmologiyada mahalliy qo‘llash uchun eng samarali vositalar bo‘lib qolmoqda. M-xolinoblokatorlar keng spektrli ta’sirga ega bo‘lsa-da,

ularning neselektivligi (umumiy bloklash xususiyati) nojo‘ya ta’sirlar xavfini oshiradi. Zamonaviy farmakologiyada organ-selektiv (faqat ma’lum a’zoga ta’sir qiluvchi) M-xolinoblokatorlarni qo‘llash (masalan, urologiyada Solifenatsin, pulmonologiyada Tiotropiy) davolash sifatini yaxshilash va asoratlarni kamaytirishning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi.

MUDDATI O‘TGAN DORI VOSITALARINI UTILIZATSIYA QILISHNING EKOLOGIK VA FARMATSEVTIK JIHATLARI: AHOLI O‘RTASIDAGI TAHLILIY O‘RGANISH

Quldosheva Shaxlo Salimjon qizi
Biotexnologiya,injiniring va farmatsiya fakulteti 2-kurs talabasi.
Samarqand davlat tibbiyot universiteti.
Samarqand, O`zbekiston
Ilmiy rahbar: Rustamova X.X.

Tadqiqot maqsadi: Samarqand shahri aholisi misolida uy dorixonasidagi yaroqsiz dori vositalarini yo‘q qilish tartibini tahlil qilish, ekofarmatsevtik xavflarni baholash va aholining bu boradagi savodxonligini oshirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqish.

Material va usullar: Tadqiqot davomida Samarqand shahridagi 30 nafar turli yoshdagi va ijtimoiy qatlamdagi fuqarolar o‘rtasida maxsus ishlab chiqilgan prospektiv so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnomada dori vositalarini saqlash gigiyenasi, muddati o‘tgach ularni yo‘q qilishning an’anaviy usullari va ekologik oqibatlardan xabardorlik darajasi o‘rganildi. Olingan natijalar variatsion statistika va taqqoslama tahlil usullari yordamida o‘rganildi hamda xalqaro "Yashil farmatsiya" (Green Pharmacy) standartlari bilan qiyoslandi.

Tadqiqot natijalari va muhokama: O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning mutlaq ko‘pchiligi (75%) muddati o‘tgan dorilarni oddiy maishiy chiqindilar qutisiga tashlaydi, 15% holatda esa suyuq dori shakllari kanalizatsiya tizimiga oqiziladi. Faqatgina 10% aholi dori chiqindilarining toksik va mutagen xususiyatlari haqida qisman tasavvurga ega ekanligi ma'lum bo‘ldi. Tadqiqotda aniqlanishicha, uy dorixonalarida ko‘p miqdorda saqlanadigan va muddati o‘tib tashlab yuboriladigan dorilarning asosiy segmentini analgetiklar (40%), antibiotiklar (25%) va yurak-qon tomir dori vositalari (15%) tashkil etadi. Shuningdek, so‘rovnomada ishtirok etganlarning 90% dan ortig‘i dorixonalarda dori chiqindilarini qabul qilish tizimi mavjudligini aytib, ushbu tizimdan foydalanishga tayyor ekanligini bildirdi. Bu esa jamiyatda ekologik mas’uliyat borligini, lekin mexanizm yetishmayotganligini ko‘rsatadi.

Xulosalar: Aholi o‘rtasida dori vositalarini to‘g‘ri utilizatsiya qilish bo‘yicha ekofarmatsevtik madaniyatni shakllantirish, ommaviy axborot vositalari orqali tushuntirish ishlarini olib borish zarur. Dorixona muassasalarida dori chiqindilarini yig‘ish uchun maxsus konteynerlar o‘rnatish va utilizatsiya jarayonini markazlashtirish lozim. Farmatsevtlar dori vositasini sotish jarayonida dori vositalarini to‘g‘ri saqlash bilan birga, ularning utilizatsiyasi haqida ham professional maslahat berish tizimini joriy etishlari maqsadga muvofiqdir.

SURUNKALI YURAK YETISHMOVCHILIGIDA BETA-ADRENOBLOKATORLARDAN FOYDALANISHNING KLINIK SAMARADORLIGI

Rahimov Sobirbek Jamoliddin o’g’li
Davolash ishi fakulteti 221-guruh talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy rahbar: Sh.M.Muhsinova

Ishning maqsadi: Surunkali yurak yetishmovchiligi bilan kasallangan bemorlar organizmida beta-adrenoblokatorlar guruhiga mansub dori vositalarining klinik samaradorligini o‘rganish, ushbu preparatlarning chap qorincha haydash fraksiyasi ko‘rsatkichlariga ko‘rsatadigan bevosita ta’sirini tahlil qilish hamda bemorlarning umumiy hayot sifatini yaxshilashdagi o‘rnini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iborat.

Material va tadqiqot usullari Ilmiy tadqiqot ishi obyekti sifatida surunkali yurak yetishmovchiligining ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi funktsional sinflari (Nyu-York kardiologlar assotsiatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro tasnif asosida) bilan kasallangan jami 45 nafar bemor tanlab olindi. Tekshiriluvchi bemorlarning o‘rtacha yoshi 58,4±4,2 yoshni tashkil etdi va ularning barchasi statsionar sharoitda nazoratga olindi. Tadqiqot davomida qo‘llanilgan tekshiruv usullari majmuasiga umumklinik ko‘rik, elektrokardiografiya, exokardiografiya, olti daqiqalik yurish testi hamda laboratoriya tahlillari kiritildi. Bemorlar belgilangan standart davolash muolajalari asosi sifatida selektiv xususiyatga ega bo‘lgan beta-adrenoblokatorlar (xususan, bisoprolol va karvedilol preparatlari) bilan olti oy davomida muntazam ravishda davolandi. Preparatlar dozasi har bir bemorning individual holatidan kelib chiqqan holda minimal miqdordan boshlandi va maqsadli terapevtik dozagacha bosqichma-bosqich, ehtiyotkorlik bilan oshirib borildi.

Tadqiqot natijalari: Olti oylik tizimli davolash muolajalari natijasida barcha bemorlarning umumiy klinik holatida sezilarli darajada ijobiy o‘zgarishlar va dinamika kuzatildi. Beta-adrenoblokatorlar ta’sirida yurak qisqarishlar soni boshlang‘ich ko‘rsatkichlarga nisbatan o‘rtacha 18-22 foizga kamaydi, bu esa yurak mushagining metabolik jarayonlarini yaxshilab, uning kislorodga bo‘lgan ehtiyojini sezilarli darajada pasaytirdi. Exokardiografiya tekshiruvi ko‘rsatkichlariga ko‘ra, chap qorincha haydash fraksiyasi boshlang‘ich 34,2±2,1 foizdan 41,5±1,8 foizgacha ko‘tarilganligi aniqlandi, bu esa yurakning qisqarish qobiliyati tiklanayotganidan dalolat beradi. Olti daqiqalik yurish testi natijalari esa bemorlarning jismoniy yuklamalarga bo‘lgan chidamliligi va tolerantligi o‘rtacha 25-30 foizga oshganligini tasdiqladi. Shuningdek, sub’ektiv belgilar tahlil qilinganda, bemorlarda hansirash, tez charchash va oyoqlardagi shishlar kabi klinik alomatlarning sezilarli darajada kamayishi qayd etildi. Yurakning patologik shakl o‘zgarishi, ya’ni remodellanish jarayonlarining sekinlashishi hisobiga chap qorinchaning oxirgi diastolik o‘lchami va hajmiy ko‘rsatkichlari kichrayishi kuzatildi.

Xulosa: Surunkali yurak yetishmovchiligini zamonaviy tibbiyot talablari asosida davolashda beta-adrenoblokatorlarni qo‘llash kasallikning uzoq muddatli prognozini va kelajagini yaxshilashda fundamental ahamiyatga ega. Ushbu guruh preparatlari bilan o‘tkazilgan tizimli terapiya yurakning sistolik va diastolik funksiyalarini muvozanatlashtiradi, miokardning patologik o‘zgarishlarini kamaytiradi va eng muhimi, bemorlarning kundalik hayot sifatini sezilarli darajada yuqori bosqichga ko‘taradi. Davolash jarayonini kichik dozalardan boshlash, dozani titrlash usulida oshirish va bemorning gemodinamik ko‘rsatkichlarini individual nazorat ostida olib borish preparatning yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nojo‘ya ta’sirlarini minimal darajaga tushirish hamda maksimal darajadagi shifobaxsh samaradorlikka erishish imkonini beradi.

XIRURGIK AMALIYOTLARDA BOSHQARILADIGAN GIPOTENZIYANI TA’MINLASHDA GANGLIOBLAKATORLARNING FARMOKOLOGIK SAMARADORLIGI VA XAVFSIZLIGI

Raxmatova Farangiz Utkurovna
Samarqand davlat tibbiyot universiteti.
Samarqand . O’zbekiston.
Ilmiy rahbar: Muxsinova Sh.M.

Ishning maqsadi: Qisqa muddatli ta’sirga ega ganglioblokatorlarning (masalan, Gigroniy/Trepiriy) gemodinamik ko‘rsatkichlarga ta’sirini tahlil qilish va ularning operatsiya davridagi afzalliklarini baholash. Zamonaviy xirurgiyada, ayniqsa neyroxirurgiya, otolaringologiya va yirik qon tomir operatsiyalarida operatsiya maydonida qon ketishini kamaytirish va ko'rinishni yaxshilash muhim vazifa hisoblanadi. Ganglioblokatorlar arterial bosimni tez va samarali pasaytirish xususiyati bilan boshqariladigan gipotenziya usulida hamon o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Material va uslublar: Tadqiqot doirasida jarrohlik amaliyotiga tayyorlanayotgan bemorlarda ganglioblokatorlarni qo‘llashning klinik bayonnomalari va farmakodinamik

ko‘rsatkichlari (SAB, DAB, PQS) o‘rganildi. Asosiy e’tibor preparatning ta’sir qilish tezligi va boshqariluvchanlik darajasiga qaratildi.

Natijalar va muhokama: Gipotenziv ta’sir: Ganglioblokatorlar (venaga tomchilab yuborilganda) vegetativ tugunlardagi N-xolinoretseptorlarni bloklash orqali tomirlar qarshiligini pasaytiradi. Bu arterial bosimni 20-30% gacha barqaror pasaytirish imkonini beradi. Boshqariluvchanlik: Qisqa muddatli preparatlar (masalan, Gigroniy) yuborish to‘xtatilgandan so‘ng 5-10 daqiqa ichida bosimning o‘z holiga qaytishi kuzatildi. Bu anesteziologga operatsiya bosqichiga qarab bosimni boshqarish imkonini beradi. Klinik samara: Gipotenziya natijasida mikrosirkulyatsiyadagi qon ketishi sezilarli kamaydi, bu esa jarrohlik amaliyotining vaqtini qisqartirishga va qon quyish ehtiyojini kamaytirishga xizmat qildi.

Xulosa: Ganglioblokatorlar boshqariladigan gipotenziya uchun ishonchli vosita bo‘lib, ular yordamida qon aylanishini periferik qarshilikni kamaytirish orqali optimallashtirish mumkin. Biroq, ularni qo‘llashda reflektor taxikardiya va postoperatsion atoniyani oldini olish uchun dozalashni qat’iy nazorat qilish talab etiladi.

PARKINSONIZMGA QARSHI DORI VOSITALARIGA ZAMONAVIY FARMAKOTERAPIVTIK YONDASHUVLAR.

Raxmatullayeva Aziza Sherzod qizi
Davolash ishi fakulteti 2-kurs talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Samarqand, Uzbekistan.
Ilmiy rahbar: ass.Yo’ldosheva G.B.

Tadqiqot maqsadi: Ushbu izlanishning maqsadi Parkinsonizm kasalligida qo‘llaniladigan dori vositalarining asosiy farmakologik guruhlari, ularning ta’sir mexanizmlari, klinik samaradorligi hamda nojo‘ya ta’sirlarini kompleks tahlil qilishdan iborat.

Material va metodlar: Mazkur tadqiqot retrospektiv, tizimli va qiyosiy tahlil asosida olib borildi. Tadqiqot davomida so‘nggi yillarda chop etilgan xalqaro ilmiy maqolalar, klinik tavsiyalar (guidelines) va farmakologik manbalar o‘rganildi. Parkinsonizm patogenezida dopaminergik tizim disfunksiyasi, ayniqsa substantia nigra pars compacta neyronlarining degeneratsiyasi asosiy etiologik omil sifatida baholandi.Farmakoterapiya samaradorligini baholashda quyidagi mezonlar hisobga olindi:klinik simptomlarning kamayish darajasi (tremor, rigidlik, bradikineziya)dori vositalarining bioavailability va farmakokinetik xususiyatlarinojo‘ya ta’sirlar rivojlanish chastotasi kombinatsiyalangan terapiya samaradorligi Olingan ma’lumotlar qiyosiy-statistik tahlil asosida umumlashtirildi.

Tadqiqot natijalari: O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, levodopa Parkinsonizmni davolashda “oltin standart” bo‘lib qolmoqda. U qon-miya to‘sig‘idan o‘tib, dopaminga aylanish orqali markaziy nerv tizimida dopamin defitsitini to‘ldiradi va klinik simptomlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Biroq uzoq muddat qo‘llanishida motor fluktuatsiyalar (“on-off” fenomeni) va diskineziyalar rivojlanishi aniqlangan.Dopamin agonistlari (pramipeksol, ropinirol, bromokriptin) dopamin retseptorlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri stimulyatsiya qilib, kasallikning erta bosqichlarida samarali natija beradi va levodopaga bo‘lgan ehtiyojni kechiktiradi.MAO-B ingibitorlari (selegilin, rasagilin) dopaminning parchalanishini sekinlashtirib, uning sinaptik konsentratsiyasini oshiradi va kasallik progresiyasini nisbatan susaytiradi.COMT ingibitorlari (entakapon, tolkapon) levodopaning periferik metabolizmini kamaytirib, uning ta’sir davomiyligini uzaytiradi va motor fluktuatsiyalarni kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi.Antixolinergik vositalar tremor ustun bo‘lgan bemorlarda samarali bo‘lsa-da, ularning kognitiv nojo‘ya ta’sirlari (xotira pasayishi, konfuzion holatlar) sababli, ayniqsa keksa yoshdagi bemorlarda qo‘llanishi cheklangan.Amantadin esa dopamin ajralishini oshirishi va NMDA-retseptorlarini bloklashi orqali diskineziyani kamaytirishda qo‘llaniladi.

Xulosa: Parkinsonizmni farmakologik davolash dopaminergik tizimni tiklashga qaratilgan kompleks va individual yondashuvni talab qiladi, bunda levodopa asosiy terapiya vositasi bo‘lib qolsa-da, dopamin agonistlari va ferment ingibitorlari bilan ratsional kombinatsiya

qilish kasallik simptomlarini samarali nazorat qilish, nojo‘ya ta’sirlarni kamaytirish hamda bemor hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilash imkonini beradi.

ЭКСТРАКТЛАР ОЛИШ УСУЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ САМАРАДОРЛИГИ

Садуллаева Махлиё Лутфуллаевна
Биотехнология ,инженеринг и фармация факультети 201 гурух талабаси
Самарканд Давлат тиббиёт университети.
Самарканд , Узбекистон.
Илмий рахбар- Хасанова Г. Р.

Мақсад: Ушбу тадқиқотнинг асосий мақсади доривор ўсимлик хомашёсидан биологик фаол моддаларни самарали ажратиб олишга хизмат қилувчи экстракция усулларини ҳар томонлама таҳлил қилишдан иборат. Жумладан, анъанавий (мацерация, инфузия, декокция, перколяция) ҳамда замонавий (ультратовуш, микротўлқинли, супер-критик флюидли) экстракция технологияларининг афзаллик ва камчиликларини илмий асосда солиштириш кўзда тутилади.Шу билан бирга, тадқиқотнинг муҳим вазифаларидан бири турли табиатга эга биологик фаол бирикмалар (алкалоидлар, флавоноидлар, эфир мойлари, танинлар ва бошқалар) учун қайси экстракция усули энг мақбул эканлигини аниқлашдан иборат. Бу орқали фармакогнозия ва фармацевтика соҳасида қўлланиладиган инновацион технологияларни танлаш ва такомиллаштиришга илмий асос яратилади.

Тадқиқотусуллари:Ушбу тадқиқотда қиёсий таҳлил, лаборатор тажриба ва адабиётлар шарҳи усулларидан фойдаланилди. Экстракция жараёнларида қуйидаги усуллар ўрганилди:мацерация (совуқ усул),перколяция,қайнатиш (декокция),инфузия (дамлаш),

ультратовуш ёрдамида экстракция,микротўлқинли экстракция.

Ҳар бир усул бўйича биологик фаол моддалар чиқиши (фоизда), жараён давомийлиги, энергия сарфи ва экстракт сифат кўрсаткичлари баҳоланди. Таҳлил жараёнида спектрофотометрия ва хроматографик усуллардан фойдаланилди.

Натижалар: Олинган натижалар экстракция жараёнида қўлланиладиган технология танлови биологик фаол моддаларнинг чиқиши ва сифат кўрсаткичларига сезиларли таъсир кўрсатишини тасдиқлади.Анъанавий усуллардан мацерация жараёнида экстракция нисбатан паст суръатда кечиши аниқланди. Ушбу усулда биологик фаол моддалар чиқиши ўртача 50–60% ни ташкил этди, бироқ жараён давомийлиги 24–72 соатгача чўзилиши кузатилди. Инфузия ва декокция усулларида эса юқори ҳарорат таъсирида айрим термолабил моддаларнинг қисман парчаланиши қайд этилди, бу эса умумий биофаолликнинг камайишига олиб келиши мумкин.Перколяция усули анъанавий усулларга нисбатан анча самарали эканлиги аниқланди. Унда экстракция жараёни узлуксиз кечади ва биологик фаол моддалар чиқиши 70–80% гача етди. Шу билан бирга, эритувчи сарфининг нисбатан тежамкорлиги ва вақтнинг қисқариши ушбу усулнинг афзалликларидан бири сифатида баҳоланди.Замонавий технологиялар орасида ультратовуш ёрдамида экстракция юқори натижаларни кўрсатди. Ушбу усулда ҳужайра деворларининг кавитация таъсирида бузилиши натижасида биологик фаол моддаларнинг чиқиши 85–90% гача ошди. Жараён вақти эса анъанавий усулларга нисбатан бир неча баравар қисқариб, 20–40 дақиқани ташкил этди.Микротўлқинли экстракция усулида энг юқори самарадорлик кузатилди. Бу усулда ички қиздириш механизми туфайли ҳужайра структураси тез парчаланади ва моддалар тез ажралиб чиқади. Натижада экстракция самарадорлиги 90–95% гача етди. Алкалоидлар ажратиб олишда эса перколяция ва кислотали муҳитдаги экстракция усуллари мақбул деб топилди.

Хулоса:Анъанавий усуллар кичик ҳажмли ишлаб чиқариш ва лаборатория шароитида мақбул бўлса, замонавий технологиялар юқори самарадорлик ва тезкорликни таъминлайди.

TURLI ETIOLOGIYALI ANEMIYALARNI DAVOLASHDA QO‘LLANILADIGAN ZAMONAVIY FARMAKOLOGIK VOSITALAR

Safarova Dilnura Toshmurodovna
Davolash fakulteti 203-guruh talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O`zbekiston
Ilmiy rahbar: ass. Yo'ldosheva G.B.

Ishning maqsadi: Mazkur maqolada turli etiologiyali anemiyalarni davolashda qo‘llaniladigan zamonaviy farmakologik vositalar tahlil qilingan. Anemiyaning asosiy turlari — temir tanqisligi, megaloblastik, gemolitik, aplastik va surunkali kasalliklar bilan bog‘liq anemiyalar ko‘rib chiqilgan. Har bir tur uchun qo‘llaniladigan dori vositalari, ularning ta’sir mexanizmi, samaradorligi va klinik qo‘llanish xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy tibbiyotda qo‘llanilayotgan innovatsion usullar, jumladan biologik preparatlar va gen terapiyasi haqida ma’lumot berilgan. Individual yondashuv asosida tanlangan davolash usullari yuqori samaradorlikni ta’minlashi asoslab berilgan.

Tekshirish usullari: Anemiya — keng tarqalgan gematologik sindrom bo‘lib, qonda gemoglobin miqdorining kamayishi bilan tavsiflanadi. Natijada organizm to‘qimalarida kislorod yetishmovchiligi yuzaga keladi. Anemiya turli sabablar natijasida rivojlanadi va ko‘plab kasalliklar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shu sababli uni samarali davolash uchun etiologik omillarni aniqlash muhim hisoblanadi. Zamonaviy farmakologiya anemiyalarni davolashda yangi imkoniyatlar yaratib, yuqori samarali dori vositalarini amaliyotga joriy etmoqda.

Tekshirish natijalari: Temir tanqisligi anemiyasi eng keng tarqalgan anemiya turi hisoblanadi. Bu holatda organizmda temir yetishmovchiligi kuzatiladi va gemoglobin sintezi buziladi. Davolashda temir preparatlari asosiy o‘rin tutadi. Og‘iz orqali qabul qilinadigan temir sulfat, fumarat va glyukonat keng qo‘llaniladi. Og‘ir holatlarda esa vena orqali yuboriladigan temir karboksimaltoza va temir sukroza ishlatiladi. Ushbu preparatlar tez ta’sir ko‘rsatadi va yuqori bioo‘zlashtirilish darajasiga ega. Megaloblastik anemiyalar vitamin B12 va folat kislotasi tanqisligi natijasida rivojlanadi. Davolashda sianokobalamin yoki gidroksokobalamin mushak ichiga yuboriladi, folat tanqisligida esa foliy kislotasi qo‘llaniladi. Bu preparatlar eritrotsitlar yetilish jarayonini normallashtiradi. Surunkali kasalliklar bilan bog‘liq anemiyada eritropoezni stimulyatsiya qiluvchi vositalar qo‘llaniladi. Epoetin alfa va darbepoetin alfa suyak iligida eritrotsitlar ishlab chiqarilishini rag‘batlantiradi. Bu preparatlar ayniqsa buyrak yetishmovchiligi va onkologik kasalliklarda samarali hisoblanadi. Gemolitik anemiyalar eritrotsitlarning parchalanishi bilan kechadi. Davolashda prednizolon kabi glyukokortikosteroidlar qo‘llaniladi. Og‘ir holatlarda azatioprin va siklosporin kabi immunosupressiv preparatlar ishlatiladi. Zamonaviy davolash usullaridan biri sifatida rituksimab qo‘llanilishi yuqori samaradorlik ko‘rsatmoqda. Aplastik anemiya suyak iligi faoliyatining susayishi bilan bog‘liq. Davolashda antitimotsit globulin va siklosporin asosiy o‘rin tutadi. Eltrombopag esa trombotsitlar ishlab chiqarilishini rag‘batlantiradi. Zamonaviy tibbiyotda gen terapiyasi va biologik preparatlar anemiyalarni davolashda istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Individual yondashuv asosida davolash samaradorligi oshirilmoqda.

Xulosa: Turli etiologiyali anemiyalarni davolashda zamonaviy farmakologik vositalar muhim ahamiyatga ega. Har bir anemiya turi uchun mos davolash usulini tanlash kasallik sababiga bog‘liq. Zamonaviy dori vositalari yuqori samaradorlikka ega bo‘lib, kelajakda gen terapiyasi va personalizatsiyalangan tibbiyot bu sohada katta ahamiyat kasb etadi.

ANTIBIOTIKLARNING ORGANIZMGA TA’SIR DOIRASINI KUCHAYTIRISH.

Saydullayev Bunyod Absamat o`g`li
Biotexnologiya, injineriya va farmatsiya fakulteti 3-kurs 308-guruh talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O`zbekiston
Ilmiy rahbar: Shuhratov Shohjahon Shuhrat o'g'li

Ishning maqsadi: Antibiotiklar infeksion kasalliklarni davolashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi antibiotiklarning organizmga ta’sir doirasini

kengaytirish, ularning samaradorligini oshirish va mikroorganizmlarga qarshi faoliyatini kuchaytirish yo‘llarini o‘rganishdan iborat.
Tekshirish usullari: Tadqiqot davomida turli guruh antibiotiklari (beta-laktamlar, makrolidlar, aminoglikozidlar) o‘rganildi. Antibiotiklarning ta’sirini kuchaytirish uchun quyidagi usullar qo‘llanildi:Kombinatsiyalangan terapiya (bir nechta antibiotiklarni birga qo‘llash) ,ferment ingibitorlari (masalan, beta-laktamaza ingibitorlari) bilan qo‘shib ishlatish ,dori shaklini optimallashtirish (nanozarrachalar, liposomal shakllar) ,dozani va qabul qilish rejimini to‘g‘ri tanlash Laboratoriya sharoitida antibiotiklarning mikroblarga qarshi faolligi, minimal ingibitsiya konsentratsiyasi (MIK) va bakteritsid ta’siri aniqlanildi.
Tekshirish natijalari: O‘tkazilgan tajribalar shuni ko‘rsatdiki:Kombinatsiyalangan antibiotik terapiyasi mikroorganizmlarga qarshi samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi. Beta-laktamaza ingibitorlari bilan birga qo‘llangan antibiotiklar chidamli bakteriyalarga ham ta’sir ko‘rsatadi. Liposomal va nano shakldagi antibiotiklar organizmda yaxshi so‘riladi va maqsadli to‘qimalarga tez yetib boradi. To‘g‘ri dozalash va davolash rejimi antibiotiklarning samaradorligini oshiradi hamda nojo‘ya ta’sirlarni kamaytiradi.
Xulosa: Antibiotiklarning organizmga ta’sir doirasini kuchaytirish uchun ularni kombinatsiyalangan holda qo‘llash, zamonaviy dori shakllarini yaratish va farmakokinetik xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar antibiotikga chidamli mikroorganizmlar bilan kurashishda samarali hisoblanadi va klinik amaliyotda keng qo‘llanishi mumkin.

DRABA L. (BRASSICACEAE) TURKUMI TURLARINING MA’MURIY VILOYATLAR KESIMIDA TARQALISH

Sayfiyev Hasan Yo’lchi o’g’li
Pedagogika va psixologiya fakulteti 106-guruh talabasi.
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy rahbar: ass. Normurodova Soxiba Mallayevna

Ishning maqsadi: Respublikamizda o‘simliklar dunyosi bioxilma-xilligini saqlash borasida muayyan yutuqlarga erishildi. Bu borada, o‘simliklarning noyob va yo‘qolib borayotgan turlarini muhofaza qilish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Xususan, 2019-2028 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasida biologik xilma-xillikni saqlash strategiyasida “O‘simlik va hayvonot dunyosi monitoringini tashkil qilish va amalga oshirish tartibini belgilab beruvchi biologik xilma-xillik komponentlarining yagona monitoringini olib borish tizimini yaratish, zamonaviy geoaxborot texnologiyalari asosida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, o‘simlik va hayvonot dunyosi obyektlari davlat kadastri va monitoringi bo‘yicha ma’lumotlar axborot bazasini yaratish” vazifalari belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, O‘zbekiston florasida tarqalgan *Draba* turlarining tarqalishini o‘rganish hamda kamyob turlarni saqlab qolish chora-tadbirlarini ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston florasi tarkibidagi *Draba* turkumi turlarining ma’muriy viloyatlar kesimida tarqalishini aniqlashdan iborat.
Tekshirish usullari: Tadqiqot davomida turlarni aniqlash va dala tadqiqotlarini o’tkazishda floristikaning marshurtli, klassik va zamonaviy usullar, qiyosiy morfologik usullari, ekologik-geografik usullardan foydalanildi.
Tekshirish natijalari: *Draba* L. turkumining O‘zbekiston ma’muriy viloyatlari bo‘yicha tarqalishi tahlili natijasida, respublikamizning 12 viloyat va Qoraqalpog’iston respublikasida turkumning jami 16 turi o‘sishi aniqlandi. Andijon, Farg‘ona, Sirdaryo, Buxoro, Xorazm viloyatlarida va Qoraqaolpog‘iston Respublikasida *Draba* turkumga mansub faqat bitta turi – *D. verna* uchrashi qayd etildi. Namangan va Jizzax viloyatlarida turkumning 7 turi, Toshkent viloyatida esa 14 turi, Samarqand viloyatida 4 turi, Qashqadaryo va Surxandaryo viloyatlarida turkumning 5ta turi, Navoiy viloyati esa 3 ta turi o‘sishi aniqlandi.
Xulosalar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston ma’muriy viloyatlari bo‘yicha tarqalishi tahlili natijasida, respublikamizning 12 viloyat va Qoraqalpog’iston respublikasida

turkumning jami 16 turi o‘sishi aniqlandi. Respublikamizning Toshkent, Namangan va Jizzax viloytalarida turkum turlari eng ko’p tarqalishiga sabab sifatida ushbu viloyat hududlarida G’arbiy- Tyan-Shan va Pomir-Olay tizmalari joylashganligi asosiy sabab sifatida keltirib o’tishimiz mumkin.

TABIIY XOM ASHYO ASOSIDA YANGI DORIVOR PREPARATLAR YARATISH TEXNOLOGIYASI

Sherdonaqulova Dinora Husniddin qizi
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Tibbiyot fakulteti, Farmatsiya F/25-01 guruh
Ilmiy rahbar: Jo'raev Zohidjon Ashurovich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti.

Ishning maqsadi: Tabiiy manbalardan olingan dorivor moddalar tibbiyot tarixida muhim o‘rin egallaydi. Hozirgi kunda mavjud dori vositalarining katta qismi tabiiy birikmalar yoki ularning analoglari asosida yaratilgan. Zamonaviy farmatsevtikada yangi dori yaratish jarayoni murakkab va ko‘p bosqichli bo‘lib, katta vaqt va mablag‘ talab qiladi. Shu bilan birga, tabiiy xom ashyo biologik faol moddalar manbai sifatida ushbu jarayonni tezlashtirish imkonini beradi. O‘zbekiston florasining boyligi yangi dorivor preparatlar yaratish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, ammo mahalliy xom ashyo asosidagi preparatlarning xalqaro bozordagi ulushi hali yetarli darajada emas.

Tekshirish usullari: Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

- tabiiy xom ashyo tarkibini farmakognostik tahlil qilish;
- ekstraksiya (maseratsiya, perkolyatsiya, Soxlet usuli);
- zamonaviy ekstraksiya usullari (ultratovush, mikrotolqin, superkritik CO_2);
- biologik faol moddalarni ajratish va identifikatsiya qilish;
- farmakologik skrining (in vitro va in vivo);
- standartlashtirish va sifat nazorati metodlari.

Tekshirish natijalari: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

- tabiiy xom ashyo (o‘simlik, hayvon va mikroorganizmlar) biologik faol moddalarining boy manbai hisoblanadi;
- zamonaviy ekstraksiya usullari (UAE, MAE, SFE) samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi;
- farmakologik skrining orqali istiqbolli birikmalarni tez aniqlash mumkin;
- standartlashtirish jarayoni preparat sifatini barqaror saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa: Tabiiy xom ashyo asosida dorivor preparatlar yaratish farmatsevtikaning istiqbolli yo‘nalishlaridan biridir.

Asosiy xulosalar:

1. Zamonaviy ekstraksiya texnologiyalari samaradorlikni oshiradi.
2. Farmakologik skrining yangi dori moddalari aniqlanishini tezlashtiradi.
3. Standartlashtirish preparat sifatining asosiy omilidir.
4. O‘zbekiston florasi yangi innovatsion preparatlar yaratish uchun katta salohiyatga ega.

Kelajakda biotexnologiya va nanofarmatsevtika usullarini qo‘llash ushbu sohaning rivojlanishini yanada jadallashtiradi.

SEMIZ O‘TNING DORIVOR XUSUSIYATI VA AHAMIYATI ORGANIZMA TASIRI

Shodiyorov Abbos Abdurahmon o‘g‘li
Biotexnalogiya,injinering va Farmatsiya fakulteti 3- kurs 307- gurux talabasi
Samarqand davlar tibbiyot Universiteti.
Ilmiy rahbar: Quyliyeva M.U.

Ishning maqsadi: Semiz o't ko‘plab foydali xususiyatlarga ega bo‘lgan o‘simlik bo‘lib, u yallig‘lanishlarni kamaytirish, immun tizimini mustahkamlash, detoksifikatsiya qilish, teri muammolarini davolash va nafas olish tizimini yaxshilashda qo‘llaniladi. Bundan tashqari, u

yurak, qon tomir tizimi, asab tizimi va oshqozon-ichak tizimining salomatligini qo‘llab-quvvatlaydi.

Tekshirish usullari:.Semiz o't (Xanthium strumarium) – bu tibbiy maqsadlarda ishlatiladigan o‘simliklardan biridir. O‘simlik ko‘pincha an'anaviy tibbiyotda qo‘llaniladi va uning foydali xususiyatlari turli kasalliklarni davolashda yordam beradi. Quyida semiz o'tning barcha foydali xususiyatlari haqida batafsil ma'lumot keltirilgan:Semiz o't o‘zining yallig‘lanishga qarshi xususiyatlari bilan tanilgan. U artrit, bo‘g‘imlardagi og‘riqlar, bosh og‘rig‘i, va boshqa yallig‘lanishli kasalliklarda foydalidir. Semiz o'tdan tayyorlangan ekstraktlar yallig‘lanishlarni kamaytiradi va og‘riqni engillashtiradi.Semiz o'tning tarkibida antibakterial va antiviral xususiyatlarga ega moddalar mavjud. Bu xususiyatlar o‘simlikni infektsiyalarni davolashda, masalan, bakterial va virusli kasalliklar (masalan, sovuq urish, gripp)ni davolashda samarali qiladi. U tananing tashqi infeksiyalarga qarshi kurashish qobiliyatini oshiradi va umumiy sog‘liqni yaxshilaydi.Semiz o't ichaklar va boshqa ichki organlarni tozalashda yordam beradi. U organizmdan toksinlarni chiqarib tashlashga yordam beradi va tana detoxifikatsiyasini yaxshilaydi. Shu bilan birga, bu jigar va buyraklarni samarali tozalashga yordam beradi.Semiz o't teri uchun ham foydalidir. Uning tarkibidagi antioksidantlar terini tozalash, yangilanishni ta'minlash va teridagi yallig‘lanishlarni kamaytirish imkonini beradi. U dermatologik muammolar, masalan, ekzema va yallig‘lanishga qarshi ishlatilishi mumkin.Semiz o'tning asab tizimiga ta'siri bor. U asab tizimini tinchlantiradi, stressni kamaytiradi va uyqusizlikni davolashda yordam beradi. Bu o‘simlikning qo‘llanishi asab tizimining umumiy holatini yaxshilashga yordam beradi.

Tadqiqot natijalar.Semiz o'tning yallig‘lanishga qarshi va og‘riqni kamaytiruvchi ta'siri bo‘g‘imlardagi og‘riqlar va mushaklardagi spazmlar uchun samarali bo‘lishi mumkin. U masalan, reumatizm va artrit kabi kasalliklarni davolashda ishlatiladi.Semiz o't ba'zi an'anaviy tabobatda giyohvandlikni davolashda qo‘llaniladi. Bu o‘simlik, ayniqsa, narkotik moddalar va alkogolga bo‘lgan odatni kamaytirishda yordam beradi.Semiz o'tni haddan tashqari ko‘p miqdorda iste'mol qilish oshqozon va ichak tizimi muammolarini keltirib chiqarishi mumkin, masalan, qusish, diareya, ichakdagi og‘riqlar va oshqozon shishishi. Shuningdek, o‘simlikning yuqori dozalarida ichakni hayajonlantiruvchi ta'sir bo‘lishi mumkin.

Xulosa: Semiz o't ko‘plab foydali xususiyatlarga ega bo‘lgan o‘simlik bo‘lib, u yallig‘lanishlarni kamaytirish, immun tizimini mustahkamlash, detoksifikatsiya qilish, teri muammolarini davolash va nafas olish tizimini yaxshilashda qo‘llaniladi. Bundan tashqari, u yurak, qon tomir tizimi, asab tizimi va oshqozon-ichak tizimining salomatligini qo‘llab-quvvatlaydi. Ammo shuvoqni ishlatishdan oldin mutaxassis bilan maslahatlashish muhim, chunki ba'zi odamlar uchun allergik reaktsiyalar yoki boshqa noqulayliklar yuzaga kelishi mumkin.

KIMYOTERAPEVTIK GASTROENTEROLOGIK PREPARATLARNING MOLEKULYAR TA’SIR MEXANIZMLARI VA TOKSIKOLOGIK XUSUSIYATLARI

Shodmonov Zafar Tulqin o'g'li
Samarqand davlat tibbiyot universiteti 407 guruh talabasi
Ilmiy rahbar: st-assistent. Ibragimov I. O'.

Ishning maqsadi: Kimyoterapevtik gastroenterologik preparatlarning molekulyar ta’sir mexanizmlarini o‘rganish hamda ularning toksikologik xususiyatlarini baholash orqali samarali va xavfsiz farmakoterapiyani asoslashdan iborat.

Tekshirish usullari: Tadqiqot davomida quyidagi usullardan foydalanildi: Ilmiy adabiyotlar va zamonaviy manbalarni tahlil qilish, Dori moddalarning molekulyar tuzilishi va ta’sir mexanizmlarini o‘rganish, Farmakodinamik va farmakokinetik xususiyatlarni tahlil qilish, Toksikologik ko‘rsatkichlarni baholash, Taqqoslama va statistik tahlil usullari

Tekshirish natijalari: Tadqiqot natijalariga ko‘ra, kimyoterapevtik gastroenterologik preparatlarning ta’siri ularning molekulyar darajadagi mexanizmlariga bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi. Xususan: Proton pompasi ingibitorlari H^+/K^+-ATFaza fermentini bloklab, me’da kislotaliligi pasaytiradi. Antibakterial preparatlar mikroorganizmlar hujayra devori sintezini

buzadi yoki oqsil sintezini to‘xtatadi. Antatsidlar me’da kislotaliligini neytrallab, simptomatik yengillik beradi. Toksikologik jihatdan esa ayrim preparatlarning uzoq muddat qo‘llanilishi jigar, buyrak va oshqozon-ichak tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi aniqlandi. Dozalash rejimiga rioya qilinmaganda nojo‘ya ta’sirlar (allergik reaksiyalar, dispepsiya, mikroflora buzilishi) kuzatilishi mumkin.

Xulosa Kimyoterapevtik gastroenterologik preparatlarning samaradorligi ularning molekulyar ta’sir mexanizmlariga bog‘liq bo‘lib, bu jarayon fermentlar, retseptorlar va hujayra darajasidagi reaksiyalar orqali amalga oshadi.

Ularning toksikologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ratsional qo‘llash, individual yondashuvni ta’minlash va optimal dozani tanlash muhim ahamiyatga ega. Bu esa davolash samaradorligini oshirish bilan birga nojo‘ya ta’sirlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

NEYRODEGENERATIV KASALLIKLARDA YANGI DORILAR

Shomirzayeva Gulchehra Shomurod qizi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Samarqand, O‘zbekiston.
Ilmiy raxbar: assistant Istamova Sitora Ne’mat qizi

Ishning maqsadi: Ushbu tezisning maqsadi neyrodegenerativ kasalliklar, xususan Altsgeymer kasalligi va Parkinson kasalligi da qo‘llanilayotgan yangi avlod dori vositalarining farmakologik xususiyatlari, ta’sir mexanizmlari hamda klinik samaradorligini o‘rganishdan iborat. Shuningdek, kasallik patogeneziga yo‘naltirilgan innovatsion yondashuvlar, jumladan biologik terapiya, neyroprotektiv strategiyalar va individual davolash tamoyillarining ahamiyatini tahlil qilish ham ko‘zda tutilgan.

Bundan tashqari, yangi dori vositalarining kasallik rivojlanish bosqichlariga ta’siri, prognozni yaxshilashdagi o‘rni va uzoq muddatli samaradorligi baholandi.

Tekshirish usullari: Mazkur tezisni tayyorlashda zamonaviy ilmiy manbalar, jumladan xalqaro tibbiy jurnallar (PubMed, Scopus bazasidagi maqolalar), klinik tadqiqotlar natijalari hamda farmakologiya va nevrologiya darsliklaridan foydalanildi.

Tahlil jarayonida quyidagi yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratildi:

- yangi dori vositalarining farmakodinamik va farmakokinetik xususiyatlari
- klinik samaradorligi va xavfsizlik profili
- biologik preparatlar, xususan Monoklonal antitanalar ning qo‘llanilishi
- neyroprotektorlar va antioksidantlarning roli

Shuningdek, randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlar va meta-tahlillar natijalari asosida umumlashtirilgan xulosalar chiqarildi.

Tekshirish natijalari: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, neyrodegenerativ kasalliklarda yangi dori vositalari an’anaviy terapiyaga nisbatan bir qator ustunliklarga ega:

- Altsgeymer kasalligida beta-amiloid plakkalarini kamaytiruvchi biologik preparatlar kasallik progresiyasini sekinlashtiradi
- Tau oqsiliga ta’sir qiluvchi dorilar neyronlar degeneratsiyasini kamaytirishda istiqbolli hisoblanadi
- Parkinson kasalligida yangi dopamin agonistlari va MAO-B ingibitorlari motor simptomlarni samarali nazorat qiladi
- Neyroprotektiv vositalar (antioksidantlar, mitoxondrial funksiyani qo‘llab-quvvatlovchi preparatlar) hujayra shikastlanishini kamaytiradi
- Yangi dorilar markaziy asab tizimiga selektiv ta’sir ko‘rsatib, nojo‘ya ta’sirlarni kamaytiradi

Bundan tashqari, Maqsadli terapiya asosidagi preparatlar kasallikning molekulyar mexanizmlariga bevosita ta’sir qilish orqali davolash samaradorligini oshiradi.

Xulosa: Neyrodegenerativ kasalliklarda yangi dori vositalari zamonaviy tibbiyotning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ular kasallikning molekulyar va hujayra darajasidagi mexanizmlariga ta’sir ko‘rsatib, uning rivojlanishini sekinlashtirish va bemorlar hayot sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Kelajakda innovatsion preparatlar, biologik terapiya va individual yondashuvlar asosida ushbu kasalliklarni samarali boshqarish imkoniyatlari yanada kengayadi.

Bizning fikrimizcha, yangi dorilarni chuqur o‘rganish va ularni klinik amaliyotga keng joriy etish neyrodegenerativ kasalliklar bilan kurashishda muhim qadam bo‘ladi.

YOSH ORGANIZM MIOKARDI ADRENORETSEPTORLARIGA ENERGETIK ICHIMLIKLAR TARKIBIDAGI KOFEIN VA TAURINNING FARMAKODINAMIK TA’SIRI

Shopo’latova Dilnavo Erkin qizi Samarqand davlat tibbiyot universiteti Pediatriya fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar:Rustamova Xabiba Xasanovna

Ishning maqsadi: Energetik ichimliklar tarkibidagi kofein va taurinning o‘zaro sinergik ta’sirini hamda ularning miokard beta 1-adrenoretseptorlari stimulyatsiyasidagi rolini farmakodinamik tahlil qilish orqali gemodinamik o‘zgarishlarni baholash.

Tekshirish usullari: Tadqiqotda 18 yoshdan 23 yoshgacha bo‘lgan 30 nafar ko‘ngilli ishtirok etdi. Ishtirokchilar tomonidan tarkibida 32 mg/100 ml kofein va 400 mg/100 ml taurin bo‘lgan 250 ml miqdordagi energetik ichimlik iste’mol qilindi. Gemodinamik ko‘rsatkichlar (SAB, DAB va yurak urish chastotasi) ichimlik iste’moligacha hamda iste’moldan 30 va 60 daqiqa o‘tgach kardiomonitoring va sfigmomanometriya usullari bilan qayd etildi.

Tekshirish natijalari: Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, energetik ichimlik iste’mol qilgandan 60 daqiqa o‘tgach, sistolik arterial bosim o‘rtacha 12-15% ga, yurak urish chastotasi esa 18-22% ga oshgan. Farmakodinamik tahlillar kofeinning fosfodiesteraza fermentini bloklashi natijasida hujayra ichida sAMF miqdori ortishini va bu jarayon taurin ta’sirida yanada kuchayishini ko‘rsatdi. Bu mexanizm miokard adrenoretseptorlarining ortiqcha stimulyatsiyasiga olib kelib, kardiomiotsitlarda kalsiy ionlari almashinuvini buzadi. Natijada, tekshiriluvchilarning 40% ida subyektiv noxush hissiyotlar (yurak o‘ynashi, bezovtalik) va EKGda ekstrasistoliya belgilari kuzatildi.

Xulosa: Energetik ichimliklar tarkibidagi komponentlar miokard adrenoretseptorlariga kuchli va davomli stimulyatorlik ta’sirini ko‘rsatadi. Kofein va taurinning kombinatsiyasi yurakning kompensator imkoniyatlarini pasaytirib, patologik aritmiyalarga zamin yaratadi.

DEPRESSIV BUZILISHLAR PATOGENEZIDA YALLIG‘LANISH MEDIATORLARINING AHAMIYATI VA TERAPEVTIK STRATEGIYALAR

Sulaymonova Shahnoza Rustam qizi

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Davolash ishi fakulteti 2-kurs talabasi Samarqand, Uzbekistan.

Ilmiy rahbar:Farmakologiya kafedrasi assistenti Yo’ldosheva Gulsara Baxridinovna. Samarqand davlat tibbiyot universiteti.

Tadqiqot maqsadi: Zamonaviy ilmiy manbalar tahlili orqali depressiv holatlar patogenezida immun tizimi va sitokinlar profilining rolini baholash, shuningdek, amaldagi farmakoterapiya usullarining samaradorligini o‘rganishdan iborat.

Tekshirish usullari:: Mazkur ishda Cochrane Library, eLibrary.ru va PubMed kabi nufuzli ilmiy platformalardagi tizimli sharhlar hamda meta-tahlillar o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida depressiya epidemiologiyasi va klinik amaliyotda antidepressantlarni qo‘llashga oid adabiyotlarning qiyosiy tahlili o‘tkazildi.

Tekshirish natijalari: Depressiya etiologiyasi ko‘p qirrali bo‘lib, uning shakllanishida monoaminlar disbalansi bilan bir qatorda immunologik disfunktsiya muhim patogenetik zanjir hisoblanadi. Olingan ma’lumotlar depressiyadan aziyat chekuvchi shaxslarda yallig‘lanishga moyil genlar ekspressiyasi faollashishini hamda qon plazmasida IL-1β, IL-6, IL-8 va TNF-α kabi provospalitel sitokinlar kontsentratsiyasi ortishini ko‘rsatadi. Ushbu mediatorlar

neyromodulyatorlik xususiyatiga ega bo‘lib, markaziy asab tizimidagi neyrokimyoviy jarayonlarni modifikatsiyalash orqali patologik xulq-atvor reaktsiyalarini keltirib chiqaradi.Terapevtik yondashuvlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, hozirgi kunda selektiv serotoninni qayta so‘rilishini ingibitorlari (SSQSI) birinchi tanlov preparatlari bo‘lib qolmoqda. Biroq, monoterapiyaga rezistentlik holatlari kuzatilganda, SSQSI preparatlarini siklooksigenaza-2 (SOX-2) ingibitorlari bilan kombinatsiyalash davolash natijalarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Antidepressantlar nafaqat affektiv holatni korrektsiya qiladi, balki sitokinlar nisbatini antiinflammator mediatorlar foydasiga o‘zgartirib, neyroyallig‘lanish jarayonlarini tormozlaydi.Klinik amaliyotda bemorlarning qariyb 70 foizida kasallik somatizatsiyalangan belgilar (insomniya, surunkali algiyalar) niqobi ostida kechishi diagnostika jarayonini murakkablashtiradi. Bu holat nevrolog va umumiy amaliyot shifokorlarining diagnostik hushyorligini oshirishni hamda fanlararo integratsiyani talab etadi.

Xulosalar: Immun-yallig‘lanish mexanizmlari depressiya patogenezining asosiy bo‘g‘inlaridan biri bo‘lib, sitokinlar istiqbolli terapevtik nishonlar hisoblanadi. Farmakoterapiya samaradorligini oshirish uchun preparatlarni somatik simptomatika bilan bog‘liq holda tanlash va individual kombinatsiyalangan sxemalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

IMBIR O‘SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARi

Sultanova Maftuna Ruslanbek qizi
303-guruh Farmatsiya fakulteti talabasi
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy raxbar asissent: Baymurodov E.S.

Ishning maqsadi: Insoniyat tarixida o‘simliklar tibbiyotning ajralmas qismi hisoblanadi. Ular turli kasalliklarni davolash, immunitetni mustahkamlash va organizmni tozalash maqsadida qadimdan qo‘llanib kelinadi. Shulardan biri — imbir (Zingiber officinale) bo‘lib, u tropik mamlakatlarda o‘sadigan, kuchli aromatli, ko‘p yillik o‘simlikdir. Imbir ildizi o‘zining o‘tkir ta’mi va foydali xususiyatlari bilan mashhur. Uni nafaqat tibbiyotda, balki oziq-ovqat, kosmetika va farmatsevtika sanoatida ham keng ishlatishadi. Bugungi kunda imbir xalq tabobatidagi qadimiy meros va zamonaviy ilmiy tibbiyotning o‘zaro uyg‘unlashgan namunasi sifatida e’tirof etiladi.

Tekshirish usullari: Zamonaviy farmatsevtika sanoatida imbir asosida turli preparatlar ishlab chiqilmoqda: Gingerol ekstraktlari – kapsula va tabletkalar shaklida.

Imbir siropi – bolalarda yo‘tal va shamollashda ishlatiladi. Imbir choyi va ekstrakti –immunitetni mustahkamlovchi vosita sifatida. Krem va mazlar – mushak og‘rig‘ida, sovuq urishda tashqi qo‘llaniladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, imbir saraton hujayralarining o‘sishini sekinlashtiruvchi tabiiy komponentlarga ham ega. Shu sababli u onkologik profilaktikada ham muhim o‘rin tutmoqda. Zamonaviy tibbiyot imbirning qadimiy xalq tabobatidagi ahamiyatini ilmiy asosda o‘rganib, uning tarkibidagi biologik faol moddalardan keng foydalanmoqda. Ilmiy tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, imbir ildizpoyasida uchraydigan gingerol, shogaol, paradol, zingeron, efir moylari inson organizmiga ijobiy fiziologik ta’sir ko‘rsatadi.

Tekshirish natijalari: Imbir iliq va nam iqlimni xush ko‘radi, optimal harorat 25–30°C atrofida bo‘ladi.

Yetishtirish bosqichlari:

1. Ildizpoyani tayyorlash. Sog‘lom, bo‘laklarga ajratilgan ildizlar tanlanadi.
2. Ekish. Mart-aprel oylarida nam tuproqqa 5–6 sm chuqurlikka ekiladi.
3. Sug‘orish. Muntazam sug‘orish talab qilinadi, ayniqsa o‘sish davrida.
4. O‘g‘itlash. Organik o‘g‘itlar — kompost, go‘ng qo‘llaniladi.
5. Hosil yig‘ish. 8–10 oy o‘tib ildizpoya to‘liq shakllanganda yig‘iladi.

Hosil 1 gektardan o‘rtacha 20–25 tonnani tashkil etadi. Quritilgan imbir eksport uchun yuqori qiymatga ega.

Xulosa: Imbir (Zingiber officinale Roscoe) – dorivor o‘simliklar orasida keng o‘rganilgan va yuqori biologik faollikka ega turlardan biridir. U xalq tabobatidan tortib zamonaviy tibbiyotgacha bo‘lgan davrda inson salomatligini mustahkamlashda muhim o‘rin tutib kelmoqda. Tadqiqotlar natijasida imbir ildizpoyasida uchraydigan gingerol, shogaol, zingeron, paradol kabi birikmalar organizmda yallig‘lanishga qarshi, og‘riq qoldiruvchi, antivirus, antibakterial va antioksidant ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan.

Imbirning xalq tabobatidagi qo‘llanilishi asosan shamollash, yo‘tal, hazm buzilishlari va qusish holatlarini bartaraf etish bilan bog‘liq bo‘lsa, zamonaviy tibbiyotda u gastrointestinal, yurak-qon tomir, asab tizimi, revmatik, onkologik va immun tizim kasalliklarini davolashda yordamchi vosita sifatida keng qo‘llanmoqda. Shuningdek, uning ekstraktlari farmatsevtika, fitoterapiya, kosmetologiya va oziq-ovqat sohalarida ham amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

ИССЛЕДОВАНИЕ АНТИОКСИДАНТНОЙ АКТИВНОСТИ ФЛАВОНОИДОВ БЕССМЕРТНИКА ПЕСЧАНОГО (Helichrysum arenarium (L.) Moench) КАК ОСНОВЫ ДЛЯ СОЗДАНИЯ РАНОЗАЖИВЛЯЮЩИХ СРЕДСТВ

Тангирова Севара Дилшод кизи
Ассистент кафедры медицинская биология
EMU University,
Ташкент, Узбекистан

Цель исследования: Оценить фармакологический потенциал флавоноидов бессмертника песчаного как природных антиоксидантов для разработки эффективных средств местного лечения кожных повреждений.

Материал и методы исследования: Проведен анализ химического состава лекарственного растения *Helichrysum arenarium (L.) Moench* с выделением основных групп биологически активных веществ. Использованы методы фармакогностического анализа и сравнительного изучения антиоксидантной активности флавоноидов по данным научных публикаций. Оценивались механизмы влияния флавоноидных соединений на воспалительный процесс, микроциркуляцию и регенерацию тканей.

Результаты исследования: Флавоноиды бессмертника проявляют выраженную антиоксидантную активность, ингибируют процессы перекисного окисления липидов и уменьшают оксидативный стресс в зоне повреждения тканей. Установлено, что биологически активные соединения растения способствуют снижению воспалительной реакции, стимуляции пролиферации клеток и ускорению эпителизации раневой поверхности. Полученные данные подтверждают перспективность использования флавоноидного комплекса растения в фармацевтической разработке ранозаживляющих препаратов.

Выводы: Флавоноиды *Helichrysum arenarium (L.) Moench* представляют собой перспективную природную основу для создания новых фитофармацевтических средств с антиоксидантным и регенеративным действием.Их применение позволяет воздействовать на ключевые патогенетические механизмы раневого процесса — оксидативный стресс, воспаление и нарушение микроциркуляции. Полученные результаты научно обосновывают целесообразность дальнейшей разработки фитофармацевтических препаратов местного действия, включая порошковые и мягкие лекарственные формы, предназначенные для ускорения заживления кожных повреждений и повышения эффективности локальной терапии ран.

РАЗРАБОТКА ПОРОШКОВОЙ ЛЕКАРСТВЕННОЙ ФОРМЫ С АНТИОКСИДАНТНОЙ АКТИВНОСТЬЮ НА ОСНОВЕ ФЛАВОНОИДОВ БЕССМЕРТНИКА ПЕСЧАНОГО (Helichrysum arenarium (L.) Moench) ДЛЯ ЛЕЧЕНИЯ КОЖНЫХ РАН

Тангирова Севара Дилшод кизи
Ассистент кафедры медицинская биология
EMU University,
Ташкент, Узбекистан

Цель исследования: Разработка порошковой лекарственной формы с антиоксидантной и ранозаживляющей активностью на основе флавоноидов бессмертника песчаного для местного лечения кожных ран.

Материал и методы исследования: Объектом исследования служило лекарственное растительное сырьё *Helichrysum arenarium (L.) Moench*. Проведен анализ биологически активных соединений растения с акцентом на флавоноидный комплекс. Выполнен подбор оптимальной порошковой лекарственной формы с учетом фармацевтической технологии, дисперсности частиц, сорбционных свойств и стабильности активных веществ. Оценка потенциальной антиоксидантной активности осуществлялась на основании литературных данных и сравнительного анализа фармакологических свойств природных флавоноидов.

Результаты исследования: Установлено, что флавоноиды бессмертника обладают выраженными антиоксидантными, противовоспалительными и мембраностабилизирующими свойствами, способствующими ускорению репаративных процессов. Порошковая лекарственная форма обеспечивает равномерное распределение действующих веществ на поверхности раны, снижает экссудацию и создаёт условия для активизации регенерации тканей. Предложенная форма отличается технологической простотой, стабильностью хранения и возможностью промышленного производства.

Выводы: Разработанная порошковая форма на основе флавоноидов *Helichrysum arenarium (L.) Moench* является перспективным направлением создания фитопрепаратов для местного лечения ран и может рассматриваться как инновационная альтернатива традиционным ранозаживляющим средствам.

ИММУНИТЕТНИ МУСТАҲКАМЛАШДА ДОРИВОР ЎСИМЛИКЛАРНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Таджибаева Рухшона Дилшод кизи
Самарканд Давлат Тиббиёт Университети.
Биотехнология, инжинеринг ва фармация факултети 202-гурух.
Илмий рахбар- Хасанова Гулбахор Рахматуллаевна.

Тадқиқот мақсади: Ушбу тадқиқотнинг асосий мақсади инсон иммун тизими фаолиятига доривор ўсимликлар таркибидаги биологик фаол моддаларнинг таъсирини илмий жиҳатдан асослашдан иборат. Шу билан бирга, фитотерапия усуллари орқали иммунитетни мустаҳкамлаш имкониятларини ўрганиш ва уларнинг профилактик ҳамда даволаш самарадорлигини баҳолаш ҳам тадқиқотнинг муҳим вазифаларидан ҳисобланади.

Тадқиқот доирасида қуйидаги масалаларни ҳал қилиш кўзда тутилди: иммун тизимининг асосий функциялари ва унинг ташқи омилларга жавоб реакцияларини таҳлил қилиш;доривор ўсимликлар таркибидаги флавоноидлар, сапонинлар, алкалоидлар, витаминлар ва эфир мойларининг иммунологик таъсир механизмларини ўрганиш;
табиий фитопрепаратларнинг синтетик иммуномодуляторларга нисбатан афзалликларини аниқлаш;маҳаллий флорада учрайдиган доривор ўсимликлар асосида иммунитетни ошириш имкониятларини баҳолаш;фитотерапияни амалиётга жорий этишнинг самарали ва хавфсиз йўлларини ишлаб чиқиш.

Натижалар: Олиб борилган таҳлиллар шуни кўрсатдики, доривор ўсимликлар таркибидаги биологик фаол моддалар иммун тизимининг турли бўғинларига комплекс таъсир кўрсатади. Улар организмда ҳужайравий ва гуморал иммунитетни фаоллаштириш орқали инфекцияларга қарши табиий ҳимояни кучайтиради.

Жумладан, Glycyrrhiza glabra илдизида мавжуд бўлган глицирризин моддаси интерферон синтезини рағбатлантириб, вирусларга қарши таъсир кўрсатиши аниқланган. Бу эса уни респиратор касалликларда самарали восита сифатида қўллаш имконини беради.

Rosa canina мевасидаги юқори миқдордаги аскорбин кислотаси ва флавоноидлар иммун ҳужайралар фаоллигини оширади, капилляр деворларини мустаҳкамлайди ва организмнинг инфекцияларга қарши барқарорлигини оширади.
Hippophae rhamnoides таркибидаги каротиноидлар, токофероллар ва ёғ кислоталари кучли антиоксидант хусусиятга эга бўлиб, эркин радикалларни нейтраллаштиради ва ҳужайра мембраналарини ҳимоя қилади. Бу эса иммун тизимнинг барқарор ишлашида муҳим аҳамиятга эга.
Тадқиқотлар шуни ҳам кўрсатдики, доривор ўсимликлардан тайёрланган фитопрепаратлар: иммун ҳужайралар (лейкоцитлар, лимфоцитлар) фаоллигини оширади;
цитокинлар ва интерлейкинлар ишлаб чиқарилишини рағбатлантиради;яллиғланиш жараёнларини камайтиради;организмнинг стрессга чидамлилигини оширади.
Хулоса:Доривор ўсимликлар инсон иммун тизимини мустаҳкамлашда самарали ва хавфсиз табиий манба ҳисобланади. Уларнинг илмий асосланган қўлланилиши касалликларни профилактика қилиш ва даволашда муҳим аҳамиятга эга.

ORGANIZMDA YOD TANQISLIGI VA KALIY YODINING XUSUSIYATLARI

Tashmuhammatova Aziza G’ayrat qizi Biotexnologiya injinering va farmatsiya fakulteti 103-guruh talabasi.
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand
Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy rahbar: ass. Oltiboyeva Mavsuma G’ulom qizi

Dolzarbligi: Yod inson organizmi uchun zarur mikroelement bo‘lib, qalqonsimon bez gormonlari sintezida ishtirok etadi. Ushbu gormonlar modda almashinuvi, asab tizimi faoliyati, o‘sish va rivojlanish jarayonlarini boshqaradi. Yod yetishmovchiligi natijasida qalqonsimon bez faoliyati buziladi va bez hajmi kattalashib, endemik buqoq rivojlanishi mumkin. Amaliyotda yod tanqisligi ko‘pincha tez charchash, holsizlik, soch to‘kilishi, vazn o‘zgarishi va xotira pasayishi bilan namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, homilador ayollar va bolalarda yod yetishmovchiligi jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin, chunki bu davrda qalqonsimon bez gormonlari organizm rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. O‘zbekistonning ayrim hududlarida tuproq va suv tarkibida yod miqdorining pastligi sababli yod tanqisligi muammosi dolzarb hisoblanadi. Dorixona amaliyotida ham qalqonsimon bez bilan bog‘liq murojaatlar tez-tez uchrab turadi. Shu sababli yod tanqisligini o‘rganish, uni erta aniqlash va profilaktika choralarini qo‘llash muhimdir.

Tadqiqotning maqsadi: Mazkur tadqiqotning maqsadi organizmda yod tanqisligining kelib chiqish sabablari va klinik belgilarini o‘rganish hamda kaliy yodid preparatlarining amaliyotda qo‘llanilishi va samaradorligini tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, dorixona sharoitida yod saqlovchi vositalarga bo‘lgan talabni aniqlash va yod tanqisligini oldini olish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ko‘zda tutiladi.

Usul va uslublar: Tadqiqot jarayonida yod saqlovchi preparatlar savdosi, xaridorlarning murojaat sabablari hamda farmatsevtlar tomonidan berilgan tavsiyalar o‘rganildi. 60 nafar xaridor o‘rtasida qisqa so‘rovnoma o‘tkazilib, yod tanqisligi belgilari va preparatlarni qabul qilish maqsadi aniqlashtirildi.

Natijalar: Tadqiqot davomida dorixonalarda yod saqlovchi preparatlar savdosi umumiy vitamin-mineral vositalar savdosining taxminan 20-25% tashkil qilishi aniqlandi. Eng ko‘p sotilgan vositalar 100 va 200 mg dozadagi kaliy yodid tabletkalari hamda tarkibida yod mavjud bo‘lgan kompleks vitamin preparatlari bo‘ldi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, xaridorlarning 60%dan ko‘pida tez charchash va holsizlik kuzatilgan, ayrimlarida esa soch to‘kilishi va qalqonsimon bez bilan bog‘liq shikoyatlar mavjudligi aniqlandi. Homilador va emizikli ayollar orasida kaliy yodidni profilaktik maqsadda qabul qilish holatlari ham qayd etildi. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, kaliy yodid preparatlarini tavsiya etilgan dozada muntazam qabul qilish bemorlarning umumiy holatini yaxshilashga yordam beradi va qalqonsimon bez faoliyatini

barqarorlashtirishda ijobiy natija beradi. Nojo‘ya ta’sirlar kam hollarda va yengil ko‘rinishda kuzatildi.

Xulosalar: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yod inson organizmi uchun hayotiy ahamiyatga ega bo‘lib, uning yetishmovchiligi qalqonsimon bez faoliyatining buzilishi va umumiy sog‘liq holatining yomonlashishiga olib keladi. Dorixona amaliyotida yod saqlovchi preparatlar, xususan, kaliy yodid tabletkalari va yod tarkibidagi kompleks vitaminlar talab yuqori ekanligi aniqlangan. So‘rovnoma natijalari tez charchash, holsizlik, soch to‘kilishi va qalqonsimon bez bilan bog‘liq shikoyatlar yod tanqisligining asosiy klinik belgilaridan ekanligini tasdiqladi. Homilador va emizikli ayollar orasida profilaktik qabul qilishning muhimligi ham qayd etildi. Kaliy yodid preparatlarini tavsiya etilgan dozada muntazam qabul qilish organizmning umumiy holatini yaxshilash, qalqonsimon bez faoliyatini barqarorlashtirish va yod tanqisligini oldini olishda samarali vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, preparatlarning nojo‘ya ta’sirlari kam va yengil bo‘lib, ularni xavfsiz deb hisoblash mumkin. Xulosa qilib aytganda, yod tanqisligini erta aniqlash, profilaktika choralarini qo‘llash va dorixona amaliyotida xaridorlarga ma’lumot berish muhim ahamiyatga ega ekanligi tadqiqot orqali tasdiqlandi.

SUN’IY INTELLEKT ASOSIDA YANGI DORI VOSITALARINI YARATISH: ZAMONAVIY FARMAKOLOGIYANING ISTIQBOLLARI

Temurova Farizabonu Akmaljon qizi
Eshniyozova Nilufar Asadulla qizi
Jahonov Azizbek Jalol o’g’li
Pediatriya fakulteti 223-guruh,davolash fakulteti 330-guruh va farmatsiya fakulteti 507-guruh talabalari
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O`zbekiston
Ilmiy rahbar: Yo’ldosheva Gulsara Baxridinovna

Ishning maqsadi: Zamonaviy farmakologiyada Sun’iy intellekt texnologiyalarining dori vositalarini yaratish jarayonidagi o‘rnini o‘rganish va ushbu yondashuvning samaradorligini baholash.

Tadqiqot materiallari va usullari: Tadqiqot davomida zamonaviy ilmiy adabiyotlar, xalqaro ma’lumotlar bazalarida keltirilgan maqolalar hamda farmatsevtika sohasidagi so‘nggi ishlanmalar tahlil qilindi. Tizimli tahlil va taqqoslash usullari yordamida an’anaviy dori yaratish bosqichlari bilan sun’iy intellekt asosidagi yondashuvlar o‘rtasidagi farqlar o‘rganildi.

Natijalar: Tahlil ma’lumotlar natijalariga ko‘ra, Sun’iy intellekt dori vositalarini yaratishning dastlabki bosqichlarida eng samarali vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, biologik faol molekulalarni aniqlash jarayonida katta hajmdagi qisqa vaqt ichida qayta ishlanib, potensial dori nomzodlari saralab olindi. An’anaviy usul bilan solishtirilganda, sun’iy intellekt yordamida molekulalarni tanlash va ularning farmakologik xususiyatlarini baholash jarayoni bir necha barobar tezlashgani kuzatildi. Bundan tashqari, ADME (so‘rilish, taqsimlanish, metabolizm va chiqarilish) ko‘rsatkichlarini oldindan modellashtirish orqali nojo‘ya ta’sir ehtimoli yuqori bo‘lgan birikmalar dastlabki bosqichdayoq chiqarib tashlandi. Shuningdek, ayrim ilmiy manbalarda ko‘rsatilishicha, sun’iy intellekt asosida tanlangan dori nomzodlarining klinik sinovga yetib borish ehtimoli an’anaviy usullarga nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlangan. Bu esa farmatsevtik tadqiqotlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa: Sun’iy intellekt asosida dori vositalarini yaratish farmakologiyada innovatsion va istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu yondashuv dori ishlab chiqish jarayonini tezlashtiradi, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi va xavfsizlik darajasini yaxshilaydi. Kelajakda bu texnologiya farmatsevtika sohasining ajralmas qismiga aylanishi kutilmoqda.

DORIVOR O’SIMLIK *CARTHAMUS TINCTORIUS L.* FLAVANOIDLARINI O’RGANISH VA ULARNING FARMATSEVTIK AHAMIYATI.

Tillayeva Gavxar Sarmonovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Farmatsevtik kimyo va farmakognoziya yo'nalishi magistranti, Samarqand, O'zbekiston.
Ilmiy rahbar: PhD. Ahmadova G.A

Ishning maqsadi: dorivor o'simlik *Carthamus tinctorius L.* (saflor) tarkibidagi flavonoidlarni o'rganish hamda uning biologik faol moddalar manbai sifatidagi farmatsevtik ahamiyatini baholash.

Material va tadqiqot usullari: tadqiqot obyekti sifatida *Carthamus tinctorius L.* ning quritilgan gullari tanlab olindi. O'simlik xomashyosi standart sharoitlarda quritilib, mexanik usulda mayda fraksiyalargacha maydalandi. Ekstraksiya jarayoni turli qutblilikka ega erituvchilar — etanol hamda suv-etanol aralashmalari (50%, 70% va 96%) yordamida olib borildi. Ekstraksiya ma'lum vaqt davomida (24–48 soat) xona haroratida yoki suv hammomida amalga oshirilib, so'ngra eritmalar filtrlanib, tozalangan ekstraktlar olindi.

Flavonoidlarning miqdoriy tarkibi spektrofotometrik usul yordamida aniqlanib, bu jarayonda alyuminiy xlorid ($AlCl_3$) bilan kompleks hosil qilish reaksiyasidan foydalanildi. Hosil bo'lgan kompleksning optik zichligi 400–410 nm to'lqin uzunligida spektrofotometr yordamida o'lchandi. Natijalar standart flavonoid modda (masalan, kversetin) asosida kalibrlash grafigi tuzish orqali hisoblab chiqildi.

Antioksidant faollikni baholashda DPPH (2,2-difenil-1-pikrilgidrazil) erkin radikalini neytrallash usuli qo'llanildi. Ushbu usulda ekstraktlarning turli konsentratsiyalari tayyorlanib, ularning DPPH radikaliga nisbatan so'ndirish darajasi spektrofotometrik yo'l bilan aniqlanib borildi. Natijalar standart antioksidant moddalar (askorbin kislota yoki kversetin) bilan solishtirildi hamda IC_{50} ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi.

Barcha tajribalar kamida uch marotaba takrorlanib, olingan natijalar statistik jihatdan qayta ishlanib, o'rtacha qiymatlar va standart og'ishlar ko'rinishida ifodalandi.

Tadqiqot natijalari: *Carthamus tinctorius L.* gullarida flavonoidlar sezilarli miqdorda mavjudligi aniqlandi, bu esa mazkur o'simlikning biologik faol moddalarga boy manba ekanligini ko'rsatadi. Ekstraksiya jarayonini optimallashtirish davomida turli erituvchilar sinovdan o'tkazildi va ularning ichida 70% etanol flavonoidlarni ajratib olishda eng yuqori samaradorlikni namoyon etdi. Bu holat flavonoidlarning qutblilik xususiyatlari bilan izohlanadi, ya'ni ular o'rta qutbli erituvchilarda yaxshi eriydi.

Spektrofotometrik tahlil natijalari ekstrakt tarkibida flavonoidlar miqdori yuqori ekanligini tasdiqladi va o'lchovlarning qayta takrorlanishi natijalarning ishonchliligini ko'rsatdi. Absorbsiya maksimumining 400–410 nm oralig'ida kuzatilishi flavonoidlarning mavjudligini yana bir bor tasdiqlovchi muhim analitik ko'rsatkich bo'ldi.

Antioksidant faollikni baholash uchun qo'llanilgan DPPH usuli natijalari ekstraktlarning erkin radikallarni samarali neytrallash qobiliyatiga ega ekanligini ko'rsatdi. Bu esa flavonoidlarning kuchli antioksidant xususiyatlarini tasdiqlaydi. Shuningdek, ekstrakt konsentratsiyasi oshgani sari antioksidant faollikning ortib borishi kuzatildi, bu esa doza–ta'sir bog'liqligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar flavonoidlarning kimyoviy tuzilishi (xususan, fenolik gidroksil guruhlar soni va joylashuvi) ularning biologik faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Ushbu bog'liqlik flavonoidlarning farmakologik xususiyatlarini ilmiy asosda tushuntirish imkonini beradi hamda ularni farmatsevtik maqsadlarda qo'llash istiqbollarini kengaytiradi.

Xulosa. *Carthamus tinctorius L.* gullari flavonoidlarga boy bo'lib, yuqori antioksidant faollikka ega istiqbolli dorivor o'simlik hisoblanadi. Spektrofotometrik usullar flavonoidlarni aniqlashda ishonchli va samarali ekanligi isbotlandi.

Olingan natijalar saflor asosida antioksidant, gepatoprotektiv va boshqa biologik faol fitopreparatlar yaratish imkoniyatlarini kengaytiradi. Kelgusida ushbu o'simlikning farmakologik xususiyatlarini yanada chuqur o'rganish maqsadga muvofiqdir.

NANOTEXNOLOGIYALAR ASOSIDA DORI VOSITALARINI MAQSADLI YETKAZISH TIZIMLARI

To‘xtayeva Gulsanam Akmal qizi
Biotexnologiya injeneriya va farmatsiya fakulteti 1 kurs 106 guruh talabasi, SamDTU
Ilmiy rahbar:Dots. Eshkobilova M.E

Kirish: Zamonaviy farmatsevtika va tibbiyotda dori vositalarini organizmga samarali, xavfsiz va aniq yetkazish masalasi global sog‘liqni saqlash tizimining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. An’anaviy dori shakllari (tabletkalar, kapsulalar, eritmalar) ko‘pincha farmakokinetik kamchiliklarga ega bo‘lib, ular orasida past biofoydalanish darajasi, dori moddasining tez parchalanishi, tizimli nojo‘ya ta’sirlarning yuqoriligi hamda maqsadli to‘qimalarga yetib bormasligi alohida ahamiyatga ega.

Material va usullar: Ushbu tadqiqotda analitik va tizimli yondashuv asosida zamonaviy ilmiy adabiyotlar, jumladan, xalqaro ilmiy jurnallar, monografiyalar va klinik tadqiqotlar natijalari tahlil qilindi. Nanotexnologiyalar asosidagi dori yetkazish tizimlari bo‘yicha so‘nggi 10–15 yillik ilmiy ishlanmalar qamrab olindi.

Tadqiqot doirasida quyidagi nano-tizimlar o‘rganildi:

Liposomalar — fosfolipid qavatlardan tashkil topgan vezikulalar

Polimer nanokapsulalar — dori moddasini ichida saqlovchi va asta-sekin chiqaruvchi tizimlar

Dendrimerlar — yuqori darajada tarmoqlangan makromolekulalar

Lipid nanopartikullar — biologik mos va samarali tashuvchilar

Natijalar:O‘tkazilgan tahlillar natijasida nanotexnologiyalarga asoslangan dori yetkazish tizimlari an’anaviy dori shakllariga nisbatan bir qator ustunliklarga ega ekanligi aniqlandi.

Birinchidan, nanozarrachalar dori moddasining biofoydalanishini sezilarli darajada oshiradi. Bu, ayniqsa, suvda yomon eriydigan dori moddalar uchun muhimdir. Ikkinchidan, ular maqsadli to‘qimalarga selektiv yetkazishni ta’minlab, sog‘lom to‘qimalarga zarar yetkazilishini kamaytiradi. Uchinchidan, nazorat qilinadigan chiqarilish (controlled release) mexanizmi orqali dori moddasining organizmda uzoq muddat davomida barqaror konsentratsiyasini saqlash mumkin.

Misol tariqasida, liposomal shakldagi sitostatik preparatlar saraton hujayralariga selektiv ravishda yetkazilib, umumiy toksiklikni kamaytiradi. Shuningdek, oltin nanozarrachalar yordamida bir vaqtning o‘zida diagnostika va davolash (teranostika) amalga oshirilmoqda. Lipid nanopartikullar esa gen terapiyasida va RNK asosidagi vaksinalarni yetkazishda muhim rol o‘ynamoqda.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, nanotexnologiyalar yordamida dori vositalarining samaradorligi oshib, nojo‘ya ta’sirlar kamayadi va davolash natijalari yaxshilanadi.

Muhokama: Olingan natijalar nanotexnologiyalar asosidagi dori yetkazish tizimlarining zamonaviy tibbiyotda muhim o‘rin tutishini tasdiqlaydi. Ushbu tizimlar individual davolash (personalized medicine) konsepsiyasini rivojlantirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Har bir bemorning genetik va fiziologik xususiyatlariga mos ravishda dori yetkazish imkoniyati yaratilmoqda.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, nanotexnologiyalar asosidagi dori vositalarini maqsadli yetkazish tizimlari farmatsevtika va tibbiyotning eng istiqbolli va innovatsion yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ular dori vositalarining samaradorligini oshirish, nojo‘ya ta’sirlarni kamaytirish va bemorlar hayot sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Kelgusida ushbu texnologiyalarni chuqur o‘rganish, xavfsizlik jihatlarini takomillashtirish hamda klinik amaliyotga keng joriy etish zamonaviy tibbiyotning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

OSHQAZON SARATONINI ZAMONAVIY DAVOLASH USULLARIDAN FOYDALANISH

Turdimova Sevinch Murod qizi Biotexnologiya injinering va farmatsiya fakulteti 403-guruh talabasi.
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti
Samarqand, O'zbekiston
Ilmiy rahbar: Anvarov Tohir O'tkirovich

Dolzarbligi: Oshqozon saratoni hali ham butun dunyo bo'ylab saraton bilan bog'liq o'limning yetakchi sabablaridan biridir. Mahalliy rivojlangan oshqozon saratonining agressiv tabiati tufayli faqat jarrohlik yetarli emas. Amaliyot oldi va keyingi davr kimyoterapiyasi va target terapiya usullarining integratsiyasi uzoq muddatli natijalarni yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot maqsadi: Ushbu tezisning maqsadi, oshqozon saratonini davolash sohasida yuz berayotgan yutuqlarni, ayniqsa so'nggi jarrohlik usullarini boshqa davo metodlari bilan kombinatsuyasining samaradorligini va davolashdagi yangiliklarni tadqiq etishdan iborat.

Natija: Oshqozon saratoni, oshqozon shilliq qavati epiteliy to'qimasidan kelib chiqadigan yomon sifatli o'sma bo'lib va eng keng tarqalgan onkologik kasalliklardan biri hisoblanadi. U oshqozonning har qanday qismida rivojlanib, boshqa a'zolarga, ayniqsa qizilo'ngach, o'pka va jigarga tarqalishi mumkinligi haqida ma'lumotlar berilgan. Dunyo bo'yicha oshqozon saratoni eng ko'p uchraydigan onkologik kasalliklar bo'yicha beshinchi (7%), saraton kasalligi tufayli o'lim bo'yicha uchinchi o'rinni (9%) egallaydi. Statistikaga ko'ra, bemorlarning atigi 29% sog'ayib ketadi. Ko'pincha oshqozon saratoni erkaklarda uchraydi.

Zamonaviy davolash usullari: Jarrohlik aralashuvi: Jarrohlikdagi asosiy maqsad – o'simtaning to'liq rezektsiyasi, bu odatda D2 limfadenektomiya bilan birga butun oshqozonni olib tashlanadi. Tadqiqotlar natijasida D2 limfadenektomiya cheklangan limfa tugunlari rezektsiyasiga nisbatan ancha yuqori omon qolish ko'rsatkichlarini beradi. Bu amaliyot texnik jihatdan murakkab va operatsiya oldi davrida xavflar bilan bog'liq bo'lishiga qaramay. Minimal invaziv jarrohlik usullari, masalan, laparoskopik va robotli gastrektomiya, operatsiyadan keyingi asoratlar va tiklanish davrini kamaytirish xususiyatlari tufayli mashhurlik kasb etmoqda, bu usullar yuqori texnik ko'nikmalarni talab qiladi va bemorlarning har biri uchun mos kelmasligi mumkin, ayniqsa kasallik keng tarqalgan bo'lsa.

Amaliyot oldi va keyingi kimyoterapiya: Amaliyotdan oldin va keyin beriladigan kimyoterapiya Mahalliy rivojlangan oshqazon saratonni davolashda standart yondashuvga aylangan. MAGIC tajribasi ushbu jarayonning dastlabki tadqiqotlardan biri bo'lib, kimyoterapiya qabul qilgan bemorlarning jarrohlikdan keyin sezilarli darajada yaxshilangani kuzatildi. Yaqinda o'tkazilgan tadqiqotlar turli kimyoterapiya rejimlarini baholab, FLOT rejimi ko'p hollarda yaxshiroq natijalarni ko'rsatdi, bu avvalgi ECF rejimidan samaraliroq ekanligini tasdiqladi. Amaliyot oldi va keyingi davr kimyoterapiyasi MROSni davolashda asosiy vosita hisoblanadi. Bu usul o'simtaning hajmini kichraytirish, jarrohlikdan so'ng qolishi mumkin bo'lgan mikrometastazlarni yo'q qilish va umumiy omon qolish ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida qo'llaniladi. FLOT (florourasil, leykovorin, oksaliplatin, va docetaksel) rejimi so'nggi yillarda katta e'tiborni tortdi va o'tkazilgan klinik tadqiqotlarda FLOT rejimi operatsiyadan oldingi va keyingi davrda ham bemorlarning umumiy sog'lom bo'lish muddatini uzaytirganini ko'rsatgan.

Xulosa: 2000 yilda saraton kasalligiga chalinganlarning soni 10 000 000 ni tashkil etdi2022-yilga kelib, olimlar bashoratiga ko'ra, saraton bilan kasallanganlar soni 20 millionga yetdi, 2050-yilga borib dunyoda saraton kasalligi 77% ga oshadi-JSST. Kelajakdagi tadqiqotlar va klinik sinovlar yangi davo rejimlari va shaxsiylashtirilgan davolash usullarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, oshqozon saratoni bilan kasallangan bemorlarda prognozni yaxshilash imkonini beradi.

FARMATSEVTIKADA MARKETING VA MENEJMENT, MILLIY DORI SIYOSATINING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Turdimova Sevinch Murod qizi Biotexnologiya injinering va farmatsiya fakulteti 403-guruh talabasi.
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti
Samarqand, O’zbekiston
Ilmiy rahbar: ass. Oltiboyeva Mavsuma G’ulom qizi

Dolzarbligi: Zamonaviy farmatsevtika sohasi sog‘liqni saqlash tizimining ajralmas qismi bo‘lib, u nafaqat dori vositalarini ishlab chiqarish va taqsimlash, balki ularning marketingi, boshqaruvi hamda iqtisodiy barqarorligini ta’minlashni ham o‘z ichiga oladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida farmatsevtik marketing va menejment tizimining samarali ishlashi dorivor vositalar sifatini oshirish, iste’molchi ehtiyojlarini qondirish va dori vositalarining mavjudligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasida milliy dori siyosatini shakllantirish jarayonida import o‘rnini bosuvchi, raqobatbardosh, sifatli va arzon dori vositalarini ishlab chiqarish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda. Shu nuqtai nazardan, farmatsevtik marketing va menejment mexanizmlarini takomillashtirish dori siyosatini samarali amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi: Farmatsevtika sohasida marketing va menejmentning o‘zaro aloqadorligini o‘rganish, milliy dori siyosatini rivojlantirishda ularning roli va ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berish, shuningdek, bozor talablariga mos boshqaruv tizimini taklif etish.

Usul va uslublar: Tadqiqot davomida analitik tahlil, SWOT-tahlil, statistik ma’lumotlarni qayta ishlash, so‘rovnoma va intervyu usullaridan foydalanildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi hamda Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan e’lon qilingan me’yoriy hujjatlar tahlil qilindi. Amaldagi marketing strategiyalarining samaradorligi o‘rganilib, korxonalar boshqaruvida innovatsion menejment yondashuvlarining qo‘llanishi baholandi.

Natijalar: O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mamlakat farmatsevtika bozorida raqobat darajasi yetarli darajada shakllanmagan, aksariyat dorixonalar shu jumladan “DILSHOH PHARM”, “HUMO FARM 777” ,”IDEAL FARM SAM” “BIO PHARMACY” lar marketing strategiyasini zamonaviy yondashuvlar asosida olib bormaydi. Korxonalar faoliyatida raqamli marketing vositalaridan, mijozlar bilan aloqa platformalaridan va brend boshqaruvi tizimlaridan to‘liq foydalanilmayapti. Shu bilan birga, kadrlar salohiyatini oshirish, menejerlar uchun amaliy treninglar tashkil etish va farmatsevtik marketing bo‘yicha malaka oshirish dasturlarini joriy etish zarurligi aniqlangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, farmatsevtik menejmentda sifatni boshqarish, logistika tizimini samarali yo‘lga qo‘yish, va dori vositalari narxini tartibga solishda bozor mexanizmlarini to‘g‘ri qo‘llash orqali tizimning barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.

Xulosalar: Farmatsevtik marketing va menejment tizimini takomillashtirish milliy dori siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishning asosiy shartlaridan biridir. Innovatsion marketing strategiyalarini joriy etish, davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hamda dori vositalarining sifat va narx siyosatini muvozanatlashtirish orqali O‘zbekiston farmatsevtika bozorini barqaror, raqobatbardosh va xalqaro standartlarga mos tizimga aylantirish mumkin. Shu yo‘nalishda ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish, axborot texnologiyalarini keng joriy etish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning marketing salohiyatini kuchaytirish — sohaning kelajakdagi ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

SUN'IY OQSIL OZUQA MODDALARI ISHLAB CHIQARISHNING TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI

Turg‘unboyeva Nozima Sobirovna
Ilmiy rahbar: Pardayeva Sohiba Bo’riyevna
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, O‘zbekiston

Tadqiqotning maqsadi: Bugungi kunda sun’iy oqsil ozuqa moddalarning ishlab chiqarilishi dolzarb masalaga aylangan. Sun’iyo qsillar- insonlar tomonidan ishlab chiqarilgan, tabiiy oqsil mahsulotlariga juda o’xshash sintetik moddalardir. Ular tabiiy oqsil mahsulotlarining xususiyatlari va tarkibiga yaqin bo’lib, oziq-ovqat, tibbiyot, sanoat va boshqa sohalar uchun muhim ahamiyatga ega. Sun’iy oqsillar tabiiy manbalardagi oqsil yetishmovchiligini bartaraf etish, yanada arzon va samarali oziq-ovqat yetkazib berish kabi maqsadlarda ishlab chiqariladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi mikrobiologik sintez asosida sun’iy oqsillar ishlab chiqarishning samarali usullarini o‘rganish, ularning oziqaviy va biologic xususiyatlarini baholash hamda amaliy qo‘llanilish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Materiallar va tadqiqot usullari: Tadqiqotda sun’iy oqsil moddalari ishlab chiqarish uchun mikrobiologik sintez texnologiyasi qo‘llanildi. Ishda quyidagi material va usullar ishlatildi: mikroorganizmlar: Chlorella vulgaris, Fusarium venenatum, Methylococcus capsulatus shtammlari, o‘sish muhiti: azot, uglerod va fosfor manbalari bilan boyitilgan sun’iy oziqa muhiti, texnologik jarayon, bioreactor sharoitida optimal harorat (28–32°C), pH (6,8–7,2) va aeratsiya darajasida o‘stirildi. Analitik usullar: oqsil miqdorini aniqlashda Kjeldal usuli, aminokislotalar tarkibini aniqlashda xromatografik tahlil, biologic qiymatini baholashda in vitro hazm bo‘lish darajasi va antimikrob faolligi tekshirildi.

Natijalar: O‘tkazilgan tajribalarda Chlorella vulgarisdan olingan oqsil tarkibida 60% gacha xom oqsil aniqlanib, u asosan muhim aminokislotalar — lizin, metionin, treonin va valindan tashkil topgani aniqlandi. Fusarium venenatum asosida olingan oqsillar yuqori hazm bo‘lish darajasiga (85–90%) ega bo‘lib, ularning biologic qiymati hayvon oqsillariga yaqinligi qayd etildi. Methylococcus capsulatusdan olingan oqsillar esa tez o‘suvchi bacterial biomassaning yuqori oqsil kontsentratsiyasi (70% gacha) bilan ajralib turdi. Tibbiyotda bu turdagi sun’iy oqsillar quyidagi yo‘nalishlarda qo‘llanishi mumkin: parenteral oziqlantirish vositalari tarkibida oqsil manbasi sifatida; yallig‘lanishga qarshi va tiklovchi preparatlar uchun biologik qo‘shimcha sifatida; probiotik preparatlar bilan birgalikda ichak mikroflorasini muvozanatga keltirishda; jarrohlik va kuyishlardan keying reabilitatsiya davrida oqsil tanqisligini bartaraf etishda. Bundan tashqari, sun’iy oqsillar ekologik jihatdan toza ishlab chiqarish jarayonlari, past energiya sarfi va chiqindilarning qayta ishlanishi bilan ham afzallikka ega.

Xulosa: Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy oqsil ozuqa moddalari tabiiy oqsillarga teng yoki ba’zan ustun bo‘lgan oziqaviy va biologic xususiyatlarga ega. Ularning tibbiyotdagi qo‘llanilishi bemorlarning oqsil balansini tiklash, jarrohlik amaliyotlaridan keyin reabilitatsiyani tezlashtirish va parenteral oziqlantirish tizimlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda biotexnologik ishlab chiqarish jarayonlarini yanada takomillashtirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish va sun’iy oqsillar asosidagi tibbiy preparatlarni amaliyotga joriy etish dolzarb yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

BOLALAR FARMAKOLOGIYASI VA DOZANI HISOBLASH XUSUSIYATLARI

Tursunmurodov Rustam Ravshan o’g’li
Samarkand davlat tibbiyot universiteti,
Samarqand, O‘zbekiston
Ilmiy rahbar: assistant S.N. Istamova

Ishning maqsadi:: Bolalar farmakologiyasi kattalar tibbiyotidan tubdan farq qiladi, chunki bola organizmi kattalarning kichraytirilgan nusxasi emas. So‘nggi yillarda bolalar o‘rtasida dori vositalarining nojo‘ya ta’siri va noto‘g‘ri dozalash natijasida kelib chiqadigan toksik holatlar ko‘paymoqda. Bolalarda dori vositalarining so‘rilishi, taqsimlanishi, metabolizmi va

organizmdan chiqib ketishi (farmakokinetika) ularning yoshiga va a’zolarining rivojlanish darajasiga bog‘liq. Dozani noto‘g‘ri hisoblash nafaqat davolash samarasizligiga, balki jigar va buyrak yetishmovchiligi kabi og‘ir asoratlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, pediatriyada individual dozalash tamoyillarini qo‘llash zamonaviy tibbiyotning dolzarb masalasidir.
Tekshirish usullari: Tadqiqot pediatr-farmakologlarning tavsiyalari, bolalarda dori vositalarining biotransformatsiyasi bo‘yicha klinik kuzatuvlar va dozalashning matematik modellari asosida olib borildi. Shuningdek, bolalar yoshiga ko‘ra farmakokinetik ko‘rsatkichlar (so‘rilish tezligi, oqsil bilan bog‘lanish darajasi, buyrak klirensi) tahlil qilindi. Tadqiqotda dozani hisoblashning turli usullari: tana vazniga ko‘ra (mg/kg), tana yuzasiga ko‘ra va yoshga ko‘ra formulalari qiyosiy o‘rganildi.
Natija: Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda jigar fermentlari to‘liq shakllanmaganligi sababli dori vositalarining yarim parchalanish davri uzayadi. Masalan, xloramfenikol chaqaloqlarda "kulrang sindrom"ni keltirib chiqarishi mumkin.Farmakokinetik farqlar: Bolalarda umumiy tana suvi miqdori yuqori (80% gacha), bu gidrofil dorilarning taqsimlanish hajmiga ta’sir qiladi.Dozalash metodikasi: Faqatgina yoshga qarab dozalash ko‘p hollarda xatolikka yo‘l qo‘yadi. Eng aniq usul — tana yuzasiga qarab hisoblash ekanligi aniqlandi, chunki bu usul organizmdagi metabolik jarayonlar va buyrak filtratsiyasi tezligiga ko‘proq mos keladi.Xatolar tahlili: Klinik holatlarda dozani hisoblashda vergulning noto‘g‘ri qo‘yilishi (10 baravar farq) eng xavfli xatolik bo‘lib, bu ko‘pincha og‘ir intoksikatsiyaga sabab bo‘ladi. Muhim fakt: Klinik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, pediatr amaliyotidagi dorilar bilan bog‘liq xatolarning 15-20% matematik hisob-kitoblar, xususan, o‘nlik kasrlar (vergul) bilan bog‘liq xatolar hissasiga teng.
Xulosa: Bolalar farmakologiyasida dori vositalarini buyurishda "bolaning biologik yoshi" va "a’zolarining funksional holati" birlamchi mezon bo‘lishi shart. Ratsional farmakoterapiya — bu nafaqat to‘g‘ri dori tanlash, balki uni bolaning individual parametrlariga moslab hisoblashdir. Bolalarda fermentativ tizimlar va ekskretsiya a’zolari (buyraklar) yetilmaganligini hisobga olish toksik asoratlar xavfini 40-50% ga kamaytiradi. Pediatriyada dozalashning avtomatlashtirilgan kalkulyatorlaridan foydalanish va tana yuzasi maydonini (BSA) hisobga olish davolash xavfsizligini ta’minlashning eng samarali yo‘lidir. Tana yuzasiga qarab (m^2): Eng xavfsiz va aniq usul deb topildi. Tana yuzasi maydoni organizmdagi metabolik faollik va qon aylanish hajmi bilan bevosita korrelyatsiya qiladi.

ZAMONAVIY TIBBIYOTDA ETIL SPIRTINING QUVVATINI ANIQLASH VA UNING AHAMIYATI

Abdulloh Ubaydullayev Anvarjon o'g'li
Samarqand davlat tibbiyot universiteti 407 guruh talabasi
Samarqand, O‘zbekiston
Ilmiy rahbar: st-assistent. Ibragimov I. O'.

Ishning maqsadi: Etil spirtining (etanolning) farmatsevtik va tibbiy amaliyotda qo‘llanilishida uning quvvatini (konsentratsiyasini) aniqlash usullarini o‘rganish va baholash.
Tekshirish usullari: Tadqiqot davomida laboratoriya sharoitida etil spirtining turli konsentratsiyalari (40%, 70%, 96%) o‘rganildi. Spirt quvvatini aniqlash uchun spirtometr (areometr), distillatsiya va zichlikni aniqlash usullaridan foydalanildi. Har bir namunada o‘lchovlar bir necha marotaba takrorlanib, o‘rtacha natijalar olindi.
Tekshirish natijalari: Tadqiqot natijalariga ko‘ra, spirtometr yordamida olingan natijalar tez va amaliy jihatdan qulay bo‘lsa-da, distillatsiya usuli eng aniq natijalarni berdi. 70% etil spirti antiseptik sifatida eng samarali ekani tasdiqlandi. Yuqori konsentratsiyadagi (96%) spirt mikroorganizmlarni tezda inaktivatsiya qilsa-da, ba’zi hollarda oqsillarni tez denaturatsiya qilib, yuzaki ta’sir bilan cheklanib qolishi mumkinligi aniqlandi.
Xulosa: Etil spirtining quvvatini to‘g‘ri aniqlash tibbiyot va farmatsevtikada juda muhim hisoblanadi. To‘g‘ri konsentratsiya tanlanishi antiseptik samaradorlikni oshiradi va davolash jarayonini optimallashtiradi. Ayniqsa, 70% etil spirti klinik amaliyotda eng maqbul variant

hisoblanadi. Shuningdek, etil spirti dezinfeksiya, ekstraksiya va dori vositalari tayyorlashda keng qo‘llaniladi.

JIGAR KASALLIKLARI BILAN OG‘RIGAN BOLALARNI DAVOLASHDA GALSTENA PREPARATINI QO‘LLASH

[1]Uroqova Uljonoy Juraqul qizi, [2]Sattorova Shaxlo Umidjon qizi
Biotexnologiya, injinering va farmatsiya fakulteti
[1]503-guruh talabasi, [2]502- guruh talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Samarqand, O‘zbekiston
Ilmiy rahbar: assistent Nuraliyeva R.M.

Tadqiqot materiali va usullari. Galstena – o‘simlik kelib chiqishiga ega bo‘lgan kombinatsiyalangan preparat bo‘lib, uning tarkibiga sut qushqo‘nmasi ekstrakti, momaqaymoq va poklik ekstraktlari kiradi. U o‘t haydovchi, spazmolitik va yallig‘lanishga qarshi ta’sir ko‘rsatadi, katta yoshdagi bolalarda o‘t pufagida tosh hosil bo‘lishining oldini oladi. Preparatni qo‘llashning asosiy ko‘rsatmalari jigar kasalliklarining o‘tkir va surunkali shakllaridir.

5 yoshdan 12 yoshgacha bo‘lgan 18 nafar bola jigar kasalliklari, o‘tkir va surunkali gepatit, gepatoz, surunkali pankreatit bilan kasallangan holda tekshirildi. Bemorlarga gepatoprotektorlarni qo‘llashni o‘z ichiga olgan kompleks terapiya o‘tkazildi. Barcha bemorlar ikki guruhga bo‘lindi. 1-guruhga 8 nafar, 2-guruhga 10 nafar bemor kiritildi. 1-guruhdagi bemorlar Galstena tomchilarini kuniga 3 marta, ovqatdan 30 daqiqa oldin yoki 1 soatdan keyin, 1 osh qoshiq suvda suyultirilgan 5-7 tomchidan og'iz orqali qabul qilishdi. Davolash uzoq muddatli bo'lib, 3 oydan ortiq davom etdi. Ikkinchi guruhda Essentiale va Cholenzym ishlatilgan. Bolalarning ahvoli va terapiya samaradorligi doimiy ravishda kuzatilgan. Terapiya samaradorligi kasallikning klinik simptomlari dinamikasi va ularning yo‘qolish muddatlari bo‘yicha baholandi. Bular quyidagilarni o‘z ichiga oladi: lanjlik, tez charchash, holsizlik, uyquning buzilishi (kunduzi uyquchanlik, kechasi uyqusizlik), asabiylashish, o‘ng qovurg‘a ostida og‘riq va og‘irlik hissi, ko‘ngil aynishi, qusish, qorin og‘riqlari, najas buzilishlari.

Tadqiqot natijalari. 1-guruhdagi bolalarda Galstena preparati qo‘llanganda kasallik belgilarining ijobiy dinamikasi tezroq kuzatildi. O‘ng qovurg‘a ostidagi og‘riq va og‘irlik hissi, ko‘ngil aynishi, qusish, qorin og‘riqlari, najas va uyqu buzilishlari preparat qabulining 8–9 kunida yo‘qolib bordi. 2-guruh bemorlarida esa ahvolning yaxshilanishi faqat 12-14-kunlarda kuzatildi. Bundan tashqari, jigar fermentlari, bilirubin, oqsil, oqsil fraksiyalari va boshqa ko‘rsatkichlarni aniqlashni o‘z ichiga olgan qonning biokimyoviy tahlillarini o‘tkazishda galstena preparatini qabul qilgan bolalarda ushbu ko‘rsatkichlar 6-7-kunda yaxshilangan. Essensiale va xolenzim qabul qilgan bemorlar guruhida qonning biokimyoviy ko‘rsatkichlari davolashning 10-12-kunida normallashdi. Aniqlanishicha, kasallik ko‘rinishlarining ijobiy dinamikasi 1-guruh (8 nafar bola) bemorlarida galstena preparati buyurilganida, 2-guruh (10 nafar bola) bemorlarida essensiale, xolenzim qabul qilganidan ko‘ra biroz tezroq kuzatilgan.

Xulosa. Galstena jigar hujayralarini himoya qiladi, normal konsistensiyali safro hosil bo‘lishiga yordam beradi, spazmlarni bartaraf etish va jigar sohasidagi og‘riqni yengillashtirish xususiyatiga ega. Gepatitlarni davolashda, jigar hujayralarining shikastlanishining oldini olishda, antibiotiklar, viruslarga qarshi, og‘riq qoldiruvchi, yallig‘lanishga qarshi va boshqa gepatotoksik preparatlarni qo‘llashda jigarni himoya qilish va tiklash uchun qo‘llaniladi. Galstenni bolalarda o‘tkir va surunkali jigar kasalliklarini davolashga kiritish bemorlarning hayot sifati yaxshilanishi bilan bog‘liq holda maqsadga muvofiqdir. Galstena o‘zining nojo‘ya ta’sirlari (preparat tarkibiy qismlariga allergiya bundan mustasno), nojo‘ya ta’sirlari yo‘qligi va uni yetilmagan organizmga zarar yetkazmasdan bolalarda qo‘llash mumkinligi tufayli eng yaxshi dorilar ro‘yxatida birinchi o‘rinda turadi. Uning yagona kamchiliklari - murosasizlik rivojlanishi ehtimoli va nisbatan yuqori narxidir.

ANAFILAKTIK SHOK VA UNING TURLARI.

Xabibullayev Shaxboz Sabohiddin o'g'li
Ilmiy rahbar:*Yo'ldosheva Gulsara Bahriddinovna*
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, Samarqand, O'zbekiston

Ishning maqsadi: Anafilaktik shokning kelib chiqish mexanizmlarini, uning klinik ko'rinishlari va turlarini o'rganish hamda zamonaviy farmakologik davolash usullarining samaradorligini ilmiy jihatdan tahlil qilish.

Tadqiqot materiallari va usullari: Mazkur tadqiqotda Anaphylactic shock holatiga oid zamonaviy ilmiy manbalar, farmakologiya darsliklari va klinik tavsiyalar o'rganildi. Tadqiqot davomida quyidagi usullardan foydalanildi: ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, klinik holatlarni taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish. Shuningdek, Epinephrine, Prednisolone va Diphenhydramine kabi dori vositalarining ta'sir mexanizmlari o'rganildi.

Tadqiqot natijalari: Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, Anaphylactic shok – bu organizmning allergenlarga nisbatan tez va og'ir kechuvchi tizimli reaksiyasi bo'lib, hayot uchun xavfli hisoblanadi. Anafilaktik shokning rivojlanishida immun tizimning IgE orqali vositachilangan reaksiyalari muhim rol o'ynaydi. Natijada gistamin va boshqa mediatorlar ajralib chiqib, quyidagi o'zgarishlarga olib keladi:qon tomirlar kengayishi (vazodilatatsiya), arterial bosimning keskin pasayishi, Bronxospazm, nafas yetishmovchiligi.

Anafilaktik shok quyidagi turlarga bo'linadi: Tipik (klassik) shakli – umumiy allergik simptomlar bilan kechadi, Asfiktik shakli – nafas yo'llari zararlanishi ustun, Gemodinamik shakli – qon aylanish buzilishlari ustun, Serebral shakli – markaziy nerv tizimi belgilar ustun, Farmakologik jihatdan eng samarali davo vositasi Epinephrine hisoblanadi. U: qon bosimini oshiradi, bronxlarni kengaytiradi, allergik mediatorlar ajralishini kamaytiradi.Qo'shimcha ravishda: Prednisolone yallig'lanishni kamaytiradi, Diphenhydramine gistamin ta'sirini bloklaydi.

Xulosa: Anafilaktik shok tez rivojlanadigan va hayot uchun xavfli holat bo'lib, uni o'z vaqtida aniqlash va to'g'ri davolash muhim ahamiyatga ega. Farmakologik jihatdan Epinephrine birinchi tanlov preparati hisoblanadi va uni o'z vaqtida qo'llash bemor hayotini saqlab qolishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.Shuningdek, glukokortikoidlar va antigistamin preparatlar kompleks davolashda muhim o'rin egallaydi.

FERMENTLAR VA ULARNING SANOAT HAMDA TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI

Xalilova Zarina Ziyodullo qizi
SamDTU Biotexnologiya, injenering va farmatsiya fakulteti 306 guruh talabasi
Ilmiy rahbar: N.K.Murtazayeva - Samarqand davlat tibbiyBiologik kimyo kafedrasi assistenti.

Ishning maqsadi: Fermentlar tirik organizmlardagi barcha biokimyoviy jarayonlarni tezlashtiruvchi biologik katalizatorlar hisoblanadi. Ular yuqori spesifiklikka ega bo'lib, ma'lum bir substratga ta'sir ko'rsatadi va reaksiyalarni bir necha marta tezlashtiradi. Zamonaviy biokimyoda fermentlar nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Sanoat sohasida fermentlar oziq-ovqat ishlab chiqarishda, ayniqsa non, pivo va sut mahsulotlari tayyorlashda keng qo'llaniladi. Masalan, amilaza va proteaza fermentlari xom ashyoni qayta ishlashda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, tekstil va yuvish vositalari sanoatida ham fermentlar qo'llanilib, energiya tejash va ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi.

Materiallar va usullar: Tezisni tayyorlashda zamonaviy ilmiy adabiyotlar, tibbiy maqolalar, xalqaro jurnallar hamda biokimyo va molekulyar biologiya darsliklari nazariy jihatdan tahlil qilindi.

Natijalar: Fermentlar (enzimlar) tirik organizmlarda sodir bo'ladigan biokimyoviy reaksiyalarni yuqori tezlikda amalga oshirishni ta'minlovchi biologik katalizatorlardir. Ular asosan oqsil tabiatli bo'lib, yuqori darajadagi spesifiklik va samaradorlik bilan ajralib turadi.

Fermentlar ta’sirida reaksiyalar energiyasi kamayadi va fiziologik sharoitda tez amalga oshadi. Fermentlar faoliyati enzyme kinetics qonunlariga bo‘ysunadi va ularning aktivligi muhit sharoitiga (pH, harorat, substrat konsentratsiyasi) bog‘liq. Shu jihatdan fermentlar biotexnologiya va sanoatda keng qo‘llanilib, yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi. Tibbiyot sohasida esa fermentlar diagnostika va davolashda muhim o‘rin tutadi. Qondagi ayrim fermentlar miqdorini aniqlash orqali turli kasalliklar, jumladan, jigar va yurak hastaliklarini tashxis qilish mumkin. Bundan tashqari, fermentlar dori vositasi sifatida ham ishlatiladi. Masalan, ferment preparatlari hazm qilish tizimi kasalliklarida samarali qo‘llaniladi. Sanoat sohasida fermentlardan foydalanish zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalarining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Oziq-ovqat sanoatida amilaza, lipaza va proteaza kabi fermentlar non, pivo, yogurt va sir mahsulotlarini tayyorlashda qo‘llaniladi. Shu bilan birga, yuvish vositalari ishlab chiqarishda fermentlar organik iflosliklarni parchalash orqali mahsulot sifatini oshiradi. To‘qimachilik va qog‘oz sanoatida esa fermentlar ekologiyaga kam zarar yetkazuvchi texnologiyalarni joriy etish imkonini yaratadi. Tibbiyot sohasida fermentlar muhim diagnostik va terapevtik ahamiyatga ega. Qondagi fermentlar faolligini aniqlash orqali turli patologik holatlarni, jumladan, yurak infarkti, jigar kasalliklari va mushak shikastlanishlarini erta bosqichda aniqlash mumkin. Shu bilan birga, fermentlar asosida yaratilgan preparatlar hazm tizimi kasalliklari, tromboz va yallig‘lanish jarayonlarini davolashda qo‘llaniladi. Hozirgi kunda fermentlar biotexnologiya va gen muhandisligi yordamida sun’iy ravishda olinib, ularning barqarorligi va faolligi oshirilmoqda. Bu esa fermentlarning qo‘llanilish doirasini yanada kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, fermentlar zamonaviy biokimyo, sanoat va tibbiyotning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ulardan samarali foydalanish iqtisodiy samaradorlikni oshirish va inson salomatligini mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etadi. Fermentlar zamonaviy sanoat va tibbiyotning ajralmas qismi bo‘lib, ulardan samarali foydalanish yangi texnologiyalar va davolash usullarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

GIPOLAKTATSIYA HOLATIDA SHIVIT URUG‘INING SUT AJRALISHIGA TA’SIRINI SICHQONLARDA EKSPERIMENTAL BAHOLASH

Magistrant: **O’. Y. Xamidova**
Ilmiy rahbar: N. S. Bozorova
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Samarqand, O‘zbekiston

Tadqiqot maqsadi:Mazkur tadqiqotning maqsadi eksperimental gipolaktatsiya modeli sharoitida Anethum graveolens (shivit urug‘i) ning laktatsiya jarayoniga ta’sirini kompleks baholashdan iborat. Xususan, shivit urug‘i asosida tayyorlangan preparatning sut bezlarining sekretor faoliyatiga, prolaktin bilan bog‘liq fiziologik mexanizmlarga hamda nasl (bolalar)ning o‘sish va rivojlanish ko‘rsatkichlariga ta’sirini aniqlash ko‘zda tutilgan. Shuningdek, ushbu o‘simlikning biologik faol komponentlari hisobiga laktatsiyani rag‘batlantiruvchi samaradorligi va uning xavfsizlik darajasini eksperimental sharoitda ilmiy asoslash ham tadqiqotning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Material va tadqiqot usullari:Tadqiqot laboratoriya sichqonlarida olib borildi. Gipolaktatsiya holati sun’iy ravishda modellashtirildi. Hayvonlar nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhiga Anethum graveolens urug‘i asosida tayyorlangan standartlashtirilgan preparat ma’lum dozada qo‘llanildi, nazorat guruhiga esa faol modda berilmadi. Laktatsiya jarayoni ko‘rsatkichlari sifatida bolalar massasining ortishi, yashovchanlik darajasi hamda sut bezlarining funksional holati baholandi. Olingan natijalar statistik usullar yordamida tahlil qilindi ($p < 0,05$).

Tadqiqot natijalari: Tajriba guruhida Anethum graveolens urug‘i qo‘llanilishi natijasida laktatsiya faoliyatining sezilarli darajada oshishi kuzatildi. Xususan, bolalar massasining ortishi, yashovchanlik ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi va sut bezlarining sekretor faolligining ortishi

aniqlandi. Ushbu ta’sir shivit urug‘i tarkibidagi efir moylari, flavonoidlar va fenolik birikmalar kabi biologik faol moddalar bilan bog‘liq bo‘lib, ular prolaktin bilan bog‘liq mexanizmlarni rag‘batlantirishi mumkin.

Xulosa:Anethum graveolens urug‘i gipolaktatsiya holatida yaqqol laktogen ta’sir ko‘rsatadi, bu esa eksperimental jihatdan tasdiqlandi. Olingan natijalar shivit urug‘i asosidagi vositalarni gipolaktatsiyani tuzatishda samarali va xavfsiz fitoterapevtik vosita sifatida qo‘llash istiqbolli ekanligini ko‘rsatadi hamda kelgusida klinik tadqiqotlar o‘tkazishni talab etadi.

TEMIR TANQISLIGI ANEMIYASIDA TEMIR PREPARATLARINING FARMAKOKINETIK VA FARMAKODINAMIK XUSUSIYATLARINI QIYOSIY TAHLILI

Xamrayeva Marjona Shovkat qizi Samarqand davlat tibbiyot universiteti, 3-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Istamova Sitora N. assistent

Maqsad: Temir tanqisligi anemiyasida qo‘llaniladigan temir preparatlarining farmakokinetik va farmakodinamik xususiyatlarini chuqur o‘rganish hamda ularning klinik samaradorligi va xavfsizlik profilini qiyosiy baholash.

Material va usullar: Tadqiqotda temir tanqisligi anemiyasini davolashda keng qo‘llaniladigan temir (II) sulfat, temir (III) gidroksid-polimaltoza kompleksi va parenteral temir preparatlarining farmakologik xususiyatlari kompleks tahlil qilindi. Ishda zamonaviy ilmiy adabiyotlar, klinik protokollar va eksperimental kuzatuv natijalari asos qilib olindi. Preparatlarning biofoydalanish darajasi, enterotsitlarda so‘rilish mexanizmi, gepcidin orqali regulyatsiyasi, transferrin bilan bog‘lanishi va retikuloendotelial tizimdagi taqsimlanishi o‘rganildi. Shuningdek, gemoglobin darajasining tiklanish tezligi va nojo‘ya ta’sirlar spektri baholandi.

Natijalar: Tahlil natijalari temir (II) tuzlarining yuqori eruvchanligiga qaramay, ularning so‘rilishi gepcidin darajasiga bog‘liq holda sezilarli darajada cheklanishini ko‘rsatdi. Ushbu preparatlar erkin temir ionlari hosil qilishi sababli lipid peroksidlanishini kuchaytiradi va oshqozon-ichak tizimi tomonidan nojo‘ya reaksiyalarni yuzaga keltiradi. Temir (III) gidroksid-polimaltoza kompleksi esa makromolekulyar tuzilishga ega bo‘lib, fiziologik mexanizmlar orqali nazoratli so‘riladi va erkin radikal hosil bo‘lishini kamaytiradi. Parenteral temir preparatlari, xususan temir karboksimaltoza, qisqa muddatda temir zaxirasini tiklab, gemopoezni faollashtiradi va og‘ir anemiya holatlarida yuqori klinik samaradorlik ko‘rsatadi.

Xulosa: Temir preparatlarini tanlashda ularning farmakokinetik va farmakodinamik xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Yengil va o‘rta darajadagi anemiyada peroral preparatlar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq bo‘lsa, so‘rilish buzilishlari yoki nojo‘ya ta’sirlar mavjud bo‘lgan holatlarda kompleks va parenteral shakllarga ustunlik berish lozim. Individualizatsiyalangan farmakoterapiya yondashuvi davolash samaradorligini oshirib, asoratlar xavfini kamaytiradi..

ZOTILJAM KASALLIGINING KLINIK XUSUSIYATLARI VA DAVOLASH TAMOYILLARI

Xasanov Adxam Utkirovich
Biotexnologiya, injineriya va farmatsiya fakulteti 103 guruh talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, Uzbekiston.
Ilmiy rahbar: assistent Normurodova Soxiba Mallayevna

Maqsadi: Samarqand shahar Sog’liqni saqlash bo’limi Markaziy shifoxonasi 2-terapiya bo`limida zotiljam kasalligi bilan davolanayotgan bemorlarda klinik, laborator-instrumental va davolash samoradorligini o`rganish.

Material va tadqiqot usullari: Ushbu ilmiy tadqiqotda shifoxonadan tashqari zotiljam bilan xastalangan 60 ta bemor olindi. Ilmiy tadqiqot SamShSSBMSh 2- terapiya bo’limida davolanayotgan bemorlarda olib borildi. Tadqiqotda qamrab olingan bemorlarda shifoxonadan tashqari zotiljam(ShTZ) og’ir darajasi 42 nafar bemorda, 13 nafarida ShTZ o’rta og’ir darajasi, 5 nafar kasalda yengil darajasi aniqlandi. Bemorlar orasida 32 nafar ayol va 28 erkak bo`lib,

yoshi 24 dan 69 gacha tashkil qildi. Barcha bemorlarga qon umumiy tahlili, qon bioximik tahlili, Protrombin indeksi va vaqti, balg'am tahlili, ko`krak qafasi umumiy rentgenografiyasi, kompyuter tomografiya va zarur bo`lgan barcha tahlillar o`tkazildi.

Tadqiqot natijalari. Bemorlarning aksariyatida havf omillari aniqlandi, ya`ni 17 bemorda – tamaki chekish, 8 bemorda - alkogolni ko`p iste`mol qilish, 15 bemorda - sovuq havo bilan bog`liqlik, 36 bemorda otkazilgan gripp infeksiyasi bilan bog`liqligi aniqlandi. Aksariyat bemorlarda komorbid kasalliklardan 17 bemorda surunkali obstruktiv bronxit, 7 bemorda bronxial astma, 18 holatda QD, 34 holatda Yurak ishemik kasalligi, 12 holatda Gipertoniya kasalligi, 5 nafar kasalda surunkali piyelonefrit aniqlandi. ShTZ hastaligining kechish hususiyatlari hamroh kasallik va asoratlariga bog'liq holda namoyon bo'ldi. Bemorlarda nafas etishmovchiligi II, III darajasi, o`tkir chap qorincha etishmovchiligi 8 nafar bemorda, plevrit 42 holatda, aritmiyalardan ekstrasistoliya 5 holatda, bo'lmachalar fibrilyatsiyasi 3 nafar bemorda kuzatildi. Ko'krak qafasi rentgenogrammasida 47 holatda o`pkalarning ikki tomonlama zararlanishi, 15 nafar bemorda o'ng o'pka yuqori va pastki sohalarining zararlanishi, 5 holatda bronxopnevmoniya aniqlandi. Aksariyat bemorlarda qon umumiy tahlilida: anemiya belgilari, leykositoz, qon ivish vaqti (Suxaryov bo'yicha) ortishi, eritrositlar cho'kish tezligining oshishi va ba'zi bemorlarda leykopeniya belgilari aniqlandi.

Davo muolajalari Milliy protokol (2025) asosida olib borildi. Og`ir darajadagi ShTZni davolashda sefaperazon sulbactam 1,5 "-" sinamadan so'ng, novokain eritmasi bilan, sefalosporin IV avlodi preparatlari, Levofloksatsin 100,0 eritmasi, shu bilan bir qatorda glyukokortikosteroidlar, bronxodilatatorlar, balg'am ko'chiruvchi dori vositalari, vitamin preparatlari, kardiometaboliklar, antikoagulyantlar tavsiya qilindi.

Xulosa: Ilmiy tadqiqotda olingan natijalarga ko'ra, zotiljam kasalligi komorbid holatlardan - YuIK, QD, postkovid sindrom mavjud bemorlarda, kasallikning og'ir darajasida kechishi aniqlandi. Takidlash joizki, zotiljam kasalligida etiologik qo'zg'atuvchilarda bir qator antibiotiklarga nisbatan sezgirlik pasaygan. O`z vaqtida kompleks davo muolajalarining o'tkazilishi bemorlarning umumiy ahvolining yaxshilanishiga olib keldi.

SALVIA O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI.

Xasanov Adham O'tkirovich
Biotexnologiya injinering va farmatsiya fakulteti 103-guruh talabasi.
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti
Samarqand, O'zbekiston
Ilmiy rahbar: ass. Oltiboyeva Mavsuma G'ulom qizi

Kirish. *Salvia submutica* yalpizdoshlar oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik bo'lib O'zbekiston sharoitida Nurota tog'larida uchraydi.Butun dunyoda iqlimning global o'zgarishi natijasida ushbu o'simlik kamayib boorish arafasida turibdi, O'simlik tabiiy tur bo'lib, haligacha madaniylashtirilmagan, lekin qiziqarlisi uning tarkibida dorivor ,,lagoxilin" moddasi bo'lib, u sof holda ajratib olinganda qon tomirni kengaytiruvchi ta'sirga ega bo'ladi. Shuning uchun tibbiyotda uni gipertoniyada ishlatish samarali bo'ladi.

Ishning maqsadi. *Salvia submutica* o'simligining gipertoniya kasalligidagi samaradorligini aniqlash.

Tekshirish usullari. Samarqand tibbiyot Unversitetining birinchi klinikasi terapiya bo'limidag**i** Gipertoniy kasalligi bilan og'rigan 50 ta, 40-yoshdan 60-yoshgacha bo'lgan bemor tekshirishdan o'tkazilgan. Bemorlarning 24 (48%) nafari erkak, 26 (52%) nafari ayol. Asosiy guruhdagi bemorlarga standart davolash vositasi bilan birgalikda ushbu o'simlik damlamasi kuniga ikki mahaldan 7 kun davomida buyurildi.

Tekshirish natijalari. Asosiy guruhdagi bemorlar ya'ni salviya o'simligi damlamasini istemol qilgan bemorlarning 40 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan qismi, 5 kun davomida qon bosimlari meyorlashib 120/80±0,5 mm natija, 50 yoshdan 60 yoshgacha esa 130-90±10,0 mm natijani ko'rsatdi. Standart davolashdagi bemorlarning qon bosimi 5 kun emas, 7 kun davomida meyorlashib 120-80 mm ni ko'rsatdi.

Xulosa. Salviya o'simligining damlamasi gipertoniya bilan kasallangan bemorlarga qo'shimcha ravishda berib borilishi, ularning tezroq sog'ayishiga va statsionar davolanish muddatini kamayishiga olib keladi.

VITAMINLAR VA MIKROELEMENTLAR BILAN BOYITILGAN TABIIY QO'SHIMCHALARNING IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASHDAGI ROLI

XOLBOYEV JAVOHIR RO'ZIBOY O'G'LI
Biotexnologiya,injiniring va farmatsiya fakulteti 406-guruh talabasi
Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O`zbekiston

Ilmiy rahbar: ass. Axmedov B. XIshning maqsadi: Vitaminlar va mikroelementlar bilan boyitilgan tabiiy qo'shimchalarni qo'llash orqali immunitet tizimini mustahkamlash va shamollash kasalliklarining oldini olish samaradorligini baholash.

Tekshirish usullari: Tadqiqot 40 nafar sog'lom va immuniteti past bo'lgan 20–55 yoshdagi ishtirokchilar ustida o'tkazildi. Bemorlar tasodifiy ravishda ikki guruhga ajratildi. **Asosiy guruh (20 nafar):** 10 kun davomida kuniga 2 mahal tabiiy vitamin va mikroelementlarga boy qo'shimchalarni iste'mol qildi. **Nazorat guruhi (20 nafar):** qo'shimchalarsiz faqat odatdagi parhez va sog'lom turmush tarzini davom ettirdi. Tadqiqot davomida ishtirokchilarning immunitet ko'rsatkichlari (limfotsitlar soni, immunoglobulin darajasi), umumiy holati va shamollashga moyilligi monitoring qilindi.

Tekshirish natijalari: Asosiy guruhda immunitet ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilandi: limfotsitlar soni o'rtacha 18%, immunoglobulin darajasi 15% ga oshdi. Shamollash holatlari nazorat guruhiga nisbatan 40% kamroq kuzatildi. Ishtirokchilar umumiy ahvol va energiya darajasida yaxshilanishni bildirgan. Nojo'ya ta'sirlar deyarli qayd etilmadi.

Xulosa: Olingan natijalar ko'rsatadiki, vitaminlar va mikroelementlar bilan boyitilgan tabiiy qo'shimchalar immunitet tizimini samarali mustahkamlaydi, shamollash kasalliklariga chidamlilikni oshiradi va umumiy sog'lomlikni yaxshilaydi. Shu bois, bunday qo'shimchalarni zamonaviy tibbiyot va profilaktik parhez amaliyotida tavsiya etish maqsadga muvofiqdir.

ANIS URUG'INING (ANISUM VULGARE) GIPOGALAKTIYADA SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH

Xolmatova Madinabonu Akram qizi
1- kurs magistratura talabasi,
Farmatsevtika ishini tashkil qilish va boshqarish fakulteti Samarqand Davlat Tibbiyot universiteti Samarqand, O'zbekiston
Ilmiy rahbar : Phd. N.S.Bozorova

Tadqiqotning maqsadi. Anis urug'ining (Anisum vulgare) gipogalaktiya holatida laktatsiya jarayoniga ta'sirini ilmiy manbalar asosida tahlil qilish va uning samaradorligini baholash.

Materiallar va usullar. Tadqiqot davomida ilmiy maqolalar, farmakologik manbalar, fitoterapiyaga oid adabiyotlar hamda xalq tabobati tajribasi o'rganildi. Olingan ma'lumotlar tahlil, taqqoslash va umumlashtirish usullari yordamida qayta ishlanib, anis urug'ining farmakologik ta'siri baholandi.

Tadqiqot natijalari . Anis urug'i tarkibida ko'plab biologik faol moddalar mavjud. Uning asosiy komponentlari qatoriga efir moylari, anetol, flavonoidlar, organik kislotalar va mikroelementlar kiradi. Ayniqsa anetol moddasi fiziologik faol komponent bo'lib, u organizmda gormonal jarayonlarga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, anis urug'i quyidagi farmakologik xususiyatlarga ega:

• spazmolitik ta'sir
• yengil antiseptik ta'sir
• ovqat hazm qilishni yaxshilovchi xususiyat
• laktatsiyani rag'batlantiruvchi ta'sir

Anis tarkibidagi efir moylari ayol organizmida sut bezlari faoliyatini faollashtirishi mumkin. Natijada ko'krak bezlarida sekretsiya jarayoni kuchayib, sut ishlab chiqarilishi ortadi. Ayrim tajriba tadqiqotlari

anis ekstrakti qo‘llanilganda laktatsiya jarayonining yaxshilanishini ko‘rsatgan. Fitoterapiyada anis urug‘i odatda damlama yoki choy ko‘rinishida qo‘llanadi. Ushbu o‘simlik tabiiy kelib chiqishga ega bo‘lgani sababli ko‘pchilik sintetik preparatlarga nisbatan xavfsizroq hisoblanadi. Shu bilan birga, anisni me’yorida va mutaxassis tavsiyasi asosida qo‘llash tavsiya etiladi. Gipogalaktiya muammosini hal qilishda anis urug‘i iqtisodiy jihatdan ham qulay hisoblanadi. U oson yetishtiriladi, arzon va keng tarqalgan o‘simlik bo‘lib, farmatsevtik hamda fitoterapevtik amaliyotda qo‘llash imkoniyatini kengaytiradi.

Xulosa . O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, anis urug‘i biologik faol moddalarga boy bo‘lib, laktatsiya jarayonini qo‘llab-quvvatlovchi xususiyatlarga ega. Uning tarkibidagi efir moylari va anetol moddasi sut bezlari faoliyatini rag‘batlantirishda muhim rol o‘ynashi mumkin.

Shu sababli anis urug‘i gipogalaktiya holatida qo‘shimcha fitoterapevtik vosita sifatida qo‘llanishi mumkin. Biroq uning klinik samaradorligini yanada aniqroq baholash uchun qo‘shimcha eksperimental va klinik tadqiqotlar o‘tkazish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

GIPERTONIK KRIZ VA UNI DORI VOSITALARI BILAN BOSHQARISH TAMOYILLARI.

Xudoyberdiyeva Gulsanam Nasimjon qizi.
Eshniyozova Nilufar Asadulla qizi
Sharipova Moxinabonu Utkurovna
Davolash fakulteti 213-330 guruh va 507- guruh farmatsiya fakulteti talabalari.
Samarqand davlat tibbiyot universiteti,
Samarqand, Uzbekistan.
Ilmiy raxbar: ass G.B. Yo’ldosheva

Ishning maqsadi:: Gipertoniya bugungi kunda eng keng tarqalgan yurak-qon tomir kasalliklaridan biri hisoblanadi. Gipertonik kriz esa arterial qon bosimining to‘satdan va keskin oshishi bilan kechuvchi, hayot uchun xavfli shoshilinch holatdir. Ushbu holat miya, yurak, buyrak va ko‘z kabi muhim a’zolar faoliyatiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Ko‘pincha dorilarni o‘z vaqtida qabul qilmaslik, stress, noto‘g‘ri ovqatlanish (tuzli ovqatlar) va spirtli ichimliklar iste’moli kriz rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Shu sababli gipertonik krizni erta aniqlash va to‘g‘ri boshqarish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi: Gipertonik kriz rivojlanishining klinik va patofiziologik xususiyatlarini o‘rganish hamda bemorlarda shoshilinch yordam ko‘rsatish samaradorligini tahlil qilish.

Natijalar: Gipertonik krizda arterial qon bosimi odatda 180/120 mmHg va undan yuqori darajaga ko‘tariladi, ba’zi hollarda esa pastroq ko‘rsatkichlarda ham og‘ir simptomlar bilan namoyon bo‘lishi mumkin. Ushbu holatda sistolik va diastolik bosim keskin oshib, tomir devorlariga zarar yetkazadi. Klinik jihatdan kriz 2 turga bo‘linadi: asoratlanmagan (organlar zararlanmagan) va asoratlangan (miya, yurak, buyrak zararlanishi, insult va infarkt xavfi yuqori).Amaliy kuzatuvlar davomida 10 nafar bemor bilan ishlash natijasida 6 tasida qon bosimi 220/120 va 200/120 mmHg, qolganlarida esa 190/110 va 185/110 mmHg atrofida bo‘lganligi aniqlandi. Bemorlarga birinchi yordam sifatida tinch holatga keltirish (yotqizish yoki yarim o‘tirgan holat) qo‘llanildi. Davolashda asosan kaptopril va nifedipin preparatlaridan foydalanildi. Qon bosimi har 15–20 daqiqada nazorat qilindi. Natijada bemorlarda qon tomirlar kengayishi, yurakka tushadigan yuklamaning kamayishi, asabiylik va bosh og‘rig‘ining pasayishi kuzatildi. Ayrim bemorlarda to‘liq tiklanish uchun qo‘shimcha vaqt talab etildi.

Xulosa: Gipertonik kriz — bu shoshilinch tibbiy yordam talab qiladigan og‘ir holat bo‘lib, qon bosimining keskin oshishi bilan tavsiflanadi. Uni davolashda qon bosimini birdaniga emas, balki bosqichma-bosqich pasaytirish muhimdir. O‘z vaqtida va to‘g‘ri ko‘rsatilgan yordam asoratlarning oldini olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

BOLALARDA GELMINT INVAZIYALARINI DAVOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Xusanov Dilshod, Haydarov Umid
Biotexnologiya, injinerring va farmatsiya fakulteti 503-guruh talabasi
Rahbar: assistent Muradova Railya Rustamovna

Tadqiqot maqsadi. Turli yosh guruhlaridagi bolalarda zamonaviy degelmintizatsiya sxemalarining samaradorligi va xavfsizligini o‘rganish, shuningdek, qo‘shimcha sindromatik terapiyaning davolash jarayonida nojo‘ya ta’sirlarni kamaytirishdagi rolini baholash.

Tadqiqot materiallari va usullari. Mazkur tadqiqot Samarqand viloyatida joylashgan klinika muassasida (NII meditsinskoy parazitologii) o‘tkazildi. Tadqiqotda 3 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan, gelmintoz tashxisi laborator va klinik usullar yordamida tasdiqlangan 80 nafar bemorning kasallik tarixlari retrospektiv tarzda tahlil qilindi. Bemorlarni tanlashda ularning umumiy holati, yoshi, gelmintoz turi hamda hamroh kasalliklari inobatga olindi. Gelmintoz turlari quyidagicha taqsimlandi: enterobioz — 60%, askaridoz — 35%, toksokaroz — 5%. Tashxis qo‘yishda najas tekshiruvi, serologik usullar va klinik simptomatika asos qilib olindi. Bemorlar qo‘llanilgan davolash tamoyiliga ko‘ra ikki guruhga ajratildi: 1-guruh (nazorat guruhi) bemorlari faqat spesifik antigelmint preparatlarini, jumladan albendazol va pirantel qabul qildi; 2-guruh (asosiy guruh) bemorlari esa kompleks terapiya oldi. Ushbu davolash quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oldi: tayyorlov bosqichi (organizmdagi toksinlarni kamaytirish va allergik reaksiyalarni pasaytirish maqsadida sorbentlar hamda antigistamin vositalar qo‘llanildi); asosiy davolash bosqichi (antigelmint preparatlar bilan terapiya); tiklovchi bosqich (ichak mikroflorasini tiklash va hazm jarayonini yaxshilash uchun probiotiklar hamda ferment preparatlari buyurildi). Davolash samaradorligi klinik belgilar dinamikasi, laborator ko‘rsatkichlar hamda qayta tekshiruv natijalari asosida baholandi.

Tadqiqot natijalari. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, davolash samaradorligi va nojo‘ya ta’sirlar chastotasi guruhlar kesimida sezilarli farq qilganligi aniqlandi. Xususan, kompleks davolash olgan 2-guruh bemorlarida dori vositalari bilan bog‘liq intoksikatsiya belgilarining — ko‘ngil aynishi, qorin og‘rig‘i hamda eshakemi kabi allergik reaksiyalarning uchrash chastotasi 1-guruhga nisbatan 2,5 baravar kam qayd etildi. Bundan tashqari, 2-guruh bemorlarida umumiy klinik holatning tezroq yaxshilanishi, ishtaha tiklanishi, dispeptik belgilar kamayishi hamda ichak faoliyatining me’yorlashuvi kuzatildi. Laborator tekshiruvlar natijalari ham ushbu guruhda gelmint tuxumlari va lichinkalarining tezroq yo‘qolishini ko‘rsatdi. 1-guruh bemorlarida esa faqat spesifik terapiya qo‘llanilganligi sababli ayrim hollarda nojo‘ya ta’sirlar ko‘proq uchradi va tiklanish jarayoni nisbatan sekin kechdi. Olingan natijalar kompleks yondashuv asosida olib borilgan davolash usuli nafaqat samarador, balki xavfsizroq ekanligini ko‘rsatdi.

Xulosa. Bolalarda gelmint invaziyalarini davolashda kompleks yondashuvni qo‘llash yuqori klinik samaradorlikka erishish imkonini beradi. Ushbu yondashuv nafaqat asosiy davolash natijalarini yaxshilaydi, balki dori vositalari bilan bog‘liq nojo‘ya ta’sirlar, xususan intoksikatsiya va allergik reaksiyalarni sezilarli darajada kamaytiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, davolash jarayoniga tayyorlov bosqichi (sorbentlar va antigistamin vositalar) hamda tiklovchi bosqich (probiotiklar va ferment preparatlari)ni kiritish bemorlarning umumiy holatini

tezroq barqarorlashishiga, ichak faoliyatining tiklanishiga hamda reabilitatsiya davrining qisqarishiga xizmat qiladi. Shu boisdan klinik amaliyotda bolalarda gelmintozlarni davolashda degelmintizatsiya jarayonini kompleks tarzda olib borish, ya'ni bosqichma-bosqich yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

ZAMONAVIY TERAPIYADA DORI VOSITALARINING FARMATSEVTIK VA FARMAKOLOGIK O'ZARO TA'SIRINING KLINIK AHAMIYATI

Yahyoyeva Firuza Azizovna
Davolash ishi fakulteti 2-kurs talabasi, Samarqand davlat tibbiyot universiteti
Samarqand, O'zbekiston
Ilmiy rahbar: assistent Sh.M. Muxsinova

Tadqiqot maqsadi. Mazkur ishning asosiy yo'nalishi dori vositalarining (DV) farmatsevtik va farmakologik darajadagi o'zaro ta'sir mexanizmlarini kompleks tahlil qilish orqali, amaliy sog'liqni saqlash tizimida kombinatsiyalangan davolash usullarining xavfsizligini ta'minlash va kutilmagan nojo'ya ta'sirlar ehtimolini kamaytirishdan iborat.

Material va usullar. Tadqiqot jarayonida polipragmaziya sharoitida preparatlarning birgalikda qo'llanilishiga doir dolzarb ilmiy ma'lumotlar va zamonaviy klinik ko'rsatmalar tizimli ravishda o'rganildi. Dori vositalarini bevosita infuzion tizimlarda yoki shpritslarda aralashtirish natijasida yuzaga keladigan farmatsevtik o'zaro ta'sirlar, shuningdek, organizm ichidagi farmakokinetik va farmakodinamik jarayonlar tahlil ob'ekti sifatida olindi. Shuningdek, dori vositalarining rasmiy yo'riqnomalari hamda eritmalarning nomutanosibligi tufayli yo'l qo'yilgan tibbiy xatolar statistikasi qayta ko'rib chiqildi.

Tadqiqot natijalari. O'tkazilgan tahlillar shifokorlar amaliyotida qo'llaniladigan dori kombinatsiyalarining taxminan 7% dan 23% gacha bo'lgan qismi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan potentsial xavfga egaligini ko'rsatdi. Ko'p hollarda farmatsevtik nomutanosibliklarga yetarlicha e'tibor qaratilmaydi, biroq preparatlarni aralashtirish chog'idagi fizik-kimyoviy jarayonlar (cho'kma hosil bo'lishi, rang transformatsiyasi yoki pretsipitatsiya) dori moddalarining terapevtik faolligini yo'qotishiga yoki tomir ichi emboliyasi kabi og'ir asoratlarga sabab bo'lishi mumkin.

Farmakologik darajadagi o'zaro ta'sirlar quyidagi klassifikatsiya asosida o'rganildi:

1. **Farmakokinetik ta'sirlar:** Preparatning absorbsiyasi (muhit pH ko'rsatkichi o'zgarishi), plazma oqsillari bilan bog'lanish uchun raqobat, jigar fermentlari (sitoxrom P450 tizimi) orqali metabolizm hamda eliminatsiya bosqichlaridagi o'zgarishlar.
2. **Farmakodinamik ta'sirlar:** Retseptorlar darajasidagi bevosita ta'sir natijasida yuzaga keluvchi sinergizm yoki antagonizm hodisalari.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, dori vositalarining miqdori oshishi bilan iatrogen reaksiyalar xavfi geometrik progressiya asosida ortadi: agar 5 ta dori qo'llanilganda xavf 5% ni tashkil etsa, 20 ta dori qabul qilinganda bu ko'rsatkich mutlaq qiymatga (100%) yaqinlashadi. Keksa yoshdagi va ko'p sonli yo'ldosh kasalliklari (komorbid holatlar) mavjud bemorlar eng yuqori xavf guruhi sifatida qayd etildi.

Xulosalar. Farmakoterapiyaning klinik samaradorligi va xavfsizligini kafolatlash uchun dori vositalarini aralashtirish protokollariga qat'iy rioya qilish va tegishli erituvchilarni to'g'ri tanlash strategik ahamiyatga ega. Davolash kursini belgilashda nafaqat kutilayotgan klinik natija, balki dori komponentlarining biokimyoviy muvofiqligi ham ustuvor mezon bo'lishi lozim. Klinik qarorlarni qo'llab-quvvatlovchi intellektual tizimlarni joriy etish hamda dori vositalari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni doimiy nazorat qilish iatrogen asoratlarni kamaytirishning asosiy omilidir.

ANALGETIK DORILARNING FARMAKOLOGIK XUSUSIYATLARI VA OG‘RIQ SINDROMINI DAVOLASHDAGI AHAMIYATI

Yo’ldosheva Marjona Alisherovna
Samarqand davlat tibbiyot universiteti davolash fakulteti 217-guruh talabasi
Samarqand, O'zbekiston
Ilmiy rahbar: assistent Sh.M. Muxsinova

Ishning maqsadi: Ushbu tadqiqotning maqsadi analgetik dorilarning farmakologik xususiyatlarini o‘rganish, ularning og‘riq sindromini davolashdagi o‘rnini baholash hamda turli klinik holatlarda qo‘llanilish samaradorligini aniqlashdan iborat. Shuningdek, analgetiklarning nojo‘ya ta’sirlarini kamaytirish va davolash samaradorligini oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ko‘zda tutilgan.

Materiallar va tadqiqot usullari: Tadqiqot obyekti sifatida statsionar sharoitda davolanayotgan turli profildagi (terapevtik, nevrologik va jarrohlik) 80 nafar bemorlarning davolash jarayoni o‘rganildi. Bemorlarning yoshi 25 dan 75 yoshgacha bo‘lib, ularda turli darajadagi og‘riq sindromlari kuzatilgan.

Tadqiqot davomida bemorlarga qo‘llanilgan analgetik dorilar (nosteroid yallig‘lanishga qarshi vositalar, opioid va no-opioid analgetiklar) tahlil qilindi. Retrospektiv tahlil, klinik kuzatuv va laborator natijalar asosida dorilarning samaradorligi va xavfsizligi baholandi.

Tadqiqot natijalari : O‘tkazilgan tahlillar natijasida bemorlarning 60 foizida analgetik dorilar samarali og‘riq qoldiruvchi ta’sir ko‘rsatgani aniqlandi. Shu bilan birga, 30 foiz holatda nosteroid yallig‘lanishga qarshi vositalar qo‘llanganda oshqozon-ichak tizimi bilan bog‘liq nojo‘ya ta’sirlar kuzatildi.

Opioid analgetiklar kuchli og‘riqlarda yuqori samaradorlik ko‘rsatgan bo‘lsa-da, ayrim bemorlarda uyquchanlik va qaramlikka moyillik holatlari qayd etildi. Dorilarni to‘g‘ri tanlash va dozani individual belgilash orqali nojo‘ya ta’sirlar sezilarli darajada kamaytirildi.

Xulosa: Analgetik dorilar og‘riq sindromini davolashda muhim o‘rin tutadi va ularni to‘g‘ri qo‘llash davolash samaradorligini oshiradi. Dori vositalarining farmakologik xususiyatlarini inobatga olish, bemorning individual holatini hisobga olish va nojo‘ya ta’sirlarni nazorat qilish klinik amaliyotda muhim ahamiyatga ega.

Har bir bemor uchun analgetik dorilarni to‘g‘ri tanlash va ratsional qo‘llash og‘riqni samarali bartaraf etishning asosiy omili hisoblanadi.

MARKAZIY NERV TIZIMI KASALLIKLARIDA ANTIDEPRESANTLAR VA TRANKVILIZATORLARNING QIYOSIY FARMAKALOGIK TAHLILI.

Yuldoshev Sardor Alisher ug’li
Samarqand davlat tibbiyot universiteti.
Samarqand.O’zbekiston
